

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

MAMAJONOV MAHMUDJON

**NASOSLAR VA NASOS
STANSIYALARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2012

UDK: 331.101 (075)

KBK 65.247я722+65.304.13я722

M75

M75 Mamajonov M. Nasoslar va nasos stansiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 352 6er.

ISBN 978–9943–10–832–5

Darslikda nasoslarning tavsiflanishi va nasos qurilmalarining asosiy ish ko'rsatkichlari, zamonaviy suv uzatish mashinalarining turlari va tuzilishiga katta e'tibor berilgan va nasoslarning ish jarayoni nazariyasi asoslari keltirilgan. Nasoslarning xarakteristikalaridan ish ko'rsatkichlarini aniqlash, rostlash usullari, ularni birgalikda parallel va ketma-ket ishlatalish va sinov o'tkazish hamda nasos agregatlaridan foydalanishdagi muammolarni yechish masalalari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Nasos stansiyalarning gidrotexnik inshootlari tarkibi va ularni mujas-samlash, asosiy va yordamchi gidromexanik, energetik, mexanik uskuna va jihoz-larni tanlash, nasos stansiya binolari, suv olish va qabul qilish hamda suv chiqarish inshootlari turlari, tuzilishi va o'lchamlarini aniqlash, so'rish va bosimli quvurlari soni, materiali va diametrini tanlash hamda ularni loyihalash, qurish va foydalanish bo'yicha asosiy tamoyillar yoritilgan.

Darslik amaldagi o'quv dasturi asosida yozilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarining suv xo'jaligi va melioratsiya sohasi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda tegishli magistratura mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan. Undan suv xo'jaligi va melioratsiya sohasi muhandis-texniklari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'qituvchilar va talabalari, aspirantlar hamda ilmiy-texnik xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Maxmudov E.J—O'zbekiston Fanlar akademiyasining «Suv muammolari» instituti direktori, texnika fanlari doktori, professor;

Xojimatov A.A—Andijon qishloq xo'jalik instituti «Melioratsiya va gidrotexnika inshootlari» kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining «Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish» kafedrasi

O'zROO'MTVning 17.09.2011-yildagi 392-sonli buyrug'iga asosan chop etishga tavsija etilgan

ISBN 978–9943–10–832–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.

SO'Z BOSHI

Respublikamiz qishloq xo'jaligida, sanoatida, qurilishlarida, energetika, aholi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarida hamda boshqa sohalarida ko'p sonli nasos qurilmalari ishlab turibdi. Jumladan, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 55 foizdan ortig'i 1604 nasos stansiyalari yordamida sug'oriladi. Nasos stansiyalariga o'rnatilgan asosiy va yordamchi gidromexanik, energetik uskunalar va jihozlar ishlash resursi tugaganligiga qaramay 35-40 yildan buyon ishlatib kelinayotganligi sababli ularning foydalanish xarajatlari yildan-yilga ortib bormoqda [13].

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni sifatini oshirish, ilg'or tajribalar va yangi sug'orish texnikalarni qo'llash, yer va suv resurslaridan oqilona va unumli foydalanish muhim strategik ahamiyaga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi [41]. Shuning uchun nasos qurilmalari va stansiyalarini loyihalash, qurish va samarali foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Yuqoridagi masalalarni yechish puxta nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan bakalavr va magistrlnarni zamon talabiga javob beradigan o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar va darsliklar bilan qurollantirishni taqozo etadi [36].

Ushbu darslik 5450200—«Suv xo'jaligi va melioratsiya», 5450400—«Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish», 5450300 – «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash», 5340700– «Gidrotexnika qurilishi», 5310100—«Energetika» (suv xo'jaligida), 5310200 – «Elektr energetikasi» (suv xo'jaligida), 5311000 – «Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv» (suv xo'jaligida), 5310600—«Erustki transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi» (avtomobil transporti), 5340400—«Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji», 5320300—«Texnologik mashinalar va jihozlar» bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, tegishli kasb ta'limi yo'nalishlari, hamda 5A450201—«Gidromelioratsiya», 5A450204—«Qishloq xo'jalik suv ta'minoti muxandislik tizimlari va inshootlari», 5A450402—«Nasos stansiyalarini va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi», 5A310102— «Gidravlik mashinalar», 5A340703—«Gidroelektr va

nasos stansiyalari qurilishi», 5A450302—«Melioratsiya qurilishi mashinalari va jihozlari», 5A340401—«Suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydaanish» va boshqa magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tasdiqlangan o'quv rejasiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan tavsiya etilgan «Nasoslar va nasos stansiyalari» fanidan o'quv dasturi asosida yozilgan. Undan suv xo'jaligi ta'lim sohasi magistrantlari va aspirantlari hamda «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash» va «Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ta'lim yo'nalish talabalari «Gidravlika va gidromashinalar» fanini o'rganish jarayonida keng foydalanishlari mumkin.

Darslik O'zbekiston Respublikasida va Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlarida nasos stansiyalarini keng qo'llanilishi va rivojlanishiga o'zlarini ilmiy-amaliy tavsiyalari bilan munosib hissalarini qo'shgan atoqli olimlar akademik Karenin Vladimir Yakovlevich, dotsentlar Xoroshev Oleg Vasilevich, Kolpakova Tatyana Aleksandrovna va Sudakov Vasiliy Petrovichlarning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi. Darslik o'zbek tilida yaratilayotgan dastlabki adabiyotlardan bo'lganligi sababli kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Shu boisdan muallif darslik bo'yicha fikr-mulohazalarini bildiruvchilarga hamda uni sahifalashda o'zlarining beminnat xizmatlari bilan yordam bergan Xodjayev Sanjar, To'xtasinov Shuhrat va Nurqo'ziyeva Tojixonlarga o'z minnat-dorchiligini izhor qiladi.

KIRISH

Suv uzatish mashinalarini yaratilishi uzoq o'tmishli tarixga ega. Odam yoki hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan chig'ir va noriya deb nomlangan suv uzatish mashinalari eramizdan ming yillar avval Misrda qo'llangan. Suyuqlik harakatini mexanik harakatga aylantirib, cho'michlari yordamida svnvi ko'taruvchi charxpalak O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy va Misrda qadim zamonlarda ekinlarni sug'orishda qo'llangan va hozirgi kungacha yetib kelgan [17]. Oddiy tuzilishdagi porshenli nasoslar eramizdan avvalgi 4-asrda, ya'ni Aristotel davrida qo'llangani tarixdan ma'lum. Bu nasoslar daraxt tanasidan parmalab tayyorlanib, inson yoki hayvon kuchi bilan harakatga keltirilgan. Markazdan qochma nasosning birinchi shaklini italiyalik Djiovanni Jordan ixtiro qilgan bo'lsa, 1703-yilda Devani Papin uning eng sodda konstruksiyasini tayyorlagan [44].

Rossiyada XVIII asrda tog' qazish ishlarida shaxtalardan suv chiqarish uchun K.D.Frolov porshenli nasos qurilmalaridan foydalangan. Rus olimi M.V.Lomonosov shaxtalardan suv chiqaruvchi nasoslar tuzilishi va charxpalak yordamida harakatga keltirish sxemalarni o'z asarlarida keltirgan. XVIII asrda po'lat va cho'yan ishlab chiqarishni, hamda mashinasozlikni rivojlanishi, I.I.Polzunovning bug' mashinasini kashf etishi va porshenli nasoslarni harakatga keltirishga tatbiq etilishi nasoslarni texnikaning ko'pgina sohalarida keng qo'llanishiga olib keldi.

XVIII asrda L.Eyler kurakli nasoslar nazariyasiga asos soldi va bu nazariyadan foydalanib, A.A.Sablukov markazdan qochma nasosning hozirgi tuzilishdagi namunasini yaratdi. XIX asrda elektr dvigatellarning ixtiro qilinishi bilan porshenli nasoslar o'mnini ularga nisbatan ancha ixcham, yengil va arzon markazdan qochma hamda o'qiy nasoslar egal-lay boshladi. 1898 yil injener V.A. Pushechnikov birinchi markazdan qochma vertikal quduq nasosini yaratdi.

Gidromashinasozlikni rivojlanishida, shu jumladan, nasoslarning nazariyasi va konstruksiyalari takomillashib borishida N.E.Jukovskiy, S.A. Chaplin, N.N.Voznesenskiy, I.I.Kukolevskiy, V.G.Shuxov, N.M.Shapov, G.F.Proskura, V.S.Kvyatkovskiy, N.S.Kovalev,

G.S.Shevchenko, A.I.Stepanov, A.A.Lomakin, S.S.Rudnev kabi atoqli olimlarning ilmiy asarlari muhim o'rinni egallaydi.

Nasos stansiyalarni loyihalash va ulardan foydalanishdagi muammolarning yechimlari bo'yicha N.N.Abramov, N.I.Malishevskiy, M.M.Florinskiy, V.V.Richagov, G.I.Krivchenko, V.Ya.Karelin, V.I.Turk, K.I.Lisov, V.I.Vissarionov, V.B.Dul'nev, V.F.Chebaevskiy kabi taniqli olimlar o'quv va ilmiy adabiyotlarning asoschilari hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda nasos stansiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha Sh.Rahimov, M.Muhammadiyev, O.Ya.Glovaskiy kabi olimlar keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarni olib bormoqdalar.

O'zbekistonda XX asrning boshlarida kichik neft dvigatellari bilan harakatga keltiradigan nasos qurilmalari mavjud bo'lgan. Asosiy suv ko'tarish qurilmalari sifatida hayvon yoki odam kuchidan harakatlanuvchi chig'ir va noriyalardan foydalanilgan. Rossiya qo'shilgan davrda Xorazmda 60 mingdan ortiq chig'irlar yordamida Amudaryodan suv olinganligi ma'lum. 1930-yillarda T.A.Kolpakova rahbarligida respublikamizda traktor dvigatellari bilan harakatlanuvchi oddiy nasos qurilmalarini loyihalash, qurish va tadqiqot qilish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi elektrlashtirilgan ko'chmas nasos stansiyalar 1959-yilda qurilgan Mirzacho'ldagi «Bayovut» va Farg'ona vodiysidagi «To'raq-qo'rg'on » nasos stansiyalari hisoblanadi. O'zbekistonning irrigatsiya tizimlarida 1960–90-yillarda 1604 nasos stansiyalari qurilgan bo'lib, ular 2 mln dan ortiqroq, ya'ni 60 foizga yaqin sug'oriladigan yerlarga yiliga 50 mlrd m³ miqdordagi suvni chiqarib beradi. Yer osti suvlari sathini pasaytirish va sug'orish maqsadlarida 11,5 ming dona vertikal quduq nasos qurilmalari ham barpo etilgan. Bulardan tashqari aholini ichimlik suv bilan ta'minlash, chiqindi suvlarni chiqarib tashlash va qishloq xo'jalik korxonalarining ekinlarni sug'orish ichki nasos qurilmalari mavjud.

Respublikamiz sug'orish tizimlaridagi ba'zi ulkan, katta va o'rtacha nasos stansiyalarning texnik ko'rsatkichlari 1.1 - jadvalda keltirilgan bo'lib, ularning eng yirik va noyoblariga quyidagilarni keltirish mumkin:

– Qarshi magistral kanalidagi 6 pog'onali nasos stansiyalar: suv haydashi $Q=195 \text{ m}^3/\text{s}$, umumiyyet bosimi $H=140 \text{ m}$, umumiyyet quvvati $N=450 \text{ mVt}$;

- Qarshi magistral kanalidagi 7 - nasos stansiya: suv haydashi $Q=155 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=16\dots33 \text{ m}$, quvvati $N=65 \text{ mVt}$;
- Jizzax bosh nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=190 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=24\dots37 \text{ m}$, quvvati $N=110 \text{ mVt}$;
- Sherobod nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=120 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=24\dots29 \text{ m}$, quvvati $N=45 \text{ mVt}$;
- Amu-Zang kanalidagi 2 pog'onalni nasos stansiyalar: suv haydashi $Q=32 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=81 \text{ m}$, quvvati $N=48 \text{ mVt}$;
- Amu-Buxoro kanalidagi pog'onalni nasos stansiyalarning 1 - navbat: Hamza-I nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=68 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=52 \text{ m}$, quvvati $N=45 \text{ mVt}$; Quyumozor nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=100 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=18\dots21 \text{ m}$, quvvati $N=30 \text{ mVt}$;
- Amu-Buxoro kanali 2 - navbat: «Hamza II» nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=105 \text{ m}^3/\text{s}$, bosimi $H=52 \text{ m}$, quvvati $N=125 \text{ mVt}$; Qiziltepa nasos stansiyasi: suv haydashi $Q=92 \text{ m}^3/\text{s}$ bosimi $H=72\dots45 \text{ m}$, quvvati $N=125 \text{ mVt}$.

Kelajakda respublikamizning yer va suv resurslari sug'oriladigan yerlar maydonini 4 mln dan 7...8 mln gacha orttirish imkoniyatini beradi. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi ya'ni yangi yerkarni o'zlashtirilishi va sug'orishning yangi tejamkor (yomg'irlatib, yer ostidan) texnologiyalarini qo'llanishi nasos stansiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi nasos stansiyalarning umumi energiya iste'moli yiliga 8 mlrd kVt soatga teng bo'lib, bu respublikada ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 20 foizini yoki qishloq xo'jaligi sohasida foydalaniladigan elektr energiyani 70 foizini tashkil etadi [7,15]. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, sug'orish tizimlaridagi nasos stansiyalarning foydali ish koeffitsienti (FIK) 1 foizga pasayishi yiliga 4,5...5 mlrd so'm ortiqcha xarajatlarni sarflanishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda sug'orish tizimidagi nasos stansiyalariga o'rnatilgan agregatlarning ishslash resursi me'yoriy darajadan o'tib ketganligi sababli ular FIK ning 8...20 foizgacha kamaygan ish ko'rsatkichlari bilan foydalanilmoqda [20].

O'zbekiston Respublikasida foydalanilayotgan ulkan va katta nasos stansiyalar

№	Viloyatlar	Nasos stansiyalar	Texnik ko'rsatkichlari		
			Q,m ³ /s	H,m	N,mVt
1	Buxoro	Olot	41	85	5,6
		Qorako'l	33	8,5	4,8
		Hamza -1	68	52,0	45,0
		Quyimozor	100	18-21	30,0
		Hamza II	105	52,0	125,0
		Qiziltepa	92	45-72	125,0
2	Qoraqalpog'ston Respublikasi	Konimex	12	26,0	6,0
		Yomonjar	13	5,0	1,4
		Kattag'or	54	4,0	4,5
		Bek-yab	50	5,0	1,6
3	Qashqadaryo	Nayman-Beshtom	30	5,0	1,6
		Qarshi kaskadi (I,II, III,IV,V, va VI ko'tarish stansiyalari)	195	140,0	450,0
		Qarshi kaskadi 7 – nasos stansiyasi	155	16-33	64,8
4	Surxondaryo	Sherobod	110	24-29	45,0
		Amu-Zang	32	81,0	48,0
5	Jizzax	Jizzax bosh	190	24-37	110,0
6	Andijon	Obi-hayot	27	20,0	7,2
		Do'stlik	9	83,0	9,6
		Ekin-Tekin	3	130,0	5,1
7	Farg'ona	Abdusamat	20	10,0	4,0
		Sharqiy Arsif	2	130,0	5,1
		KFK-Sox	2	160,0	5,0
		Isfayram-Shohimardon	3	170,0	7,5
8	Namangan	Pungan	3	165,0	6,3
		Chust	5	197,0	15,0
		Uychi	10	78,0	12,8
9	Sirdaryo	Boyovut	12	26,0	4,8
		Sirdaryo-3	25	10,0	4,0
		Sirdaryo -6	25	10,0	40,0
		Sardoba	13	5,0	1,4

10	Samarqand	Narpay	12	50,0	96,0
11	Hamdo'stlik mamlakatlarida	Bosh-Koxovka	25-40	21-25	12,5
		Irtish -Qarag'anda	13-20	19-21	5,0
		Saratov	14-18	21-22	5,0

Bu esa o'z navbatida nasos stansiyalardan foydalanish xarakterini oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Demak, nasos stansiyalari va qurilmalarini texnikaviy jihatdan puxta loyihalash, nasos-kuch uskunalarini to'g'ri tanlash va yig'ish, ishonchli va samarali ishlatish, sifatli ta'mirlash va mohirona foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Yuqoridagi talablarga javob berish va qishloq xo'jalik ekinlaridan kafolatli hosil olish uchun suv xo'jaligi sohasi mutaxassislarini «Nasoslar va nasos stansiyalari» fanidan chuqur malakaviy bilimga ega bo'lishlari talab etiladi [31].

1-BO'LIM. NASOSLAR


1-BOB. NASOSLAR VA NASOS QURILMALARI HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Nasoslar va nasos stansiyalarining tasniflanishi va qo'llanish sohalari

Nasos deb, tashqaridan olingen mexanik yoki boshqa turdag'i enerjiyani suyuqlik oqimining energiyasiga aylantirib beruvchi gidravlik mashinaga aytildi.

Nasos, dvigatel, mexanik energiya uzatmasi, so'rish va bosimli quvurlaridan iborat suyuqlik uzatishga mo'ljallangan tuzilmaga nasos qurilmasi deyiladi.

Suvni manbadan olish va iste'molchiga mashinalar yordamida uzatib berishni ta'minlovchi murakkab gidromexanik va energetik asbob-uskunalar va gidrotexnik inshootlar majmuasiga nasos stansiyasi deyiladi (1.1-rasm) [18].




1.1-rasm. Nasos stansiyaning umumiy tasviri:

- 1- suv manbasi; 2- bosh suv olish inshooti; 3-suv keltirish kanali;
- 4-avankamera; 5-nasos stansiya binosi; 6-bosimli quvurlar; 7-suv chiqarish inshooti; 8- mashina kanali.

Nasos stansiya binosiga bir nechta murakkab gidromexanik va energetik mashinalar va uskunalar, yordamchi jihozlar, so'rish va

bosimli quvurlar kommunikatsiyalari, yuk ko'tarish qurilmasi, boshqarish va nazorat-o'chov asboblari, aloqa va avtomatika vositalari joylashtiriladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Jizzax bosh nasos stansiyasi binosining ko'ndalang kesimi
(nasoslar belgisi: 2400B-25/40, 1600B-10/40, maksimal suv haydashi
190 m³/s, bosimi 24...37 m, agregatlar soni 10 dona)

Ba'zi hollarda ko'chma yoki suzuvchi nasos qurilmalarini ham nasos stansiyasi deb yuritiladi.

Suv xo'jalik tizimlaridagi nasos stansiyalari ahamiyatiga qarab, sug'orish, quritish, suv ta'minoti, kanalizatsiya, vertikal quduq va gidromexanizatsiya nasos qurilmalari va stansiyalari turlariga bo'lish

mumkin. Nasos stansiyalarning asosiy uskunalari ularga o'rnatiladigan nasos agregatlari (nasos, dvigatel, ular o'rtasidagi uzatma) hisoblanadi.

Nasoslarni ishlash tarzi, suyuqlikka energiya berish usuli, tuzilishi, ishchi elementining harakatlanish usuli, hosil qiladigan bosimi, uza-tiladigan suyuqlik turi, valining joylashish holati va boshqa xususiyatlari bo'yicha tasniflash usullari mavjud. Suyuqlikka energiya berish xususiyati bo'yicha nasoslarni to'rt guruhga bo'lish mumkin [17]:

1)suv ko'targichlar-ya'ni suyuqlikning holat energiyasini (Z) o'zgartiruvchi qurilamlar: charxpalak, chig'ir, suv ko'tarish g'ildiragi, Arximed vinti, havoli suv ko'targichlar, kapillar nasoslar va hokazo.

2) oqimchali nasoslar – suyuqliqni kinetik energiyasini ($V^2/2g$) o'zgartiruvchi nasoslar: gidroelevator, ejektor, injektor va hokazo;

3) hajmiy nasoslar– suyuqlikning potensial energiyasi (P/γ) o'zgarturvchi mashinalar: porshenli (plunjjerli), rotorli, vintli, qanonli, diafragmali nasoslar, suv halqali vakuum-nasoslar, gidravlik taran va hokazo;


4)kurakli nasoslar–suyuqlikning potensial (P/γ) va kinetik ($V^2/2g$) energiyalarini o'zgartiruvchi mashinalar: markazdan qochma, diagonal, o'qiy va uyurmali nasoslar.

Nasoslar ishlash tarzi bo'yicha ikkita, ya'ni dinamik va hajmiy nasoslar guruhiiga bo'linadi [17,27] (1.3-rasm).

Ish bo'linmasida (g'ildirakda) suyuqlik dinamik kuch ta'sirida harakatlanuvchi, so'rg'ich va uzatkich qismlari bilan doimiy bog'langan holda suyuqlikni uzatuvchi nasoslar dinamik nasoslar deyiladi.

Ish bo'linmasi hajmini o'zgarishi hamda so'rg'ich va uzatkich qismlari bilan bog'lanishi davriy ravishda sodir bo'lishi hisobiga suyuqliqni uzatuvchi nasoslar hajmiy nasoslar deyiladi.

Yuqorida keltirilgan nasoslar xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Masalan, markazdan qochma nasoslar qishloq va suv xo'jaligining sug'orish va quritish tizimlarida, aholi suv ta'minoti va oqava suv tizimlarida, issiqlik energetika qurilmalarining bug' qozon-lariga va issiqlik tormog'iga suv uzatishda, quruq yoqilg'i bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalarida (IES) kul-suv aralashmasini chiqarib tashlashda, kimyo sanoatida turli kimyoviy reagent, eritma va yog'-larni uzatishda, qurilishda va ko'mir sanoatida gidromexanizatsiya ishlarida, oziq-ovqat va yengil sanoatda suv va turli qorishmalarni uzatish-




1.3-rasm. Nasoslarning tasniflaniishi

da, neft mahsulotlarini uzoq masofaga haydar berishda, sanoat korxonalarini va turli uskunalarini texnik, xo'jalik va yong'inga qarshi tizimlarida keng qo'llanilmoqda.Oxirgi yillarda katta yer maydonlarini o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish va katta

sanoat shaharlarini suv bilan ta'minlash hamda IES laringing bug' turbinalarini quvvatini ortishi munosabati bilan ularni kondensatorlariga aylanma suvni uzatish tezkorligi yuqori o'qiy va diagonal nasoslar bilan amalga oshirilmoqda.

Oqimchali nasoslar bug' turbinalari kondensatorlaridan havo chiqarishda, quduqlardan suv chiqarish, IES larida suv-kul aralashmasini chiqarib tashlashda, gidromexanizatsiya usulida tuproq ishlarini bajarishda loyqa haydash uchun, torf qatlamlarini suv bilan yuvib chiqarishda hamda kimyo va nest sanoatda turli maqsadlarda foydalaniladi.

Quduqlardan neft chiqarishda va uni magistral quvurlar bilan uzoq masofaga haydashda, qurilishda sement va ohak qorishmalarini uzatishda hamda suyuqlik sarfi oz va yuqori bosim talab qiladigan turli sanoat qurilmalariga moy uzatishda porshenli yoki boshqa turdag'i hajmiy nasoslar qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Rotorli hajmiy nasoslar asosan turbinalar va turli mashina va mexanizmlarning moylash va boshqarish tizimlarida qo'llaniladi.



1.4-rasm Nasoslarning qo'llanish chegaralari:
I-porshenli;
II-markazdan qochma;
III- o'qiy; IV- uyurmali;
oqimchali; tebranma va
boshqalar

Qurilish ishlarini bajarishda sement va ohak qorishmalarini uzatish uchun shlangli va diafragmali nasoslar qo'llash yaxshi samara beradi.

Qishloq va suv xo'jaligi sohasida asosan kurakli (markazdan qochma va o'qiy) nasoslar keng tarqalgan. Yaylovlar suv ta'minoti uchun quduqlardan suv chiqaruvchi tasmali va chilvirli kapillar nasoslar va erliftlardan foydalaniladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, kurakli nasoslar ixcham, yengil, arzon, yeyiladigan va uriladigan detallari kamroq, dvigatel bilan ulash oson, tez ishga solish va rostlash imkoniyatiga ega ekanligi, suyuqlikni bir tekis uzatishi, foydalanish sodda va kam

xarajatli, FIK yuqori, ifloslangan suyuqliklarni chiqarish imkoniyati, ishonchli va uzoq muddat ishlashi kabi afzalliklarga ega bo'lganligi uchun xalq xo'jaligida ko'p qo'llaniladi. Hozirgi davrda bosimi 3500 m gacha va suyuqlik uzatishi 40 m³/s va undan ortiq chegaralarda ishlovchi kurakli nasoslar ishlab chiqarilgan.

O'zbekistonning «SUVMASh» zavodida D turdag'i 5 xil, A 40 GS va A50GO turdag'i 2 xil, K turdag'i 12 xil markazdan qochma gorizontal valli hamda ЭЦВ turdag'i 4 xil markazdan qochma quduq nasoslari ishlab chiqarilmoqda. Turli nasoslarning suyuqlik uzatishi va bosimi bo'yicha tavsiya etiladigan qo'llanish chegaralari 1.4-rasmda keltirilgan.

1.2. Nasos qurilmasining asosiy ish ko'rsatkichlari


1.2.1. Nasos va nasos qurilmasining suyuqlik uzatish bosimi

Nasos qurilmasining (1.5-rasm) ish tartibi suyuqlik uzatishi Q, bosimi H, quvvati N va foydali ish koeffitsiyenti (FIK) η kabi ish ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Suyuqlik uzatishi (Q) deb, vaqt birligi ichida nasosning chiqargan suyuqlik miqdoriga aytildi. O'Ichov birligi m³/s, l/s, m³/soat. Nasosning suyuqlik uzatishi Q bosimli quvurga o'rnatilgan turli jihozlar (Venturi quvuri, konussimon naycha, diafragma, hajmiy parrakli hisoblagich, Pito naychasi, induksion va ultratovush suv sarfi o'Ichagichlari) yoki ochiq havzalardagi suv shovva devori yordamida aniqlanadi [42].

Masalan, qisilgan kesim yuzali jihozlar (Venturi quvuri, konussimon naycha, diafragma) bilan Q ni aniqlashda quyidagi umumiy formuladan foydalaniladi (m³/s):

$$Q = \mu F \sqrt{2g\Delta h} \quad (1.1)$$

qaysiki, Δh - o'Ichov jihozining kirish va qisilgan kesimlaridagi bosimlar farqi, m; F -qisilgan kesimi yuzasi, m²; μ - suv sarfi koeffitsiyenti, tajribalar yordamida aniqlanadi yoki standart o'Ichov jihizi uchun ma'lumotnomma - adabiyotlarda beriladi [42].



1.5-rasm. Nasos qurilmasining shakli.

1-nasos; 2-elektr dvigatel; 3-difmanometr; 4-Venturi quvuri; 5-qulfak.

Statik bosim yoki to'la geometrik (geodezik) uzatish balandligi H_g yuqori ∇_{YSS} va pastki ∇_{PSS} havzalardagi suv sathlari belgilari ayirmasiidan kelib chiqadi (1.5-rasm):

$$H_g = \nabla_{YSS} - \nabla_{PSS}, \quad (1.2)$$

yoki

$$H_g = h_s + h_x \quad (1.3)$$


bu yerda h_s va h_x – geometrik so'rish va haydash balandliklari, m.

Pastki suv sathidan nasosning o'qigacha balandlik h_s , geometrik (geodezik) so'rish balandligi deyiladi (1.6-rasm). Nasos o'qi pastki suv sathidan pastroqqa joylashtirilgan hollarda, geometrik so'rish balandligi manfiy qiymatga ega bo'ladi (1.6,b-rasm). Nasos o'qidan yuqori suv sathigacha balandlik h_x geometrik (geodezik) haydash balandligi deyiladi.

Agar suyuqlik atmosfera bosimidan ortiq P manometrik bosimli idishga chiqarilsa, u holda statik bosim teng

$$H_s = \nabla Y_{uSS} - \nabla PSS + \frac{P}{\gamma} \quad (1.4)$$

bu yerda, γ – suyuqlikning solishtirma og‘irligi ($\gamma=\rho g=9806 \text{ N/m}^3$); P – idishdagى manometrik bosim, Pa;



1.6-rasm. Nasoslarning geodezik so‘rish balandligini aniqlash tasvirlari:
a-gorizontal valli markazdan qochma nasos; b-vertikal valli o‘qiy nasos;
d - vertikal valli porshenli nasos.

Nasosning bosimi (H) deb, undan o‘tayotgan har bir kg suyuqlikka berilgan solishtirma energiya miqdoriga aytildi. O‘lchov birligi: m suv ustuni, kgs/sm^2 , MPa. Nasosning bosimi ikki xil usulda aniqlanadi:
a) amaliy usul, ya’ni ishlab turgan qurilmalarda bosim o‘lchov asboblari (manometr, vakuummetr) yordamida aniqlash; b) hisobiy usul, ya’ni loyihalashda to‘la geodezik uzatish balandligi va quvurlardagi qarshiliklar yig‘indisi sifatida aniqlash [2,16,37,39].

a) Amaliy usul bilan nasosning bosimini aniqlash.

Tenglashtirish tekisligi 0-0 nisbatan nasosning so‘rg‘ich qismi 2-2 kesimidagi to‘la solishtirma energiya (1.5- rasm):

$$E_s = \frac{P_s}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} + h_s \quad (1.5)$$

Tenglashtirilgan tekisligi 0-0 nisbatan nasosning uzatgich qismi 3-3 qismidagi to‘la solishtirma energiya.(1.5 - rasm):

$$E_s = \frac{P_s}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} + h_s + Z \quad (1.6)$$

bu yerda, P_s va V_s -mos ravishda so‘rg‘ichdagi absolyut bosim va suyuqlik tezligi (Pa va m/s); P_x va V_x – mos ravishda uzatgichdagi absolyut bosim va suyuqlik tezligi (Pa va m/s); h_s -so‘rish balandligi, m ; Z – vakuummetr va manometr oralig‘idagi balandlik.

Nasosning bosimi uzatgich va so‘rg‘ich qismlaridagi solishtirma energiyalar farqiga teng:

$$\begin{aligned} H &= E_x - E_s = h_s + Z + \frac{P_x}{\gamma} + \frac{V_x^2}{2g} - h_s - \frac{P_s}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} \\ H &= \frac{P_x - P_s}{\gamma} + Z + \frac{V_x^2 - V_s^2}{2g} \end{aligned} \quad (1.7)$$

Ushbu (1.7) tenglamaning o‘ng tomoniga P_a/γ qiymatni qo‘sib va ayirib, so‘ng $P_x - P_a = P_{man}$ – atmosfera bosimidan ortiqcha manometrik bosim va $P_a - P_s = P_{vak}$ – atmosfera bosimidan kam vakuummetrik bosim ekanligini e’tiborga olib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} H &= \frac{P_{vak} + P_{man}}{\gamma} + Z + \frac{V_x^2 - V_s^2}{2g} \\ H &= h_{vak} + h_{man} + Z + \frac{V_x^2 - V_s^2}{2g} \end{aligned} \quad (1.8)$$

bu yerda, $h_{vak} = \frac{P_{vak}}{\gamma}$ va $h_{man} = \frac{P_{man}}{\gamma}$ – vakuummetr va manometrning m suv ustunidagi ko‘rsatkichlari.

Nasos qurilmasi sifon ko‘rinishida bo‘lsa so‘rg‘ich va uzatkich qismlariga vakuummetrlar o‘rnataladi va bosim quyidagicha aniqlanadi (1.7, b-rasm):


$$H = h_{vak,1} - h_{vak,2} + Z + \frac{V_x^2 - V_s^2}{2g} \quad (1.9)$$

Agar nasosning geodezik so‘rish balandligi h_s qiymati manfiy bo‘lsa (1.7,d-rasm), u holda so‘rg‘ich va uzatkich qismlariga manometrlar o‘rnatalib, uning bosimi quyidagi formula bilan topiladi:

$$H = -h_{man,1} + h_{man,2} + Z + \frac{V_t^2 - V_s^2}{2g} \quad (1.10)$$

Amaliyotda nasoslarni yuqorida keltirilgan uch xil shaklda o'rnatiladi (1.7-rasm).

b) Hisobiy usulda nasosning bosimini aniqlash. Buning uchun tenglashtirish tekisligi 0-0 ga nisbatan so'rish qismidagi 1-1 va 2-2, hamda bosimli qismidagi 3-3 va 4-4 kesimlar uchun ikkita Bernulli tenglamasi tuzamiz:



1.7-rasm. Nasos qurilmasining o'rnatilish shakllari

$$\frac{P_a}{\gamma} + \frac{V_{p,s}^2}{2g} = h_s + \frac{P_s}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} + \Sigma h_{ws} \quad (1.11)$$

$$h_s + Z + \frac{P_x}{\gamma} + \frac{V_x^2}{2g} = H_r + \frac{P_a}{\gamma} + \frac{V_{yu,s}^2}{2g} + \Sigma h_{wx} \quad (1.12)$$

bu yerda, Σh_{ws} va Σh_{wx} – so‘rish va bosimli quvurlaridagi bosim isroflari, m; $V_{p,s}$ va $V_{yu,s}$ – pastki va yuqori havzalardagi suvning tezliklari, m/s.

Yuqoridagi (1.11) va (1.12) tenglamalardan yuqori va pastki suv sathidagi tezliklar $V_{p,s}=V_{yu,s}=0$ qabul qilib, $\frac{P_s}{\gamma}$ va $\frac{P_x}{\gamma}$ qiymatlarini topamiz:

$$\frac{P_s}{\gamma} = \frac{P_a}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} - h_s - \Sigma h_{wx} \quad (1.13)$$

$$\frac{P_x}{\gamma} = h_x + \frac{P_a}{\gamma} - \frac{V_x^2}{2g} + \Sigma h_{wx} \quad (1.14)$$

Ushbu (1.13) va (1.14) formulalardan $\frac{P_a - P_s}{\gamma} = h_{vak}$ va $\frac{P_x - P_a}{\gamma} = h_{man}$ deb belgilasak, vakuummetr va manometrni ko‘rsatishlarini hisoblab aniqlash mumkin:

$$h_{vak} = h_s + \Sigma h_{ws} + \frac{V_s^2}{2g} + y \quad (1.15)$$

$$h_{man} = h_x + \Sigma h_{wx} - \frac{V_x^2}{2g} - Z \quad (1.16)$$

bu yerda, y va Z- vakuummetr va manometrlarni nasos o‘qiga nisbatan balandliklari, m.

Yuqorida (1.13) va (1.14) formulalarda topilgan P_s/γ va P_x/γ qiymatlarini (1.7) tenglamaga qo‘yib quyidagilarni hosil qilamiz:

$$H = H_2 + \frac{P_a}{\gamma} + \Sigma h_{ws} - \frac{V_x^2}{2g} - \frac{P_a}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} + \Sigma h_{ws} + H_1 + Z + \frac{V_x^2 - V_s^2}{2g};$$

$$H = H_1 + H_2 + Z + \Sigma h_{w_x} + \Sigma h_{ws}$$

$$H = H_g + \Sigma h_w \quad (1.17)$$

bu yerda, Σh_w -so‘rish va bosimli quvurlardagi bosim isroflari yig‘indisi, m.

Demak, ochiq havzalarga ishlaganda nasosning bosimi suyuqlikni to‘la geodezik balandlikka ko‘tarishga va quvurlardagi gidravlik qarshiliklarni engishga sarflanadi. Yuqoridagi ikki usulda (1.8) va (1.17) formulalar bilan topiladigan nasosning bosimi qiymatlari teng bo‘ladi.

Gidravlika kursidan ma’lumki, quvurlardagi mahalliy va uzunlik bo‘yicha bosim isroflari yig‘indisi quyidagicha topiladi [38]:

$$\Sigma h_w = \Sigma \left(\lambda_i \cdot \frac{\ell_i}{d_i} + \xi_i \right) \frac{V_i^2}{2g} \quad (1.18)$$

bu yerda

$$V_i = \frac{4Q}{\pi d_i^2}$$

V_i – quvurlarning turli kesimlaridagi oqimining o‘rtacha tezligi, m/s ; ℓ_i va d_i – quvurning turli uchastkalardagi uzunliklari va diametrlari, m ; λ_i va ξ_i – quvurlarning ishqalanish va qarshilik koeffitsiyentlari.

Yuqoridagi (1.17) formuladagi bosim isroflari qiymatini Q orqali quyidagicha ifodlanadi:

$$\Sigma h_w = R_T Q^2 \quad (1.20)$$

bu yerda,

$$R_T = \Sigma \left(\lambda_i \frac{\ell_i}{d_i} + \xi_i \right) \frac{8}{g \pi^2 d^4}; \quad (1.21)$$

R_T – quvular tarmog‘ining o‘zgarmas qiymati bo‘lib, uning qiymati quvurlarning uzunligi, diametri, g‘adir-budirligi va o‘rnataladigan armaturlarning (surilma qulfak, teskari qopqoq va boshqa to‘sqinlar) qarshiliklariga bog‘liq bo‘ladi.

Bayon etilganlar asosida (1.17) va (1.20) tenglamalardagi Q ga qiymatlar berib, tarmoqning yoki quvurning xarakteristikasi, ya’ni gidrodinamik egri chizig‘i quyidagi formula bilan quriladi:

$$H_{\nu} = H_g + R_t Q^2$$

(1.22)

Amaliyotda nasosning bosim xarakteristikasi va (1.22) formula bilan qurilgan quvurning xarakteristikasi kesishgan ishchi nuqta orqali nasos qurilmasining haqiqiy ish ko'rsatkichlari aniqlanadi.

1.2.2. Nasos va nasos qurilmasining quvvati va FIK

Agar nasos vaqt birligi ichida m massali suyuqlikni pastki suv sathidan yuqoriga uzatib berayotgan bo'lsa, uning bajaradigan ishi mgH (j) ga teng.

Bu yerda $m=pQ$ bo'lsa, nasosning foydali quvvati (kVt):

$$N_f = \frac{\rho g Q H}{1000}, \quad (1.23)$$

$$\text{yoki} \quad N_f = 9,81 Q H, \quad (1.24)$$

chunki toza suv uchun $\rho=1000 \text{ kg/m}^3$, $g=9,81 \text{ m/s}^2$.

$$\text{Nasosning validagi quvvat:} \quad N = \frac{N_f}{\eta} = \frac{\rho g Q H}{1000 \cdot \eta}; \quad (1.25)$$

Nasosning konstruktiv qismlaridagi barcha turdagি energiya yo'qolishini ifodalovchi uning FIK quyidagicha topiladi:

$$\eta = \frac{N_f}{N} < 1 \quad (1.26)$$

Nasos qurilmasining FIK

$$\eta_{n,q} = a \cdot \eta \cdot \eta_d \cdot \eta_u < 1 \quad (1.27)$$

$a = \eta_{el,t}$ – elektr tarmog'idagi energiyani yo'qolishining ifodalovchi FIK $\eta_{el,t}=0,98\dots0,99$ qabul qilinadi; η_d – dvigatelning FIK; η_u – uzatmaning FIK.

Nasos qurilmasining quvvati:

$$N_{n,q} = \frac{\rho g Q H}{1000 \cdot \eta_{n,q}} \quad (1.28)$$

η_{nq} – nasos qurilmasining FIK

1.1-masala. Toza suv chiqarayotgan nasosning uzatishi $Q=200\text{l/s}$, bosimi $H=45 \text{ m}$, FIK $\eta=75\%$ bo'lsa, u qancha quvvat talab etishini aniqlang.

Yechish: yuqoridagi (1.25) ifodadan

$$N = \frac{9,81 \cdot 0,2 \cdot 45}{0,75} = 118 \text{ kVt}$$

1.2-masala. Zichligi $\rho=1200 \text{ kg/m}^3$ loyqa suyuqlikni chiqarayotgan nasosning uzatishi $Q=110 \text{ l/s}$, bosimi $H = 120 \text{ m}$ va FIK $\eta=70\%$ bo'lsa, uning quvvatini aniqlang.

Yechish:

$$N = \frac{\rho g Q H}{1000 \cdot \eta} = \frac{1200 \cdot 9,81 \cdot 0,11 \cdot 120}{1000 \cdot 0,7} = 222 \text{ kVt}$$

Nazorat savollari

1. Nasos stansiyalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Qanday inshoot nasos stansiyasi deb ataladi?
3. Suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida qo'llaniladigan nasos stansiyalarining gidrotexnik inshootlari tarkibini aytib bering.
4. Qanday mashina nasos deb ataladi?
5. Nasosning bosimi deb nimaga aytildi?
6. Energiya turini o'zgartira olish xususiyati bo'yicha nasoslarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
7. Nasos qurilmalari necha xil ko'rinishida o'rnatiladi?
8. Nasosning suyuqlik uzatishi deb nimaga aytildi?
9. Nasos qurilmasining to'la bosimini ikki xil usulda aniqlash formulalarini tushuntirib bering.
10. Nasos qurilmasida vakuummetr va manometr qaysi joylarga o'rnatiladi?
11. Nasos va nasos qurilmasining quvvati va FIK ni aniqlash formulalarini tushuntirib bering.
12. Suv xo'jaligi va melioratsiya tizimlarida keng qo'llaniladigan nasoslarning turlarini aytib bering.
13. Nasos qurilmasida suyuqlik uzatishi qanday jihozlar bilan aniqlanadi?

14. Statik bosim yoki geodezik uzatish balandligi qanday aniqlanadi?
15. Vakuummetr va manometr ko'rsatishlarini hisoblash formulalarini tushuntiring.
16. Quvurlardagi mahalliy va uzunlik bo'yicha bosim isroflari qanday aniqlanadi?
17. Quvurning gidrodinamik egri chizig'i qaysi formula bilan quriladi?

2-bob. KURAKLI NASOSLARNING TURLARI, TUZILISHI VA ISHLASH TARZI

2.1. Kurakli nasoslarning tasniflanishi va belgilanishi

Kurakli nasoslarda dvigateldan olingen mexanik energiya suyuqlikni kuraklaridan oqib o'tish jarayonida uning gidravlik energiyasiga aylanadi, ya'ni suyuqliknинг statik va dinamik bosimi ortadi.

Kurakli nasoslardan quyidagicha tasniflanadi:

- ishchi g'ildiragi shakli bo'yicha: markazdan qochma, o'qiy va diagonal;
- ishchi g'ildiraklar soni bo'yicha: bir g'ildirakli, ko'p g'ildirakli (ko'p pog'onali);
- suyuqlikni ishchi g'ildirakka kirish xususiyati bo'yicha (markazdan qochma nasoslarda): bir tomonlama, ikki tomonlama;
- valini o'rnatilish holati bo'yicha: gorizontal, vertikal va qiya valli;
- bosim hosil qilishi bo'yicha: past bosimli ($H < 20$ m), o'rta bosimli ($H = 20 \dots 60$ m), yuqori bosimli ($H > 60$ m);
- tezkorligi bo'yicha: markazdan qochma: sekinyurar ($n_s = 40 \dots 80$), o'rtacha tezkorlikdagi ($n_s = 80 \dots 150$), tezkor ($n_s = 150 \dots 350$); diagonal ($n_s = 350 \dots 600$), o'qiy ($n_s = 600 \dots 1200$);
- ahamiyati bo'yicha: umumiy vazifani bajaruvchi; maxsus vazifani bajaruvchi, ya'ni kimyoiy aktiv suyuqliklar uchun, ifloslangan kanalizatsiya suvlari uchun, loyqa, qum yoki kul aralashmasi uchun, issiq suvlari uchun va hokazo.

Bir xil tuzilishdagi va turli foydalanish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan barcha nasoslardan har biri o'z belgisi bilan farqlanadi. Kurakli nasoslarning umumiy belgilanish tartibi quyidagicha:

$$T Q_c - H \text{ yoki } T - Q_c / H \quad (2.1)$$

Ayrim turdagji nasoslarning belgilariga qisman o'zgartirishlar kiritilgan, ya'ni:

- K turdagji markazdan qochma nasoslardan: $a K - Q_c / H$;

- B turdag'i vertikal valli markazdan qochma nasoslar:
- $D_n B - Q / H$;
- ЭВЦ турдаги markazdan qochma artezian nasoslari:
- $\mathcal{E}ЦВ \alpha - Q_c / H$;
- О, ОП турдаги о'qiy nasoslari ОП m - $D_{i,g}$;
- boshqa turdag'i markazdan qochma va o'qiy nasoslari (iflosangan, qattiq zarrachali, loyqa aralashmasi uchun, suvga cho'ktiriladigan):
 $T Q_s - H$;

bu yerda, T-nasos turi; Q_s , Q -nasosning suyuqlik uzatishi, mos ravishda $m^3/soat$, m^3/s ; H-nasosning bosimi, m; a – so'rg'ichini 25 marta kamaytirilgan diametri, mm; D_n – uzatkichi diametri, mm; α – artezian qudug'ining o'rama quvurini 25 marta kamaytirilgan ichki diametri, mm; m – andoza (model) tartibi; $D_{i,g}$ – ishchi g'ildiragi diametri, sm.

2.2. Markazdan qochma nasoslari

Markazdan qochma nasosning (2.1-rasm) asosiy ishchi elementi qobiq (3) ichida (1) valga o'matilgan, erkin aylanuvchi (2) ishchi g'ildirak bo'lib, suyuqlikni unga kirishi o'q yo'nalishida va chiqishi g'ildirak kanallari orqali radius yo'nalishida bo'ladi. Ishchi g'ildirak ikkita (old va orqa) gardishlar va ular orasiga joylashgan kuraklardan tashkil topgan bo'lib, kuraklar g'ildirak aylanishiga teskarli tomoniga egilgan holda tayyorlanadi. Suyuqlik ishchi g'ildirakdan qobiq ichidagi (3) spiralsimon olib ketuvchi moslama yordamida (13) uzatkichga chiqariladi.

Ishchi g'ildirak aylanganda kuraklari oralig'ida uning o'qidan r radiusda joylashgan har bir m massali suyuqlik hajmiga ta'sir etuvchi markazdan qochma kuch

$$F = m\omega^2 r, \quad (2.2)$$

bu yerda, ω – valning aylanish burchak tezligi.

Ana shu markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik g'ildirakdan chiqishi natijasida uning atrofida bosim ortadi, ishchi g'ildirak markazida bosim pasayadi (vakuum hosil bo'ladi), hamda suyuqlikning so'rish quvuridan uzlusiz kelishi ta'minlanadi.

Hozirgi kunda ahamiyati va ishlash sharoiti bo'yicha ko'p turdag'i xilma-xil tuzilishdagi markazdan qochma nasoslari ishlab chiqilgan.

2.2.1. Konsol turdag'i markazdan qochma nasoslar

Konsolli markazdan qochma nasosning umumiy shakli 2.1-rasmida keltirilgan. Bu gorizontal valli bir g'ildirakli nasos bo'lib, ishchi g'ildiragi valning muallaq qismiga mahkamlangan uchun «konsolli» nasos deb nomlangan.


Konsolli nasosning kesimi va asosiy detallari 2.2-rasmida, tashqi ko'rinishi esa 2.3-rasmida berilgan. Bu yerda (4) ishchi g'ildirak (12) valga shponka yordamida o'rnatilib, (21) gayka bilan mahkamlangan. Qobiq (7) ichki qismi spiralsimon bo'linma shaklida bo'lib, (6) uzatkich bilan bir butun holda cho'yandan quyilgan va (15) yog'-vannali tayanch turimlariga boltlar bilan o'rnatiladi. Tayanch turimlariga o'rnatilgan (13) podshipniklar (12) po'lat valning tayanchlari bo'lib, o'qiy va radial hosil bo'ladigan kuchlarni qabul qiladi. O'qiy kuchlarni muvozanatlash maqsadida (4) ishchi g'ildirakning orqa lappagida (23) kuch yengillatuvchi bir nechta teshikchalar ko'zda tutiladi.

Nasos ichki bo'linmasini tashqi muhitdan ajratib turish uchun yog' yedirilib ip-gazlama arqondan tayyorlangan (10) halqasimon o'ramlar, (11) qopqog'i va (20) qobig'idan iborat salnik bo'g'ini zarur.


Ishchi g'ildiragi orqa gardishiga kuch yengillatuvchi (23) teshikchalar o'rnatiladigan nasoslarda uning ichiga salnik va val orasidan havo kirishini oldini olish maqsadida salnikning (10) halqasimon o'ramlari o'rtasiga (19) gidravlik halqa o'rnatilib, unga spiralsimon bo'linmadagi bosimli suvdan beriladi va «gidravlik qulf» hosil qilinadi. Ish jarayonida salnikdan tashqariga suv oqimchasini me'yordan ortib borishi kuzatib boriladi va (11) qopqoq bilan sozlab turiladi. Ishchi g'ildirak (4) gardishlari yoni bilan (7) qobiq oralig'idagi bo'shliqlardan bosimlar farqi hisobiga so'rish tomoniga qaytib o'tuvchi oqimchalar miqdorini kamaytirish uchun har ikki tomoniga 2 va 3 zinchash-saqlash halqlarini o'rnatiladi.

Markazdan qochma nasos va uning so'rish quvuri yurgizishdan avval suvg'a to'ldirilishi lozim. Buning uchun (5) bolt olinib, teshikchadan vakuum-nasos yordamida havosi so'rib olinadi yoki o'sha teshikchadan suv qo'yib to'ldiriladi.


Monoblok ko'rinishidagi (KM) konsolli nasoslar K turdag'i nasoslarga nisbatan ancha ixcham va yengil bo'ladi. Chunki nasos ishchi g'ildiragi elektr dvigatel valining oxirgi qismiga joylashtirilib, nasosga podshipnik va yarim muftalar o'rnatilmaydi. Nasosning qobig'i elektr dvigatel flanesi (gardishi) uchiga mahkamlanadi.



2.1-rasm. Markazdan qochma nasosning ishlash tasviri:
 1-val; 2-ishchi g'ildirak; 3-spiralsimon bo'linma (olib ketuvchi moslama); 4-havo chiqarish teshikchasi bolti; 5-zichlash-saqlash halqasi; 6-bosimli salnik; 7-himoya g'ilofi; 8-salnik qopqog'i; 9-podshipnik; 10-yarimmufta; 11 va 14-zichlash qismlari; 12-so'rg'ich; 13-uzatkich; 15-o'qiy kuchni yengillatuvchi teshikchalar.



2.2-rasm. Konsolli K turdag'i markazdan qochma nasosning tuzilishi:
 1-so'rg'ich (nasos qopqog'i bilan); 2-zichlash halqasi, 3-himoyalash halqasi; 4-ishchi g'ildirak; 5-havo so'rib olish teshigi bolti; 6-uzatkich; 7-spiralsimon bo'linmali qobiq; 8-kronshteyn; 9-himoya g'ilofi; 10-salnik o'ramlari; 11-salnik qopqog'i; 12-val; 13-sharikli podshipniklar; 14-tayanch g'ilofi; 15-tayanch turimi (yog' idishi bilan); 16-tayanch g'ilofi qobig'i; 17 va 18-nasos va dvigatel vallaridagi yarim muftalar; 19gidravlik zichlash halqasi; 20-salnik qopqog'i; 21-gayka; 22-gruntbuksa; 23-kuch yengillatuvchi teshikchalar.



2.3-rasm. Konsolli K turdag'i nasos agregatning tashqi ko'rinishi.

Konsolli markazdan qochma nasoslar qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarda keng tarqalgan bo'lib, harorati 85°C gacha bo'lган toza suv va boshqa noagressiv suyuqliklarni uzatish uchun mo'ljallangan. Bu nasoslar suyuqlik uzatishi $Q=1,5\dots98 \text{ l/s}$ va bosimi $H=9\dots95 \text{ m}$ chegaralarda ishlab chiqariladi. Konsolli K turdag'i nasoslarning kamchiligi:


- o'qiy kuchlar nomuvozanatligi podshipniklarning ishlash muddatini qisqartiradi;
- kuch engillatuvchi teshikchalar nasosning FIKni kamaytiradi;
- qobig'ining vertikal tekislikda ochilishini ta'mirlashni qiyinlash-tiradi, chunki so'rish quvurini ochish zarur bo'ladi.

2.2.2. Ikki tomonlama suyuqlik kiradigan D turdag'i markazdan qochma nasoslar

Suyuqlik ishchi g'ildiragiga ikki tomonidan kiradigan tuzilishda tayyorlanganligi uchun bu nasoslarni ruscha «dvuxstoronniy» so'zini birinchi harfi «D» bilan belgilangan. Ikki tomonlama suyuqlik kiradigan D turdag'i markazdan qochma nasoslar suyuqlik uzatishi $Q=30\dots3500 \text{ l/c}$, bosimi $H=12\dots137 \text{ m}$ chegaralarda ishlab chiqariladi. D turdag'i nasoslar tuzilishi mukammal va eng ko'p tarqalgan bir pog'onali nasoslar turiga kiradi. Chunki ular quydagi afzalliliklarga ega: ikki tomonlama ishchi g'ildirak qo'llanishi hisobiga K turdag'i nasosga nisbatan ikki barobar ko'p suyuqlik chiqaradi; o'qiy kuchlar muvozanatlashgan va yaxshi kavitations xususiyatlarga ega; qobig'i

ochilishi gorizontal tekislikda bo‘lganligi sababli ta’mirlashda ochish-yig‘ish ancha oson.


Nasos detallarining tuzilish sxemasi 2.4-rasmda keltirilgan. Ishchi g‘ildirak (2) ikki tomonidan tashqi gardishlar va ichki tomonidan 1 valga mahkamlangan g‘ilofdan iborat.



2.4-rasm. Markazdan qochma D turdag'i nasosning tuzilish sxemasi:


1-val; 2-ishchi g‘ildirak; 3-qobiq ichidagi spiralsimon olib ketuvchi moslama (kanal); 4-havo so‘rib olish teshikchasi qopqog‘i; 5-zichlash-saqlash halqasi; 6¹-so‘rish salnigi; 7-himoya g‘ilofi; 8-salnik qopqog‘i; 9-podshipnik; 10-yarimmufsta; 16-oziqlantiruvchi quvurcha; 17-gidravlik zichlash halqasi.

Bosimli suyuqlikni (3) spiralsimon moslamadan so‘rish qismiga qaytib oqib o‘tishini kamaytirish uchun (5) zichlash halqalari ishchi g‘ildirak gardishining o‘ng va chap tomonlariga kichik o‘lchamdagи tirqish bilan o‘rnataladi. G‘ilof (7) valni himoyalash bilan birga ishchi g‘ildirakni o‘q bo‘yicha siljishiga yo‘l qo‘ymaydi. Qobiqdan (1) valni chiqish joylariga har ikki tomonidan (6¹) so‘rish salniklari va (17) gidravlik halqa o‘rnatalib, havo so‘rilishga yo‘l qo‘ymaslik va sovitish uchun unga (16) oziqlantiruvchi quvurcha bilan (3) spiralsimon olib ketuvchi moslamadagi bosimli suvdan yuboriladi. Valning tayanchi (9) podshipniklar nasos o‘qi bo‘yicha ochiladi.



2.5-rasm. Markazdan qochma D turdag'i nasosning tashqi ko‘rinishi:
1-qobiq; 2 va 3-tayanch lappaklari;
4-qopqoq.

2.6-rasm. Markazdan
ochma D turdag'i
nasosning bo'ylama
kesimi.




D turdag'i nasosning tashqi ko'rinishi va tuzilishi 2.5 va 2.6 - rasmlarda ko'rsatilgan. Nasosning so'rg'ichi va uzatkichi 1 qobiq, 2 va 3 tayanch lappaklari bilan umumiy bir butun quyma holda tayyorlangan. Qopqoq 4 gorizontal tekislikda yopilganligi, so'rg'ich va uzatkich qobiqning pastki qismiga joylashganligi nasosni ochib-berkitish, ta'mirlash va detallarini almashtirishni osonlashtiradi.

2.2.3. Ko'p pog'onali markazdan ochma nasoslar

Ko'p pog'onali nasoslarda uzatilayotgan suyuqlik bitta valga o'rnatilgan bir nechta ishchi g'ildiraklardan ketma-ket o'tadi (2.7-rasm). Ishchi g'ildiraklarning suyuqlik uzatishi bir xil, lekin nasosning bosimi esa ishchi g'ildiraklar bosimlari yig'indisiga teng bo'ladi. Suyuqlik uzatishi va bosimi bo'yicha ko'p pog'onali nasoslar $Q=1\dots1000\text{ m}^3/\text{soat}$ va $H=40\dots2000\text{ m}$ gacha chegaralarda ishlab chiqariladi.

Bosimi pog'ona tarzida ortib borishini hisob olib, bu nasoslar ko'p pog'onali (ya'ni ruscha mnogostupenchatiy seksionniy) deb nomlanib, MC, M, MD yoki yangicha ЦНС, ЦН harflari bilan belgilanadi (bu yerda, D-«dvuxstoronniy» so'zini bиринчи harfi bo'lib, bиринчи g'ildiragiga ikki tomonlama suyuqlik kiradi, ЦНС-«sentrobejniy nasos seksionniy» so'zlarining bиринчи harflari). Ko'p pog'onali MC (ЦНС) nasosidagi suyuqlik harakati sxemasi 2.7-rasmda ko'rsatilgan.


Ko'p pog'onali nasosning qobig'i bir nechta seksiyalardan tashkil topgan bo'lib, (2.8 va 2.9-rasmlar) ishchi g'ildiraklar soni seksiyalar soniga teng bo'ladi. Bu nasoslarda ishchi g'ildiraklar soni 2 tadan 10 tagacha bo'lishi mumkin.




2.7-rasm. Ko‘p pog‘onali MC (ЦНС) nasosidagi suyuqlik harakati sxemasi:

1-val; 2-ishchi g‘ildirak; 3¹-yo‘naltiruvchi moslamalar; 6 va 6¹-bosimli va so‘rish salniklari; 16-oziqlantiruvchi quvurecha; 17-gidravlik zichlash halqasi.


Seksiyalar oralig‘ini rezina prokladka bilan zichlanadi. MC turdagи nasoslarning kamchiligi: FIK yuqori emasligi; qobiqning vertikal tekislikda ochilishi va oolib berkitishning murakkabligi; o‘qiy kuchlarning nomuvozanatligi. O‘qiy kuchlarni muvozanatlash maqsadida qo‘sishimcha avtomatik ishvlovchi kuch yengillashtiruvchi 1 gidravlik lappaklar ham o‘rnatalidi (2.9-rasm).



2.8-rasm. Ko‘p pog‘onali (seksiyali) MC (ЦНС) turdagи nasosning tashqi ko‘rinishi.



2.9 -rasm. Ko‘p.pog‘onali MC turdag'i nasosning bo‘ylama kesimi:
1-gidravlik kuch yengillashtiruvchi lappak; 2-uzatkich; 3-nasos
seksiyalari; 4-seksiyalarini qisib turuvchi bolt; 5-so‘rg‘ich;
6-yo‘naltiruvchi moslamalar; 7-podshipniklar.




2.10-rasm. M va MD (ЦН) turdag'i markazdan qochma nasoslarda suyuqlik harakati sxemasi:
a-M nasosi; b-MD nasosi.


MC turdag'i nasoslarning kamchiliklarini bartaraf qilish maqsadida qobig‘i gorizontal tekislikda ochiladigan M, MD (ЦН) nasoslari yaratilgan (2.10-rasm). Bu nasoslар ishchi g‘ildiraklari kirish qismi bir-biriga qarama-qarshi juft holda joylashtirilganligi sababli o‘qiy kuchlar muvozanatlashgan. Qoldiq o‘qiy kuchlarni tayanch podshipniklari o‘ziga qabul qiladi. Suyuqlik birinchi va ikkinchi g‘ildiraklarda chiqqandan keyin uchinchi g‘ildirakka tashqi quvur orqali uzatiladi (2.11-rasm). MD turdag'i nasoslarda birinchi ishchi g‘ildiragi ikki tomonlama suyuqlik kiradigan shaklda bo‘lganligi sababli yaxshi kavittatsion xususiyatlarga, ya’ni so‘rish tarmog‘ida ortiqcha (6 m gacha) bosimga ega bo‘ladi. Shuning uchun MD turdag'i nasoslар issiqlik elektr stansiyalari qozonlariga issiq suvlarni haydash uchun qo‘llaniladi.

M va MD turdag'i nasoslarda suyuqlikni ishchi g‘ildirakka kirishi va undan olib ketishi spiralsimon kanallar orgali amalga oshirilganligi sababli gidravlik qarshiliklar kamayib, FIK yuqori bў'ladi.

**UBXONIA
ToshKTI**



A bo'yicha ko'rinish




2.11-rasm. M (ЦН) turdag'i nasos agregatining tashqi ko'rinishi:
1-so'rg'ich; 2-uzatkich; 3-tashqi uzatuvchi quvur; 4- qobiqning pastki
tayanch qismi; 5-qopqog'i; 6-elektr dvigatel.

Qobig'i gorizontal tekislikda ochiladigan ushbu nasoslarning kamchiligi: qobig'inining tuzilishi murakkab, beso'naqay va o'lchamlari katta (2.11-rasm).

2.2.4. Vertikal markazdan qochma nasoslar

Vertikal valli B turdag'i markazdan qochma nasoslar asosan bir g'ildirakli bo'lib, asosiy detallari va ishlash tarzi bir tomonlama suyuqlik kiradigan K turdag'i gorizonal valli nasosga o'xshaydi (2.12-rasm).

Nasos stansiyalarga o'rnatishda reja o'lchamlari kichik va ixcham bo'lganligi sababli suyuqlik uzatish $Q = 1\dots35 \text{ m}^3/\text{c}$ va bosimi $H=22\dots110 \text{ m}$ gacha bo'lgan yirik B turdag'i nasoslar ishlab chiqariladi va katta magistral kanallardagi hamda katta shaharlar suv ta'minoti tizimlaridagi nasos stansiyalarga o'rnatiladi.



2.12-rasm. B turdag'i vertikal valli markazdan qochma nasos:

1-ishchi g'ildirak; 2-spiralsimon bo'linma; 3-qovurg'ali konstruksiya;

4-zichlash-saqlash halqasi; 5-val, 6-sirpanma podshipnik;

7-himoya g'ilofi; 8-qobiq qopqog'i; 9-salnik; 10-tovon;

11-yostiqcha.

B turdag'i nasosning kesimi 2.12-rasmida ko'rsatilgan. Suv (1) ishchi g'ildirakdan bir butun holda qo'yilgan (2) spiralsimon bo'linmaga chiqariladi va uzatkichga haydar beriladi. Ichki hosil bo'lувчи eguvchi momentni qabul qilish uchun qobiq baquvvat (3) qovurg'alar shaklida tayyorlanadi. Ishchi g'ildirak 1 pastki gardishida 0,8...1,2 mm o'lchamdag'i tirqishda (4) zichlash - saqlash halqasi joylashgan. Nasosning (2) qopqog'iiga mahkamlangan (6) yo'naltiruvchi sirpanma lignofol podshipnik radial kuchlarni qabul kiladi va suv bilan sovitib turiladi. Podshipnik tepasiga (9) salnik joylashtirilgan. Nasos poydevorga (10) tovonlar va (11) yostiqchalar yordamida anker boltlari bilan mahkamlanadi. Nasosning aylanadigan detallari massasi va o'qiy hosil bo'lувчи kuchlarni elektr dvigatel podshipniklari va tayanchlari qabul qiladi.

2.2.5. Maxsus markazdan qochma nasoslar

Markazdan qochma ifoslangan suyuqliklar uchun moslangan Φ (fekalniy), qum-suv aralashmasi uchun Π (peskovoy), kul-suv aralashmasi uchun Б (bagerniy), loyqa uchun Гру (gruntoviy), suvga cho'ktiriladigan monoblok ЦМПВ, ГНОМ turdag'i bir g'ildirakli nasoslarni maxsus nasoslardan deyiladi. Chunki ular maxsus suyuqliklar va maxsus joylarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Tuzilishi va ishlash tarzi bo'yicha К turdag'i nasoslarga o'xshaydi. Lekin ish detallari uzatiladigan suyuqlikka mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, Φ turdag'i nasoslarda ifoslani shini oldini olish maqsadida ishchi g'ildiragi kanallari keng va kuraklar soni kam holda tayyorlanadi. Bu esa FIKni kamayishiga sabab bo'ladi. Π, Б, Гру turdag'i nasoslarda ishchi g'ildiragi va ichki oqim detallari yeyilishga chidamli materiallardan tayyorlanadi.

ЦМПВ turdag'i nasoslardan toza suv uchun va ГНОМ turdag'i nasoslardan iflos suyuqliklar uchun mo'ljallangan bo'lib, nasos va elektr dvigatel germetik qobiqqa monoblok shaklida joylashtiriladi va suvga cho'ktirib ishlatiladi [27]. Artezian qudug'i nasoslarni maxsus vertikal quduqlarga mo'ljallab tayyorlanishini e'tiborga olib, maxsus nasoslardan guruhiга kiritiladi.


2.2.6. Markazdan qochma quduq nasoslari

Quduq nasoslari ko'p pog'onali markazdan qochma nasoslardan turiga mansub bo'lib, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: transmission valli [6,27] va cho'ktiriladigan dvigateli [2,6]. Transmission valli quduq nasoslari asosan uch qismidan iborat agregatni tashkil etadi (2.13-rasm): I-ko'p pog'onali markazdan qochma nasos, (quduqqa tushiriladigan holatda tayyorlangan); II - yer ustiga elektr dvigatel bilan joylashtiriladigan tayanch qismi, III - bosimli quvur va uni ichidan o'tuvchi va yo'naltiruvchi podshipniklarga tayanuvchi transmission val (uzunligi 100 m gacha). Uch pog'onali nasosning tuzilishi 2.13, b-rasmda berilgan. Har bir seksiya (3) qobiq ichida (2) valga mahkamlangan (1) ishchi g'ildirak, (4) suyri detal va (3) qobiq orasida joylashgan (5) yo'naltiruvchi moslama kuraklaridan tashkil topgan. Yo'naltiruvchi moslama ishchi g'ildirakdan chiqayotgan suyuqlikning sirkulatsiyasini nolgacha pasaytiradi. Seksiyalar o'zaro shipilka va boltlar bilan birlashtirilgan.

Birinchi seksiya oldiga (6) konussimon so'rg'ich mahkamlangan bo'lib, uning o'rtasida valning yo'naltiruvchi podshipnigi joylashgan.

So‘rg‘ichga (7) kirish to‘ri ulangan. Nasosning oxirgi seksiyasi (8) bosimli quvurga ulanadi. Bosimli quvur alohida 2...3,5 m li zvenolardan iborat bo‘lib, har bir zvenoda valga mahkamlangan va suv bilan sovitiladigan (9) yo‘naltiruvchi podshipniklar o‘rnataliladi. Podshipniklarga qum kirishini oldini olish uchun (10) quvurcha orqali toza suv beriladi.

Yuqorida tayanch qismini (2.13, d-rasm) asosiy elementlari (11) yunaltiruvchi va (13) tayanch podshipniklari, (12)-salnik va podshipnikning (14) yog‘ vannasi hisoblanadi. Yarimmufta (15) yordamida val (16) gardishga o‘matiladigan elektr dvigatelga ulanadi.




2.13-rasm. Transmission valli quduq nasosining tuzilishi:

a-nasos qurilmasining quduqqa o‘rnatalish tasviri; b-nasosning tuzilishi(I); d-yer ustidagi tayanch qismining tuzilishi(II); 1-ishchi g‘ildirak; 2-val; 3-qobiq; 4-suyri detal; 5-yo‘naltiruvchi moslama; 6-so‘rg‘ich; 7-to‘r; 8-bosimli quvur; 9-yo‘naltiruvchi podshipnik; 10-quvurcha; 11 va 13-podshipniklar; 12-salnik; 14-yog‘ vannasi; 15-yarimmufta; 16-flanes.

Transmission valli quduq nasoslarini A, ATH, ЦТВ turlari mavjud (ruscha so‘zlarning birinchi harflari, ya’ni A-artezianskiy, T-transmissonniy val, H-nasos, Ц-sentrobejnjy, B-dlya vodi). Ular tarkibida 0,1% gacha qattiq zarrachalar bo‘lgan, harorati 35°C gacha quduq suvlarini chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib, suv uzatishi $Q = 25\dots1250 \text{ m}^3/\text{soat}$, bosimi $H=25\dots150 \text{ m}$ va FIK $60\dots70\%$ chegaralarda ishlab chiqariladi. Transmission valli nasoslar quyidagi kamchiliklarga ega: nasos chuqurda joylashtiriladi va uni ishlashini kuzatish imkoniyati yo‘q; o‘rnatishda va ta’mirlashda ochib - berkitish va yig‘ish ancha qiyin; tuzilishi murakkab; val va nasos detallari tez yeyiladi.

Cho‘ktiriladigan elektr dvigateli ЭЦВ turdagи quduq nasoslari tarkibida 0,01% gacha qattiq zarrachalari va harorati 35°C gacha bo‘lgan noagressiv quduq suvlarini chiqarishga mo‘ljallangan (bu yerda ЭЦВ ruscha so‘zlarning birinchi harflari, ya’ni Э-elektr dvigateli maxsus cho‘ktiradigan holda tayyorlangan, Ц-sentrobejnjy, B-dlya podachi vodi). Bunday nasoslar suv uzatishi $Q=3\dots700 \text{ m}^3/\text{soat}$, bosimi $H=15\dots650 \text{ m}$, FIK $40\dots75\%$ chegaralarda ishlab chiqariladi. Nasos va dvigatel bir butun monoblok shaklda tayyorlanib (2.14-rasm), quduqdagi dinamik suv sathidan pastga o‘rnataladi. Dvigatelga elektr energiya yer ustidan maxsus kabel orqali yuboriladi.



2.14-rasm. Cho‘ktiriladigan elektr dvigatelli quduq nasosi ning tashqi ko‘rinishi (a) va o‘rnatilish sxemasi(b):
 1-elektr dvigatel; 2-nasos; 3-quduq ishslash datchigi; 4-markazlashtiruvchi moslama; 5-kabel mahkamlash belbog‘i; 6 va 7-suv uzatish va o’rama quvurlari; 8-kabel, 9-bosh qismi; 10-kran; 11-manometr; 12-qulfak; 13-boshqarish va avtomatika jihozlari.

Nasos agregatlariga markazdan qochma yoki diagonal ishchi g'ildiraklar o'rnatilib, ular valga mahkamlangan yoki o'q bo'yicha harakatlanadigan holda bo'lishi mumkin (2.15-rasm). Ishchi g'ildiragi va yunaltiruvchi moslama.poliamid, polistirol, polipropilen, bronza, cho'yan, po'lat, qobig'i-cho'yan, po'lat, val-po'lat, sirpanma radial podshipniklar – rezina materiallardan tayyorlanadi. Suvni orqa qaytishini to'sish uchun suv uzatish quvuriga sharsimon yoki tarelkasimon teskari qopqoq o'rnatiladi. 2.15-rasmida ikki pog'onali ishchi g'ildiragi (1) diagonal shakldagi nasos tasvirlangan. Ishchi g'ildirakdan chiqqan suyuqlik yo'naltiruvchi moslama (2) yordamida keyingi pog'onaga uzatiladi. Asinxron dvigatelning (4) stator o'ramlari plastmassa bilan qoplangan va namlik sig'imi nolga teng holda tayyorlangan. Unga maxsus (5) kabel orqali tashqaridan elektr energiya beriladi. Nasos va dvigatel (7) musta yordamida ulangan. Yo'naltiruvchi podshipnik suvli moylanadi va tovon ostidagi gardishi (8) o'qiy kuchlarni qabul qiladi.



2.15-rasm. Cho'ktiriladigan elektr dvigateli quduq nasosining tuzilishi:

1-ishchi g'ildirak; 2-yo'naltiruvchi moslama kuraklari; 3-uzatkich; 4-elektr dvigatel statori; 5-elektr kabeli; 6-elektr dvigatel rotori; 7-mufta; 8-tovon osti gardishi; 9-manjet zichlagich.

ЭЦВ turdag'i nasoslarni uzoq muddat ishlashini ta'minlovchi asosiy omil elektr dvigatel ichiga qattiq abraziv zarrachalar kirishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Buning uchun turli konstruktiv yechimlardan foydalanish mumkin. Masalan, 2.15-rasmida keltirilgan nasos agregatida elektr dvigatel toza suvg'a to'ldiriladi va (9) manjet zichlagich bilan uzatilayotgan suvdan ajratib turiladi.


Quduq nasoslari uchun asosan qisqa tutashuv rotorli ПЭДВ belgili asinxron dvigatellar qo'llanadi. Masalan, ЭЦВ 16-210-640 belgidagi nasosga ПЭДВ-500-375 belgidagi elektr dvigatel o'rnatilgan. Bu yerda, $16 \times 25 = 400$ mm - o'rama quvur diametri; 375 - nasos va dvigatel tashqi diametrлari mm, suv uzatishi $Q =$

210 m³/soat, bosimi H=640 m; quvvati N=500 kWt; (П-pogrujnoy, ЭД-elektr dvigatel, B-vodozapolnenniy ruscha so'zlarining birinchi harflari).

2.3. O'qiy nasoslar

Suyuqlik oqimi ishchi g'ildiragi o'qi bo'yicha harakatlanadigan nasoslar o'qiy nasoslar deb nomlangan (2.16-rasm).

O'qiy nasoslar gorizontal, vertikal va qiya valli, bir va ko'p g'ildirakli tuzilishda ishlab chiqariladi. Respublikamiz va hamdo'stlik davlatlari xalq xo'jaligidagi, shuningdek, suv xo'jalik tizimlarida asosan bir g'ildirakli o'qiy nasoslar keng qo'llaniladi. Bir g'ildirakli o'qiy nasoslarni suv uzatishi $Q = 0,072 \dots 54 \text{ m}^3/\text{s}$ va bosimi $H = 2,5 \dots 28 \text{ m}$ chegaralarda bo'lib, tuzilishi bo'yicha ikki xil turda tayyorlanadi:



2.16-rasm. O'qiy nasos tuzilishi (a), ishchi g'ildiragi (b) va kuraklarini burish mexanizmi (d):

1-ishchi g'ildirak; 2-ish bo'linmasi; 3-to'g'rilovchi moslama; 4 va 9-pastki va yuqori podshipniklar; 5-diffuzor; 6-nasos qobig'i; 7-val; 8-kuraklarini burish dastasi; 10-lappakli mufta.

-O turdag'i nasoslar: ishchi g'ildiragi diametri $D \leq 700 \text{ mm}$, kuraklari payvandlangan va ish bo'linmasi silindr shaklida (О - «osevoy» ruscha so'zning birinchi harfi);

-ОП turdag'i nasoslar: ishchi g'ildiragi diametri $D \geq 870 \text{ mm}$, kuraklari buriluvchan va ish bo'linmasi sfera shaklida (ОП-«osevoy, poverotnolopastnoy»). Kuraklarini burish yo'li bilan nasosni ish ko'rsatkichlarini (Q va H) keng chegarada o'zgartirish mumkin.


Gorizontal valli nasoslarning belgisida Г harfi keltirilib, ular ishchi г'ildiragi diametri $D \leq 700$ mm, vertikal valli nasoslar ishchi г'ildiragi diametri $D \geq 470$ mm o'chamlarda ishlab chiqariladi. Vertikal о'qiy nasos kesimi 2.16-rasmida tasvirlangan. Ishchi г'ildirak (1) gubchak va unga mahkamlangan nosimmetrik shaklli kuraklardan iborat bo'lib, sfera shaklidagi (2) ish bo'linmasiga joylashtirilgan. Ishchi г'ildirak aylanishi nosimmetrik profildagi kuraklarni suyuqlik oqib о'tish jarayonida ko'tarish kuchi paydo bo'ladi va oqimning о'q bo'yab harakati vujudga keladi. Ishchi г'ildirakni aylanishi oqimning ilgarilanma-aylanma harakatlanishiga sabab bo'ladi.

Aylanma harakatni то'г'ри chiziqli harakatga keltirish uchun 3 то'г'rilovchi moslama о'rnatiladi. Ishchi г'ildirak (1) ichi bo'sh (3) valning pastki qismiga mahkamlanadi. Val ichida (8) dasta kuraklarni burish mexanizmini uning uzatmasi bilan bog'lab turadi (2.16,d-rasm). To'г'rilovchi moslama (3) gubchagi ichiga joylashtirilgan pastki (3) va (9) yuqori radial sirpanma podshipniklar (7) valning tayanch bo'lib hisobladi. Sirpanma podshipniklar rezina yoki lignofol (qatlangan yog'och plastika) materialdan tayyorlangan. Podshipniklarga tindirilgan toza suv maxsus nasos bilan berilib, moylab turiladi. Podshipniklarni moylash suvi sarfi ishchi г'ildiragi diametri $D=1100\dots2600$ mm bo'lgan nasoslar uchun 0,5...2 l/s miqdorda bo'ladi. Yuqoridagi (9) podshipnik ustida salnik о'rnatiladi. Gidravlik о'qiy kuchlarni va nasos rotorini (aylanadigan detallari) massasini elektr dvigatelning tayanch qismlari qabul qiladi. Nasos ishchi г'ildiragi kuraklari soni 2 tadan 6 tagacha bo'lib, 1 ishchi г'ildirak va 2 ish bo'linmasi orasidagi tirqish uning diametridan 0,1 % miqdorda qabul qilinadi, ya'ni $D=1$ m bo'lganda, $S=1$ mm ga teng bo'ladi. ОП turdagи nasoslar ishchi г'ildiragi kuraklarini burish mexanizmiga ega bo'ladi (2.16, d-rasm). Ishchi г'ildiragi diametri $D=1100$ mm gacha nasoslar elektr uzatma, $D=1850\dots2600$ mm gacha nasoslar - elektrogidravlik uzatma va $D=1450$ mm li nasoslar har ikki turdagи uzatmalar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

Nasoslarning belgilariga ularning tuzilishi va foydalanish shartlarini ko'rsatuvchi harflar kiritilishi mumkin. Masalan, ОП2-110Е-У3, ОП2-110МКЭ, ОП10-185ЭГ, ОП15-87МБК belgili nasoslarda 2, 10, 5 - nasos andozasi tartibi, 110, 185, 87-ishchi г'ildiragi diametri (sm), Э-kuraklari elektr uzatma yordamida buriladi, ЭГ-kuraklari elektrogidravlik uzatma yordamida buriladi, K-suv «kamera» ko'rinishida keltiriladi, М-«malogabaritniy» (ruscha so'zdan olingan), МБ-monoblokli, У-iqlimga moslab tayyorlangan, 3-joylashtirish toifasi.

Nasosning vali, ish bo'linmasi, gubchak, uzatkich, burilish qismi, ishchi g'ildirak kuraklari-po'lat, diffuzor va to'g'rilovchi moslama-cho'yan, podshipniklarni sirpanma qismi-rezina qoplangan po'lat materialdan tayyorlanadi.

Keyingi yillarda o'qiy nasos va dvigatel bitta valga o'rnatilib, bir butun monoblokni tashkil etuvchi suv cho'ktiriladigan ОПВ va ОМПВ turdag'i aggregatlar ham ishlab chiqarilgan (bu erda O-osevoy, П-pogrujnoy, B-vodyanoy, M-monoblochniy kabi ruscha so'zlarning birinchi harflari). Cho'ktiriladigan monoblok nasos aggregatining suv manbasini qirg'og'iga o'rnatilish tasviri 2.17-rasmida keltirilgan [27].




2.17-rasm.Cho'ktiriladigan monoblok shakldagi ОПВ nasoslarining o'rnatilish tasvirlari:
a-sirpanuvchi; b-sharnirli;
1-elektronasos; 2-bosimli quvur; 3 va 8-manometrlar; 4-boshqarish stansiya-yasi; 5-tiragich; 6-ushlagich; 7-tortgich; 9-sharnir.

Cho'ktiriladigan monoblokli aggregatlarda elektr dvigatel nasos oldidagi «quruq» qobiqqa joylashtiriladi va quruq saqlash uchun uning ichiga qisilgan havo haydab turiladi. Ushbu turdag'i nasos aggregatlari qo'llanganda qurilish bahosi ancha arzon tushadi, chunki stansiya binosini qurishga zarurat bo'lmaydi.

O'qiy nasoslar markazdan qochma nasoslardan quyidagi afzalliklari bilan farq qiladi: FIK yuqori, suv uzatishiga nisbatan massasi kam, ish ko'rsatkichlarini o'zgartirish oson.

2.4. Diagonal nasoslar

Diagonal nasoslarda suyuqlik ishchi g'ildirakka o'q yo'nalishida kirib, diagonal yo'nalishida chiqadi. Shuning uchun diagonal nasos deb nomlangan. Ikki xil tuzilishidagi diagonal nasoslar ishlab chiqariladi: ochiq ishchi g'ildirakli va to'g'rilovchi moslamali (2.18,a-rasm); berk ishchi g'ildirakli va spiralsimon olib ketuvchi moslamali (2.18,b-rasm).



2.18-rasm. Diagonal nasoslar tasvirlari:

a - ochiq ishchi g'ildirakli; b - berk ishchi g'ildirakli.

Diagonal nasoslarning asosiy detallari tuzilishi va ularning ish tartibi markazdan qochma va o'qiy nasoslarga o'xshaydi. Ochiq ishchi g'ildirakli nasoslarning kuraklarini buriluvchan holda tayyorlanishi ham mumkin. Diagonal nasoslar bir pog'onali va ko'p pog'onali gorizontal va vertikal valli ko'rinishda ishlab chiqariladi. Ish ko'rsatkichlari (Q,H) bo'yicha ushbu nasoslar markazdan qochma va o'qiy nasoslardan orasida joylashgan bo'lib, ularni suv uzatishi yuqori va bosimi $H=10\ldots60$ m bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday hollarda diagonal nasoslar yaxshi kavittatsion va ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'ladi.

2.5. Kurakli nasoslar asosiy detallarining xususiyatlari

Val asosan alohida belgidagi po'latdan tayyorlanib, aylanma harakatni ishchi g'ildirakka uzatib beradi. Ish davrida quyidagi sabablarga ko'ra tebranishi va yaroqsiz holga kelishi mumkin: rotorning (aylanma harakatdagi detallarning) nomuvozanatligi; nasos va dvigatel o'qlarining mos tushmasigi; aylanadigan va qo'zg'almas detallarning bir-biriga tegib qolishi; podshipniklarning eyilishi; valga o'rnatilgan

detallarning bo'shab qolishi; nasosda kavitsiya hodisasi sodir bo'lishi. Shuning uchun nasosni olib-berkitishda, ta'mirlashda va yig'ishda valni muvozanatlashganlik darajasini saqlanishiga, dvigatel va nasos vallarini markazlashgan holda ulanishiga katta e'tibor berilishi hamda detallarni yig'ishda ehtiyyot choralar ko'riliishi zarur bo'ladi. Valning salnik o'rnatiladigan qismini ishqlanish ta'sirida yeyilishdan saqlash maqsadida himoyalovchi g'ilof o'rnatiladi. Rotorni tebranishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida statik va dinamik muvozanatlash talab etiladi. Eslatma: aylanadigan detallarni muvozanatlash usullari «Mashinalarni ta'mirlash» fanida keltiriladi[35].

Kurakli nasoslarda valning aylanishi dvigatel tomonidan qaralganda soat millariga teskari yo'nalishda bo'ladi.

Ishchi g'ildirak nasosning asosiy elementi hisoblanadi, chunki unda dvigateldan olingan energiya suyuqlikning bosim energiyasiga aylanadi. Ishchi g'ildirak turli nasoslarda ishlash sharoitiga bog'liq ravishda har xil materiallardan, ya'ni cho'yan, zanglamaydigan po'lat, bronza va polimer materiallar asosidagi qorishmalardan tayyorlanadi.

Ishchi g'ildirak shakli tezkorlik koeffitsiyentiga bog'liq ravishda turli ko'rinishda bo'ladi. O'qiy nasoslarda ishchi g'ildiragi kuraklari olib-qo'yiladigan holda, markazdan qochma nasoslarda esa g'ildiragi bir butun quyma holda tayyorlanadi. Ba'zi hollarda kichik markazdan qochma nasoslarda old gardishsiz ochiq g'ildiraklar ham o'rnatiladi. Gidravlik qarshilikni kamaytirish va nasosning FIK ni orttirish uchun ishchi g'ildirak kuraklarini kirish qismi suyri va chiqish qismi yupqa (samolyot qanoti) shakliga keltirilib, sirtiga silliq ishlov beriladi. Kuraklarning optimal soni markazdan qochma nasoslarda $z=6\dots8$ dona, o'qiy nasoslarda $z=2\dots6$ dona, maxsus markazdan qochma nasoslarda $z=2\dots4$ dona qabul qilinadi. Ishchi g'ildirak kuraklarining shakli va o'lchamlari gidromexanik hisoblar va tajriba tekshirishlari asosida aniqlanadi.

Nasoslardan foydalanish jarayonida suvdagi tabiiy qattiq zarrachalar ta'sirida va kavitsiya hodisasi oqibatida ishchi g'ildirak kuraklarining kirish va chiqish qismlari hamda zinchash qismi elementlari eyiladi va ta'mirlash talab etiladi.

Nasosning qobig'i cho'yan yoki po'latdan quyma holda tayyorlanib, vertikal yoki gorizontal tekislikda ajraluvchi bo'lishi mumkin. Markazdan qochma nasoslarda yig'ilgan holatda qobiq ishchi g'ildirak joylashtiriladigan ichki bo'shliq, so'rg'ich, olib ketuvchi moslama va diffuzor shakldagi uzatkichdan iborat bo'ladi (2.1 va 2.2-rasmlar). Ko'p

pog'onali nasoslarda qobiq alohida-alohida seksiyalar shaklidagi ichki yo'naltiruvchi moslamalardan iborat bo'lib, shpilka va boltlar bilan yig'iladi va bir butun holga keltiriladi (2.8 va 2.9-rasmlar).

So'rg'ich (keltirish kanali) suyuqlikni ishchi g'ildirakka kirish qismida oqimning tezligini teng taqsimplanishi va qarshiligi oz bo'lishini ta'minlashi zarur. Ana shu maqsadda so'rg'ich qismi to'g'ri o'qli konfuzor (K, B turdag'i nasoslarda), halqasimon (MC turdag'i nasoslarda) va yarimspiral (D turdag'i nasoslarda) shakllarda tayyorlanadi.

Olib ketish moslamasi qobiq ichidagi spiralsimon kanal yoki qo'zg'almas kuraklar va kanallarga ega bo'lgan yo'naltiruvchi shakllarda bo'ladi. Ular asosan markazdan qochma va diagonal nasoslarda qo'llanadi (2.19-rasm). O'qiy nasoslarda qo'zg'almas kurakli to'g'rilovchi moslama o'rnatiladi.

Spiralsimon olib ketuvchi moslama ishchi g'ildirakdan chiqqan bosimli suyuqlikni yig'ib, diffuzorga oz gidravlik qarshilik bilan uzatib beradi (2.19, a-rasm). Spiralsimon moslamaning kesim yuzasi aylana, to'g'ri to'rtburchak yoki noksimon shakllarda bo'lib (2.1, 2.4-rasmlar), «til» qismidan diffuzorning bo'yin qismigacha aylanish burchagiga proporsional ravishda bir xilda ortib boradi. Soddalashtirilgan holda nasosning optimal ish tartiblari uchun spiralsimon moslamadagi suyuqlik oqiminini o'rtacha tezligini o'zgarmas qabul qilib, quyidagi aniqlash mumkin:


$$V_{sp} = (0,65 \dots 0,8) V_{2u}^1 . \quad (2.3)$$

bu yerda, V_{2u}^1 – ishchi g'ildirakdan chiqishdagi oqimning tangensial tezligi.

Nasosning nooptimal ish tartiblarida ishchi g'ildirak atrofidagi aylana bo'yicha statik bosim ancha miqdorga o'zgarishi natijasida uning nosimmetrik ishlashi sababli tebranish yuzaga kelishi va radial ta'sir etuvchi kuchlar hosil bo'lishi mumkin.


Ishchi g'ildirak bilan spiralsimon moslamaning «til» qismi orasida $S_t = (0,03 \dots 0,05) D_2$ o'lchamda tirqish qoldiriladi (D_2 –ishchi g'ildirak diametri). Spiralsimon moslamaning oxirgi qismidagi diffuzor kengayish burchagi $6 \dots 12^\circ$ -li konus uzatkich shaklida tayyorlanadi. Unda suyuqlikni tezligi birmuncha pasayadi, ya'ni kinetik energiyasi potensial energiyaga aylanadi.

Tuzilishi sodda va FIK yuqori bo'lganligi sababli spiralsimon moslama markazdan qochma nasoslarda keng qo'llaniladi. Yo'naltiruvchi moslamada (2.19.b-rasm) ishchi g'ildirakdan chiqqan suyuqlik qo'zg'almas kurakli kengayuuvechi (diffuzor) kanallarga tushadi va tezligi pasayib, bosimi ortadi. Moslama kuraklari va kanallari bosimli suyuqliknini keyingi seksiyadagi ishchi g'ildirakning kirish qismiga yetkazib beradi. Bunday qo'zg'almas kurakli yo'naltiruvchi moslama ko'p pog'onali nasoslarni ixcham holda tayyorlash uchun qo'llaniladi. Lekin ular nasoslarning ichki tuzilishini murakkablashtiradi va FIK ni pasaytiradi.



2.19-rasm. Nasoslarning olib ketish moslamalari tasvirlari:
 a - spiralsimon moslamalni nasos: 1-spiralsimon kanal; 2-ishchi g'ildirak;
 3- diffuzor-uzatkich; 4-«til» qismi; b - yo'naltiruvchi moslamalni nasos:
 1 - ishchi g'ildirak; 2 - yo'naltiruvchi moslama kanallari;
 3-yo'naltiruvchi moslama kuraklari


Ishchi g'ildirak zinchlagichi (zichlash-saqlash halqasi). Ishchi g'ildirakdan chiqish va unga kirish qismlaridagi bosimlar farqi hisobiga suyuqlik qobiq bilan ishchi g'ildirak old gardishi oralig'idagi C bo'shliqda A nuqtadan B nuqta tomonga oqib o'tadi (2.20-rasm). Ana shu oqimcha hisobiga nasosning suyuqlik uzatishi Q ishchi g'ildirak suv uzatishidan kamroq bo'ladi. Oqimcha q miqdorini kamaytirish uchun ishchi g'ildirakni kirish qismi gardishi bilan qobiq orasi tor (0,2...0,5 mm) tirqishli zinchlagich o'rnatiladi.



2.20-rasm. Markazdan qochma nasos tirkishidagi suyuqlik oqimchasi tasviri:

1-ishchi g'ildirak; 2-tirkishdagи zichlash-saqlash halqasi.

2.21-rasm.
Zichlagichlarning
shakllari:
a-halqasimon;
b-burchakli;
d, e, f-labirintli.



Qobiq va ishchi g'ildirak gardishlarini suvdagi qattiq zarrachalar va kavitsiya ta'sirida yeyilishdan saqlash maqsadida zichlash qismi maxsus almashtirib turiladigan zichlash halqalari shaklida yeyilishga chidamli materiallardan tayyorlanadi. Ishchi g'ildirak zichlagichlari tuzilishi turli shakllarda bo'lishi mumkin: halqasimon, burchakli, labirintli (2.21-rasm).

Detallarni tayyorlashdagi aniqliklarni hisobga olib S_1 tirkish kengligi S tirkish kengligidan qattaroq o'lchamda olinadi. Agar tirkishning kengligi S hamma turdagи zichlagichlar uchun $S=\text{sonst deb qabul qilinsa}$, suv sarfi koefitsiyenti $\mu=0,4\dots0,5$ (2.21,a-rasm); $\mu=0,35\dots0,45$ (2.21,b-rasm); $\mu=0,15\dots0,2$ (2.21,e-rasm) qiyatlarga teng bo'ladi [37].

Tirkishdagi suv sarfi quyidagi formuladan topiladi [19,45];

$$q = \mu \cdot F \sqrt{2g\Delta H}, \quad (2.4)$$

bu yerda, F-tirqishning kesim yuzasi, ΔH – tirqishdagi bosimlar farqi.

Tirqishdagi bosimlar farqi g'ildirak gardishining suyuqlikka beradigan aylanma harakati ta'siri hisobiga nasosning bosimidan kamroq bo'ladi ya'ni

$$\Delta H = H - \Delta H_{ay}, \quad (2.5)$$

$$\Delta H_{ay} = \frac{\omega^2}{8g} (R_2^2 - R_0^2), \quad (2.6)$$

bu yerda, N-nasosning bosimi; ΔH_{ay} – suyuqlikni gardish ta'siridagi aylanma harakatidan hosil bo'luvchi bosimlar farqi; ω – ishchi g'ildirakning burchak tezligi; R_0 va R_2 – ishchi g'ildirakning kirish va chiqish aylanasi radiuslari.

Tirqishdagi oqimcha q miqdori ΔH bosimlar farqidan tashqari tirqishning shakli, kengligi, eni va yuzasining g'adur-budurligiga ham bog'liq bo'ladi.

Tirqishdagi bosimlar farqi yoki zichlagichdagi bosim isroflari ΔH ning aniqroq qiymatini topish uchun adabiyotlarda quyidagicha tavsiyalar beriladi [19,45]:

– agar tirqish o'chhami $S \leq S_j = 0,3 + 0,004 D_3$ bo'lsa:

$$\Delta H = H_p - \frac{U_2^2}{8g} \left[1 - \left(\frac{D_3}{D_2} \right)^2 \right]; \quad (2.7)$$

– agar $S > S_j$ bo'lsa, ya'ni yejilish natijasida tirqish kengayib ketgan hollarda:

$$\Delta H = H_p - \frac{U_2^2}{8g} \left[1 - \left(\frac{D_3}{D_2} \right)^2 \right] \left(\frac{D_2}{D_3} \right)^2; \quad (2.8)$$

bu yerda, D_2 va D_3 – mos ravishda ishchi g'ildirak va uning zichlagichi diametrlari; m; H_p – potensial bosim; m; U_2 – ishchi g'ildirakdan chiqishdagi aylanma tezlik, m/s; S_j – tirqishning joiz kengligi, mm; S – tirqishning ma'lum bir ish mudatidan keyingi kengligi, mm.

Yuqoridagi (2.8) formula bilan bajarilgan hisoblar shuni ko'rsatdi, o'rta va yuqori bosimli markazdan qochma nasoslar uchun (ya'ni $D_2/D_3=2\dots 3$ bo'lган hollarda) ΔH manfiy qiymatga teng bo'ladi. Bu esa haqiqiy ho'satga to'g'ri kelmaydi.


Shuning uchun nasoslardan tabiiy sharoitda foydalanishni e'tiborga olib, ΔH ni tajribalar asosida quyidagi empirik formula bilan aniqlash tavsiya etilgan [20]:

$$\Delta H = H_p - \frac{U_2^2}{8g} \left[\left(1 - \frac{\bar{A}_3}{\bar{A}_2} \right)^2 \right] \frac{\bar{A}_2}{\bar{A}_3} \left(1 - \frac{S_o}{S} \right); \quad (2.9)$$

bu yerda, S_o- tırqıshning boshlang'ich kengligi.

Nasoslardan foydalanimishda tirdishning kengligi S zinchash elementlarining yejilishi hisobiga kattalashadi va hajmiy FIKni kamayishiga olib keladi. Ta'mirlash davrida zinchash-saqlash halqalarini almashtirilib, tirdishning kengligi S me'yoriy darajaga keltiriladi. Zamonaliviy nasoslar uchun hajmiy FIK $n_s = 0,995$ qiymatga teng.

Salniklar nasosni so‘rish va bosimli tomonlariga valning qobiqidan tashqariga chiqish joylariga o‘rnataladi. Shuning uchun ular so‘rish yoki bosimli salnik deb ataladi. So‘rish salnigi o‘rnataladigan joyida vakuummetrik bosim hosil bo‘ladigan hollarda, nasos ichiga havo kiritmaslik uchun xizmat qiladi (2.22-rasm). Buning uchun unga oziqlantiruvchi quvurcha (7) orqali bosimli suv yuborilib, «gidravlik qulfi» hosil qilinadi.



2.22-rasm. So'rish
salnigi tuzilishi:
1-qobiq; 2-gruntbuksa;
3-g'ilof; 4-ip-gazlama
to'qima; 5-qopqoq; 6-
gidravlik zichlash
halqasi;
7-oziqlantiruvchi
quvurcha.

Bosimli salnik bosimli suyuqlikni ichkaridan tashqariga oqishini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli unga (6) gidravlik zinchash

halqasi va (7) oziqlantiruvchi quvurcha o'rnatish zarurati bo'lmaydi. Oddiy salnik to'nglaydigan moy bilan grafit kukuni aralashmasi emdirilgan ip-gazlama to'qima yoki kanop (4), valga mahkam o'rnatilgan (2) grunbuksa, (3) saqlovchi g'ilof, (1) qobiq va (5) zichlovchi qopqoqdan iborat bo'ladi. Qopqoq yordamida salnik suv tomib turadigan darajada vaqtı-vaqtı bilan sozlab turiladi. Ishqalanish ta'sirida ip-gazlama to'qima qiziydi, yeyiladi va doimiy kuzatib, xizmat ko'rsatish talab qiladi. Uning xizmat muddati toza suvda 500...600 soat, loyqa suvda 150...200 soat atrofida bo'ladi.

Podshipniklar va tayanchlar. Rotoring radial kuchlarini qabul qilish uchun sirpanma va tebranma (sharikli yoki rolikli) podshipniklar qo'llaniladi.

K, D, IHC turdag'i nasoslarda hosil bo'lishi mumkin bo'lgan o'qiy va radial kuchlarni muvozanatlash uchun tebranma podshipniklar keng qo'llaniladi. Ba'zi D turdag'i nasoslarda sirpanma ishqalanish podshipniklari qobigiga radial-tirgakli podshipniklar ham o'rnatilishi mumkin.

Katta vertikal valli va quduq nasoslarida radial kuchlarni qabul qilish uchun sirpanma podshipniklar keng qo'llaniladi. Sirpanma podshipniklar lignofolli, tekistolitli va rezinali silindrsimon halqalardan iborat bo'lib, suv bilan moylanadi. Moy bilan yog'lanadigan hollarda yuzasi bronza va babbitt quymali cho'yanda tayyorlangan silindirsimon halqali sirpanma podshipniklar ham o'rnatilishi mumkin. Vertikal valli nasoslarda o'qiy kuchlarini elektr dvigatelning tavonlari qabul qiladi.

O'qiy kuchlarni muvozanatlash moslamalari. Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragining kirish qismidagi vakuummetrik bosimni P_1 , g'ildirak old va orqa gardishlari yonlaridagi C va D bo'shliqdagi suyuqlik manometrik bosimini P_2 (2.20- rasm) deb belgilaymiz. Bosimlar $P_2 - P_1$ farqi hisobiga A nuqtadan B nuqtaga C bo'shliq orqali suyuqlik oqimchasi qaytib o'tadi. G'ildirak aylanishi hisobiga 2 zichlagich oldidagi bosim P_3 g'ildirakning P_2 bosimidan kamroq bo'ladi. C bo'shliqda bosimni qancha miqdorga pasayishini (2.5) yoki (2.9) formula bilan hisoblash mumkin.

Ishchi g'ildirak har ikki tomonida C va D bo'shliqlardagi bosimlarni shartli ravishda teng deb qabul qilib, unga ta'sir etuvchi o'qiy kuchni quyidagi taxminiy formula bilan aniqlash mumkin [16,47]:

$$P_{o_4} = \gamma\pi H(R_y^2 - r_b^2) - \frac{\gamma\pi\omega}{16g} [(R_z^2 - r_b^2)^2 - (R_z^2 - R_y^2)^2] + \gamma\pi R_y^2 h_{wk}; \quad (2.10)$$

yoki soddalashtirilgan holda:

$$P_{o \cdot q} = \gamma \pi H (R_o^2 - r_b^2) \quad (2.11)$$


bu yerda, γ – cuyuqlikning solishtirma og‘irligi ($9806,5 \text{ N/m}^3$); H – nasosning bosimi, m; R_o , r_b – ishchi g‘ildirak chiqish, kirish va g‘ilofi radiuslari, m; ω – burchak tezligi, $\frac{1}{c}$; h_{vak} – nasosning vakuummetrik so‘rish balandligi, m; R_y – ishchi g‘ildirak zichlagichi radiusi, m.

Ko‘p pog‘onali MC va vertikal B turdagи nasoslarda o‘qiy kuchlar katta qiymatga ega bo‘ladi va ularni tirkakli podshipniklar qabul qilishi qiyinlashadi. O‘qiy kuchlar miqdorini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalilanadi:

a) ishchi g‘ildirakka suyuqlikni ikki tomonidan kiritish. D turdagи nasoslarda suyuqlik oqimini ishchi g‘ildirakning ikki tomonidan simmetrik kiritish o‘qiy kuchlarni muvozanatlashuviga olib keladi (2.4-rasm);


b) ko‘p pog‘onali nasoslarda ishchi g‘ildiraklarini juft-juft, kirish qismalarini qarama-qarshi simmetrik joylashtirib, suyuqlikni kiritish yo‘li bilan o‘qiy kuchlarni muvozanatlash usuli (2.10 - rasm);

d) ishchi g‘ildirakni har ikki tomonidagi bosimlarni tenglashtirish. Yuqoridagi (2.10) formuladan mulohaza qilish mumkinki, ishchi g‘ildirak kirish qismi va g‘ilofi radiuslari R_o va r_b chegaralarida bosimlar teng emasligi oqibatida o‘qiy kuchlar hosil bo‘ladi. Agar ishchi g‘ildirak orqa gardishiga zichlagich radiusi R_y aylanasida K silindrik zichlash halqasi o‘rnatalib, pastki qismida teshikchalar teshilsa, u holda g‘ildirakning old va orqa qismlaridagi kuchlar muvozanatlashadi (2.23 - rasm). Bu usul sonda va qulay bo‘lganligi uchun bir tomonlama suyuqlik kiradigan ishchi g‘ildirakli nasoslarda keng qo‘llaniladi. Lekin ishchi g‘ildirak atrofida qo‘srimcha aylanuvchi oqimcha paydo bo‘lishi nasosning hajmiy FIK ni kamaytiradi.



2.23-rasm. Ishchi g‘ildirakdagi teshikchalar yordamida o‘qiy kuchlarni muvozanatlash.

g) kuch yengillashtiruvchi gidravlik tovon qo'llash. Ko'p pog'onali markazdan qochma nasoslarda oxirgi ishchi g'ildirakdan keyin valga engillashtiruvchi gardish (tovan) mahkam o'rnatilib (2.24-rasm), o'qiy kuchlar muvozanatlanadi. Yengillashtiruvchi gardish chap tomonida bosim P_2 , o'ng tomonidagi bosim P_1 ga teng bo'ladi, chunki o'ng tomoni maxsus quvurcha orqali ishchi g'ildirakning kirish qismiga bog'lanadi. Gardishga va ishchi g'ildirakka ta'sir etuvchi kuchlar qarama-qarshi yo'nalishda bo'lishi ularni muvozanatlashuviga olib keladi.



2.24-rasm. O'qiy kuchlarni maxsus yengillashtiruvchi gidravlik tovon bilan muvozanatlash.

Bunday kuch yengillashtiruvchi moslama avtomatik holda sozlanadi. Lekin yengillashtiruvchi gardish diametrini hisoblar asosida to'g'ri tanlanishi lozim. Kuch yengillashtiruvchi gidravlik tovonning kamchiligi: mexanik ishqalanish va qo'shimcha oqimcha hisobiga energiya ortiqcha sarflanadi. Undagi oqimcha miqdori nasosning suv sarfiga nisbatan 3% atrofida bo'ladi.

2.1-masala. Agar nasosning ishchi g'ildiragi diametri $D_2 = 270$ mm va kirish qismi diametri $D_0 = 100$ mm, bosimi $H = 90$ m va aylanish chastotasi $n = 2900$ ay/min bo'lsa, uning burchakli zichlash qismi tirkishidan qaytib o'tuvchi oqimcha miqdorini aniqlang.

Yechish: burchak tezligi

$$\omega = \frac{\pi \cdot n}{30} = \frac{3,14 \cdot 2900}{30} = 300 \frac{1}{s};$$

Ishchi g'ildirak aylanishidan hosil bo'luvchi bosimlar farqi [(2.6) formula]:

$$\Delta H_{av} = \frac{\omega}{8g} \cdot (R_2^2 - R_0^2) = \frac{300}{8 \cdot 9,81} (0,135^2 - 0,05^2) = 17,5 \text{ m.}$$

Demak, zichlagichdagi bosimlar farqi teng [(2.5) formuladan]:

$$\Delta H = 90 - 17,5 = 72,5 \text{ m}$$

Burchakli shakldagi zichlagich uchun $\mu=0,4$ va $S=0,3\text{mm}$ qabul qilib, undagi oqimcha miqdarni topamiz:

$$q = \mu F \sqrt{2g\Delta H} = 0,4 \cdot 0,000123 \sqrt{19,62 \cdot 72,5} = 0,00184 \text{ m}^3 / \text{s} = 1,84 \text{ l/s}$$

2.2- masala. Ishchi g'ildiragi diametri $D_2 = 2050 \text{ mm}$ va kirish qismi diametri $D_0 = 1580 \text{ mm}$, zichlagich qismi diametri $D_y = 1700 \text{ mm}$, g'ilofi diametri $d_s = 350 \text{ mm}$ bo'lgan V turdag'i nasosning validagi o'qiy kuchni aniqlang. Nasosning aylanish chastotasi $p = 250 \text{ ay/min}$, bosimi $H = 30 \text{ m}$, kirish qismidagi vakuum 3 m suv ustuniga teng.

$$\text{Yechish: burchak tezligi } \omega = \frac{\pi}{30} = \frac{3,14 \cdot 250}{30} = 26 \frac{1}{s}$$

Nasos o'qi bo'yicha ta'sir etuvchi kuchini (2.10) formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$P_{o,q} = 9806 \cdot 3,14 \cdot 30 (0,85^2 - 0,175^2) - 9806 \frac{3,14 \cdot 26^2}{16 \cdot 9,81} [(1,025^2 - 0,175^2)^2 - (1,025^2 - 0,85^2)^2] + \\ + 9806 \cdot 3,14 \cdot 0,85^2 \cdot 3 = 578750 \text{ N} = 0,57875 \text{ mN}$$

Demak, gidravlik o'qiy kuch juda katta katta miqdorni tashkil etadi ya'ni $P_{o,q} = 578750 \text{ N} = 59 \text{ t}$ ga teng. To'la o'qiy kuch miqdorini aniqlash uchun ushbu qiymatga ishchi g'ildirak va valning og'irlik kuchini ham qo'shiladi.

Nazorat savollari

- 1.Kurakli nasoslar qanday tasniflanadi?
- 2.Kurakli nasoslar qanday belgilanadi?
- 3.Markazdan qochma nasosning ishlash tarzini tushuntiring.
- 4.Konsolli markazdan qochma nasosning tuzilishi qanday bo'ladi?
- 5.Ikki tomonlama suyuqlik kiradigan markazdan qochma nasosning tuzilishi va ishlash tarzini tushuntiring.
- 6.Ko'p pog'onali markazdan qochma nasoslar qanday tuzilgan?
- 7.Vertikal valli markazdan qochma nasoslarning tuzilishi va ishlash tarzi qanday bo'ladi?
- 8.Maxsus markazdan qochma nasoslarning qanday turlari ishlab chiqariladi?


9. Markazdan qochma quduq nasoslarini necha guruhg'a bo'linadi va ular quduqqa qanday o'rnatiladi?
10. O'qiy nasoslarning tuzilishi va ishlash tarzini tushuntiring.
11. O'qiy nasoslarning asosiy detallari va belgilanishini aytib bering?
12. Diagonal nasoslarning ishchi g'ildiragida suyuqlik oqimi harakati qanday bo'ladi?
13. Kurakli nasoslarning ishchi g'ildiragi tuzilishi va vazifasini tushuntiring.
14. Nasos vali va podshipniklarining ahamiyati va ishdan chiqish sabablari nimalardan iborat?
15. Nasosning qobig'i va uning elementlarini tushuntiring.
16. Nasos salniklarining turlari va tuzilishi qanday bo'ladi?
17. Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi zichlagichi tuzilishi, ahamiyati va vazifasini tushuntiring.
18. Markazdan qochma nasoslarda ishchi g'ildiragi zichlagichidagi oqimcha miqdori qanday aniqlanadi?
19. Markazdan qochma nasoslarda o'qiy kuchlarni hosil bo'lish sababi, miqdori va muvozanatlash moslamalarini tushuntiring.

3-bob. KURAKLI NASOSLARNING NAZARIYASI

3.1. Kurakli nasoslarning ishchi g'ildiragidagi oqimning kinematikasi

Markazdan qochma nasosda suyuqlik harakati. Ishchi g'ildirakdagi kuraklar soni cheksiz bo'lgan holda suyuqliknинг soddalashtirilgan harakat sxemasini ko'ramiz (3.1-rasm). Bu holda suyuqliknинг oqimchali harakati mavjud bo'ladi ya'ni suyuqlik har bir zarrachasining harakat yo'li kuraklar yo'nalishiga mos tushadi.

Ishchi g'ildirakni ω burchak tezligida aylanishi natijasida soddalashtirilgan oqimchaning M zarrachasi ikki xil harakatda qatnashadi: aylanish doirasiga urinma yo'nalishda u aylanma tezlik vektori bilan ko'chirma harakatda va kuraklarga urinma yo'nalishda W nisbiy tezlik vektori bilan nisbiy harakatda.



3.1-rasm. Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi geometriyasi
(a) va unga kirish va chiqishdagi tezliklар diagrammasи (b).

Nisbiy W va aylanma u tezliklар vektorlari geometrik yig'indisidan parallelogramm diagonalini absolyut v tezlik vektori topiladi. Absolyut v va aylanma u tezlik vektorlari orasidagi burchak α , nisbiy tezlik vektori W va aylanma u tezlik vektorining manfiy yo'nalishlari orasidagi burchak β deb belgilanadi. Odatda, ishchi g'ildirak geometrik o'lchamlari va kinematik kattaliklarini kuraklarga kirish nuqtasida 1 indeks va chiqish nuqtasida 2 indeksda qabul qilinadi.

Absolyut V tezlikni radius bo'yicha V_m – merdional tezlikka va aylana urinmasi bo'yicha V_u tangensial tezlikka ajratib, kuraklarni chiqish nuqtasi uchun quyidagicha ifodalash mumkin:

$$V_{2m} = V_2 \sin \alpha_2 \quad (3.1)$$

$$V_{2u} = V_2 \cos \alpha_2$$

Nasosning ishslash sharoiti uning suyuqlik uzatishi Q va aylanish chastotasi n bilan belgilanadi. Ishchi g'ildirak kirish qismini ko'rib chiqamiz. Ishchi g'ildirak kuraklariga kirishdan oldingi oqimning tezligi S.S.Rudnev formulasi bilan aniqlanadi [47,48]:

$$V_0 = (0,06 \dots 0,08) \sqrt[3]{Q^2 n}. \quad (3.2)$$

Ishchi g'ildirak kirish qismi diametri D_o quyidagi tenglamadan hisoblanadi:

$$Q = \eta_x \cdot V_0 \pi (D_o^2 - d_g^2) \quad (3.3)$$

bu yerda, d_g – ishchi g'ildirak g'ilofi diametri; η_x – hajmiy FIK.

Ishchi g'ildirak kuraklariga kirish aylanasi diametri D_l va keltirilgan diametri $D_{l,kel}$ (m) quyidagi formuladan topiladi:

$$D_l^2 = D_{l,kel}^2 + d_g^2; \quad (3.4)$$

$$D_{l,kel}^2 = (4 \dots 4,6) \sqrt[3]{Q/n}. \quad (3.5)$$

Ishchi g'ildirak g'ilofi d_g va valning diametri d_v (m) quyidagicha qabul qilinadi:

$$d_g = (1,2 \dots 1,4) d_v, \quad (3.6)$$

$$d_v = (0,13 \dots 0,16) \sqrt[3]{N/n} \quad (3.7)$$

Ishchi g'ildirakka kirishdagi aylanma tezlik u_1 va absolyut tezlik V_1 :

$$u_1 = \frac{\pi D_1 n}{60}, \quad (3.8)$$

$$V_1 = \frac{V_0}{\psi_1}, \quad (3.9)$$

Qisilish koeffitsiyenti ψ_1 , quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Psi_1 = 1 - \frac{ZS_1 / \sin \beta_1}{\pi D_1} \quad (3.10)$$

bu yerda, S_1 – kirishdagi kuraklarning qalnligi, Z – kuraklar soni.

Dastlabki hisoblar uchun $\psi_1 = 0,75 \dots 0,83$ qabul qilinadi. Ishchi g'ildirakka kirishdagi bosim isroflarini kamaytirishi uchun $\alpha_1 = 90^\circ$ qabul qilinadi ya'ni oqimni kuraklarga zurbasiz kirishi ta'minlanadi. U holda

$$V_{1u} = 0; \quad V_1 = V_{1m} \text{ va } \operatorname{tg} \beta_1 = \frac{V_{1m}}{u_1} \quad (3.11)$$

Suyuqlik oqimining haqiqiy harakatida uning kirish burchagi β_1 kuraklarning o'rnatilish burchagi β_{1k} ga mos tushmaydi. Ular o'rtasidagi farq α_x hujum burchagi deyiladi:

$$\alpha_x = \beta_{1k} - \beta_1 \quad (3.12)$$

Hujum burchagi $\alpha_x = 3 \dots 8^\circ$ qabul qilinadi.

Ishchi g'ildirak chiqish qismi yuzasi

$$F_2 = \pi D_2 \sigma_2 \Psi_2 \quad (3.13)$$

bu yerda, D_2 – ishchi g'ildirak chiqish aylanasi diametri; σ_2 – kuraklarning chiqishdagi eni; Ψ_2 – chiqishdagi kesim yuzasini kuraklar hisobiga qisilish koeffitsiyenti

Koeffitsiyent Ψ_2 , quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Psi_2 = 1 - \frac{ZS_2 \sin \beta_2}{\pi D_2}; \quad (3.14)$$

bu erda S_2 – kuraklarning chiqishdagi qalnligi.

Taxminiy dastlabki hisoblarda $\Psi_2 = 0,9 \dots 0,95$ qabul qilinadi.

Ishchi g'ildirakdan chiqishdagagi merdional V_{2m} , aylanma u_2 , nisbiy W_2 va absolyut V_2 tezliklar qiymatlarini quyidagi formulalardan topiladi:

$$V_{2m} = \frac{Q}{\eta_x \Psi_2 \pi D_2 \sigma_2}, \quad (3.15)$$

$$u_2 = \frac{\pi D_2 n}{60} \quad (3.16)$$

$$W_2 = \frac{V_{2m}}{\sin \beta_2} = \frac{Q}{\eta_x \Psi_2 \pi D_2 \sigma_2 \cdot \sin \beta_2} \quad (3.17)$$

$$V_2 = \frac{Q}{\eta_x \Psi_2 \pi D_2 \sigma_2 \sin \alpha_2}, \quad (3.18)$$

Tezliklar uchburchaklaridan quyidagilarni keltirib chiqarish mumkin:

$$W_2^2 = u_2^2 + V_2^2 - 2u_2 V_2 \cos \alpha_2 \quad (3.19)$$

$$W_1^2 = u_1^2 + V_1^2 - 2u_1 V_1 \cos \alpha_1 \quad (3.20)$$

$$u_2 = V_{2u} + W_2 \cos \beta_2 = V_{2u} + V_{2m} c t d \beta_2, \quad (3.21)$$

$$\frac{V_2}{u_2} = \frac{\sin \beta_2}{\sin(\alpha_2 + \beta_2)}, \quad (3.22)$$

Ishchi g'ildirakdan chiqishdagagi burchaklar qiymatlari $\alpha_2 = 8 \dots 12^\circ$ va $\beta_2 = 16 \dots 40^\circ$ qabul qilinadi.

O'qiy nasosda suyuqlik harakati. O'qiy nasoslar ishchi g'ildiragida suyuqlik o'q yo'nalishida harakat qilishi bilan ajralib turadi. Oqimning kinematikasi r radiusli alohida silindrik qirqimlar uchun tahlil qilinadi (3.2-rasm).

Silindrik qirqimdagagi ishchi g'ildirak kuraklarining hamma nuqtalarida aylanma tezliklar teng bo'ladi, chunki uning qiymatilari radius r va aylanish chastotasi n orqali aniqlanadi [32,49]:

$$u_1 = u_2 = u = \frac{2\pi r n}{60}, \quad (3.23)$$

Absolyut va nisbiy tezliklarning o‘qiy (merdional) tashkil etuvchilari V_m va W_m qirqimning hamma nuqtalarida bir xil bo‘ladi:


$$V_{1m} = W_{1m} = V_{2m} = W_{2m}, \quad (3.24)$$

$$\text{yoki} \quad V_1 \sin \alpha_1 = W_1 \sin \beta_1 = V_2 \sin \alpha_2 = W_2 \sin \beta_2,$$

Chunki oqim nasos o‘qiga parallel harakat qilishini e’tiborga olinsa, nasosning nazariy suyuqlik uzatishi Q_t ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q_t = 0,25 \Psi \pi (D^2 - d_s^2) V_{1m} = 0,25 \Psi \pi (D^2 - d_s^2) V_{2m}; \quad (3.25)$$

bu yerda, D – ishchi g’ildiragi diametri; d_s – ishchi g’ildirak gubchagi diametri; Ψ – kuraklar qalinligi hisobiga oqimning qisilish koefitsiyenti ($\Psi < 1$).



3.2-rasm. O‘qiy nasos tasviri (a) va undagi oqimning kinematikasi (b): 1-ishchi g’ildirakning suyri gubchagi; 2-ishchi g’ildirak kuraklari; 3-ish bo‘linmasi; 4-to‘g’rilovchi moslama; 5- sirpanma podshipnik.

Suyuqlik kuraklarga zorbasi kiradi va kuraklar yupqa deb qabul qilinsa $\alpha_l=90^\circ$, $V_1=V_{1m}=V_{2m}=V_m$ deb hisoblash mumkin. Yuqoridagi keltirilgan tengliklar asosida ishchi g'ildirakka kirish va chiqishdagi tezlik diagrammasini tuzish mumkin (3.2-rasm).

Ishchi g'ildirak gubchak nisbati $Z_s=0,4\dots0,6$ qabul qilinadi:


$$Z_s = \frac{d_s}{D}, \quad (3.26)$$

O'rtacha nisbiy tezlikni quyidagi formuladan topiladi:

$$W_\infty = V_m / \sin \beta_\infty$$

$$\text{yoki} \quad W_\infty = \sqrt{V_m^2 + [u - 0,5(V_{2u} + V_{lu})]^2} \quad (3.27)$$

Yuqoridagi formulalar suyuqliknin cheksiz kichik radial kanal orqali soddalashtirilgan o'qiy harakati uchun to'g'ri bo'ladi. Aslida harakat ancha murakkab bo'lib, kuraklar oralig'i ancha keng bo'lganligi uchun yakka qanotni cheksiz suyuqlik oqimi oqib o'tish jarayoniga o'xshab ketadi (3.3-rasm).



3.3-rasm. O'qiy nasos ishchi g'ildiragi kuragini profili (a), qarshilik va ko'tarish kuchlari koeffitsiyentlarining hujum burchagi α , ga bog'likligi (b).

Kurak bilan suyuqlikning o'zaro ta'sir kuchi G-natijasida suyuqlikning harakati vujudga keladi. Bu G kuchni ikki yo'nalishga

ajratish mumkin, ya'ni oqimga perpendikular G_y ko'tarish kuchi va oqimga ro'baro' G_x qarshilik kuchi deyiladi:

$$G_y = C_y S \cdot \frac{\rho \cdot V^2}{2}; \quad G_x = C_x S \cdot \frac{\rho \cdot V^2}{2} \quad (3.28)$$

$$\frac{G_y}{G_x} = \frac{C_y}{C_x} = 50...60 = K - \text{kurakning sifati deyiladi.}$$

bu erda S_y va S_x -ko'tarish kuchi va qarshilik kuchi koeffitsiyentlari; ρ -suyuqlikni zichligi; S – kurakning yuzasi, $s = s \cdot \ell$; V – kurakning eni, ℓ – xordasi, V – oqimning boshlang'ich tezligi.

Tajribalar asosida qanoatning eng yuqori FIK hujum burchagi $\alpha_r = 12...14^0$ qiymatlariga to'g'ri kelishi aniqlangan (3.3, b-rasm).

3.2. Kurakli nasoslarning asosiy tenglamasi

Kurakli nasoslarning nazariy bosimini aniqlashda 1754-yilda L.Eyler tomonidan tavsiya etilgan suyuqlikning soddalashtirilgan oqimchali nazariyasi tatbiq qilinadi. Eyler tenglamasini keltirib chiqarish uchun ideal suyuqlik kuraklar soni cheksiz bo'lgan ishchi g'ildirakda soddalashtirilgan oqimchali harakat qiladi deb, faraz qilinadi. Demak, suyuqlikning gidravlik qarshiligi hisobga olinmaydi va oqimning traektoriyasi kuraklar yo'nalishiga mos tushadi. Harakat miqdori momentining o'zgarish qonuniga asosan aylanish o'qiga nisbatan ikkita kesim orasida oqayotgan suyuqlik massasi harakat miqdori momentining o'zgarishi $M_2 - M_1$ tashqi kuchlar momentlari yig'indisi ΣM ga teng bo'лади [16,32] (3.1,b va 3.2, b-rasmlar):

$$\Sigma M = M_2 - M_1 = \rho Q_t (V_{2u} R_2 - V_{1u} R_1) \quad (3.29)$$

bu yerda, Q_t – ishchi g'ildirakning nazariy suyuqlik uzatishi;

Ushbu (3.29) tenglamani har ikki tomonini ω burchak tezligiga ko'paytirib, ko'paytma $\sum M \cdot \omega = N$, ya'ni ishchi g'ildirakning suyuqlikka beradigan foydali quvvatini topishimiz mumkin:

$$\Sigma M \omega = N_f = \rho g Q_t H_{tx}; \quad (3.30)$$

H_{∞} – kuraklar soni cheksiz bo‘lgan ishchi g‘ildirakning nazariy bosimi.

Yuqoridagi (3.29) va (3.30) ifodalardan quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\rho Q_t \omega (V_{2u} R_2 - V_{1u} R_1) = \rho g Q_t H_{\infty}. \quad (3.31)$$

Ushbu ifodadan $\omega R = u$ va $V_u = V \cdot \cos \alpha$ tengliklarini e’tiborga olib, nasosning nazariy bosim tenglamasini hosil qilamiz:

$$H_{\infty} = \frac{u_2 V_2 \cos \alpha_2 - u_1 V_1 \cos \alpha_1}{g} \quad (3.32)$$

Ba’zi hollarda $G = 2\pi RV \cdot \cos \alpha$ –sirkulatsiya tushunchasi orqali tenglama quyidagicha ifodalanadi:

$$H_{\infty} = \frac{\omega}{g 2\pi} (G_2 - G_1). \quad (3.33)$$


Hosil bo‘lgan (3.32) va (3.33) formulalar kurakli nasoslarning asosiy tenglamasi yoki Eyler tenglamasi deyiladi.

Asosiy tenglama (3.22) ni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, nasosni ishchi g‘ildiragi diametri D_2 va aylanish chastotasi n ni orttirish yo‘li bilan yuqori bosimga erishish mumkin. Bundan taqari α_2 burchakni kamaytirilsa ham bosim ortadi.

Suyuqlikni kuraklarga zarbsiz kirishi ta’mirlansa yoki $\alpha_1 = 90^\circ$ holda g‘ildirak kuraklari loyihalansa, nazariy bosim N_{∞} maksimal qiymatga teng bo‘ladi:

$$H_{\infty} = \frac{u_2 V_2 \cos \alpha_2}{g} = \frac{u_2 V_{2u}}{g} \quad (3.34)$$

Yuqoridagi (3.32), (3.33) va (3.34) turli shakllarda ifodalangan Eyler tenglamasi nasosning energetik ko‘rsatkichlari va ishchi g‘ildirakdagi suyuqlik harakati shartlarini bog‘lovchi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tenglama hisoblanadi.



3.4-rasm. Ishchi g'ildirak kuraklari orasidagi oqimning nisbiy harakati:

a- kuraklar soni cheksiz; b-kuraklar soni cheklangan

Kuraklari soni cheklangan ishchi g'ildirakdagi suyuqlik harakati kuzatilsa, soddalashtirilgan oqimchali harakat emas, balki oqimning uyurmali harakati mavjud bo'ladi. Kuraklarning old devoridagi nisbiy tezlik orqa devoridagi nisbiy tezlikka nisbatan kam bo'ladi, bosim esa aksincha (3.4-rasm). Ana shu farq hisobiga kuraklarning suyuqlik oqimiga ta'sir kuchi paydo bo'ladi. Ishchi g'ildirak kuraklari soni cheklangan holda nisbiy tezlik W_2 o'z yo'nalishini o'zgartiradi va mos ravishda V_2 , hamda V_{2u} tezliklar qiymatlari ham o'zgaradi (3.5-rasm).

Kuraklar soni cheklangan nasos nazariy bosimi quyidagicha topiladi.

$$H_r = \chi H_{r\infty} \quad (3.35)$$


$\chi = \frac{V_{2u}^1}{V_{2u}^0}$ - sirkulatsiya koeffitsiyenti deb atalib, uning qiymati kuraklar

soni, ularning shakli, suyuqliknin holati va R_1 hamda R_2 radiuslarga bog'liq bo'ladi [9,27].

Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragi kuraklarining egilishini nasosning bosimiga bog'liqligini tahlil qilamiz.

Tezliklar uchburchaklaridan $V_{2u}^1 = u_2 - W_2 \cos \beta_2$ tengligini aniqlaymiz va bu qiymatni (3.34) formulaga qo'yib, quyidagi ifoda shakliga keltiramiz:


$$H_r = \frac{u_2^2}{g} \left(1 - \frac{W_2}{u_2} \cos \beta_2\right) \quad (3.36)$$



3.5-rasm. Kuraklar soni cheklanganda ishchi g'ildirak tezliklar parallelogramining o'zgarishi.

Kuraklarning egilganligini β_2 burchak orqali taxlil etish mumkin ya'ni $\beta_2 < 90^\circ$ (orqa tomonga egilgan), $\beta_2 = 90^\circ$ (radial) va $\beta_2 > 90^\circ$ (old tomonga egilgan) (3.6-rasm):

1) kuraklari ishchi g'ildirak aylanishiga teskari egilgan holda $\beta_2 < 90^\circ$ va $\cos \beta_2 > 0$ qiymatga teng bo'ladi (3.6,b-rasm). Bunda (3.36) formuladan $H_r < \frac{u_2^2}{g}$ ifodani hosil qilamiz.



3.6-rasm. Kuraklarning egilishini turli holatlari.

2) kuraklari ishchi g'ildirak aylanish tomoniga egilgan holda $\beta_2 > 90^\circ$ va $\cos \beta_2 < 0$ qiymatga teng bo'ladi. Yuqoridagi (3.36) ifodadan $H_r > \frac{u_2^2}{g}$ qiymatga ega bo'lamiz.

3) kuraklari ishchi g'ildirak radiusi bo'yicha yo'nalgan holda $\beta_2 = 90^\circ$ va $\cos \beta_2 = 0$ Demak (3.36) formuladan nasosning bosimi teng: $H_r = \frac{u_2^2}{g}$ qiymati hosil bo'ladi. Demak, markazdan qochma nasosning bosimi kuraklar old tomonga egilgan holda ($\beta_2 > 90^\circ$) katta qiymatga, orqa tomonga egilganda esa ($\beta_2 < 90^\circ$) kichik qiymatga ega bo'ladi. Lekin β_2

burchakning qiymati ortgan sari katta miqdordagi kinetik energiyani potensial energiyaga (ya'ni dinamik bosimini statik bosimga) aylantirish jarayoni gidravlik yo'qotishlarni ortishiga va nasosning FIK kamayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun amaliyotda markazdan qochma nasoslar ishchi g'ildiragi kuraklari orqa tomonga egilgan ($\beta_2 < 90^\circ$) holda tayyorlanadi va tezliklar uchburchaklari burchaklari. $\alpha_1 = 90^\circ$, $\beta_1 = 25 \dots 30^\circ$, $\alpha_2 = 8 \dots 12^\circ$, $\beta_2 = 15 \dots 40^\circ$ qabul qilinadi.

3.3. Nasoslarning ichki energiya yo'qotishlari

Nasosning ish jarayonida uch xil energiya yo'qotishlari sodir bo'ladi: gidravlik yo'qotish, hajmiy yo'qotish va mexanik yo'qotish.

1. Gidravlik yo'qotishlar gidravlik FIK orqali baholanadi:

$$\eta_g = \frac{H}{H_t} = \frac{H}{H + h_{\text{nas}}}, \quad (3.37)$$

bu yerda, H – nasosning haqiqiy bosimi; h_{nas} – nasosning ichki gidravlik energiya yo'qotishlari yig'indisi.

Yuqoridagi (3.35) va (3.37) ifodalardan foydalananib, nasosning haqiqiy bosimi aniqlanishi mumkin:

$$H = \eta_g H_t = \chi \cdot \eta_g \cdot H_{t\infty}, \quad (3.37)$$

2. Mexanik yo'qotishlar mexanik FIK bilan baholanadi:

$$\eta_{\text{mex}} = \frac{N - N_{\text{mex}}}{N} = \frac{N_i}{N}, \quad (3.38)$$

bu erda, N – valdag'i quvvat; N_{mex} – ishchi g'ildirak gardishining suyuqlik bilan ishqalanishi, podshipnik va salniklardagi ishqalanishlar hisobiga mexanik yo'qotishlarga sarf bo'ladi quvvat; N_i – indikator quvvat, ($N_i = \gamma \cdot Q_i H_t / 102$).

Yuqoridagi η_g va η_{mex} koefitsiyentlari nasosning konstruksiyasi sifatli tayyorlanganligini belgilovchi qiymatlaridir.

3. Hajmiy yo'qotishlar hajmiy FIK orqali baholandi va nasosning zichlanganlik darajasini belgilaydi:

$$\eta_{xaj} = \frac{Q}{Q_t} = \frac{Q}{Q-q} \quad (3.40)$$

qaysiki, q – nasosning zichlagich va salniklaridagi oqimchalar

Demak, nasosning haqiyqiy suv uzatishi:

$$Q = \eta_{xaj} Q_t \quad (3.41)$$

Zichlagich qismidagi tirkishdan o'tadigan oqimcha (2.4) formula bilan aniqlanadi. Nasosning η_g , η_{xaj} va η_{mex} FIKlari qiyamatlarining aniq miqdorlarini hisoblab topishning iloji yo'qligi sababli tajribalar asosida markazdan qochma nasoslarning hisobiy ish tartiblari uchun quyidagi empirik formulalardan foydalaniib aniqlash tavsiya etiladi [19,37]:

$$\eta_g = 0,7 + 0,0835 \log D; \quad (3.42)$$

$$\eta_{xaj} = \frac{1}{1 + 0,68 n_s^{-2/3}}; \quad (3.43)$$

$$\eta_{mex} = \frac{0,97}{1 + 820 n_s^{-2}}. \quad (3.44)$$

Zamonaviy markazdan qochma nasoslар uchun: $\eta_g = 0,90 \dots 0,92$, $\eta_{xaj} = 0,96 \dots 0,99$, $\eta_{mex} = 0,94 \dots 0,97$ ga teng bo'lib, to'la FIK quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta = \eta_r \cdot \eta_{xaj} \cdot \eta_{mex} = \frac{H}{H_i} \cdot \frac{Q}{Q_t} \cdot \frac{N_t}{N} = \frac{9,81 \cdot QH}{N_i} \cdot \frac{N_t}{N}$$

bu yerda, $N_i = 9,81 \cdot Q_t \cdot H_t$ ga teng. U holda

$$\eta = \frac{9,81 \cdot QH}{N} = \frac{N_f}{N} \quad (3.45)$$

Demak, nasosning to'la FIK har uchala FIKlari ko'paytmasiga teng bo'lib, foydali quvvatni valdag'i quvvatga nisbati bilan aniqlanadi.

3.4. Nasoslarning o'xshashlik qonuniyatları va ularni andozlash

Texnikada biror yangi qurilmani yaratish uchun laboratoriyyada uni kichraytilgan modeli (andozasi) yordamida tajriba o'tkaziladi. Andozani yasash va undan olingan sinov natijalarini asliga ko'chirish

uchun ular o‘rtasidagi hodisalarni o‘zaro bog‘lovchi o‘xshashlik qonuniyatlaridan foydalaniadi. Ikkita tekisliklarning bir-biriga mos tushuvchi nuqtalaridagi o‘xshash miqdorlari nisbatlari bir xil bo‘lgan fizik hodisalar o‘xshash hodisalar deyiladi. Gidrodinamik hodisalarni andozalash geometrik, kinematik va dinamik o‘xshashliklar asosida olib boriladi [19,27,37].

Har qanday bir ismli geometrik o‘lchamlari nisbatlari bir xil qiymatga ega ikkita nasos geometrik o‘xshash deyiladi, ya’ni:

$$\frac{D_{2,as}}{D_{2,an}} = \frac{D_{o,as}}{D_{o,an}} = \frac{\theta_{2,as}}{\theta_{2,an}} = \frac{\ell_{as}}{\ell_{an}} = i_D = const \quad (3.46)$$

bu yerda, $D_{2,as}$, $D_{o,as}$, $\theta_{2,as}$, ℓ_{as} – asl nusxadagi nasosning o‘lchamlari; $D_{2,an}$, $D_{o,an}$, $\theta_{2,an}$, ℓ_{an} – andoza nasos o‘lchamlari.

Andoza va asl nusxa nasoslarning tezliklari uchburchagidagi har qanday bir ismli tezliklarni nisbati o‘zgarmas va vektorlar orasidagi a burchaklari va β burchaklari teng bo‘lsa, mashinalar kinematik o‘xshash deyiladi, ya’ni:

$$\alpha_{1as} = \alpha_{1an}; \quad \alpha_{2as} = \alpha_{2an}; \quad \beta_{1as} = \beta_{1an}; \quad \beta_{2as} = \beta_{2an}; \quad (3.47)$$

$$\frac{V_{1as}}{V_{1an}} = \frac{V_{2as}}{V_{2an}} = \frac{W_{1as}}{W_{2an}} = \frac{u_{1as}}{u_{1an}} = \frac{u_{2as}}{u_{2an}} = \frac{60 D_{2,as} n_{as}}{60 D_{2,an} n_{an}} = i_D \cdot i_n = const : \quad (3.48)$$

$$\text{bu yerda } i_n = \frac{n_{as}}{n_{an}}; ; \quad i_D = \frac{D_{as}}{D_{an}} \quad (3.49)$$

Dinamik o‘xshashlik shartlari geometrik va kinematik o‘xshash bo‘lgan mashinalarning o‘xshash nuqtalaridagi inersiya kuchlarining ishqalish yoki gravitatsion kuchlarga nisbatlari tengliklari bilan belgilanadi. Bu esa odatda Reynol`ds Re, Frud Fr va Struxal Sh soni kabi o‘xshashlik kriteriyalarning tengligi bilan ifodalanadi:

$$Re_{as} = Re_{an}; \quad Fr_{as} = Fr_{an}; \quad Sh_{as} = Sh_{an} \quad (3.50)$$

Kurakli nasoslarda kinematik o‘xshashlik shartlari bajarilsa, Frud va Struxal sonlari tengligi saqlanadi. Reynol`ds soni suyuqliknini yopishqoqligiga bog‘liq bo‘lganligi uchun suv uzatuvchi nasoslarda uni

hisobga olinmaydi. Shunday qilib suv uzatuvchi kurakli nasoslar uchun geometrik va kinematik o‘xshashlik qonuniyatlari bajarilishi yetarli bo‘ladi.

Odatda kurakli nasoslarni o‘xshashlik nazariyasida o‘lchamsiz kriteriyalar sifatida mashinalar ish faoliyatini belgilovchi Q, H va N kabi miqdorlarning nisbatlari qabul qilinadi.

Ikkita geometrik o‘xshash nasos kinematik o‘xshash ish tartiblarida ishlayotgan bo‘lsin. Agar hajmiy FIKlari $\eta_{x,as} = \eta_{x,an}$ deb qabul qilinsa, ularning suv uzatishlari Q_{as} va Q_{an} nisbatlari quyidagicha yoziladi:

$$\frac{Q_{as}}{Q_{an}} = \frac{\eta_{x,as} D_{2,as} \theta_{2,as} V_{2m,as}}{\eta_{x,an} D_{2,an} \theta_{2,an} V_{2m,an}} = i_D \cdot i_D \cdot i_D \cdot i_n ;$$

$$\frac{Q_{as}}{Q_{an}} = i_D^3 \cdot i_n ; \quad (3.51)$$

$$\frac{Q_{as}}{D_{as}^3 n_{as}} = \frac{Q_{an}}{D_{an}^3 n_{an}} = \frac{Q}{D^3 \cdot n} = const . \quad (3.52)$$

Agar gidravlik FIK $\eta_{g,as} = \eta_{g,an}$ bo‘lsa, o‘xshash nasoslarning bosimlari H_{as} va H_{an} nisbatlari quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{H_{as}}{H_{an}} = \frac{u_{2,as} \cdot V_{2u,as} \cdot g \cdot \eta_{g,as}}{u_{2,an} \cdot V_{2u,an} \cdot g \cdot \eta_{g,an}} = i_D \cdot i_D \cdot i_n \cdot i_n ;$$

$$\frac{H_{as}}{H_{an}} = i_D^2 \cdot i_n^2 ; \quad (3.53)$$

$$\frac{H_{as} \cdot g}{D_{as}^2 n_{as}^2} = \frac{H_{an} \cdot g}{D_{an}^2 n_{an}^2} = \frac{H \cdot g}{D^2 \cdot n^2} = const . \quad (3.54)$$

O‘xshash ish tartiblarda ishlayotgan geometrik o‘xshash nasoslarning quvvatlari N_{as} va N_{an} nisbatlari ($\eta_{as} = \eta_{an}$ teng bo‘lgani holda) quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{N_{as}}{N_{an}} = \frac{Q_{as} H_{as}}{Q_{an} H_{an}} = i_D^5 \cdot i_n^3 \quad (3.55)$$

$$\frac{N}{D^5 n^3} = \text{const} \quad (3.56)$$

Yuqoridagi (3.51) va (3.53) ifodalarni birgalikda yechib, andozalash mashtablari i_D va i_n qiymatlari topiladi:

$$i_D = \sqrt{\frac{Q_{as}}{Q_{an}}} \cdot \sqrt{\frac{H_{as}}{H_{an}}} ; \quad (3.57)$$

$$i_n = \sqrt{\frac{Q_{as}}{Q_{an}}} \cdot \sqrt{\left(\frac{H_{as}}{H_{an}}\right)^3} \quad (3.58)$$

O'xshashlik kriteriyalarini keltirib chiqarishda nasoslarning FIKlari teng, ya'ni andozalash mashtabiga bog'liq emas deb qabul qilingan edi. Aslida esa andozalash mashtabi FIKga bog'liq bo'lib, uni hisoblash uchun amaliyotda Modi formulasidan foydalaniladi:

$$\eta_{as} = 1 - (1 - \eta_{an}) \cdot i_D^{-0.45} \cdot i_n^{-0.2} \quad (3.59)$$

Xususiy hollarda, agar asl nusxa va andoza nasoslarning aylanish chastotalari teng ($n_{as} = n_{an}$) yoki bir nasosni o'zida ($D_{2,as} = D_{2,an}$) aylanish chastotalari o'zgarsa, andozalash shartlari quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{Q}{D^4} = \text{const} ; \quad \frac{H}{D^2} = \text{const} ; \quad \cdot \quad \frac{N}{D^5} = \text{const} ; \quad (3.60)$$

$$\frac{Q}{n} = \text{const} ; \quad \frac{H}{n^2} = \text{const} ; \quad \text{const} ; \quad \frac{N}{n^3} = \text{const} ;$$

$$\text{yoki} \quad \frac{Q_1}{Q} = \frac{n_1}{n} ; \quad \frac{H_1}{H} = \left(\frac{n_1}{n}\right)^2 ; \quad \frac{N_1}{N} = \left(\frac{n_1}{n}\right)^3 ; \quad (3.61)$$

Oxirgi (3.61) ifodalar dinamik o'xshashlik formulalari deyiladi.

Chiqarilgan qonuniyatlar kurakli nasoslarni loyihalash, sinash va foydalanishda keng qo'llaniladi. O'xshashlik qonuniyatları kichik andoza nasosning sinov natijalari asosida katta asl nusxa nasosning o'lchamlari va xarakteristikasini keltirib chiqarish, nasoslarning xarakteristikasini bir aylanish chastotasidan boshqasiga qayta hisoblash, talab qilinadigan xarakteristikalaridagi yuqori FIKli nasosni loyihalash va boshqa shu kabi imkoniyatlarni beradi.

3.5. Nasoslarning tezkorlik koeffitsiyenti

Tezkorlik koeffitsiyenti n_s kurakli nasoslarni suyuqlikka bergen energiyasi baholash va ularni bir-biriga solishtirishga imkon beradi.

Nasos ishchi g'ildiragining solishtirma aylanish chastotasi yoki tezkorlik koeffitsiyenti deb, ko'rيلayotgan nasosning ishchi g'ildiragiga geometrik o'xhash bo'lган, faraz qilinayotgan yangi andoza nasosning ishchi g'ildiragi aylanish chastotasiga aytildi. Bunday andoza g'ildirakning o'lchamlari shunday tanlanadiki, bosimi $H_{an}=1m$, suv uzatishi $Q_{an}=75 l/s$ bo'lгanda, suyuqlikka bir ot kuchi $N_{an}=10t.k.$ quvvat bera olishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi (3.58) formulaga $Q_{an}=0,075 m^3/c$, $H_{an}=1m$, qiymatlarini qo'yib, solishtirma aylanish chastotasini aniqlaymiz:

$$n_{an} = n_s = n \sqrt{\frac{Q}{Q_{an}}} \sqrt{\left(\frac{H_{an}}{H}\right)^3};$$

$$n_s = \frac{3,65 n \sqrt{Q}}{H^{3/4}}; \quad (3.62)$$


Bu formula bir tomonlama suyuqlik kiradigan bir g'ildirakli nasoslarning eng qulay ish tartiblari uchun to'g'ridir. Ikki tomonlama suyuqlik kiradigan va ko'p g'ildirakli nasoslarning ish ko'rsatkichlarini hisobga olib, formulani quyidagicha umumiy ko'rinishda yozish mumkin:

$$n_s = \frac{3,65 n \sqrt{Q / i_k}}{(H / i_p)^{3/4}}; \quad (3.63)$$

bu yerda, i_k — ishchi g'ildirakka kirish tomonlari soni; i_p — pog'onalar soni.

Tezkorlik koeffitsiyenti n_s nasosning uchta asosiy ish ko'rsatkichini o'z ichiga oluvchi universal kriteriyadir. Ushbu tezkorlik koeffitsiyenti nasos turini to'la ifodalashi mumkin. Masalan, har xil turdag'i tuzilishdagi va turli shakldagi oqimli qismlarga ega bo'lган, lekin n_s qiymati teng nasoslarning ko'p xossalari bir-biriga yaqin bo'ladi. Tezkorligi yuqori ($n_s = 400...800$) bo'lган nasoslarning o'lchamlari va og'irligi kam bo'ladi, lekin kichik bosim hosil qiladi va suv uzatishi

ko‘proqdir. Hamma o‘xshash bo‘lgan nasoslarning n_s koeffitsiyenti bir xil qiymatga teng, lekin hamma hollarda n_s qiymati teng nasoslar o‘xshash bo‘lavermaydi.



3.7-rasm. Tezkorlik koeffitsiyenti bo‘yicha nasoslarning ishchi g‘ildiragi shaklari:

I, II, III - markazdan qochma nasoslar (mos ravishda: sekinyurar, o‘rtacha, tezkor); IV - o‘qiy nasoslar; V - diagonal nasoslar.

Tezkorlik koeffitsiyenti miqdoriga qarab, nasoslarning ishchi g‘ildiragi shakli va o‘lchamlari o‘zgarib boradi, hamda ularni sekinyurar, o‘rtacha, tezkor markazdan qochma, o‘qiy va diagonal nasoslar guruhiiga bo‘lish mumkin (3.7-rasm).

3.6. Nasoslardagi kavitatsiya hodisasi va ularning joiz so‘rish balandligi

Kavitatsiyaning hosil bo‘lishi. Kavitatsiya deb, suyuqlik oqimi biror nuqtasida bosimning keskinlik (kritik) miqdorigacha, ya’ni uning to‘yingan bug‘lari (elastik) bosimi darajasiga pasayishi natijasida oqimning uzlusizlik xususiyati buzilishiga aytildi. Bu jarayon suyuqlikda gazlar va bug‘lar bilan to‘lgan kavitations pufakchalar hosil bo‘lishga sabab bo‘ladi.

Kurakli nasoslarda kavitatsiya pufakchalari ishchi g‘ildiraklarning suyuqlik oqimi bosimi kritik miqdorigacha pasayadigan sirtlari yonida hosil bo‘ladi va ular oqim bilan katta bosimli qismalarga harakat qiladi. Yuqori bosim ta’sirida pufakcha ichidagi bug‘lar suyuqlikka aylanadi, ya’ni kondensatsiyalanadi. Hosil bo‘lgan pufakchadagi bo‘shliqqa har

tomondan suyuqlik zarrachalarining katta tezlikda intilishi natijasida ularning to‘qnashishi va bir necha ming atmosfera miqdorida bosim ortishi yuz beradi, ya’ni pufakcha yoriladi. Buning oqibatida katta tezlikka ega bo‘lgan va metall sirtlariga zarba beruvchi mikro - oqimcha yuzaga keladi. Mikro - oqimchaning tezligi shu darajada yuqori bo‘ladiki, bu joyda suyuqlikning «kummulyativ», ya’ni qattiq jism xususiyatiga ega bo‘ladigan holati vujudga keladi va metall sirlarni emiradi [14, 50].

Kavitasiyaning rivojlanishi nasoslarning Q, H, N va η kabi ko‘rsatkichlarni pasayishga olib keladi, ularda shovqin, qars-qurs ovozlar va qaltirash vujudga keladi.


Kurakli nasoslarda kavitasiyaning hosil bo‘lishiga olib keluvchi bocimni pasayish sabablari quyidagilar [11]:

- a) suyuqlik uzatishi Q-ni ko‘payishi natijasida W nisbiy tezlikni ortishi;
- b) nasosning ichki tuzilishi mukammal emasligi, oqibatida, suyuqlik oqimida uyurmalar va sirdan ajralishlar hosil bo‘lishi;
- d) nasosning geodezik so‘rish balandligi h_s va so‘rish tarmog‘ining gidravlik qarshiligi ortishi;
- e) barometrik bosimni kamayishi, hamda suyuqlik haroratini ortishi.

Nasosning joiz so‘rish balandligi va kavitasiya zaxirasi. Nasosning so‘rish balandligini aniqlash uchun 3.8 - rasmda keltirilgan tasvirdan foydalaniib, O-O tenglashtirish tekisligiga nisbatan 1-1 va 2-2 kesimlar uchun Bernulli tenglamasi tuzamiz:

$$\frac{P_a}{\gamma} + \frac{V^2}{2g} = \frac{P_s}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} + h_s + \sum h_{ws}, \quad (3.64)$$

bu yerda, $\frac{P_a}{\gamma}$ -atmosfera bosimi (m); $\frac{P_s}{\gamma}$ -nasosga kirishdagi absolyut bosim (m); V_s - nasosga kirishdagi oqimning tezligi, m/s; $\sum h_{ws}$ – so‘rish tormog‘idagi gidravlik qarshiliklar yig‘indisi (m); h_s – geodezik so‘rish balandligi (m).



3.8-rasm. Nasosning so‘rish balandligini aniqlash tasviri.

Agar pastki sathdagi suvning tezligi $V_{ps} = 0$ bo‘lsa, nasosning kirish S nuqtasidagi absolyut bosim quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$\frac{P_s}{\gamma} = \frac{P_a}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} - h_s - \sum h_{ws}; \quad (1.13)$$

Yuqoridagi (3.64) ifodadan nasosning geodezik so‘rish balandligi h_s ni aniqlash mumkin:

$$h_s = \frac{P_a}{\gamma} - \frac{P_s}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} - \sum h_{ws}; \quad (3.65)$$

Nasosga kirish nuqtasida bosim to‘yingan bug‘lar bosimidan kam ($P_s \leq P_{bug}$) bo‘lsa, kavitasiya boshlanadi. Bu holda eng katta geodezik so‘rish balandligi quyidagicha ifodalanadi:

$$h_{s_{max}} \leq \frac{P_a}{\gamma} - \frac{P_{bug}}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} - \sum h_{ws} \quad (3.66)$$

$P_a/\gamma = H_a$ va $P_{bug}/\gamma = h_{bug}$ deb belgilab, (3.66) ifodani qo‘yidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$h_{s_{max}} \leq H_a - h_{bug} - \frac{V_s^2}{2g} - \sum h_{ws}; \quad (3.67)$$

Geodezik so‘rish balandligi h_s nasos stansiyalari qurilishida asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Lekin h_s orqali kavitatsiyaning rivojlanish

darajasini aniqlab bo‘lmaydi. Shu sababli nasoslarning kavittatsion xossalarini solishtirish va joiz so‘rish balandligini tanlash maqsadida maxsus kavittatsiya zaxirasi (Δh) deb ataladigan mezondan foydalaniladi.

Kavittatsiya zaxirasi Δh suyuqlikni nasosga kirishdagi to‘la solishtirma energiyasini (E_{kir}) uning to‘yingan bug‘lar bosimi energiyasidan (E_{bug}) qancha ortiqchaligini ko‘rsatadi:

$$\Delta h = E_{kir} - E_{bug} \quad (3.68)$$

$$\text{yoki} \quad \Delta h = \frac{P_s}{\gamma} + \frac{V_s^2}{2g} - \frac{P_{bug}}{\gamma}; \quad (3.69)$$

Yuqoridagi (1.13) formuladagi P_s/γ qiymatini (3.69) ifodaga qo‘yib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\Delta h = \frac{P_a}{\gamma} - \frac{V_s^2}{2g} - h_s - \sum h_{ws} + \frac{V_s^2}{2g} - \frac{P_{bug}}{\gamma};$$

$$\Delta h = H_a - h_{bug} - h_s - \sum h_{ws}, \quad (3.70)$$

$$h_s = H_a - h_{bug} - \Delta h - \sum h_{ws} \quad (3.71)$$

Ushbu (3.71) formulani (1.15) ifodaga qo‘yib, vakummetrik so‘rish balandligini aniqlaymiz:

$$H_{vak} = H_a - h_{bug} - \Delta h + \frac{V_s^2}{2g}, \quad (3.72)$$

Nasos kavittatsiyasiz ishlashi uchun Δh kavittatsiya zaxirasini joiz kavittatsiya zaxirasidan katta qiymati $\Delta h \geq \Delta h_j$ olinadi. U holda yuqoridagi formulalar quyidagicha ifodalanadi:

$$H'_{vak} \leq H_a - h_{bug} - \Delta h_j + \frac{V_s^2}{2g}; \quad (3.73)$$

$$h_{s,j} \leq H_a - h_{bug} - \Delta h_j - \sum h_{ws}; \quad (3.74)$$

$$h_{s+j} \leq H'_{vak} - \sum h_{ws} - \frac{V_s^2}{2g}. \quad (3.75)$$

Joiz kavitatsiya zaxirasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta h_j = K \cdot \Delta h_{kr} \quad (3.76)$$

bu yerda, K–zaxira koeffitsiyenti bo‘lib, uning qiymati Δh_{kr} va nasosning ish tartibi asosida taxminiy qabul qilinadi ($K=1,1\dots1,5$); Δh_{kr} - kritik kavitatsiya zaxirasi;

Nazariy jihatdan Δh_{kr} qiymati quyidagi formula bilan topiladi [37,51]:

$$\Delta h_{kr} = \Delta h_{min} = \xi_{kr} \frac{W_1^2}{2g} - \alpha \frac{V_1^2}{2g} \quad (3.77)$$

bu yerda, W_1 va V_1 – kuraklarga kirishdagi oqimning nisbiy va absolyut tezliklari; ξ_{kr} va α -nasosning kirish qismi detallarga bog‘liq koeffitsiyentlar bo‘lib, nasoslarning optimal ish tartiboti uchun, ya’ni $Q=Q_{opt}$ bo‘lganda, $\xi_{kr}=0,2\dots0,3$; $\alpha=1\dots1,2$ qabul qilinadi.

Nasoslarning nooptimal boshqa ish tartiblari ($Q_{min} < Q_{opt} < Q_{max}$) uchun Δh_{kr} qiymati tajriba o’tkazib quriladigan xususiy kavitatsion xarakteristikalaridan tanlab olinadi (3.9-rasm). Xususiy kavitatsion xarakteristikalarini tuzish uchun aylanish chastotasi $n=\text{const}$ bo‘lganda, nasosning uch xil ish tartibotida ($Q_{min} < Q_{opt} < Q_{max}$) sinov o’tkaziladi va $\Delta h=f(H)$ grafiklari quriladi. Xususiy kavitatsion xarakteristikadagi bosimning 2 % pasayish nuqtasiga to‘g‘ri keluvchi Δh qiymati kritik kavitatsion zaxirasi deb qabul qilinadi (3.9-rasm).

Kritik kavitatsiya zaxirasi Δh_{kr} qiymatini aniqlash uchun S.S.Rudnev quyidagi formulani tavsiya etgan:

$$\Delta h_{kr} = 10 \cdot \left(\frac{n\sqrt{Q}}{C} \right)^{4/3} \quad (3.78)$$

bu yerda, S – tezkorlik kavitatsiya koeffitsiyenti o‘zgarmas bo‘lib, uning qiymati tezkorlik koeffitsiyenti n_s ga bog‘liq ravishda adabiyotlarda keltiriladi [11].

Koeffitsiyent S turli kurakli nasoslar uchun juda oz miqdorga o‘zgaradi, o‘xshash nasoslar uchun esa o‘zgarmas qiymatga teng. Yaxshi kavitatsion xususiyatga ega bo‘lgan nasoslarning optimal ish tartiblarida $S=900\dots1100$, yuqori kavitatsion xususiyatlari nasoslarda

$S=1300\ldots1500$ ga teng bo‘ladi. Shunday qilib tezkorlik kavittatsiya koefitsiyenti kritik kavittatsiya zaxirasi Δh_{kr} qiymatini aniqlashdan tashqari, nasoslarning kavittatsion xususiyatini baholash imkoniyatini ham beradi.

Ba’zida tajriba natijalari bo‘limgan hollarda amaliyotda joiz kavittatsiya zaxirasi Δh_j qiymatini topish uchun D.Tom kavittatsiya koefffisientidan (σ) ham foydalaniлади, ya’ni:

$$\Delta h_j = \sigma \cdot H \quad (3.79)$$

Kavittatsiya koefitsiyentini σ quyidagi empirik formula bilan topiladi:

$$\sigma = \frac{n_s^{4/3}}{A}, \quad (3.80)$$

A-nasosning tuzilishiga bog‘liq koefitsiyent bo‘lib, S.S.Rudnev tavsiyasiga asosan, $n_s=110$ bo‘lganda, $A=4700$ va $n_s=180$ bo‘lganda, $A=6300$ qabul qilinadi.

Nasoslarning kavittatsion ko‘rsatkichlari uchun o‘xshashlik qonuniyatlar saqlanadi. Joiz vakummetrik so‘rish balandligi va joiz kavittatsiya zaxirasi aylanish chastotasi o‘zgarishi bilan nasos bosimi singari quyidagi formulalar bilan qayta hisoblanadi:

$$H'_{vak,1} = 10 - (10 - H'_{vak}) \cdot \left(\frac{n_1}{n} \right)^2; \quad (3.81)$$

$$\Delta h_{j,1} = \Delta h_j \cdot \left(\frac{n_1}{n} \right)^2; \quad (3.82)$$


bu yerda, H'_{vak} va Δh_j – nasosning dastlabki n aylanish chastotasidagi joiz vakummetrik so‘rish balandligi va kavittatsiya zaxirasi, m; n va n_1 – dastlabki va yangi aylanish chastotasi, ay/min.

Nasoslarning zavod tomonidan tavsiya etiladigan xarakteristikalarida joiz vakuummetrik so‘rish balandligi H'_{vak} yoki joiz kavittatsiya zaxirasi Δh_j qiymatlari beriladi va ular asosida (3.74) yoki (3.75) formula bilan nasosning geometrik (geoedezik) so‘rish balandligi $h_{s,j}$ aniqlanadi.

Yuqoridagi qiymati odatda dengiz sathidagi atmosfera bosimi ($H_a=10$ m) va sovuq suv ($t \leq 35^\circ\text{C}$) uchun beriladi. Joyning dengiz sathidan balandda va suvni harorati yuqori bo'lishini e'tiborga olib, geodezik (geometrik) so'rish balandligi topishda (3.75) formulaga aniqlik kiritiladi:

$$h_{s,j} = H_{vak}^j - \Sigma h_{ws} - \frac{V_s^2}{2g} - \frac{\nabla}{900} - h_{bug}^j \quad (3.83)$$

bu yerda, ∇ -nasos o'qining o'rnatilish absolyut belgisi, m; h_{bug}^j – to'yingan suv bug'lari bosimi, m; h_{bug}^j – qiymati suvning haroratiga bog'liq bo'lib, adabiyotlarda beriladi [16,23].



3.9-rasm. Nasosning xususiy kavitsion xarakteristikasi.

Nasos o'qining dengiz sathiga nisbatan o'rnatilish absolyut belgisi $\nabla N.O.$ quyidagicha aniqlanadi:


$$\nabla N.O. = \nabla PBSS_{min} + h_{s,j}, \quad (3.84)$$

bu yerda $\nabla PBSS_{min}$ – pastki befdag'i (manbadagi) suv sathining minimal absolyut belgisi, m.

Kavitsiyaga qarshi kurash choralari. Kavitsiya hodisisi nasoslarning ish tartibini buzishga va uning ishchi detallarini yemirilishiga sabab bo'lgani uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha unga qarshi kurash choralari olib boriladi:

a) konstruktiv tadbirlar, ya'ni detallari oqimning silliq harakatini ta'minlaydigan, tuzilishi mukammal nasoslar ishlab chiqarish;

b) texnologik tadbirlar o'z navbatida 2 xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Birinchisi detallarni yuzlariga toza ishlov berish bilan bog'lik texnologik tadbirlar. Ikkinchisi esa kavitsiyaga chidamli metallar qo'llash, ya'ni detallarni kavitsiyaga chidamli zanglamaydigan po'lat X9N11L, bronza, lignofol va epozid smola asosida tayyorlanadigan polimer materiallardan tayyorlash yoki qoplash;



3.10-rasm. O'qiy nasos universal xarakteristikasida ish tartibini tanlash.

d) loyihalash tadbirlari, ya'ni nasos stansiyalarini loyihalashda geodezik so'rish balandligini (3.75) formula bilan to'g'ri aniqlash;

e) foydalanishdagi tadbirlar ham 3 xil yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi nasosning kavitsiya zaxirasi kam Δh_{min} qiymatlaridagi ish tartibtini tanlab ishlatish (3.10-rasm). Ikkinchisi - so'rish tarmog'i yoki xas-cho'p to'suvchi panjarani ifloslanishiga va to'silishiga yo'l qo'ymaslik. Uchinchisi - suvga turli xildagi polimer poroshoklar aralashtirilib, uning sirt tarangligin orttirish usuli bilan amalga oshiriladi.

3.1 - masala. Suv haydashi $Q=6 \text{ m}^3/\text{c}$, joiz kavitsiya zaxirasi $\Delta h_j=14 \text{ m}$ ga teng bo'lgan 1200B-4,3/100 (52B-11) belgidagi nasos sug'orish tarmog'iga suv chiqarishga mo'ljallangan. Manbadagi suv sathining absolyut belgisi $\nabla PBSS_{min}=120 \text{ m}$ bo'lgan holda nasos o'qining o'rnatilish belgisini aniqlang.

Yechish: katta vertikal valli nasoslarga standart shakldagi so'rish quvurlari o'rnatilganligi sababli uning gidravlik qarshiligi kavitsion xarakteristikasida e'tiborga olinadi. Shuning uchun $\Sigma h_{ws}=0$ qabul

qilinadi. Sug'orish suvining harorati $t=20^0$ qabul qilnsa, $h_{bug'} = 0,24$ m ga teng [23].

Demak, (3,74) formuladan h_s qiymatini quyidagicha aniqlanadi:

$$h_{s,j} = H_a - h_{bug'} - \Delta h_j - \sum h_{ws} = 10 - 0,24 - 14 = -4,24 \text{ m}$$

Nasos o'qining o'rnatilish absolyut belgisi $\nabla N.O' = \nabla PBSS_{min} + h_{s,j} = 120 - 4,24 = 115,76$ m.

3.2-masala. Markazdan qochma D6300-80 (24HD_c) belgidagi nasos $Q_x = 1,5 \text{ m}^3/\text{c}.$, harorati $t=50^0\text{C}$ bo'lgan suvni dengiz sathidan $\nabla 1440$ m balandda joylashgan suv manbasidan yuqoriga uzatishga mo'ljallangan. Nasosning vakuummetrik so'rish balandligi $H'_{vak} = 3,8 \text{ m}$, so'rg'ichi diametri, $D_s = 800 \text{ mm}$ va so'rish tarmog'i gidravlik qarshiliklari yig'indisi $\Sigma h_{ws} = 0,5 \text{ m}$ ga teng bo'lsa, uning geodezik so'rish balandligi va o'qining o'rnatilish belgisini aniqlang.

Yechish: nasos so'rg'ichidagi suvning tezligi

$$V_c = \frac{4Q_{lx}}{\pi D_i^2} = \frac{4 \cdot 1,5}{3,14 \cdot 0,8^2} = 2,93 \text{ m/s}$$

Harorati $t=50^0\text{C}$ teng suv uchun $h_{bug'} = 1,25 \text{ m}$ ga tengligini e'tiborga olib, (3.83) formuladan geodezik so'rish balandligini aniqlaymiz:

$$h_{s,j} = H'_{vak} - \sum h_{ws} - \frac{V_c^2}{2g} - \frac{\nabla}{900} - h_{bug'} = 3,8 - 0,5 - \frac{2,93^2}{19,62} - \frac{1440}{900} - 1,25 = 0$$

Demak, nasosning so'rish balandligi nolga teng, lekin nasosni yurgizishdan avval suvga to'ldirish zarurligini e'tiborga olib, $h_{s,j} = -0,5 \text{ m}$ qabul qilamiz. U holda nasos o'qining o'rnatish belgisi:

$$\nabla N.O' = \nabla PBSS_{min} + h_{s,j} = 1440 - 0,5 = 1339,5 \text{ m}$$

Nazorat savollari

1. Kurakli nasoslarning ishchi g'ildiragiga kirish va chiqishdagi tezliklar diagrammalari qanday tuziladi?
2. Markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragidan chiqishdagi aylanma, nisbiy, absolyut va merdional tezliklarni aniqlash formulalarini tushuntirib bering.

3. O‘qiy nasos nazariy suyuqlik uzatishi qanday aniqlanadi?
4. Kurakli nasoslarning nazariy bosim tenglamasini tushuntirib bering.
5. Ishchi g‘ildiragi kuraklari soni cheksiz va cheklangan markazdan qochma nasos nazariy bosimi qanday ifodalanadi?
6. Markazdan qochma nasoslarda ishchi g‘ildiragi kuraklarining egilish burchagi qanday holda tayyorlanadi?
7. Kurakli nasoslarning hajmiy gidravlik, mexanik va to‘la FIKlarini tushuntirib bering.
8. Kurakli nasoslarni andozalashda qaysi formulalardan foydalilanadi?
9. Qaysi hollarda dinamik o‘xhashlik formularni qo‘llaniladi?
10. Kurakli nasoslarning tezkorlik koeffitsiyentini aniqlash formulasini tushuntirib bering.
11. Tezkorlik koeffitsiyenti miqdori bo‘yicha kurakli nasoslar qanday guruhanadi?
12. Kavittasiya hodisasi deb nimaga aytildi?
13. Nasoslarning joiz geodezik so‘rish balandligi qanday aniqlanadi?
14. Kavittasiya zaxirasi deb nimaga aytildi va uning qiymati qanday aniqlanadi?
15. Nasosning joiz geodezik so‘rish balandligi joyning dengiz sathidan balandligiga suyuqlik turiga va uning haroratiga bog‘liq ravishda o‘zgaradimi?

4-bob. KURAKLI NASOSLARNING XARAKTERISTIKALARI VA ULARNING TURLI SHAROITLARDAGI ISH TARTIBLARI

4.1. Nasoslarning nazariy xarakteristikasi

Turli sharoitlarda nasoslardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ularning ish faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ya’ni xarakteristikalari beriladi. Nasosning xarakteristikasi deb, aylanish chastotasi n o‘zgarmas bo‘lganda, uning bosimi H_t , quvvati N , FIK η va joiz vakuummetrik so‘rish balandligi H'_{2u} ko‘rsatkichlarini suyuqlik uzatishi Q bilan bog‘lanish grafiklariga aytildi. Yuqorida keltirilgan (3.34) L.Eyler tenglamasi nasosning nazariy xarakteristikasini tuzish imkoniyatini beradi [16]. Ishchi g‘ildirak kuraklari sanoqli va ularga oqim zarbasiz kiradigan holda (ya’ni $\alpha_1=90^\circ$ bo‘lganda) nasosning bosimi

$$H_t = \frac{u_2 I'_{2u}}{g}, \quad (4.1)$$

Soddalashtirish uchun $\beta_2=\beta_{2k}$ deb qabul qilib, 3.5-rasmdagi tezliklar uchburchaklaridan keltirib chiqarilgan (3.17) va (3.21) formulalardan quyidagi ifodani hosil qilish mumkin:

$$V'_{2u} = u_2 - w'_2 \cdot \cos\beta_2 = u_2 - \frac{Q_t}{\pi D_2 \sigma_2 \psi_2} \cdot \operatorname{ctg}\beta_2, \quad (4.2)$$

Ushbu (4.2) ifodani (4.1) formulaga qo‘yamiz:

$$H_t = \frac{u_2^2}{g} - \frac{u_2}{g} \cdot \frac{\operatorname{ctg}\beta_2}{\pi D_2 \sigma_2 \Psi_2} Q_t, \quad (4.3)$$

Keltirib chiqarilgan (4.3) formula nasosning nazariy bosim xarakteristikasi tenglamasi bo‘lib, nasosning bosimi va suyuqlik uzatishi to‘g‘ri chiziqli bog‘lanishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Agar ishchi g‘ildirakning kuraklari orqa tomoniga egilgan $\beta_2 < 90^\circ$ bo‘lsa, suyuqlik uzatishi Q_t ortishi bilan bosim H_t pasayib boradi, agar $\beta_2 = 90^\circ$ bo‘lsa,

$c \operatorname{tg} \beta_2 = 0$ va $H_t = \text{const}$ hamda $\beta_2 > 90^\circ$ bo'lganda, Q_t ortishi bilan H_t qiymati ham ortib boradi (4.1 - rasm). Lekin $\beta_2 > 90^\circ$ bo'lgan holda ishchi g'ildirakdan chiqishda V_2 tezlik ortishi natijasida oqimning kinetik energiyasi ortadi, bu esa gidravlik qarshiliklarining ko'payishiga hamda nasosning nomuqum ish tartiblariga sabab bo'ladi. Shuning uchun markazdan qochma nasoslarda $\beta_2 = 15\dots 50^\circ$ qabul qilinadi.

Yuqoridagi (4.3) tenglamadan foydalanib, nasosning nazariy quvvati quyidagicha ifodalanadi:

$$N_t = \rho g Q_t H_t = \rho (u_2^2 Q_t - \frac{u_2 c \operatorname{tg} \beta_2}{\pi D_2 \epsilon_2 \Psi_2} \cdot Q_t^2); \quad (4.4)$$

Ushbu (4.4) formula nasosning nazariy quvvat xarakteristikasini ifodalaydi va quvvat N_t suyuqlik uzatish Q_t bilan egri chiziqli, ya'ni parabola qonuniyati bilan bog'lanishga ega ekanligini ko'rsatadi (4.1,b-rasm).

Nasosning haqiqiy bosim xarakteristikasi (4.1,g-rasm) nazariy xarakteristikasidan gidravlik qarshiliklar hisobiga farq qiladi, ya'ni

$$H = H_t - h_l - h_2; \quad (4.5)$$


$$\text{yoki} \quad H = \eta_r H_t; \quad (4.6)$$

bu yerda, h_l – nasosning ichki ishqalanish va mahalliy qarshiliklari hisobiga bosim isroflari, h_2 – ishchi g'ildirak kuraklariga kirishdagi zarb va uyurmalar hisobiga bosim isroflari, ($\alpha_1=90^\circ$) bo'lganda $h_2=0$; η_r – gidravlik FIK.

Nasosning validagi quvvat N (4.4) formula bilan topiladigan nazariy quvvatidan farq qiladi (4.1,d – rasm) va quyidagicha ifodalanadi:

$$N = N_f + N_g + N_\theta + N_{\text{mex}} + N_T; \quad (4.7)$$

bu yerda, N_f – foydali quvvat; N_g – gidravlik qarshiliklarga sarf bo'ladigan quvvat; N_θ – zichlash qismlaridagi oqimchalarga sarf bo'ladigan quvvat; N_{mex} – mexanik ishqalanishlarga sarflanadigan quvvat; N_T – nasosning ncoptimal ish tartiblarida hosil bo'ladigan uyurmalarga sarflanadigan quvvat yoki tormozlanish quvvatidir.



4.1- rasm. Markazdan qochma nasosning nazariy xarakteristikalari.

Nasosning ichki bosim isroflari h_1 va h_2 yoki η_g , hamda energiya isroflari qiymatlarini nazariy usulda yuqori aniqlikda hisoblashning imkoniyati yo'qligi sababli uning xarakteristikasini sinov o'tkazib tuziladi.

4.2. Nasoslarning xarakteristikalari, turlari va ishchi nuqtani aniqlash


Nasos qurilmalarini loyihalash va ulardan foydalanish davridagi barcha masalalarni yechish uchun nasoslarning turli sharoitlarda ish ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday ma'lumotlar ularning xususiy, universal va o'chamsiz xarakteristikalari shakllarida berilishi mumkin. Ushbu ko'rinishdagi xarakteristikalar nasos tayyorlash

zavodlari tomonidan beriladi va nasoslarning kataloglarida keltiriladi [25,26].


Misol tariqasida 4.2-rasmda 12HD_c belgidagi markazdan qochma nasosning $n=1450$ ay/min aylanish chastotasidagi xususiy xarakteristikasi keltirilgan.

Xarakteristikada ishchi g'ildiragi diametri $D_2=460$ mm, 430 mm va 400 mm bo'lgan holda, H, N, η , H_{vak} qiymatlarining suv uzatish Q bilan bog'lanish grafiklari berilgan bo'lib, nasosning qo'llanish chegarasi $\eta=0,9 \eta_{max}$ qiymatida to'lqinsimon chiziqlar bilan belgilangan.


O'qiy ОП2-110 ($n=485$ ay/min) belgidagi nasosning universal xarakteristikasi kuraklarining burilish burchagi $\varphi=-10^0$ dan $\varphi=+2^0$ chegarasida Q va H koordinat sistemasidagi egri chiziqlar shaklida 4.3-rasmda keltirilgan. Xarakteristikadagi $H=f(Q)$ egri chiziqlari boshlanishida Q ortishi bilan H qiymati to'g'ri chiziq shaklida tez pasayishi, keyingi bo'lagida tez ortishi va oxirgi $Q>3,6 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lgan qismida H bosimni pasayib borishini kuzatish mumkin. Xarakteristikaning oxirgi $Q>3,6 \text{ m}^3/\text{s}$ qismi nasosning tavsiya etiladigan ishlatalish zonasini deyiladi va yo'g'onroq chiziq bilan ajratib ko'rsatiladi. Universal xarakteristikada $H=f(Q)$ chiziqlaridan tashqari FIK $\eta=\text{const}$ va joiz kavitatsiya zaxirasini $\Delta h=\text{const}$ o'zgarmas qiymati egri chiziqlari (izoliniyalari) ham beriladi (Δh punktir egri chiziqlar).



4.2- rasm. Markazdan qochma 12HD_c nasosning xarakteristikasi($n=1450$ ay/min).



4.3-rasm. O‘qiy ОГ12-110 nasosning universal xarakteristikasi ($n=485$ ay/min).




4.4-rasm. O'qiy ОП5 turdag'i nasosning o'lchamsiz xarakteristikasi.

O'qiy nasoslarning o'lchamsiz xarakteristikasi K_n va K_Q koordinata tekisligida kuraklarining har xil o'rnatilish burchagi uchun $K_n = f(K_Q)$, $K_{\Delta h} = \text{const}$ va $\eta = \text{const}$ egri chiziqlari ko'rinishida beriladi (4.4-rasm). (K_Q , K_n , va $K_{\Delta h}$ – mos ravishda o'lchamsiz suv uzatishi, bosimi va kavitasiya zaxirasi koeffitsiyentlari). O'lchamsiz xarakteristikalar bir turdag'i (ОП5) har xil o'lchamdag'i, turli aylanish chastotasidagi bir necha nasoslarning (ОП5-87, ОП5-110, ОП5-145 va h.k.) universal va xususiy xarakteristikalarini keltirib chiqarish imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagi o'xshashlik qonuniyati formulalaridan foydalaniladi:

$$K_Q = \frac{Q}{nD^3}; \quad K_n = \frac{H}{n^2 D^2}; \quad K_{\Delta h} = \frac{\Delta h}{n^2 D^2}; \quad (4.8)$$

bu yerda, n – aylanish chastotasi, ay/s; D – ishchi g'ildirak diametri, m.

Xususiy xarakteristikalarining shakllari ishchi g'ildirakning tuzilishiga ya'ni n_s ga bog'liq ravishda turli ko'rinishda bo'ladi. Nasosning eng qulay ish tartibi FIK η ning maksimal nuqtasiga to'g'ri keladi. FIK $\eta=0,9$ η_{\max} teng bo'lgan qiymatiga to'g'ri keluvchi ish ko'rsatgichlari nasosning ko'llanish chegarasi H chizig'ida to'lqinsimon chiziqlar bilan belgilanadi (4.2-rasm). Tezkorlik koeffitsiyentni n_s kichik bo'lgan nasoslarda FIK yuqori qiymatlari kengroq chegarani egallaydi, n_s katta bo'lgan nasoslardan uchun esa aksincha bo'ladi (4.5-rasm). Tezkorligi n_s katta qiymatlarga ega bo'lgan o'qiy nasoslarda H bosim chizig'inинг buklangan (siniq) qismi ham paydo bo'ladi (4.5 d.-rasm). Quvvat N egri chizig'i n_s ning kichik qiymatlarida Q ortishi bilan yuqoriga ko'tarilib borsa, n_s ning katta qiymatlarida esa aksincha bo'ladi.



4.5-rasm. Kurakli nasoslarning xarakteristikalari shakllari.


Yuqoridagi xarakteristikalarini tahlil qilib aytish mumkinki, markazdan qochma nasoslarni bosimli quvurdagi qulfakni berkitib yurgizish maqsadga muvofiqdir, chunki $Q=0$ bo'lganda, eng oz quvvat talab etiladi. O'qiy nasoslarda esa aksincha, shuning uchun ularning bosimli tomoniga qulfak o'rnatilmaydi.

Nasosning ish tartibini aniqlash uchun uning xarakteristikasidagi Q-H koordinata tizimida quvur tarmog'ining xarakteristikasi yoki quvurning gidrodinamik egri chizig'i quyidagi formula bilan quriladi:

$$H_{tr} = H_g + \sum h_w \quad (1.17)$$

$$\text{yoki} \quad H_{tr} = H_g + R_t Q^2 \quad (1.22)$$

$$\text{bu yerda} \quad R_t = \left(\sum \xi_i + \sum \lambda_i \frac{\ell_i}{d_i} \right) \frac{16}{2g\pi^2 d_i^4} \quad (1.21)$$



4.6-rasm. Nasosning haqiqiy ish tartibini aniqlash.

Yuqoridagi (1.22) ifodadagi Q ga turli qiymatlar berib, quvurning xarakteristikasi yoki gidrodinamik egri chizig'ini yasash mumkin. Nasosning bosim xarakteristikasi $H=f(Q)$ egri chizig'i bilan quvurning $H_{tr}=H_g + R_t Q^2$ gidrodinamik egri chizig'i kesishgan A nuqta ishchi

nuqtasi deyiladi (4.6-rasm). Demak, berilgan nasos $n = \text{const}$ o‘zgarmas aylanish chastotasida muayyan quvur tarmog‘iga ishlaganda H_A bosimga va η_{FIK} ga ega bo‘lib, Q_A miqdordagi suyuqlikni H_g balandlikka chiqara olish qobiliyatiga egadir.

Eslatma: ishchi nuqta A nasosning ishlatilish chegarasidan, ya’ni $\eta = 0,9 \eta_{\text{max}}$ chegaradan tashqariga chiqib ketmasligi zarur (4.2-rasm).

4.3. Nasoslarni ish ko‘rsatkichlarini rostlash

Odatda nasosni maksimal talab etiladigan suv uzatishi bo‘yicha tanlab olinadi. Lekin undan foydalanish sharoitida suv uzatishi miqdorini o‘zgartirish zaruriyati paydo bo‘lishi amaliyotda uchrab turadi. Avval aytib o‘tilganidek, nasosning haqiqiy suv uzatishi uning bosim xarakteristikasi $H=f(Q)$ egri chizig‘i bilan quvurning $H_{tr}=f'(Q)$ gidrodinamik egri chizig‘i kesishgan A ishchi nuqta orqali aniqlanadi (4.6-rasm). Demak, suv uzatishi Q ni nasosning yoki quvurning xarakteristikasini o‘zgartirish hisobiga rostlash mumkin. Amaliyotda nasosning suv uzatishini miqdor va sifat jihatidan rostlash usullaridan foydalaniladi.

Miqdor jihatidan rostlash usuli quyida keltirilgan bir necha xil yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Bosimli quvurdagi qulfak yordamida rostlash yoki drosel-lash. Bu usul kurakli nasoslarni suv uzatishini rostlashda keng qo‘llaniladi. Bunda bosimli quvurdagi qulfakni qisman berkitib borish yo‘li bilan qo‘srimcha qarshilik hosil qilinadi va quvur tarmog‘ining xarakteristikasini o‘zgartiriladi. Demak, (1.22) formuladagi R_T doimiy qiymat $R_T=R_{tr}+R_q$.


bu yerda, R_{tr} – quvurlardagi bosim isroflarini hisobga oluvchi doimiy qiymat, R_q – quvurlarda hosil bo‘luvchi qo‘srimcha qarshilikni hisobga oluvchi koeffitsiyent

U holda quvurlar tarmog‘ining xarakteristikasini aniqlash formulasi

$$H_{tr}=H_g + R_{tr}Q^2 + R_qQ^2 \quad (4.9)$$

Qulfakni berkitish darajasini ortishi bilan R_q – qiymati ham ortib boradi. Qulfakning ochiqlik darjasasi S o‘zgarishi bilan quvurlar tarmog‘i

xarakteristikasini va nasosning suv uzatishini o'zgarishini 4.7-rasmdagi 0-4 nuqtalarda kuzatish mumkin.



4.7-rasm Nasosning suv uzatishini qulfak bilan rostlash.

Yugoridagi 4.7-rasmdagi $Q=f(S)$ grafigidan ko'rinish turibdiki, qulfakni ochiqlik darajasi S qiymatini o'zgarishi hisobiga nasosning suv uzatishini keng chegarada rostlash mumkin bo'ladi. Lekin bu usul bilan rostlashda nasos qurilmasining FIK keskin kamayadi. Uning qiymatini ishchi nuqta I uchun quyidagicha topish mumkin:

$$\eta_i = \frac{H_1}{H_1 + h_k} \cdot \eta_1; \quad (4.10)$$

bu yerda, H_1 va η_1 – nasosning ishchi no'qta I ga to'g'ri keluvchi bosimi va FIK; h_k – qulfakdag'i bosim isroflari ($h_k = H_1 - H_k$); H_k – k nuqtaga to'g'ri keluvchi bosim, m.

Qulfak bilan rostlash juda sodda usul hisoblanadi, lekin qo'shimcha qarshilik hisobiga energiya sarfi ortib ketishi bu usulni asosiy kamchiligidir.

2. Qismanuvni bosimli tomondan so‘rish tomoniga o‘tkazish yo‘li bilan rostlash. Bu usulda bosimli va so‘rish quvurlarni bog‘lovchi qo‘sishmcha aylanma quvurga o‘matilgan qulfakning ochiqlik darajasini o‘zgartirib, bosimli quvurga uzatilayotgan suv miqdorini kamaytirish yoki rostlash amalga oshiriladi. Amaliyotda bunday yo‘l bilan rostlash kam qo‘llaniladi, chunki nasosning FIK qiymati ancha miqdorga kamayib ketadi. Quvvat xarakteristikasi pasayib boruvchi, tezkorligi yuqori bo‘lgan kurakli nasoslarda ushbu usulni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nasos qurilmasining FIK bu holda ham kamayadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\eta_i = \frac{Q_1}{Q_{\max}} \eta_1 \quad (4.11)$$


bu yerda, Q_1 va Q_{\max} – nasosning 1 va 0 nuqtalarga to‘g‘ri keluvchi suv uzatishlari qiymatlari (4.7-rasm).

Bu usulda $\Delta Q = Q_{\max} - Q_1$ – miqdordagi suv bosimli tomondan so‘rish tomoniga qaytib o‘tishi hisobiga nasosning FIK ancha miqdorga kamayadi. Bundan tashqari nasosning haqiqiy suv uzatishi ortishi hisobiga u kavittsion ko‘rsatkichlari yomonlashgan ish tartiblarida ishlaydi. Shuning uchun bu usulni tezkorligi yuqori bo‘lgan o‘qiy nasoslarni yurgizish paytidagina qo‘llash mumkin.


3. Ishchi g‘ildirak kuraklarining burilishi burchagini o‘zgartirib rostlash. Bu usul kuraklarni burilish burchagini ish davrida o‘zgartish imkoniyatini beruvchi mexanizmga ega bo‘lgan kuraklari buriluvchan o‘qiy va diagonal nasoslarda qo‘llaniladi. Ushbu usul nasosning suv uzatishini silliq o‘zgartirish imkoniyatini beradi va FIK ning yuqori qiymatlaridagi ish tartiblarini ta’minlaydi, hamda iqtisodiy jihatdan ancha samaralidir (4.8-rasm).

4. Ishlayotgan nasoslardan sonini o‘zgartirish yo‘li bilan rostlash. Bitta quvurga parallel ulangan nasoslardan suv uzatishini ishlayotgan agregatlar sonini o‘zgartirib rostlash mumkin, lekin bu usulda suv uzatish silliq o‘zgarmay, pog‘onali rostlanadi. Parallel ishlayotgan nasoslarni ish tartibini aniqlash keyingi mavzularda taxlil qilinadi.

5. Markazdan ochma nasoslarda ishchi g‘ildiragini yo‘nish usuli bilan ish ko‘rsatkichlarini rostlash. Markazdan ochma nasoslarning ishchi g‘ildiragini tashqi diametrini yo‘nish yo‘li bilan xarakteristikasi o‘zgartirilganda, FIK biroz o‘zgaradi.



4.8-rasm. O'qiy nasos kuraklarini burilish burchagini o'zgartirib rostlash.



4.9-rasm. Ishchi g'ildiragini yo'nish yo'li bilan markazdan qochma nasos xarakteristikasini qurish.

Bu usul bilan hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Nasos xarakteristikasining (4.9-rasm) Q-H koordinatalar sistemasiga $Q = \alpha \sqrt{H}$ proporsionallik egri chizig'i chiziladi (bu yerda $\alpha = Q_x / \sqrt{H_x}$; Q_x va H_x - nasosning zaruriy (hisobiy) suv uzatishi va bosimi).

Egri chiziq $Q = \alpha \cdot \sqrt{H}$ nasosning $H = f(Q)$ bosim xarakteristikasini E nuqta kesib o'tadi. Nasos ishchi g'ildiragining yangi yo'nilgan diametri C va E nuqtalar koordinatalari bo'yicha aniqlanadi:

$$D_{2y} = D_2 \frac{Q_x}{Q_E} \quad (4.12)$$

bu yerda, D_2 -ishchi g'ildirakning dastlabki diametri, m.

Ishchi g'ildirakning yo'nish darajasi joiz yo'nish qiymatidan kam bo'lishi zarur, ya'ni:

$$\frac{D_2 - D_{2y}}{D_2} \cdot 100 = m \leq m_j \quad (4.13)$$

Joiz yo'nish qiymati nasosning n_s -tezkorligiga bog'liq bo'lib $n_s = 60 \dots 120$ bo'lganda, $m_j = 20 \dots 15\%$; $n_s = 120 \dots 200$ bo'lganda, $m_j = 15 \dots 10\%$; $n_s = 200 \dots 300$ bo'lganda, $m_j = 10 \dots 5\%$;

Agarda ishchi g'ildirakni zaruriy yo'nish miqdori m joiz m_j miqdoridan ortiq bo'lmasa, quyidagi formulalar yordamida nasos xarakteristikasi qayta hisoblanadi:

$$Q_1 = Q \left(\frac{D_{2y}}{D_2} \right)^k; \quad N_1 = N \left(\frac{D_{2y}}{D_2} \right)^{2k}; \quad H_1 = H \left(\frac{D_{2y}}{D_2} \right)^{2k} \quad (4.14)$$

bu yerda, K-koeffitsiyent, $n_s \leq 200$ bo'lganda, $K=1$ teng va $n_s > 200$ bo'lganda $K=1,5$.

Nasosning tezkorlik koeffitsiyenti $n_s \leq 120$ bo'lganda, FIK har 10% yo'nish miqdoridan 1 % ga, agarda $n_s > 120$ bo'lsa, har 10 % yo'nish miqdoridan 4% ga kamaytiriladi. Joiz vakuummetrik so'rish balandligi H_{val} miqdori qayta hisoblanmaydi. Yuqorida keltirilgan (4.14) formulalar yordamida nasosning xarakteristikasi qayta hisoblanib D_{2y} yo'nilgan diametri uchun yangi xarakteristika quriladi (4.9-rasm). Shuni aytib o'tish kerakki, zavod tomonidan tavsiya etiladigan xarakteristikalar bir tur o'Ichamdag'i nasosga turli yo'nilgan diametrlar uchun beriladi va jamlangan grafiklarda to'rtburchakli egri chiziqlar shaklida keltiriladi (4.2-rasm).


Sifat jihatdan nasosni ish ko'rsatkichlarini rostlash usuli aylanish chastotasini o'zgartirib amalgalashiriladi. Nasosni aylanish chastotasini o'zgartirish uning ish ko'rsatkichlarini keng chegarada rostlash imkoniyatini beradi. Bu usul qo'llangandi nasosning ish ko'rsatkichlarini dinamik o'xshashlik qonuniyati formulalari (3.61) asosida hisoblab topish mumkin. Nasosning aylanish chastotasini quyidagi yo'llar bilan o'zgartirish mumkin: 1) elektr toki chastotasini o'zgartib, nasosni harakatga keltiruvchi elektr dvigatel aylanish chastotasini o'zgartirish; 2) elektr dvigatel juft qutblari sonini o'zgartirish; 3) elektr zanjiriga qarshilik kiritish (ushbu 3 usul nasosni harakatga keltiruvchi elektr dvigatel aylanish chastotasini o'zgartirishga

mo‘ljallangan bo‘lib, amaliyotda hali keng qo‘llanilmagan); 4) nasos va dvigatel vallari o‘rtasidagi turli uzatmalar o‘rnatish yo‘li (masalan, tishli, tasmali, gidravlik va elektromagnit muftalar). Lekin ushbu uzatmalar nasos qurilmalarini murakkablashtiradi va narxini qimmat bo‘lishiga olib keladi. Bu rostlash usulini samarali qo‘llash uchun o‘zgaruvchan aylanish chastotasini ta’minlovchi o‘zgarmas tok elektr dvigateli, faza rotorli asinxron elektr dvigatel, bug‘ dvigateli va ichki yonish dvigatelidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Nasos qurilmasining suv uzatishini sifat jihatidan rostlashda zaruriy Q_x miqdordagi suyuqlik uzatishini ta’minlaydigan n_x aylanish chastotasini topish uchun dinamik o‘xshashlik qonuniyatidan foydalanib, quyidagi ifoda bilan proporsionallik egri chizig‘i chiziladi (4.10-rasm):

$$Q = \dot{a} \cdot \sqrt{H}; \quad (4.15)$$

bu yerda, $\dot{a} = \frac{Q_x}{\sqrt{H_x}}$ – proporsionallik koefitsiyenti.



4.10-rasm. Nasosning xarakteristikasini aylanish chastotasini o‘zgartirish usuli bilan qayta qurish

Proporsionallik egri chizig‘i $Q = \dot{a} \cdot \sqrt{H}$ bilan nasosning bosim xarakteristikasi $H=f(Q)$ kesishgan E nuqtanining koordinatalari H_E va Q_E orqali yangi aylanish chastotasi n_x quyidagicha topiladi:

$$n_x = n \frac{Q_x}{Q_E} = n \sqrt{\frac{H_x}{H_E}}; \quad (4.16)$$

bu yerda, n – nasosning dastlabki aylanish chastotasi.

Yangi n_x aylanish chastotasi uchun nasosning xarakteristikasini qayta hisoblashda (3.61) dinamik o'xshashalik formulalaridan foydalilanildi:

$$Q_x = Q_i n; \quad H_x = H \cdot i_n^2; \quad N_x = N \cdot i_n^3$$
$$H_{aux,x} = 10 - (10 - H_{aux}) \cdot i_n^2; \quad i_n = \frac{n_x}{n} \quad (4.17)$$

4.10-rasmida nasosning bosim xarakteristikasi $H_x = f(Q_x)$ egri chizig'i hisobiy suv uzatishi $Q_x < Q_A$ bo'lgan zaruriy ish ko'rsatkichlarini ta'minlovchi S nuqtadan o'tishi ko'rsatilgan.

Bu usul bilan nasosning suv uzatishini orttirish yoki kamaytirish ham mumkin bo'lib, iqtisodiy jihatdan ancha samaralidir. Chunki nasosning FIK o'zgarmaydi. Aylanish chastotasini orttirish nasos ishlab chiqaruvchi zavod bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi, chunki nasos detallari va qobig'ini yuqori bosimga chidamliligi ta'minlangan bo'lishi zarur.

4.4. Nasoslarni parallel ishlashi

Agar bitta quvur tarmog'iga bir nechta nasoslar parallel birlashitilsa, u holda tarmoqdagi suv sarfi barcha ishlayotgan nasoslar suv uzatishlari yig'indisiga teng, nasoslar hosil qiladigan bosimlar esa bir xil bo'ladi. Ana shu shart parallel ishlayotgan nasoslarning umumiy xarakteristikasini qurish imkoniyatini beradi. 4.11-rasmida ikkita bir xil parallel ulangan nasoslarning bosim xarakteristikasi H_{I+II} va FIK $\eta_{I,II}$ keltirilgan. Ularning umumiy xarakteristikasi H_{I+II} o'zgarmas bosim qiymatlarida suv uzatishlari qiymatlari qo'shib quriladi, ya'ni $H_I=H_{II}=H$ va $Q=Q_I+Q_{II}$ bo'ladi.

Izoh: bu yerda umumiy quvurgacha (m nuqtagcha) bo'lgan bog'lovchi quvur uzunligi qisqa va uning gidravlik qarshiligi hisobga olinmagan holat ko'rilgan.

Demak, umumiy yig'indi xarakteristika H_{I+II} abissa o'qi (suv uzatishi) ikkilantirilib quriladi. Umumiy yig'indi H_{I+II} xarakteristika bilan quvur tarmog'ining H_{tr} xarakteristikasi, ya'ni gidrodinamik egri chizig'i (1.22) formula) kesishgan ishchi nuqta A parallel ishlayotgan nasoslarning ish tartibini belgilaydi. Yuqoridaq 4.11-rasmidaqgi nasoslarning ish tartiblarini tahlil qilib aytish mumkinki, ular birgalikda ishlayotganda $Q_A=2Q_A$ miqdorda suv uzatayotgan bo'lsa, ana shu


o'Ichamdagagi quvurga alohida-alohida ishlaganda har biri Q_v miqdoridagi suvni uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Demak, nasoslar parallel ishlayotganda, alohida ishlashiga nisbatan ΔQ miqdorda kam suv uzatadi, ya'ni:

$$\Delta Q = Q_A - 2Q_B; \quad (4.18)$$

ΔQ – parallel ishlayotgan nasoslarning suv uzatish «taqchilligi» deb atalib, alohida va parallel ulangan nasos qurilmasi variantlarini taqqoslashda asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. ΔQ ning miqdori quvur tarmog'inining gidravlik qarshiligidagi bog'liq bo'lib, qarshilik qancha kam bo'lsa, ΔQ shuncha oz bo'ladi.

Quvurning suv sarfi Q ortishi bilan undagi bosim isroflari ko'payishi va ΔQ miqdorini ortishini e'tiborga olib, nasos qurilmalari va stansiyalarini loyihalashda bitta quvurga uchtdan ortiq nasoslarni ularash tavsiya etilmaydi.



4.11-rasm. Ikkita bir xil nasosning parallel ishlashi.


Keyingi navbatda bosim xarakteristikasi $H=f(Q)$ har xil bo'lgan ikkita turli nasoslarni parallel ishlash holatini ko'ramiz (4.12-rasm).

Avvalgi holdagi kabi bog'lovchi quvurlar tutashgan m nuqtada nasoslarning bosimi bir xil bo'ladi, ya'ni $H=H_I=H_{II}$, va umumi suv uzatishi $Q=Q_I+Q_{II}$. Nasoslarning yig'indi xarakteristikasi H_{I+II} , bir xil bosim qiymatlarda suv uzatishlari qiymatlarini qo'shib quriladi. (4.22) formuladagi Q ga qiymatlar berib, quvurlar tarmog'inining hidrodinamik egri chizig'i H_{tr} quriladi (4.12-rasm) va nasoslarning yig'indi xarakteristikasi H_I+H_{II} , bilan kesishgan A umumi ishchi nuqtasi orqali

parallel ishlayotgan nasoslarning haqiqiy ish ko'rsatkichlari topiladi. Alohida va paralel ishlash holatlardan kelib chiqib, A, B va C nuqtalar qiymatlaridan nasoslarning suv uzatishi «taqchilligi» ΔQ qiymatini aniqlash mumkin, ya'ni:

$$\Delta Q = Q_B + Q_C - Q_A \quad (4.19)$$

bu yerda, Q_B va Q_C – nasoslarning alohida quvurlarga suv uzatishi; Q_A – ikkala nasos bitta quvurga parallel ishlash davridagi umumiy suv uzatishi.



4.12-rasm. Ikkita har xil nasosning parallel ishlashi.

Parallel ulangan har xil xarakteristikali nasoslarning o'rtacha FIK qiyamati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi [39]:


$$\eta_{sp} = \frac{Q_A \cdot \eta_1 \eta_2}{Q_{A1} \cdot \eta_2 + Q_{A2} \cdot \eta_1}; \quad (4.20)$$

Birinchi nasosning bosimi H_1 o va k nuqtalar oralig'ida ikkinchi nasos bosimi H_2 dan kam bo'lganligi sababli ishchi nuqta A o-k nuqtalar orasida joylashgan hollarda bir qism suv birinchi nasosdan teskari oqib o'tadi. Bunday holatni oldini olish uchun birinchi nasosning bosimli tomoniga teskari qopqoq o'rnatish zarur bo'ladi. Yuqoridagi holatdan xulosa qilib, bosimlari yaqin bo'lgan nasoslarni parallel ulash tavsiya etiladi.

4.5. Nasoslarning ketma-ket ishlashi

Birinchi nasos uzatkichi ikkinchi nasos so'rgichiga ulansa, nasoslardan ketma-ket bog'lanadi. Bunday bog'lanishda nasoslarning suv uzaqishlari teng, bosimlari esa har bir nasos bosimi yig'indiisga teng bo'ladi, ya'ni $Q = Q_I = Q_{II}$ va $H = H_I + H_{II}$. Ana shu qoida asosida o'zgarmas suv uzaqish miqdorlarida nasoslarning bosimlari qiymatlarini qo'shib, umumiy bosim xarakteristikasi $H_I + H_{II}$ tuziladi (4.13-rasm).

4.13-rasmida ikkita har xil nasoslarning H_I , η_I , va H_{II} , η_{II} xarakteristikalari va ularning ketma-ket ularashidagi umumiy xarakteristikasi $H_I + H_{II}$ keltirilgan. Ketma-ket ulangan nasoslarning haqiqiy ish tartibi $H_I + H_{II}$ xarakteristikani quvurlar tizimining xarakteristikasi H_{tr} kesishgan ishchi nuqta A koordinatalari bilan belgilanadi. Yuqoridaq parallel va ketma-ket ulash bo'yicha keltirilgan misollarda nasoslardan bir-biriga yaqin joylashgan holdagi sxemalar ko'rib chiqildi. Agar nasoslardan oraliq'i uzoq bo'lib, e' masofada bog'lovchi quvurlar bilan ulansa, u holda bog'lovchi quvurdagi bosim isroflarini birinchi nasos xarakteristikasidan ayirib, keyin ikkinchi nasos xarakteristikasiga qo'shilishini e'tiborga olish zarur [39].



4.13-rasm. Ikkita nasosning ketma-ket ishlashi.

Agar bir xil nasoslardan ketma-ket bog'lanasa, ularning FIK bir xil saqlanadi. Ketma-ket ulash uchun suv uzaqishlari va geometrik o'lchamlari yaqinroq nasoslardan qabul qilinadi.

Ikkita ketma-ket ishlayotgan har xil nasoslarning o'rtacha FIK $\eta_{o,r}$ quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\eta_{o,r} = \frac{H_A \cdot \eta_1 \eta_2}{H_{A1} \cdot \eta_2 + H_{A2} \cdot \eta_1} \quad (4.21)$$

Amaliyotda katta bosim hosil qilish talab qilingan hollarda nasoslarni ketma-ket ulab ishlatish mumkin. Lekin nasoslarning qobig'i va ish detallarini yuqori bosimga chidamliligini e'tiborga olish zarur. Ko'p hollarda nasoslarning texnik xarakteristikalarida chegaralangan bosim qiymatlari ketiriladi. Lekin bunday ko'rsatkichlar berilmaganda nasos ishlab chiqaruvchi zavoddan tavsiyalar olinadi.

4.6. Nasoslarni murakkab tarmoqda ishlashi


Nasosni ikki va undan ortiq quvurlar tizimiga suv uzatishi uni murakkab tarmoqda ishlashi deyiladi. 4.14-rasmida bitta nasosning turli geodezik uzatish balandliklariga (H_{g1} va H_{g2}) har xil o'lchamdagagi 1 va 2 quvurlar orqali suv uzatish sxemasi va ish tartibini aniqlash xarakteristikalarini keltirilgan.

Nasosni 1 va 2 quvurlarga qancha miqdorda suv uzatishi quyidagicha aniqlanadi. Dastlab nasosni H va η xarakteristikalarini ko'chirib olinadi va H -Q koordinatalar sistemasiga (1.22) formuladan foydalaniib quvurlarning gidrodinamik egri chiziqlari $H_{tr,1}$ va $H_{tr,2}$ chiziladi.

Quvurlarning ajralish m nuqtasida bosim bir xil $H_{tr,1} = H_{tr,2}$ bo'lishini e'tiborga olib, o'zgarmas bosim qiymatlarida 1 va 2 quvurlarning suv sarflari qo'shiladi ($Q_{tr} = Q_{tr,1} + Q_{tr,2}$) va quvurlarning umumiy xarakteristikasi $H_{tr(1+2)}$ quriladi. Quvurlarning umumiy xarakteristikasi $H_{tr(1+2)}$ bilan nasosning H-Q bosim xarakteristikasi kesishgan A ishchi nuqta bo'yicha nasosning haqiqiy bosimi N_A va suv uzatishi Q_A topiladi, ya'ni

$$Q_A = Q_{A1} + Q_{A2}; \quad (4.22)$$

bu yerda, Q_{A1} va Q_{A2} – nasosning 1 va 2 quvurlarga suv uzatishi miqdorlari.



4.14-rasm. Nasosni ikkita quvurga suv uzatishi.

4.14-rasmdan ko'rinish turibdiki, $Q_{B1} > Q_{A1}$ va $Q_{B1} > Q_{A2}$. Demak, nasos 1 yoki 2 quvurga alohida ishlaganda ikkala quvurga baravar ishlashiga nisbatan suv uzatish miqdori ko'proq bo'ladi.

4.7. Jamlangan grafiklar

Amaliyotdagi turli sharoitda talab qilinadigan suv uzatishlari va bosimlarni (Q va H) qanoatlantirish uchun juda ko'p o'lchamdagisi va turli xil nasoslar ishlab chiqarish zarur bo'ladi. Bu esa nasoslar ishlab chiqarishni qimmatlashuvchiga olib keladi. Nasoslarni ishlab chiqarish narxi va ulardan foydalanish xaratjatlarining eng maqbul variantlaridan kelib chiqib, har bir tur va o'lchamdagisi nasosning qo'llanish chegarasini kengaytirish choralarini ko'rildi.

Bir turda va turli o'lchamda ishlab chiqariladigan nasoslar nomenklaturasida bir necha xil shu turga mansub nasoslarning Q - H koordinatalar tizimidagi qo'llanish chegaralari keltiriladigan grafiklar jamlangan grafiklar deyiladi (4.15-rasm).

Nasoslarning qo'llanish chegaralarini bir necha yo'llar bilan kengaytiriladi.

1. Nasosning suv uzatishi Q bo'yicha qo'llanish chegarasi FIK $\eta = 0,9 \eta_{max}$ zonada ya'ni FIK ning 10% gacha pasayish chegarasida belgilanadi. Lekin FIK ni ortiqcha pasayishi energiya sarfini ortib ketishiga sabab

bo'ladi. Ushbu zona nasosning xususiy xarakteristikasidagi bosim egri chizig'i chegarasini belgilovchi to'lqinsimon chiziq bilan ko'rsatiladi (4.2-rasm).

2. Markazdan qochma K, D, B turdag'i nasoslarda ishchi g'ildiragini yo'nish usuli bilan bosim xarakteristikasini o'zgartirib, qo'llanish chegarasi kengaytiriladi. Nasoslarning zavod tomonidan tavsiya etiladigan xususiy va universal xarakteristikalari ishchi g'ildiragining turli diametrлari uchun beriladi (4.2-rasm).

Eslatma: Nasosni xarakteristikasini yo'nilgan diametrlar uchun qayta hisoblashda (4.14) formulalardan foydalaniladi.

3. Markazdan qochma ЦН ва ЦНС turdag'i nasoslarda ishchi g'ildiraklari sonini o'zgartirish yo'li bilan bosim xarakteristikasini o'zgartirib, qo'llanish chegarasi kengaytiriladi.

4.O'qiy va diagonal nasoslarda ishchi g'ildiragi kuraklarining burilish burchagini o'zgartirib, har bir nasosdan suv uzatishi va bosimi bo'yicha keng chegarada foydalanish mumkin. Masalan, 4.3-rasmdagi ОП2-110 nasos universal xarakteristikasida kuraklarining burilish burchagini 2° dan - 8° gacha o'zgartirib, suv uzatishi $4\dots6\text{ m}^3/\text{s}$ va bosimi $10\dots16\text{ m}$ zonada samarali foydalanish yo'g'on chiziq bilan chegaralab ko'rsatilgan.


Yuqorida keltirilgan usullar bilan qo'llanish chegarasi kengaytirilgan holda bir turdag'i va turli o'lchamdag'i nasoslarning Q-H qiymatlari bo'yicha jamlangan grafiklari nasoslarning «Katalog» ida beriladi [25,26].

Jamlangan grafiklardan talab qilinadigan hisobiy suv uzatishi va bosimi (Q_x va H_x) bo'yicha nasos tanlab olinadi (4.15-rasm).

Masalan, 4.15-rasmda K turdag'i nasoslarning jamlangan grafigi keltirilgan bo'lib, unda ushbu turdag'i har bir nasosning qo'llanish chegarasi egri chiziqli to'rtburchak shaklida berilib, nasosning belgisi va aylanish chastotasi yozilgan.

Egri chiziqli to'rtburchakning ikki yon tomonidagi chiziqlar FIK ning 10 foizgacha pasayish chegarasi bo'yicha, yuqori va pastki egri chiziqlar ishchi g'ildiragining oddiy va yo'nilgan diametrлari chegaralari bo'yicha bosim xarakteristikasi zonasini belgilaydi.

H,m



4.15-rasm. Markazdan qochma K turdag'i nasoslarning jamlangan grafigi.


4.8. Nasoslarni xarakteristikasini tajribada aniqlash

Nasoslarni xarakteristikasini tuzish uchun ularning asl nusxa yoki kichik andozasi sinab ko'rildi, ya'ni eksperimental tarjriba o'tkaziladi. Nasoslarni sinash turli maqsadlarda o'tkazilishi mumkin. Masalan, dastlabki zavod sinovi, Davlat qabuli sinovi, belgilangan guruhlar sinovi, topshirish-qabul sinovi, davriy sinov, detallarining ishonch-lilagini aniqlash sinovi, namunaviy sinov va h.k.

Nasoslarni sinab, tajriba o'tkazish laboratoriya qurilmasining umumiylashtirilgan bo'lib, ushbu qurilma Andijon qishloq xo'jalik instituti nasos qurilmalari laboratoriyasida yaratilgan.

Sinov o'tkazish davrida nasoslarning asosiy ish ko'rsatkichlari (Q , H , N , η , H_{vak}^j) ni aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Suyuqlik hajmi o'zgarmas saqlangan holda berk sirkulatsiya tizimi shaklida ishllovchi bu qurilma nasosni xarakteristikasini tuzish hamda uning detallarini kavitatsion va gidroabraziv yeyilishiga tekshirish bo'yicha tadqiqot ishlari o'tkazish imkoniyatini beradi. Nasosni ish ko'rsatkichlarini o'zgartirish bosimli quvurdagi 8 qulfak holatini o'zgartirib amalga oshiriladi. Nasos hosil qilinadigan bosim H so'rgichdagi manovakuummetr MV va uzatkichga o'rnatilgan manometr M ko'rsatkichlari asosida (1.8) formuladan topiladi.



4.16-rasm. Nasoslarni xarakteristikasini aniqlash, kavitatsion va gidroabraziv yeyilishga tekshirish tajriba qurilmasi tasviri:

1-nasos; 2-elektro dvigatel; 3 va 4-so‘rish va bosim quvurlari; 5-Venturi quvurlari; 6-hajmiy suv sarfi hisoblagichi; 7-konussimon gidrodinamik bo‘linma; 8-qulfaq; 9-hajmiy idish; 10-tashqi sovtukich; 11 va 12-sovtugichga suv keltirish va chiqarish quvurlari; 13-vakuum – nasosga ulanadigan quvurcha

Yuqorida 1.2 mavzuda aytib o‘tilganidek nasosning suyuqlik uzatishi bosimli quvurga o‘rnatilgan qisilgan kesim yuzali moslamalar (Venturi quvurchasi, konussimon naycha, diafragma), hajmiy parrakli hisoblagich, Pito naychasi, induksion va ultratovush suv sarfi o‘lchamichlari yordamida aniqlanadi [35,46]. Qisilgan kesim yuzali moslamalar bilan suv uzatish Q ni aniqlashda (1.1) formuladan foy-dalaniladi.

Hajmiy parrakli hisoblagich (BT-50) qo‘llanganda, t vaqtida (s) hisoblagichdagi hajm W (m^3) yozib olinib, nasosning suyuqlik uzatishi Q (m^3/s) quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$Q = \frac{W}{t}, \quad (4.23)$$

Suv o‘lchash jihozlari o‘rnatish imkoniyati bo‘lmagan hollarda elektrlashgan nasos qurilmalari uchun quyidagi soddalashtirilgan usulda aniqlash formulasi bilan Q ni topish tavsiya etiladi [20,24]:

$$Q = K \sqrt{(JUm - \mu)^{1/2} - (h_{m,vak} + h_{man} + Z)} \quad (4.24)$$

bu yerda, J va U – mos ravishda elektr tarmog‘iga ulangan ampermetr (A) va voltmetr (V) ko‘rsatishlari; $h_{m,vak}$ va h_{man} – mos ravishda nasosning so‘rgich va uzatkichiga o‘rnatilgan manova-kuummetr va

manometr ko'rsatishlari; Z – bosim o'lchash nuqtalari orasidagi balandlik (m); k , m , μ – nasosning geometrik, kinematik va dinamik ko'rsatkichlariga va elektr dvigatelning xarakteristikasiga bog'liq koeffitsiyentlar.

Nasos validagi quvvat $N(kVt)$ dvigatelga berilayotgan elektr quvvati orqali quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{\sqrt{3} J U}{1000} \cdot \cos \varphi \cdot \eta_{dv} \quad (4.25)$$

bu yerda, J va U yuqoridagi (4.24) formuladagi kabi elektr toki kuchi (A) va kuchlanishi (V); $\cos \varphi$ – elektr dvigatelning quvvat koeffitsiyenti; η_{dv} – dvigatelning FIK.

Ba'zi hollarda laboratoriya qurilmasiga muvozanatlovchi elektr dvigatel o'rnatilganda yoki buralish dinamometri yordamida buralish momentini aniqlash mumkin bo'lganda, nasosning validagi quvvat N (kVt) quyidagi ifoda bilan topilishi mumkin:

$$N = \frac{\pi n M}{30000}; \quad (4.26)$$

bu yerda, M – buralish momenti $M = G \cdot \ell$, ($N \cdot m$); G – burovchi kuch, (N); ℓ – kuch yelkasi, (m); n – valning aylanish chastotasi ($1/s$).

Valning aylanish chastotasi n taxometr yoki maxsus hisoblagich asbobi bilan o'chanadi. Tajribalar $Q=0$ dan Q_{max} qiymatgacha bosimli quvurdagi qulfak holatini 16 martagacha o'zgartib, takrorlanadi. Qulfakni har bir ochiqlik holatida Q , H , N va η qiymatlari aniqlanadi.

Foydali ish koeffitsiyenti (FIK) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\eta = \frac{9,81 Q H}{N} \quad (4.27)$$

Agar tajribalarda aylanish chastotasini o'zgarmas holatda saqlab turishni imkoniyati bo'lmasa, nasosni ish ko'rsatkichlari dinamik o'xshashlik formulalari (3.61) yordamida talab etiladigan aylanish chastotasiga qayta hisoblab chiqiladi.

Nasosning joiz vakuummetrik va geodezik so'rish balandliklari (3.73) va (3.74) formulalar bilan aniqlanadi. Buning uchun kritik kavitsiya zaxirasi Δh_{kr} qiymatlarini kavitsion sinov o'tkazib quriladigan

kavitations xarakteristikadan qabul qilinadi (3.9-rasm). Kavitations sinov o'tkazishda hajmiy idish (9) germetik holda berkitiladi va bosimli quvurdagi (8) qulfaq qisman berkitilib, nasosni biror-bir $Q_1 = \text{sonst}$ va $H_1 = \text{sonst}$ ga to'g'ri keluvchi ish tartibi belgilanadi. Vakuum-nasos yordamida (9) hajmiy idishda H_a – atmosfera bosimini o'zgartirib, (3.72) formuladan Δh qiymatlari topiladi va kavitations xarakteristika quriladi. Nasosning boshqa ish tartiblari (Q_2, H_2) uchun tajribalar qaytariladi.

Ochiq qurilmalarda, ya'ni H_a o'zgarmas holda tajriba o'tkazishda kavitations xarakteristika tuzish uchun so'rish va bosimli quvurlarga o'rnatiladigan qulfaqlar yordamida nasosni $Q_1 = \text{sonst}$ va $H_1 = \text{sonst}$ ish tartibi saqlanadi.

Nazorat savollari

1. Nasosning xarakteristikasi deb qanday bog'lanish grafik-lariga aytildi?
2. Nasosning xarakteristikalari qanday shakkarda va ko'rinishda bo'ladi?
3. Quvurning gidrodinamik egri chizig'i qanday quriladi?
4. Qanday nuqta ishchi nuqta deb ataladi?
5. Ishchi nuqtaning holati nimalarga bog'liq ravishda chapga va o'nga siljishi mumkin?
6. Nasos qurilmasining ish ko'rsatkichlarini miqdor jihatidan rostlash usullarini tushuntirib bering?
7. Nasosning ishchi ko'rsatkichlarini sifat jihatidan rostlashda uning yangi.aylanish chastotasini aniqlash uchun qanday qonuniyatlardan foydalaniлади?
8. Parallel ishlayotgan ikkita har xil nasoslarning har birini suv uzatishi va bosimi qanday aniqlanadi?
9. Parallel ulangan ikkita nasosning alohida-alohida ishlagani holga nisbatan qancha kam suv uzatishi («taqchilligi») qanday aniqlanadi?
10. Nima uchun nasoslar ketma-ket ularadi va ularning umumiy xarakteristikasi qanday quriladi?
11. Nasoslar ikkita quvurga suv uzatganda har bir quvurga qancha suv uzatishini tushuntirib bering.
12. Qanday grafiklar jamlangan grafiklar deyiladi?
13. Tajribada nasosni suv uzatishini aniqlash usullarini tushuntirib bering.
14. Nasoslarda sinov o'tkazishda ularni bosimi va quvvati qanday aniqlanadi?

5-bob. KURAKLI NASOSLARNI ISHLATISHDAGI BA'ZI HOLATLAR

5.1. Nasoslarni ishga solish va to'xtatishdagi holatlar

Barcha kurakli nasoslarni ishga solishdan avval ularning so'rish quvuri va nasos ichki qismi suyuqlik bilan to'ldirilishi zarur. Aks holda nasos ishlamaydi ya'ni suyuqliknini so'ra olmaydi. Havoni zichligi suvdan 800 marta kam bo'lganligi sababli bosimi $H=80$ m ga teng bo'lgan nasos havo bilan yurgizilsa, u so'rish quvurida bor-yo'g'i 0,10 m suv ustuniga teng bosim hosil qiladi, ya'ni suv 10 sm ga ko'tariladi. Bu esa so'rish quvuri va nasos ichki qismini suv bilan to'ldirish uchun yetarli bo'lmaydi va nasos suvni so'rish va uzatish imkoniyatini bermaydi. Shu sababli kurakli nasosni elektr dvigatelini ishga solishdan avval so'rish tarmog'i, nasos ishchi g'ildiragi va qobig'i butunlay suvgaga to'ldirilishi talab etiladi. Ushbu elementlarning biror joyida qisman havo qolsa, nasos suv uzatmasligi mumkin.

Nasos qurilmasini suvgaga to'ldirishning quyidagi usullari qo'llaniladi.


1. So'rish quvurining boshlang'ich qismiga qopqoq o'rnatish. Nasos qurilmasining (5.1-rasm) so'rish quvuri boshlang'ich qismiga pastki qopqoq PIK o'rnatib, uni yurgizishdan avval bosimli quvurdan (B nuqta) yoki nasos qobig'inining eng yuqori qismidan (A nuqta) suv qo'yib to'ldiriladi. Bunda nasos ichki qismidan havoni to'la chiqishini ta'minlashga e'tibor berish zarur bo'ladi.

Qo'llaniladigan suv qabul qilish qopqoq'i tuzilishi har xil, ya'ni metall va rezinadan tayyorlangan o'zi yopiluvchi qopqoq (5.1,a-rasm), egarsimon qopqoq (5.1,b-rasm) va sharli qopqoq (5.1,d-rasm) shakllarida bo'lishi mumkin. Bu qopqoqlarning zanglash yoki ifloslanish oqibatida yaxshi yopilmasligi, kuzatish va ochib-berkitishni qiyinligi, hamda qo'shimcha gidravlik qarshilik hosil qilishi asosiy kamchiligi hisoblanadi. Shuning uchun bu usul so'rish quvuri diametri $D=250$ mm gacha bo'lgan kichik nasoslarda qo'llaniladi. Katta nasoslarda quyida keltiriladigan usullardan foydalaniladi.

2. Vakuum-nasolar qo'llash. Nasosni ishga solishdan avval bosimli quvurdagi quifak berkitiladi va nasos qobig'inining yuqori

qismiga ulangan vakkum-nasos yurgiziladi. Vakuum hosil qilish jarayonida pastki suv sathidagi va nasos ichidagi bosimlar farqi hisobiga so‘rish quvuri orqali pastki suv sathidan suv nasos qobig‘igacha ko‘tariladi. Vakuum-nasosdan havo o‘rniga suv chiqishi asosiy nasosni suvgaga to‘lganligidan dalolat beradi. Shundan so‘ng asosiy nasos ishga solinib, vakkum-nasos to‘xtatiladi.

Bu usul ancha sodda, lekin so‘rish tizimining to‘la germetikli, ya’ni zichlangan bo‘lishi va havo kirishiga yo‘l qo‘ymaslik ta’milanishi zarur.



5.1-rasm. Nasosga suv to‘ldirish uchun qo‘llaniladigan qopqoq.

Vakuum hosil qilish uchun 97 % gacha vakuum hosil qiluvchi BBH, KBH turdag'i suv halqali vakuum-nasoslar va ejektorlar qo‘llaniladi.

3.Nasos o‘qini pastki suv sathidan pastroq o‘rnatish. (1.7-rasm). Bu usulda nasosni suvgaga to‘ldirish qiyinchiliksiz amalgalashiriladi, ya’ni so‘rish quvuridagi qulfakni ochish kifoya qiladi. Ko‘p hollarda katta o‘lchamdag‘i B turdag‘i markazdan qochma va ОП турдаги о‘qiy nasoslarda kavitatsiya shartlari asosidagi hisoblarga ko‘ra geodezik so‘rish balandligi h_s manfiy qiymatga ega bo‘ladi va nasoslarni o‘qini suv sathidan pastga o‘rnatish zarur bo‘ladi. Geodezik so‘rish balandligi h_s musbat qiymatga ega bo‘lgan nasoslarni suv sathidan pastga o‘rnatish nasos stansiyaning qurilish harajatlarini ortishi hisobiga amalgalashirilishi mumkin.

Yuqoridagi ko‘rilgan masalalardan tashqari nasoslarni ishga solish va to‘xtashish davrlarida bosimli quvurdagi qulfakni berkitish va ochilish darajasiga ham ahamiyat berish zarur. Suv uzatishi ko‘payishi bilan quvvati ham ortadigan markazdan qochma nasoslarni bosimli

quvurdagi qulfaq yoki teskari qopqoq berk holatlarda ishga solish ruxsat etiladi.

Tezkorligi yuqori o'qiy va diagonal nasoslar bosimli quvurlari bo'sh holatda yurgiziladi va qulfaq o'rnatilmaydi. Bu holda statik bosim nolga teng bo'ladi va nasos nominal aylanish chastotasiga ega bo'lgan holatda ham bosimli quvur suv bilan qisman to'ladi. Quvur suv bilan to'layotganda nasosning bosimi ortib, suv uzatishi kamayadi va nasos optimal ish tartibga keladi. O'qiy nasoslarni yurgizish jarayonidagi har bir davrida talab qiladigan quvvati ularning nominal quvvatidan kam bo'ladi.

Markazdan qochma nasoslarni bosimli quvuriga suv to'ldirilgan holda yurgizilganda aylanish chastotasi va nasos bosimi ortib boradi hamda qulfaqni asta ochib borish jarayonida nominal ish tartibiga erishiladi. Bosimli quvuri bo'sh holdagi markazdan qochma nasosni yurgizishda, avval nominal aylanish chastotasiga erishgandan so'ng qulfaq asta-sekin ochib boriladi. Bunda nasosning quvvati va suv uzatishi nominal qiymatidan ortib ketmasligiga e'tibor qaratiladi. Qulfaqni ochish tartibi nasosning o'tish davri ish tartibini belgilovchi quvurdagi suyuqlikning beqaror harakati bilan bog'liq maxsus hisoblar asosida aniqlanadi.

Nasoslarni ishga solishda uning salniklari holatiga ham ahamiyat berish zarur, chunki salnik qattiq qisilganda uni qiziqishi, valning eyilishini jadallahishi va ishqalanishga sarflanadigan energiyani ortishiga olib keladi. Shuning uchun salnik yengil tortiladi, ya'ni undan bir daqiqada 30-40 tomchi suv oqib turishi kifoya qiladi.

Nasosni ishlash vaqtida so'rish, uzatish jarayonlari va elektr dvigatelning ishslash holatini vakuummetr, manometr, voltmetr va ampermetr kabi o'lchov asboblari yordamida nazorat qilib boriladi. Nasosdagi turli nosozliklar (nasos va uning so'rish qismi ifloslanishi, o'qiy kuchlarni ortishi, valning podshipnik o'rnatiladigan bo'yinchal qismi eyilishi va h.k.) oqibatida elektr dvigateli ortiqcha quvvat bilan ishslashini ampermetrni ko'rsatishi bo'yicha oldini olish mumkin. Xuddi shu kabi nasosdagi kavitatsiya hodisasini vakuummetr ko'rsatishi bo'yicha bartaraf etilishi mumkin.

Nasosni to'xtatish davrida uning valini teskari aylanishiga ruxsat etilmaydigan hollarda bosimli quvurga o'rnatilgan qulfaq yoki teskari qopqoq berkitilib, suvni teskari harakati oldi olinadi va nasos to'xtatiladi. Lekin teskari qopqoq bilan suv to'silganda bosimli quvurda

gidravlik zarb hosil bo'ladi hamda zerb kuchini kamaytirish choralari ko'rildi (12.6-mavzu).

Bosimli quvurga suv to'suvchi armatura o'rnatilmagan hollarda nasosni to'xtash vaqtida ma'lum bir davrda suvni teskari orqaga oqishi natijasida agregat valining reversiv (teskari yo'nalishda) aylanishi sodir bo'ladi, hamda nasosni gidravlik qarshiligi ortishi hisobiga quvurdagi bosimni keskin ortib ketishiga olib keladi.

5.2. Nasoslarning beqaror ishlashi


Tezkorlik koefitsiyenti n_s kichik bo'lgan markazdan qochma nasoslarning bosim H-Q xarakteristikasi yuqorilab-pasayuvchi egri chiziq shaklida bo'ladi. (4.5, a-rasm). Bunday xarakteristikaga ega bo'lgan nasosda tasodifan qo'zg'alish tufayli ish ko'rsatkichlari o'zgarganda ish tartibi, yana dastlabki holatga qaytishi ham, qaytmasligi ham mumkin. Masalan, nasosning bosim H-Q egri chizig'ini quvurning xarakteristikasi A nuqtada kesib o'tgan bo'lsin (5.2-rasm). Quvurni suv sarfi tasodifan ΔQ ga ko'payib ketganda, quvurning bosim isroflari va undagi bosim H_u ortib ketadi. Lekin suv sarfi ortganda nasosni bosimi kamayadi. Bosimlar farqi suv sarfini pasayishiga va ish tartibi yana A nuqtaga avtomatik ravishda qaytishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu kabi suv sarfi tasodifan ΔQ kamayganda ham ish tartibi A nuqtaga qaytadi. Demak, statik bosim ya'ni geodezik uzatish balandligi H_{g1} ga teng bo'lganda, nasos barqaror ish tartibida ishlaydi.

Geodezik uzatish balandligi $H_{g2}=H_0$ yoki $H_{g3}>H_0$ qiymatlariga ega bo'lgan hollarda (H_0 -nasosning suv uzatishi $Q=0$ bo'lgan holatdagi bosimi), nasosning ish tartibi B va B_1 hamda C va C_1 nuqtalar bilan belgilanadi va u beqaror ish tartiblarida ishlaydi.

Agar ishchi nuqta B deb qabul qilinsa, quvurdagi suv sarfi va bosimni tasodifan ortishi nasosni bosimini yanada ko'payib ketishiga sabab bo'ladi. Hosil bo'lgan bosimlar farqi suv sarfini yanada ortishiga va ishchi nuqtani B dan B_1 holatga siljishiga olib keladi. Nasos ish tartibida beqarorlik holati vujudga keladi. Agar yuqori befdagi sig'imli idishda suv sathi o'zgarib tursa, ya'ni H_g o'zgaruvchan bo'lsa, quvurdagi bosim va suv sarfi tasodifan ortganda, nasos bosimi yanada ortadi. Bu esa suv uzatishni ko'payishiga va idishdagi suv sathini yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Ishchi nuqta B dan o'ng tomonga siljiydi va nasos ish tartibi D nuqtaga yetganda o'zgarib, D_2 holatni egallaydi. Suv nasos ichidan


teskari yo'nalishda orqaga qayta boshlaydi va ishchi nuqta D_2 dan C_1 holatga siljiydi hamda idishdagi suv sathi pasayib, geodezik balandlik H_{g4} dan H_{g2} qiymatga kamayadi. Shundan so'ng suv oqimi yo'nalishi yana oldingi tomonga o'zgarib, nasos suv uzatishni boshlaydi va idishdagi suv sathi yana ko'tariladi. Ishchi nuqta C_1 dan B nuqtaga siljiydi. Yuqorida kuzatilgan jarayon avtomatik ravishda qaytariladi, ya'ni nasosning ish tartibi $B-D_2-C_1-B_1$ egri chiziq bo'yicha siljiydi, suv uzatishi Q_{D2} dan Q_{B1} gacha o'zgaradi.



5.2-rasm. Markazdan qochma nasosning barqaror va beqaror ish tartiblari.

Nasoslardagi bunday avtotebranish holatini «pompaj» deb yuritiladi. «Pompaj» holati bosim $H-Q$ xarakteristikasi buklangan egri chiziq shaklidagi o'qiy nasoslarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi (5.3-rasm). Masalan, tarmoqdagi sig'imli idishdan o'zgarmas Q_n suv sarfi olinayotgan, suv sathi va statik bosim H_g o'zgarib turgan bo'lisin. Bu holda ishchi nuqta R nasos xarakteristikasining bukilgan qismiga to'g'ri keladi, deb qabul qilamiz. Suv sarfi biroz ortdi deb faraz qilsak, idishdagi suv sathi va tarmoqdagi bosim H_c ortishiga sabab bo'ladi. Suv sathi orta borib tarmoq xarakteristikasi H_c ishchi nuqta A gacha ko'tariladi. Suv sarfi $Q_A > Q_n$ bo'lgani uchun idishdagi suv sathi yanada ortib boradi va H_c chizig'i nasos xarakteristikasidan ajrab, uning ish tartibi A dan B nuqtaga sakraydi. Keyin idishdagi suv sathi pasayishi natijasida ishchi nuqta nasos xarakteristikasi bo'yicha harakatlanib, C nuqtaga yetib keladi. Bu yerda yana nasos ish tartibida uzilish ro'y beradi va u D nuqtaga o'tishi bilan idishdagi suv sathi ko'tarila borib, A nuqtaga siljishi sodir bo'ladi.

Shundan so'ng jarayon qaytalanib, ishchi nuqta ABCD egrisi chiziq bo'yicha harakatlanadi, nasosning suv uzatishi Q_B dan Q_D gacha o'zgarib turadi. Bunday «pompaj» holati nasosning noqulay ish tartiblari hisoblanadi. Shuning uchun o'qiy nasos qurilmalarini loyihalashda ishchi nuqta bosim xarakteristikasining buklangan qismiga joylashmasligiga e'tibor beriladi ya'ni $Q_n > Q_D$ bo'lishi zarur (5.3-rasm).



5.3-rasm. O'qiy
nasosning beqaror ish
tartiblari.

Markazdan qochma nasoslarning ish tartibi $Q_A > Q_c$ qiymatlarni qanoatatlantiradigan holatlar uchun hisoblanadi (5.2-rasm). Yuqorida qayd etilgan shartlar bajaril-sada, tasodifan ish tartiblari o'zgarishida dastlabki holat tiklansa, nasos qurilmasining barqaror ishlashi ta'minlanadi.

5.3. Nasoslarning ish ko'rsatkichlarini pasayish sababları

Ishlab chiqarish sharoitida tabiiy manbalardan suv oluvchi nasos qurilmalarining ish ko'rsatkichlarini pasayishi ob'ektiv va subyektiv omillarga bog'liqidir. Suv manbasining gidrologik xarakteristikasi, ya'ni suv sathi, suvdagi loyqa miqdori, undagi qattiq zarrachalar yirikligi va mineralogik tarkibi o'zgarishi nasoslarning foydalanish ko'rsatkichlarini pasayishiga to'g'ri bog'lanishda bo'lib, ob'ektiv omillarga misol bo'ladi. Masalan, manbadagi suv sathining pasayishi bilan statik bosimi va so'rish balandligini ortishi, avankamera va suv qabul qiluvchi bo'linmalarda loyqa cho'kishi oqibatida so'rish tarmog'ida gidravlik qarshilikni ortishi nasoslarning suv uzatishini kamayishiga va kavittatsiya hosil bo'lish ehtimolini ortishga olib keladi. Bundan tashqari suvdagi qattiq zarrachalar ta'sirida nasoslarning ichki detallarini yeyilishi oqibatida ularning suv uzatishi, bosimi va FIK pasayib ketadi.

Subyektiv omillarga nasos ishchi g'ildiragi statik nomuvozanatligi, nasos ichki qismlari va sifonli suv chiqarish inshootining zichlanmaganligi, agregat vali o'qlarining mos tushmasligi, detallarni noto'g'ri yig'ish, agregatlarning podshipniklari va tayanch qismi elementlarining shikastlanishi, elektr dvigatel va elektr jihozlarni ayrim qismlarini ishdan chiqishi kabi holatlarni misol keltirish mumkin.

Ko'p yillik ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari asosida nasos stansiyalari va qurilmalaridan samarali foydalanishni belgilovchi omillarning tasniflanishi 5.4-rasmda keltirilgan [20]. Subyektiv omillar bilan bog'liq nosozliklar va buzilishlar xizmatchi xodimlarning bilim saviyasi yuqori bo'lishi va agregatlarni ta'mirlash - yig'ish va sozlash ishlarini sifatli bajarish yo'li bilan bartarf etiladi. Nasoslarning foydalanish ko'rsatkichlarini oshirishning obyektiv omillar bilan bog'liq masalalari ilmiy asoslangan konstruktiv – texnik, loyiha va foydalanish - texnologik tadbirlari ishlab chiqishni talab etadi. Qo'llanadigan tadbirlar nasos stansiyaning asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichi - uzatiladigan svuning tannarxini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Yuqorida 5.4-rasmda keltirilgan jarayonlar bo'yicha qo'llanadigan barcha tadbirlar majmuasi nasos aggregatining energetik ko'rsatkichini yaxshilashni, ya'ni FIKni yuqori darajada bo'lishini ta'minlashi zarur. Chunki FIK elektr energiya sarfini aniqlashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.


Nasosning FIK uchta asosiy kattalikni (suv uzatish, bosimi va quvvatini) bog'lovchi universal o'lchamsiz ko'rsatkich bo'lib, uning ish samaradorligini belgilab beradi. Nasos stansiyalardan foydalanish tajribalari shuni ko'rsatadiki, ularni ko'pchiligidagi suv uzatishi va FIK loyihibiy qiymatidan ancha kam [5,10,22]. Masalan, «To'raqo'rg'on-1» nasos stansiyasiga (Namangan viloyati) o'rnatilgan 4000D-95 (22HD_c n=730 ay/min) markazdan qochma nasosida olib borilgan tajribalar asosida uning suv uzatishi 30,2% va FIK loyihibiy qiymatidan 10...12% kamiligi va buning asosiy sabablari bir qator yuqorida keltirilgan omillarga bog'liqligi aniqlangan [22].

Hisob-tajriba ma'lumotlari asosida ayrim omillarning nasos aggregatlarini suv uzatishini paysayishiga ta'siri quyidagi chegaralari belgilandi (5.5-rasm):

- suv qabul bo'linmasiga loyqa cho'kishi oqibatida $q_k = 4\%$;
- so'risk quvurining gidravlik qarshiligi ortishi sababli $q_{vt} = 6,2\%$;
- bosimli quvurning gidravlik qarshiligi ortishi hisobiga $q_{n,t} = 1,5\%$;

- nasos «til» qismidagi tirkishni kengayishi sababli $q_y = 3\%$;
- ishchi g'ildirak zinchash qismi tirkishini kengayishi oqibatida $q_u = 9\%$;
- nasos qobig'ining oqim harakatiga bog'liq qismlari gidravlik qarshiligini ortishi hisobiga $q_w = 6,5\%$.


Nasos qurilmalaridan FIK larining yuqori qiymatlarda foydalanish doimo dolzarb va muhim masala hisoblangan. Chunki hozirgi kunda sug'orish tizimi nasos stansiyalari Respublikamizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 20 % ni iste'mol qiladi. Nasos agregatlarining FIK ni 1 % ga kamayishi bir necha mldr so'mlik elektr energiyani ortiqcha sarflashga olib keladi. Bundan tashqari nasos stansiya inshootlarini loyqadan tozalash va nasos agregatlarining yeyilgan detallarini ta'mirlash va qayta tiklash juda katta material mablag'lari va mehnat sarflari talab etadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan nasoslarning ish ko'rstkichilarini pasayishiga bog'liq omillar, ularning oqibatlari va sabablarini tahlil qilish asosida Respublika miqyosida tuziladigan istiqbolli reja va dastur bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va kompleks tadbirlar ishlab chiqish hozirgi davr talabidir.



5.5-rasm. Markazdan qochma D4000-95 (22HDc n=730 ay/min) nasosning loyihibaviy ish tartibini tajriba-sinov ma'lumotlari bilan taqqoslash:

H , N , η – bosim, quvvat va FIK egri chiziqlari; H_u , H_v^I , H_v^{II} , H_v^{III} – hidrodinamik egri chiziqlar; H_1 , H_2 , H_3 – hisob-tajriba asosida aniqlangan bosim xarakteristikalari.


Nasosning suv uzatishini o'zgarishiga bog'liq omillar



54-rasm. Nasos agregatni va nasos stansivalarining suv uzatishini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.

5. Foydalananish – texnologik jarayontar

5.4-rasmni davomi



Respublikaiz mustaqillikka erishgan yillarda qishloq xo'jalik ekinlarining maydoni, tarkibi va turlari o'zgarishi sodir bo'ldi. Bu esa suv iste'moli va suv uzatish grafiklarini mos kelmasligi oqibatida suvni kollektor-zovur tarmoqlariga tashlab yuborilishi yoki ekinlarga suvni kam uzatishga olib keladi.

Hozirgi ishlab chiqarish sharoitlarida suv uzatish va suv iste'moli grafiklarini mos tushmasligi oqibatida kelib chiqadigan qo'shimcha sarf-xarajatlar hali o'r ganilmagan va ilmiy-amaliy tahlil qilishini taqozo etadi.

5.4. Nasoslarning kavitasion va gidroabraziv yeyilishi

Nasoslarning ish ko'rsatkichlarini pasayishiga asosiy sabablardan biri ularning ish detalarini kavittsion va gidroabraziv yeyilishidir. Gidroabraziv yeyilish loyqa suvdagi qattiq zarrachalar ta'sirida ro'y beradi. Markaziy Osiyo sharoitida har ikki turdag'i ya'ni kavittsion-abraziv yeyilish birgalikda sodir bo'ladi. Kavittsion yeyilish ikki xil omillar ta'sirida ro'y berishi mumkin: foydalanish sharoiti yomonlashuvi oqibatida va nasosni sifatsiz tayyorlanganligi sababali sodir bo'ladi. Foydalanish sharoitining yomonlashuvi oqibatida nasosning so'rgichida haqiqiy vakuum miqdori ortib ketadi. Buning asosiy sabablari suv qabul qilish bo'linmasida loyqa cho'kishi va panjaranining ifloslanishi oqibatida so'rish qismining gidravlik qarshiligini ortishi yoki manbadagi suv sathining pasayishi sababli so'rish balandligini chegaralangan qiymatidan ortib ketishidir. Ikkinci omil, ya'ni nasosni sifatsiz tayyorlanganligi sababali uning pasportidagi kavittsion ko'rsatkichlar $H_{\text{vak}}, \Delta h$, kavittsiyasiz ishlashi ta'minlanmasligi mumkin.

5.6-rasmda o'qiy nasoslar ishchi g'ildiraklarining kavittsion-abraziv yeyilishiga misolar keltirilgan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadki, «Quyimozor» nasos stansiyasidagi (Buxoro viloyati) ОП10-185 nasosining zanglamaydigan X18Н9ТЛ po'latdan tayyorlangan ishchi g'ildiragi kuraklari yon tomoni abraziv qattiq zarralar ta'sirida yeyilishi ko'proq, «Dang'ara» nasos stantsiyasidagi (Farg'ona viloyati) OB5-87 nasosining oddiy cr25JL po'latdan tayyorlangan ishchi g'ildiragi kuraklari kavittsiya ta'sirida yeyilishi ortiqroq darajada ro'y bergen. Lekin ikkala nasos stansiyada ham uzatadigan suvdagi loyqaning miqdori $3...5 \text{ kg/m}^3$ ni tashkil etadi [20].

Nasoslarda vakuum miqdori o'ta ortib ketadigan qismlari kavittsion yeyilish shartlari bo'yicha xavfli zonalar hisoblanadi.

Markazdan qochma nasoslarda (5.7-rasm) ishchi g'ildiragi kuraklarining kirish qismi orqa tomoni A, lappagi yuzasi B va tirkishining zichlagich qirrasi C ana shunday xavfli yeyilish zonalar bo'lishi mumkin [16].

O'qiy nasoslarda (5.8-rasm) ishchi g'ildiragi kuraklarining kirish qismi orqa tomonidagi A, qanot qismi uchidagi B, ish bo'linmasi yuzasidagi C, kuraklari yon tomonidagi D va gubchak yuzasidagi E zonalarda kavitations yemirilish hosil bo'ladi. Tirkishdagi kavitationsiya jadalligini kamaytirish maqsadida kuraklar yon tomoni uchini yumaloq shaklda silliqlash – II yoki kuraklar uchiga qanot o'rnatish I tavsiya etiladi [16].

Uzatiladigan suv tarkibida qattiq zarrachalar (qum) bo'lgan hollarda ularning gidroabraziv ta'siri natijasida nasos elementlarida yeyilish jadallanishi sodir bo'ladi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, markazdan qochma nasoslarda (5.7-rasm) ishchi g'ildirak kuraklarining old tomoni kirish a va chiqish b qismlari hamda zichlash qismi C elementlarining suvdagi qattiq zarrachalar ta'sirida yuqori jadallikda gidroabraziv yeyilitshi sodir bo'ladi. O'qiy nasoslarda (5.8-rasm) yuqori jadallikdagi gidroabraziv eyilishga uchraydigan qismlari ishchi g'ildirak kuraklarining old tomoni kirish a va chiqish b hamda to'g'rilovchi moslama kuraklarining old e tomonidagi zonalar hisoblanadi.

Nasos detallarining kavitations va gidroabraziv yeyilish mexanizmi ancha murakkab va ko'p masalalari hali yechilmagan [20]. Suvdag'i qattiq kvarts zarrachalarining urilish zarbasi va tirmashi oqibatida oqib o'tuvchi yuzalarda gidroabraziv yemirilish yuzaga kelishi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan.

Qarshilik ko'rsatayotgan metall sirtiga botayotgan material nuqtaning dinamika qonuniyati asosida nasoslarning ayrim elementlarini gidroabraziv yeyilishi miqdorini aniqlash uchun hisoblash formulalari keltirib chiqarilgan [20].

Nasoslarning elementlarini birgalikda kavitations-abraziv yeyilish miqdorini aniqlash bo'yicha nazariy bog'lanishlar hozirgi kungacha aniqlanmagan va kelajakda chuqrur nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Lekin amaliy tadqiqotlar asosida nasos detallarini yeyilish jadalligini pasaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.



a




b



v


5.6-rasm. O'qiy nasoslar ishchi g'ildiraklari yeyilishini umumiy ko'rinishi:

a-OП110-185 nasosning kuraklari yon qirrasini yeyilishi, b va v OB5-87 nasosni kuraklari orqa yuzasini va yon qirrasini yeyilishi.



5.7-rasm. Markazdan qochma nasoslarning yeyilish jadalligi yuqori bo'ladigan joylari:

A,B,C-kavitations; a,b-gidroabraziv.



5.8-rasm. O'qiy nasoslarning yeyilish jadvalligi yuqori bo'ladigan joylari:

A, B, C, D, E-kavitations; a, b, e-gidroabraziv


Masalan, tabiiy sharoitda o'qiy nasos detallari yuzasidagi loyqanining mahalliy konsentratsiyasini kamaytirish yo'li bilan yeyilishni kamaytirish usulini ko'rish mumkin. O'qiy nasos ishchi g'ildiragida loyqanining mahalliy konsentratsiyasini topish uchun qo'yidagi formula tavsiya etilgan:

$$P_M = \frac{P}{[1 - (2,36 u \sqrt{d \cdot s / D}) / V_m]} ; \quad (5.1)$$

bu yerda, P – suvdagi loyqanining o'rtacha konsentratsiyasi, kg/m^3 ; u – ishchi g'ildirakning aylanma tezligi, m/s ; s - Arximed simpleksi; d va D – mos ravishda qattiq zarrachalar va ishchi g'ildirak diametri, m; V_m – absolyut tezlikni merdional tashkil etuvchisi, m/s .

Ishlab chiqarishdagi tabiiy manbalardan suv oluvchi nasos stansiyalarida nasos detallari yuzasidagi loyqanining mahalliy konsentratsiyasini (P_M) kamaytirishni manbadagi suv sathi ko'tarilib, suvdagi loyqanining tabiiy konsentratsiyasi ortgan davrlarda kuraklari buriluvchan ОП turdag'i o'qiy nasoslarda amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Yuqoridagi (5.1) formuladan asosan V_m qiymatni ya'ni nasosning suv uzatishini ko'paytirish hisobiga P_M qiymatni kamaytirish mumkin. Nasosning optimal ish tartibini tanlash yo'li shundan iboratki, uning xarakteristikasidan $\Delta h_r \leq \Delta h_{joiz}$ qiymatni ta'minlaydigan yangi ishchi nuqta izlanadi (bu yerda Δh_r – hisobiy kavitsatsiya zaxirasi (4.10) formula bilan topiladi, Δh_{joiz} – nasos xarakteristikasidan izlanadigan yangi ishchi nuqtaga to'g'ri keluvchi joiz kavitsatsiya zaxirasi). Nasos stansiyating umumiy suv uzatish miqdorini suv iste'moliga moslashtirish uchun ishlayotgan agregatlar sonini kamaytiriladi ya'ni uchta o'rniaga ikkita agregat yurgiziladi.

Nasoslarning detallarini kavitsion-abraziv yeyilishini kamaytirish maqsadida konstruktiv tadbirlar ham tavsiya etilgan [20]. Masalan, 5.9-rasmida markazdan qochma 200D-90 belgidagi nasos ishchi g'ildiragi zichlash qismi detallarini kavitsion-abraziv yeyilishini kamaytirish tirkishdagi bosimlar farqini pasaytiruvchi yon tomondagi kurakchalar, ya'ni impellerlar o'rnatish yo'li bilan amalga oshirilgan.




5.9-rasm. Markazdan qochma D turdag'i nasoslarning ishchi g'ildiragi zichlash elementlarini kavitsion-abraziv yeyilishdan saqlash sxemasi:

1-ishchi g'ildirak; 2-impellerlar; 3-zichlash halqasi; 4-salnik;
5-gidrosiklon; 6-toza suv uzatish quvvurchasi; 7-teshikcha.

Abraziv zarrachalarni tirkishga kelishini kamaytirish maqsadida impellerlar va tirkish orasidagi C bo'linmaga nasosning olib ketuvchi moslamasiga ulangan gidrosiklondan toza suv yuboriladi. Ushbu konstruksiya ishlab chiqarish sharoitida tekshirilganda, zichlash qismi tirkishining kengashi 1,5...2 barobar kamaygan. Bundan tashqari gidrosiklonda tozalangan suvdan salniklarga uzatilganda, uning elementlarini xizmat muddati 2,5...3 marta ortishi aniqlangan.

O'qiy nasos ishchi g'ildiragi yon tirkishi detallarini kavitations-abraziv yeyilishini kamaytirish maqsadida (5.10-rasm) tajribalar asosida uning mukammal konstruksiyasi – o'yilgan bo'linmali va ishchi g'ildirak kuraklari oldi qismi yon tomoniga qanotchalar o'rnatilgan sxemasi taklif etilgan.

Yuqorida tavsiya etilgan konstruktiv sxema bo'yicha tayyorlangan ПГ35-МА belgidagi o'qiy nasosning FIK o'zgarmagan, lekin loyqaning konsentratsiyasi $p=12 \text{ kg/m}^3$, qattiq zarrachalarning diametri $d = 0,34 \text{ mm}$ bo'lgan suvda 100 soat davomida o'tkazilgan sinov natijalariga ko'ra ishchi g'ildiragi yon tirkishining kengayishi ikki barobar kam bo'lganligi aniqlangan.



5.10-rasm. O'qiy nasos ishchi g'ildiragi va bo'linmasining tavsiya etilgan konstruktiv sxemasi:

a – ishchi g'ildirak o'qi bo'yicha kesim; b-I-I kesim bo'yicha ko'ndalang qirqimi; 1-so'rish quvuri; 2-o'yilgan bo'linma; 3-ishchi g'ildirak kuragini oldi tomonidagi qanotcha; 4-to'g'rilovchi moslama; 5-ishchi g'ildirak kuragi.

5.1-masala. Sug'orish tizimiga suv uzatuvchi nasos stansiya sutkasiga 24 soat ishlab, 1,5 oy (45 kun) $Q=2,2 \text{ m}^3/\text{s}$, 1 oy (30 kun) $Q_2=$

4 m³/s va 2 oy (60 kun) Q₃=5,6 m³/s suv uzatadi. Yil davomida xizmatchilarning ish haqi 15 mln so'm, amortizatsiya ajratmasi 28 mln so'm, yog'-moy materiallari va boshqa xarajatlar 7 mln ya'ni jami 60 mln so'mni tashkil etadi. Nasoslarning o'rtacha bosimi H=80 m ga teng bo'lsa, yillik elektr energiya sarfi va uzatiladigan har bir m³ suvning tannarxini aniqlang. Nasos qurilmasining FIK η=0,7 ga teng.

Yechish:

1)yillik foydalanish davridagi uzatiladigan suv miqdori:

$$\Sigma W = (Q_1 t_1 + Q_2 t_2 + Q_3 t_3) \cdot 24 \cdot 3600 = (2,2 \cdot 45 + 4 \cdot 30 + 5,6 \cdot 60) \cdot 24 \cdot 3600 = 47952000 \text{ m}^3;$$

2)yillik sarflanadigan elektr energiya miqdori:

$$\begin{aligned} \Sigma E &= \frac{9,81 Q_1 H}{\eta} \cdot T_1 + \frac{9,81 Q_2 H}{\eta} \cdot T_2 + \frac{9,81 Q_3 H}{\eta} \cdot T_3 = \frac{9,81 H}{\eta} (Q_1 T_1 + Q_2 T_2 + Q_3 T_3) = \\ &= \frac{9,81 \cdot 80}{0,7} \cdot (2,2 \cdot 45 \cdot 24 + 4 \cdot 30 \cdot 24 + 5,6 \cdot 60 \cdot 24) = 14933621 \text{ kVt · soat}; \end{aligned}$$

3)elektr energiya uchun sarflanadigan mablag':

$$A = \Sigma E \cdot S = 14933621 \cdot 60 = 896 \text{ mln so'm}$$

4)yillik foydalanish xarajatlari

$$\Sigma C = A + 50 \text{ mln} = 946 \text{ mln so'm}.$$

5) Har 1 m³ suvning tannarxi

$$C_w = \frac{\Sigma C}{\Sigma W} = \frac{946 \cdot 10^6}{47,952 \cdot 10^6} = 19,7 \text{ so'm/m}^3;$$

Nazorat savollari

1. Kurakli nasoslarni ishga solishdan avval qaysi qismlarini suvgaga to'ldirish zarur?
2. So'rish quvurini boshlang'ich qismiga teskari qopqoq qanday hollarda o'rnatiladi?
3. Vakuum-nasos yordamida asosiy nasosni ishga solish tartibini tushuntirib bering.
4. Qaysi turdag'i nasoslarda bosimli quvurdagi qulfakni berkitib yurgiziladi?


5. Nima sababdan o‘qiy nasoslarning bosimli quvuriga qulfak o‘rnatalmaydi?
6. Salnikdan qancha miqdorda suv oqib tursa, u bir me`yorda ishlayotgan hisoblanadi?
7. Nasoslarning bosim xarakteristikasi qanday shaklda bo`lsa, ularning beqaror ish tartiblaridagi ish jarayoni kuzatildi?
8. Nasoslarni suv uzatishini pasayishi qanday omillarga bog‘liq?
9. Nasoslarning suv uzatishini pasayishiga bog‘liq foydalanish-texnologik jarayonlarining sabablari va oqibatlarini tushuntirib bering.
10. Markazdan qochma va o‘qiy nasoslar detallarining gidroabraziv yeyilishi qaysi zonalarida sodir bo‘ladi?
11. Nasoslarning kavitationsion yeyilishi sabablarini aytib bering.
12. Nasos detallarini gidroabraziv yeyilish miqdori qanday ko‘rsatkich-larga bog‘liqligini analitik formulalar orqali tushuntirib bering.
- 13.O‘qiy nasos ishchi g‘ildiragi yeyilishini kamaytirishni undagi loyqanning mahalliy konsentrasiyasini kamaytirish yo‘li bilan qanday amalga oshiriladi?
14. Markazdan qochma va o‘qiy nasoslar ishchi g‘ildiraklari zinchlash qismi detallarini yeyilishini kamaytirish bo‘yicha qanday konstruktiv tadbirlar tavsiya etilgan?

6-bob. HAJMIY NASOSLAR


6.1. Porshenli nasoslarning tuzilishi, turlari va ishlash tarzi

Hajmiy nasoslarda ishchi organi harakatlanishi natijasida ish bo'linmasining hajmi davriy ravishda o'zgarishi hisobiga biror hajmdagi suyuqlik so'rildi va potensial energiyasi orttirilib, uzatib beriladi. Bunga porshenli va plunjjerli nasoslar misol bo'ladi (6.1-rasm). Valdag'i aylanma harakat 11 krivoship va (10) shatun orqali to'g'ri chiziqli harakatga keltirilib, dasta (shtok) (8) yordamida Mexanik harakat (6) porshenga uzatiladi va u (7) silindrda ilgarilanma-qaytarılma harakat qiladi. Porshen (6) o'ng tomonga harakatlanganda ish bo'linmasi (3) va silindr (7) hajmlari kengayib, havo siyraklashadi (vakuum hosil bo'ladi). Bosimlar farqi hisobiga so'rish qopqog'i (2) ochilib, pastki sathdagi suyuqlik atmosfera bosimi ta'sirida ish bo'linmasi (3) ga ko'tariladi. Porshen (6) o'ng tomondan chapga harakatlanganda (7) silindrda bosim ortadi, so'rish qopqog'i (2) berkilib, bosimli qopqoq (4) ochiladi va (3) ish bo'linmasidan ma'lum hajmdagi suyuqlik bosimli quvur (5) ga uzatiladi. Plunjjerli nasoslarning ishslash tarzi ham porshenli nasoslarga o'xshash bo'ladi (6.2-rasm), lekin (2) ish bo'linmasining salnik o'rnataladigan zinchlash qismiga ishqalangan holda silindrsimon plujer (2) harakat qiladi. Plunjjerli nasoslarda plunjер silindga ishqalanmaydi. Bu nasoslarni ishlatish ancha qulay, chunki ularda porshen halqalari qo'llashni va ularni almashtirishning zaruriyati yo'q, hamda silindr yuzasiga notejis ishlov berilgan holarda ham yaxshi ishlashi mumkin. 6.1 va 6.2-rasmlarda keltirilgan nasoslar bir tomonlama ishlovchi nasoslar hisoblanadi. Bir tomonlama ishlovchi nasoslarda porshenni ikkilangan harakatida (borib-kelishida) $W=S \cdot L \cdot \text{hajmdagi suyuqlik}$ so'rildi va uzatiladi (S -porshenni kesim yuzasi; $L=2r$ -porshenni yo'li); r -krivoship-shatun mexanizmi radiusi).


Ishchi organi porshen yoki plunjerni ikkilangan harakatida ya'ni o'ng va chap tomonga harakatlanganda suyuqlik ikki marta so'rilib, ikki marta siqib chiqarilsa, nasos ikki tomonlama ishlovchi deyiladi (6.3-rasm).



6.1-rasm. Bir tomonlama ishlovchi porshenli nasos tasviri:
1 va 5-so‘rish va bosimli quvurlari; 2 va 4-so‘rish va bosimli qopqoqlari;
3-ish bo‘linmasi; 6-porshen; 7-silindr; 8-dasta; 9-polzun (kreyskopf), 10-shatun; 11-krivoship.



6.2-rasm. Bir tomonlama ishlovchi plunjjerli nasos tasviri:
1-plunjjer; 2-silindr; 9 va 3-so‘rish va bosimli havo qalpoqlari; 4-bosimli
quvur; 7 va 5-so‘rish va bosimli qopqoqlari; 6-ish bo‘linmasi; 8-so‘rish
havo bo‘linmasi.




6.3-rasm. Ikki tomonlama ishlovchi porshenli
nasos tasviri:

A va B ish bo‘linmalari; 1 va 7-so‘rish
qopqoqlari; 2 va 6-bosimli qopqoqlar;
3-porshen; 4-bosimli quvur; 5-silindr.

Porshen (5) ning o‘ngga harakatida so‘rish (1) va bosimli (6)
qopqoqlar ochiladi, ya’ni (1) qopqoq orqali suyuqlik so‘riladi va (6)
qopqoq orqali bosimli quvur 4 ga $W_1 = (S - S_{sh}) \cdot L$ hajmdagi suyuqlik

uzatiladi (S_{sh} -porshen dastasining kesim yuzasi). Porshenning chapga harakatida (7) so'rish qopqog'i ochilib, suyuqlik so'riladi va (2) bosimli qopqoq orqali bosimli quvurga $W_2=S \cdot L$ hajmdagi suyuqlik uzatiladi. Demak, bunday nasos porshenning ikkilangan harakatida $W=W_1+W_2=(2 \cdot S - S_{sh}) \cdot L$ hajmdagi suyuqliknini uzatib beradi, ya'ni bir tomonlama ishlovchi nasosga nisbatan ko'proq miqdorda suyuqlik uzatadi va suyuqlik oqimi uzelishini kamaytiradigan holatda ishlaydi.


Oqimdagisi uzelishlar sonini va inersiya kuchlariga sarflanadigan energiya yo'qolishlarini kamaytirish uchun differensial ishlovchi porshenli nasoslar ishlab chiqarilgan (6.4-rasm).



6.4-rasm. Differensial ishlovchi plunjjerli nasos tasviri.

Plunjerni o'ng tomonga harakatida K_n qopqoq yopilib, suyuqlik K_v so'rish qopqog'i orqali silindrga so'riladi, lekin plunjер orqa tomonidagi $W_1=(S-S_{sh}) \cdot L$ hajmdagi suyuqlik bosimli quvurga siqib chiqariladi. Plunjerni chap tomonga harakatida K_b so'rish qopqog'i yopilib, K_h bosimli qopqoq ochiladi va bosimli quvurga $W_2=S_{sh} \cdot L$ hajmdagi suyuqlik uzatiladi, qolgan miqdori plunjер orqasidagi bo'linmaga joylashadi. Plunjerni ikkilangan harakatida uzatilgan suyuqlik hajmi bir tomonlama ishlovchi nasos uzatish miqdoriga teng bo'ladi, ya'ni $W=(W_1+W_2)=S \cdot L$. Demak, differensial nasos bir tomonlama ishlovchi nasosga nisbatan ancha tekis suyuqlik uzatadi.

Vertikal quduqlardan suv chiqarishda shtangali porshen nasoslar qo'llaniladi (6.5-rasm). Shtangali porshen nasos juda oddiy bo'lib porshen yuqoriga ko'tarilganda, bosimli qopqoq K_h yopiladi va so'rish qopqog'i K_b ochilib, u orqali suv 2 silindrga kiradi. Porshen ustida joylashgan suyuqlik bosimli quvurga uzatiladi.




6.5-rasm. Vertikal shtangali porshen nasos tasviri:

1 va 6-so'rish va bosimli quvurlari;
2-silindr; 3-porshen; 4-ilgich; 5-shtanga.

Porshenni pastga harakatida K_B qopqoq berkilib, K_H qopqoq ochiladi va suyuqlik porshen ustki qismidagi bo'shliqni egallaydi. Shtangali nasos bir tomonlama ishlovchi porshenli nasosga o'xshash tarzda ishlaydi.

Suyuqliknini notekis so'rilishi va uzatilishini hamda inersiya kuchlarini kamaytirish maqsadida ko'p (ikki, uch, to'rt) silindrli nasoslar qo'llaniladi hamda havo qalpoqlaridan foydalaniladi (6.2-rasm). So'rish havo qalpog'i 1/3 qismi siyraklashgan havo va 2/3 qismiga suv to'ldirilib, so'rish qopqog'i tagiga o'rnatiladi. Bosimli havo qalpog'i bosimli qopqoq ustiga joylashtirilib, qisilgan havo umumiy hajmining 2/3 qismini tashkil etadi.

Porshenli nasoslarning suyuqlik uzatish grafiklari sinusoida shakllarida bo'lib (6.6-rasm), ikki va uch porshenli nasoslarning suyuqlik uzatishi bir porshenli nasosga nisbatan ancha tekis bo'ladi.



6.6-rasm. Porshenli nasoslarning suyuqlik uzatish grafiklari:
a-bir tomonlama ishlovchi bir porshenli nasos uchun; b-ikki porshenli
nasos uchun; d-uch porshenli nasos uchun.

6.2. Porshenli nasoslarning asosiy ish ko'rsatkichlari

Porshenli nasoslarning suyuqlik uzatishi kichik va bosimi yuqori bo'ladi, ya'ni $Q=0,01\dots250 \text{ m}^3/\text{soat}$ va $H=0,25\dots250 \text{ MPa}$ ($H=2,5\dots2500 \text{ kg/sm}^2$) chegaralarda ishlab chiqariladi.

Bir tomonlama va differential ishlovchi bir porshenli nasoslarning sekundiga nazariy suyuqlik uzatishini (m^3/s) quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q_t = \frac{LSn}{60}; \quad (6.1)$$

bu yerda, n—porshenning bir daqiqadagi ikkilangan harakatlari soni yoki krivoshipning aylanish chastotasi, ay/min;

Nasosning haqiqiy suyuqlik uzatishi Q nazariy Q_t qiymatidan kam bo'ladi. Chunki bir qism suyuqlik porshen va silindr orasidagi va salnikdagi tirqishlardan, so'rish va bosimli qopqoqlardan katta bosim tomonidan kichik bosimli tomonga sirqib o'tadi. Bu sirqishlar hajmiy

FIK η_x bilan hisobga olinadi. U holda nasosning haqiqiy suyuqlik uzatishi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \eta_x Q_t. \quad (6.2)$$

Ikki tomonlama ishlovchi bir porshenli nasosning sekundiga suyuqlik uzatishi (m^3/s):


$$Q = \frac{\eta_x (2S - S_w) \cdot L \cdot n}{60} \quad (6.3)$$

Ko‘p porshenli nasoslarning suyuqlik uzatishi porshenlar soni i marta ko‘p bo‘ladi, ya’ni 3 porshenli nasoslarda yuqoridagi (6.2) va (6.3) formulalar uchga ko‘paytiriladi. Porshenli va plunjерli nasoslarning hajmiy FIK detallari sifatlari tayyorlangan hollarda $\eta_x = 0,85 \dots 0,9$ ga teng bo‘ladi. Porshenning kesim yuzasi ($S=0,25\pi D^2$) uning diametri D ga bog‘liq bo‘lganligi uchun L/D nisbatning turli qiymatlarida bir xil Q suyuqlik uzatishini olish mumkin. Diametr D ni kattalashtirib, L ni kamaytirilsa, nasosni uzunligi qisqaradi, ammo porshenga va uzatish mexanizmlariga bosim ortganligi sababli ularni o‘lchamlari kattalashadi. Diametr D kichraytirilib, uzunligi L orttirlisa, uzatish mexanizmi detallari yengillashadi. Lekin uzayishi hisobiga inersiya kuchlari ortib ketadi. Amaliyotda L/D nisbatni $0,8 \dots 2$ chegarada qabul qilinadi.

Porshenli va plunjерli nasoslarning bosimi yuqorida keltirilgan (1.8) formula bilan aniqlanadi. Nazariy jihatdan porshenli nasosning suyuqlik uzatishi Q bosimi H ga bog‘liq emas. Demak, aylanish chatsotasi n o‘zgarmas holda berilgan o‘lchamdagи nasosning suyuqlik uzatishi har qanday bosim qiymatlarida o‘zgarmaydi. Shuning uchun $Q-H$ koordinat sistemasida $H=f(Q)$ xarakteristika ordinata o‘qiga parallel chiziq shaklida bo‘ladi (6.7-rasm). Agar aylanish chastotasi n_1 ni n_2 ga o‘zgartirilsa, uning suyuqlik uzatishi proporsional holda ortadi va $H=f(Q)$ xarakteristikasi ham o‘zgaradi.

Bosim ortishi bilan hajmiy FIK kamayishi hisobiga nasosning haqiqiy $H=f(Q)$ xarakteristikasi nazariy xarakteristikasiga nisbatan biroz qiya holda ifodalandi (6.7-rasmda punktir chiziqlar).

Porshenli nasoslarda suyuqlik uzatishining o‘zgarmas qiymatida bosimi cheksiz miqdorga intiladi va bosimning qiymati dvigatelning quvvati va detallarning mustahkamligiga bog‘liq bo‘ladi.



6.7-rasm. Porshenli nasosning nazariy va haqiqiy bosim xarakteristikaları:
(n_1, n_2, n_3, n_4 —o'zgarmas aylanish chastotalari).

Porshenli nasoslarning foydali va valdag'i quvvati qiymatlari hamda FIK yuqorida keltirilgan (1.24), (1.25) va (1.26) formulalar bilan topiladi.

Nasosning to'la FIK

$$\eta = \eta_g \cdot \eta_x \cdot \eta_{mex} = 0,65 \dots 0,85 \quad (6.4)$$

Gidravlik FIK $\eta_g = \frac{H}{H_i}$ (6.5)

Hajmiy FIK $\eta_x = \frac{Q}{Q_i}$ (6.6)

Mexanik FIK $\eta_{mex} = \frac{N_i}{N}$ (6.7)

bu yerda, Q va Q_i —nasosning haqiqiy va nazariy suyuqlik uzatishi; H va H_i -haqiqiy va indikator bosimi, indikator bosim tajriba o'tkazib, tuziladigan indikator diagrammadan olinadi. N va N_i -nasosning valdag'i va indikator quvvati.

Indikator quvvat quyidagi formula bilan topiladi:

$$N_i = 9,81 Q_i H_i \quad (6.8)$$

Nasosning gidravlik, hajmiy va mexanik FIK lari qiymatlarini (6.4) formulaga qo'yilsa, (1.26) formula kelib chiqadi, ya'ni

$$\eta = \frac{Q}{Q_i} \frac{H}{H_i} \frac{N_i}{N} = \frac{9,81 Q H}{N} \cdot \frac{N_i}{9,81 Q_i H_i} = \frac{9,81 Q H}{N}$$

Porshenli nasosning geometrik so'rish balandligini quyidagicha aniqlanadi:

$$h_s = H_a - h_{bug} - \frac{20000}{\gamma} - \Sigma h_{ns} - h_i; \quad (6.9)$$

bu yerda, H_a – pastki suv sathidagi bosim; h_{bug} – to‘yingan suyuqlik bug‘lari bosimi; 20000 N/m^2 – porshenning suyuqlikdan uzilmaeligini ta‘minlovchi zaxira bosim; γ – suyuqliknинг solishtirma og‘irligi (suv uchun $\gamma=9806 \text{ N/m}^3$); Σh_{ns} – so‘rish tizimidagi bosim isroflari; h_i – suyuqliknı notekis so‘rilish inersiyasi ta’sirida bosimni pasayishi.

Inersion bosimni quyidagi formula bilan topiladi [44].

$$h_i = \frac{1.2n^2 L^2 D^2 \cdot l_t}{1800 d^4} \left(1 - \frac{x}{r}\right); \quad (6.10)$$

bu yerda, n – krivoshipning aylanish chastotasi, ay/min; L – porshen yo‘li, m; D – porshenni diametri, m; d – so‘rish quvuri diametri, m; l_t – so‘rish quvuri uzunligi, m; r – krivoship radiusi, m; x – krivoshipni burilish burchagiga to‘g‘ri keluvchi porshenning yo‘li, m.

Yuqoridagi (6.10) tenglamadan h_i ni maksimal qiymati porshenning harakati boshlanishida bo‘lishi ko‘rinib turibdi. So‘rish havo qalpog‘i o‘rnatilgan nasoslarda suyuqliknı tekis harakati ta‘minlanib, so‘rish balandligi qiymati katta bo‘ladi. Porshenli nasoslar quvurlaridagi qulfaqlar berkitilib ishlatilmaydi yoki qulfaq umuman o‘rnatilmaydi. Chunki qulfaq qisman to‘silganda suyuqlik haydashi o‘zgarmaydi, lekin bosim va talab etiladigan quvvat keskin ortadi. Porshenli nasoslarni ishga solishdan avval suv to‘ldirilmasdan yurgizish mumkin. O‘z navbatida porshenli nasoslar quyidagi kamchiliklarga ega: 1) suyuqlik uzatishi miqdori yuqori emas; 2) o‘lchamlari va og‘irligi katta hamda narxi qimmat; 3) nasosni o‘rnatishda keng joy va katta poydevor zarurligi; 4) tez yeyiladigan detallari (qopqoqlari) borligi; 5) harakatni murakkab uzatma orqali olishi va xizmat ko‘rsatishni qiyinlashuvi; 6) suyuqliknı notekis uzatishi.

Oxirgi 50...60 yil ichida sug‘orish va quritish tizimlarida, aholi suv ta‘minoti, kanalizatsiya va boshqa sohalarda porshenli nasoslar o‘rniga yuqoridagi kamchiliklardan holi bo‘lgan markazdan qochma va o‘qiy nasoslar qo‘llanilmoqda.


6.3. Rotorli nasoslar

Hajmiy rotorli nasoslar sanoatda va transportda keng qo'llanadi. Ular tuzilishi bo'yicha xilma-xil turda ishlab chiqarilib, katta o'Ichamdagagi dvigatellar, kompressorlar, nasoslar hamda mashina-mexanizmlarning moylash va boshqarish tizimlarida ishlatiladi.

Ishchi organi aylanma yoki aylanma-ilgarilanma harakatlanishi natijasida suyuqlikni siqib chiqaruvchi hajmiy nasoslar rotorli nasoslar guruhiga kiradi. Rotorli nasoslar uch qismdan iborat bo'ladi: stator (qo'zg'almas qobiq), rotor va siquvchi.

Tuzilishi bo'yicha rotorli hajmiy nasoslarni quyidagi guruhlarga bo'linadi: tishli, vintli, aksial-porshenli, radial-porshenli, plastinkali va shlangli. Rotorli nasoslarda suyuqlik uzlusiz uzatilganligi sababli so'rish va bosimli qopqoqlar, o'rnatishga ehtiyoj bo'lmaydi va yuqori aylanish chastotasida ishlatish mumkin.

Tishli nasoslar. Tishli nasoslarning tuzilishi sodda bo'lib, ikkita ishchi elementi 1 va 2 shesternyalardan iborat bo'ladi (6.8-rasm). Shesternyalar qobiqqa oz o'Ichamdagagi tirqish bilan joylashtiriladi.



6.8-rasm. Tishli nasos tasviri:
1-yetaklovchi shesternya; 2-ergashuvchi shesternya; 3-qobiq (stator); 4 va 5- so'rish
va bosimli quvurlari.

Shesternyalardan biri yetaklovchi, ikkinchi ergashuvchi bo'lib, ular aylanganda (4) quvurdan kelayotgan suyuqlik tishlari orasidagi churqchalarda katta tezlikda olib ketilib, tishlar o'zaro birikkan holatda (5) bosimli quvurga siqib chiqariladi. Tishli nasos suyuqlik uzatishi quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q = \eta_x \frac{2\pi Dm \cdot \sigma \cdot n}{60} \quad (6.11)$$


bu yerda, η_x – hajmiy FIK (0,8...0,9); D–yetaklovchi shesternyaning boshlang‘ich aylanasi diametri; m=tishlashish moduli, $m=D/Z$; Z–tishlar soni; σ –shestrenyani eni; n=valning aylanish chastotasi.

Tishli nasoslar yopishqoqli yuqori suyuqliklarni uzatishda qo‘llanilib, suyuqlik uzatishi $Q=0,22\dots144 \text{ m}^3/\text{coat}$ va bosimi $H=40\dots250 \text{ m}$ chegaralarda ishlab chiqariladi.

Vintli nasoslar. Vintli nasoslarning ishchi element vintlar bo‘lib, vintning aylanishida vint oraliq‘idagi chuqurchalarda suyuqlik harakatlanadi (6.9-rasm). Asosan bir, ikki va uch vintli nasoslar ishlab chiqariladi. Uch vintli nasosning suyuqlik uzatishi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \eta_x \frac{3\pi nt(D^2 - d^2)}{16} \quad (6.12)$$

bu yerda, η_x –hajmiy FIK; t=vint qadami; D=o‘rtadagi vintning boshlang‘ich diametri; d=o‘rtadagi vintning chuqurchasi aylanasi diametri, n=aylanish chastotasi.




6.9-rasm. Uch vintli 3B nasos tasviri:
1-yetaklovchi vint, 2-ergashuvchi vint, 3-stator.

6.9-rasmida uch vintli nasos ko‘rsatilgan. O‘rtadagi (1) etaklovchi vint va ikkita (2) ergashuvchi vintlari bor bo‘lib, ular (3) stator ichiga joylashtirilgan. Vintli nasoslarning suyuqlik uzatishi tekis, shovqinsiz va suyuqliknini aralashtirmay ishlashi, yengil va FIK yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ular suyuqlik uzatishi $Q=0,3\dots800 \text{ m}^3/\text{soat}$, bosimi $H=50\dots2500$

m ($5\dots250 \text{ kg/sm}^2$) chegaralarda ishlab chiqarilib, FIK 60...80 % ga teng bo'ladi. Vintli nasoslar asosan moylash suyuqliklarning uzatishda q'ilaniladi.

Radial-porshenli nasoslarda porshenlar silindrlerda radius yo'nalishida ilgarilanma-qaytarılma harakatlanganligi uchun radial-porshenli deb nomlangan (6.10-rasm). Bu nasoslarda (1) rotor (2) statorga nisbatan essentrik joy lashtiriladi. Rotorda bir nechta silindrler teshilib, ularda (3) porshenlar ilgarilanma-qaytarılma harakatlanadi. Rotorning aylanma harakatida (3) porshenlarning sfera shaklidagi boshchasi (2) stator ichki yuzasiga sirpanib aylanadi. Rotor qo'zg'almas taqsimlovchi valga o'rnatilgan bo'lib, uning o'rtasida (7) so'rish va (6) uzatish teshikchalarini teshilgan hamda ular (8) va (9) bo'linmalar bilan bog'langan. Silindr tagidagi (5) teshikchalar davriy ravishda (8) va (9) bo'linmalar bilan bog'lanib turadi. Yuqoridaqgi (8) bo'linma bilan bog'langan silindrlerdagi porshenlar o'qdan radiusga harakatlanadi va so'rish jarayoni yuz beradi. O'rtadagi zichlash devorchasidan pastga o'tganda porshenlar o'q tomonga harakatlanib, suyuqlik (9) bo'linmaga siqib chiqariladi.

Radial-porshenli nasoslarda porshenlar soni toq (5, 7 yoki 9 ta) qabul qilinadi. Eksentrисitet e qiyomatini o'zgartirib, suyuqlik uzatishi rostlanadi. Sanoatda bosimi $H=5000 \text{ kg/sm}^2$ ($H=500 \text{ MPa}$), aylanish chastotasi $n=160\dots242 \text{ ay/s}$ va FIK 0,7...0,9 ga teng bo'lgan rostlanmaydigan va rostlanadigan radial-porshenli nasoslardan ishlab chiqarilgan.




6.10-rasm. Radial-porshenli nasos tasviri:

1-rotor; 2-stator; 3-porshenlar; 4-qo'zg'almas val; 5-teshikchalar; 6 va 7-bosimli va so'rish kanallari; 8 va 9-so'rish va bosimli bo'linmalar.

Aksial-porshenli nasoslar ixcham, massasi yengil va aylanish chastotasini tez o'zgartirish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular rostlanadigan va rostlanmaydigan nasoslarning, yuqori aniqlikda ishlovchi mashina va mexanizmlarning gidrouzatmalarida gidromotorlar sifatida keng qo'llaniladi.

Eng oddiy aksial-porshenli nasos qiya gardishli bo'lib, 6.11,a-rasmida tasvirlangan. Val (6) yordami (3) silindrлar joylashgan rotor aylanadi. Silindrлardagi porshenlar prujinalar (2) bilan (5) gardish yuzasiga tiralgan holda ilgarilanma-qaytarilma harakat qiladi.

Qiya gardish valning o'qiga γ burchak ostida o'rnatilgan bo'lib, harakatlanmaydi. Rotoring yon tomoni harakatlanmaydigan 1 taqsimlovchi moslamaga tiralgan holda sirpanib aylanadi. Yon tomondagi taqsimlovchinga ikkita A va B o'roqsimon shakldagi darchasi bo'lib (6.11,b-rasm), ulardan biri so'rish va ikkinchisi bosimli qismlariga ulanadi. Silindrлarning ish bo'linmasi o'roqsimon darchalar bilan (8) teshikcha orqali bog'lanadi. Bu nasoslarda porshen boshchasini gardish yuzasiga tiraladigan joylarida katta ishqalanish kuchi hosil bo'lganligi sababli gardishning mexanik FIK past bo'ladi. Shu sababli gardishning qiyaligi $\gamma=15\ldots18^\circ$ qabul qilinadi.




6.11-rasm. Aksial-porshenli nasos tasviri:
a-qiya gardishli: 1-taqsimlash moslamasi; 2-prujina; 3-rotor; 4-porshen;
5-gardish; 6-val;

b-qiya rotorli: 1-taqsimlash moslamasi; 2-rotor; 3-porshen;
4-aylanuvchi qiya gardish; 5-val; 6-sharnir; 7-shatun; 8-teshikcha.


Aksial-porshenli rotorli nasosning yanada mukammal tuzilmasi 6.11,b-rasmda berilgan. Ushbu nasosda rotor 2 qiya holda joylashtirilgan bo'lib, (4) gardish (5) val bilan birga aylanadi, harakatni (4) gardishdan (2) rotor va (7) shatunlarga uzatish 6 sharnirlar orqali amalga oshiriladi.

Plastinkali nasos eng sodda tuzilishdagi rotorli hajmiy nasos hisoblanadi (6.12-rasm). Nasosning (2) rotori (4) valga o'rnatilib, (1) statorga ekssentrik joylashtirilgan. Rotorning o'yilmalariga (3) plastinkalar o'rnatiladi. Nasos yon qopqog'ida ikkita yoysimon A va B darchalar bo'lib, ular nasosning kirish va chiqish qismlari bog'langan. O'rtadagi to'suvchi devorni eni a ikkita plastinkalar orasidagi masofadan kichik bo'lishi zarur. Rotorni soat millari bo'yicha aylanishida b-b chiziqdan pastda joylashgan plastinkalar markazdan qochma kuch ta'sirida radius bo'yicha harakatlanadi va ish bo'linmasi hajmi kengayishi natijasida B darchada havo siyraklashib, suyuqlik so'rildi. Plastinkalarni b-b chiziqning yuqori qismiga o'tishi bilan ular orasidagi hajm qisqarishi hisobiga suyuqlik yoysimon A darcha orqali chiqish tomoniga siqib chiqariladi. Plastinkali nasoslar gidrouzatma tizimlarida, hamda vakuum hosil qilish texnikalarida ishlataladi.



6.12-rasm. Plastinkali nasos tasviri:
1-stator; 2-rotor; 3-plastinka; 4-val.


Shlangli nasoslarning suyuqlik uzatishi $Q=0,0005\dots0,002 \text{ m}^3/\text{s}$ va bosimi $H=3\dots5 \text{ m}$ ($0,03\dots0,05 \text{ MPa}$) ga teng bo'ladi. 6.13-rasmda shlangli nasosning ish tarzi ko'rsatilgan. Valning aylanishida (5) juvozlar (2) shlangni bosadi va siqib borib, suyuqlikni so'rish tomonidan bosimli tomoniga o'tkazadi. Bu nasoslarda porshenli nasoslarga o'xshash suyuqlik bo'lak-bo'laklab uzatiladi. Shlangli nasoslar qurilishda sement va ohak qorishmalarini uzatishda qo'llanadi.



6.13-rasm. Shlangli nasos tasviri:
1-nasos qobig'i; 2-shlang; 3-podshipnik; 4-dasta; 5-juvoz.

6.4. Qanotli va diafragmali nasoslar

Qanotli nasoslarning ish tarzi porshenli nasoslarga o'xshab ketadi (6.14-rasm). Qanot (3) qo'g'almas silindr shakldagi (5) qobiq devorla-
riga zikh holda sirpanib, qaytarilma - burilma harakat qiladi.




6.14-rasm. Qanotli nasos tasviri:
1 va 6-so'rish va bosimli quvurlari;
2-qo'g'almas diafragma; 3-qanot;
4-qopqoq; 5-qobiq.

Qanot (3) o'ngga burilganda chap tomondagi bo'linma hajmi kengayib, chapdagagi so'rish qopqog'i ochiladi va suyuqlik so'rish quvuri orqali chap bo'linmani to'ldiradi. Xuddi shu holatda o'ng tomondagi (4) bosimli qopqoq ochilib, o'ng bo'linmadagi suyuqlik bosimli quvurga siqib chiqariladi. Qanotning chapga burilishida o'ng tomonda so'rilihish va chap tomonda uzatish amalga oshiriladi.

Qanotli nasoslar asosan qo'l bilan harakatga keltiriladi. Ularning suyuqlik uzatishi geometrik o'chamlariga, burilish burchagi va qanotning vaqt birligida harakatlanish soniga bog'liq bo'ladi. Qanotli nasoslarning so'rish balandligi 7 m gacha bo'lib, 30...40 m gacha bosim hosil qilishi mumkin.

Diafragmali nasoslar kimyoiy aktiv va qattiq zarrachalar aralashgan suyuqliklarni uzatish uchun ishlataladi. Bunday nasoslarning asosiy ishchi elementi elastik diafragma yoki membranadir (6.15-rasm). Ilgarılma-qaytarılma harakat natijasida membrana tebranadi va ish bo'linmasining hajmi kengayib yoki torayib turadi hamda suyuqlik so'rildi va siqib chiqariladi.



6.15-rasm. Diafragmali nasos tasviri:
1-silindr; 2-plunjер; 3-membrana (diafragma); 4 va 5-so'rish va bosimli qopqoqlari.


6.15-rasmda diafragmali nasosning tasviri keltirilgan bo'lib, plunjeri (2) yuqoriga harakatlanganda, diafragma (membrana)ning o'ng tomonida bosim pasayadi va u o'ng tomonga egiladi. Natijada diafragma chap tomonagi ish bo'linmasi kengayadi. Buning oqibatida bosim pasayib (4) qopqoq ochiladi va suyuqlik so'rildi. Plunjер (2) pastga harakatlanganda (3) diafragma chap tomonga egilishi natijasida bosim ortib, (5) bosimli qopqoq ochiladi va suyuqlik siqib chiqariladi.

Diafragmali nasoslarning FIK past bo'ladi. Chunki nasosga berilgan quvvatning bir qismi diafragmaning elastiklik kuchini yengishga sarf bo'ladi.

6.5. Suv halqali vakuum-nasoslar

Suv halqali vakuum nasoslar ham hajmiy nasoslar turiga kiradi. Bular asosiy nasoslarni ishga solishdan avval so'rish va nasos ichki qismlaridagi havoni chiqarib, suvgaga to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Suv halqali vakuum-nasos (6.16-rasm) silindrik qobiq ichiga ekssentrik joylashtirilgan (2) rotordan iborat bo'lib, rotor radial (3) kuraklarga ega. Yon devorlarida ikkita qirqilgan ariqchalar bo'lib (qoraytirib ko'rsatilgan), ular so'rgich (4) va (5) uzatgichgaga ulangan. Ishlatishdan avval silindrik qobiqqa qisman (1/3 qismiga) suv quyiladi. Rotor (2) aylangandan aylanish o'qiga nisbatan ekssentrik suv halqasi hosil bo'ladi. Bu halqaning yuqori qismi rotoring gubchagiga tegib, kuraklari suvgaga to'la botib turadi.



6.16-rasm. Suv halqali vakuum nasos tasviri:
1-qobiq, 2-rotor; 3-kuraklari;
4-so'rgich; 5-uzatkich.

Soat millari yo'nalishida aylanishida rotor gubchagi va suv halqasi yuzalari ajralib, W bo'shliq kengayib boradi va 4 so'rgichdan havo so'riladi. Uzatkich (5) ro'parasidagi ariqcha bo'yicha W bo'shliq torayib borib, havo qisiladi (5) uzatgichgaga siqib chiqariladi.

Nasos qurilmasini suvgaga to'ldirish uchun vakuum-nasosning talab etiladigan havo so'rishi Q_h (m^3/min) quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q_h = \frac{(W_c + W_H) \cdot H_a}{t(H_a - h_s)} \cdot K \quad (6.13)$$

bu yerda, W_c – so'rish quvuridagi havo hajmi, m^3 ; W_H – nasos qobiq'idagi havo hajmi, m^3 ; H_a – atmosfera bosimi ($H_a=10 \text{ m}$); h_s – geometrik so'rish balandligi (pastki suv sathidan nasos o'qigacha balandlik, m); t – havo so'rish vaqt, $t=3\dots5 \text{ min}$ qabul qilinadi; K – zaxira koeffitsiyenti ($K=1,05\dots1,1$);

6.1-masala. So'rish quvuri diametri $d=300 \text{ mm}$, uzunligi $L=20 \text{ m}$ va geometrik so'rish balandligi $h_s=3,5 \text{ m}$ ga teng bo'lган nasos qurilmasini $t=5 \text{ min}$ davomida suvgaga to'ldirish uchun vakuum-nasosning havo so'rishi miqdorini aniqlang. Nasosning ishchi g'ildiragi diametri $D_2=0,5 \text{ m}$ va eni $\sigma_1=0,2 \text{ m}$.

Yechish: So‘rish quvurdagi havo hajmi

$$W_c = \frac{\pi d^2}{4} L = \frac{3,14 \cdot 0,3^2}{4} \cdot 20 = 1,41 \text{ m}^3$$

Nasos qobig‘i ichidagi havo hajmini taxminan quyidagicha aniqlash mumkin:

$$W_H = (2...3) \frac{\pi D_s^2}{4} \cdot g_i = 2,5 \frac{3,14 \cdot 0,5^2}{4} \cdot 0,2 = 0,1 \text{ m}^3$$

Vakuum - nasosning havo so‘rishi

$$Q_v = \frac{(W_v + W_H) \cdot K \cdot H_w}{t(H_a - h_i)} = \frac{(1,41 + 0,1) \cdot 10}{5(10 - 3,5)} \cdot 1,05 \approx 0,5 \text{ m}^3/\text{min}$$

Hosil qiladigan vakuum miqdori $H_{vak} = h_s + h_{nas} + \Sigma h_w = 3,5 + 0,8 + 0,1 \cdot 3,5 = 4,65 \text{ m}$;

bu yerda, h_{nas} – nasosni o‘qidan qobig‘ining yuqori nuqtasigacha balandligi (0,8 m); Σh_w – vakuum - nasos so‘rish quvuridagi bosim isroflari $\Sigma h_w = 0,1 h_s$ ya’ni h_s miqdoridan 10 % qabul qilinadi. Demak, havo so‘rish miqdori $Q_x = 0,5 \text{ m}^3/\text{min}$ va vakuum hosil qilish darajasi $H_{vak} = 4,65 \text{ m}$ bo‘lgan vakuum-nasos tanlab olish zarur.

Nazorat savollari


1. Porshenli nasoslar qaysi nasoslar guruhiga kiradi?
2. Porshenli nasoslarni ishlash tarzi qanday bo‘ladi?
3. Rotorli nasos qanday suyuqliklarni uzatishga mo‘ljallangan?
4. Qaysi turdagи hajmiy nasoslarda so‘rish va bosimli qopqoqlari o‘rnataladi?
5. Ikki tomonlama va differensial ishlovchi porshenli nasoslarning ishslash tarzini tushuntirib bering.
6. Porshenli va plunjерli nasoslarda havo qalpoqlari qanday vazifani bajaradi?
7. Porshenli nasoslarda inersiya kuchlarini kamaytirish qanday usullar bilan amalga oshiriladi?
8. Porshenli nasosning geometrik so‘rish balandligi qanday aniqlanadi?
9. Porshenli nasosning nazariy va haqiqiy bosim xarakteristikasi qanday shaklda bo‘ladi?
10. Radial va aksial porshenli rotorli nasoslarning ishslash tarzini tushuntirib bering.

11. Tishli va vintli rotorli nasoslarning suyuqlik uzatishi qanday amalga oshiriladi?
12. Shlangli nasoslar qanday suyuqliklarni uzatishga qo'llaniladi?
13. Qanotli va diafragmali nasoslar qanday tarzda ishlaydi?
14. Nasos qurilmalarining talab etiladigan havo so'rish miqdori qanday aniqlanadi?

7-bob. INERSION VA ISHQALANISH DINAMIK NASOSLARI

7.1. Uyurmali, labirintli va shnekli nasoslar

Uyurmali nasoslar – ishqalanish nasoslari turiga kirib, maxsus ish g'ildirak (1) va qobiqdagi (2) halqasimon kanal va (3) oraliq to'sqichdan iborat.




7.1-rasm. Uyurmali nasos tasviri:
1-ishchi g'ildirak; 2-halqasimon bo'linma
(qobiq); 3-oraliq to'sqich.

Oraliq to'sqich (3) so'rish va bosimli qismlarni bir-biridan ajratib turadi. Ishchi g'ildirakni aylanishida suyuqlik uning uyalarida olib ketiladi va shu bilan birga markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik oqimining buralishi yuz beradi. Shundan qilib halqasimon kanalda juftlangan uyurmali halqa hosil bo'ladi ya'ni suyuqlikka markazdan qochma va uyurmaviy kuchlar ta'sir etib, yuqori bosim hosil qilinadi.

Uyurmali nasoslar markazdan qochma nasoslarga nisbatan 2...4 marta yuqori bosim hosil qiladi, lekin FIK 25...45 % teng. Uyurmali nasoslarning B, BC, BK, BKC, BKO, CBC turlari sanoatda ishlab chiqarilgan bo'lib, suyuqlik uzatish $Q=1\dots50 \text{ m}^3/\text{soat}$ va bosimi $H=25\dots160 \text{ m}$ chegaralarda bo'ladi.

Uyurmali o'zi so'rvuchi BC, BKC turdag'i nasoslar suv to'ladiriladigan idish shaklidagi bo'linmaga ega bo'ladi. Tez to'nglaydigan (masalan fenol) suyuqliklarini uzatish uchun istiladigan BKO turdag'i nasoslar qo'llaniladi. Uyurmali nasoslar asosan yordamchi nasoslar sifatida yong'in o'chirish va quritish tizimlarida qo'llaniladi.

Labirintli nasoslarning ishlash tarzi uyurmali nasoslarga o‘xshaydi. Labirintli nasos (7.2-rasm) ishchi g‘ildiragi (2) (rotor) yuza qismi vint shaklidagi (3) kanallarga ega bo‘lgan silindrdan iborat. Statorni ichki yuzasiga rotor kanallariga teskari yo‘nalgan vintli kanallar o‘yilgan bo‘lib, ular orasidagi tirkish $0,3\dots0,4$ mm ga teng. Rotor aylanishida uning vintli kanallaridan suyuqlik uymalari ajrab, qo‘zg‘almas stator kanallariga o‘tadi va yana rotor kanallariga qaytadi. Harakat miqdorining almashtuvini natijasida suyuqliknin aralashishi tezlashadi hamda unga bosim energiyasi beriladi.




7.2-rasm. Labirintli nasos tasviri:
1-stator; 2-rotor; 3-rotoring vintli
kanallari; 4 -halqali ariqchalar.

Labirintli nasoslardan kichik o‘lchamlarda ishlab chiqariladi. Ularning uzatishi $Q=0,9\dots6$ l/s va bosimi $H=21\dots150$ m chegaralarda bo‘lib, FIK $35\dots45\%$ tashkil etadi. Bu nasoslardan asosan suv ta’minoti tizimlaridagi tozalash inshootining reagent xo‘jaligida ishlatiladi.

Shnekli nasoslardan ishqalanish nasoslardan turiga kirib, Arximed vinti deb ham yuritiladi. Ularning asosiy ishchi elementi shnek-valga spiralsimon shaklda o‘ralgan tekis metall tasmasidan iborat (7.3-rasm).

Val pastki va yuqoridagi podshipniklarga tayangan holda aylanadi. Suyuqlik nasos o‘qi bo‘yicha yuqoriga ko‘tariladi. Valning aylanish chastotasi $25\dots100$ ay/min, aylanma tezligi $2\dots5$ m/s, ishchi elementi diametri $0,65\dots3$ m gacha, suyuqlik uzatishi $Q=5$ m^3/s va uzatish balandligi $H=7,5$ m gacha bo‘lgan shnekli nasoslardan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularning FIK $55\dots75\%$ ni tashkil etadi.

Shnekli nasoslardan tuzilishi sodda, ishlatish oson, puxta, chidamli, ifloslangan suyuqliklarni uzatish imkoniyati yuqoriligi kabi afzalliklari bilan boshqa turdagi nasoslardan ajralib turadi.




7.3-rasm. Shnekli nasosning o'rnatish tasviri:

1-shnek spirali; 2,5-yuqoridagi va pastdagi podshipniklar; 3,4-yuqori va pastki suv bo'linmalar;

7.2. Oqimchali nasoslar

Oqimchali nasoslar ham ishqalanish nasoslari guruhiga kiradi. Bu nasos harakatlanadigan ishchi elementga ega bo'lmaydi. Uzatiladigan suyuqlik ishchi suyuqlik kinetik energiyasini olib, yuqoriga ko'tariladi (7.4-rasm).



bo'linmasi; 5-diffuzor; 6-bosimli quvur; 7-so'rish quvuri; 8-bo'g'iz.

Uzatish quvuri (1) orqali ishchi suyuqlik (2) konus naychaga 20...30 m bosim bilan beriladi va undan (3) oqimcha shaklida chiqadi. Ushbu oqimcha (4) aralashish bo'linmasidagi havoni o'zi bilan ilashtirib, (8) bo'g'iz va (5) diffuzorga olib ketadi. Natijada (4) aralashish

7.4-rasm.
Oqimchali nasos tasviri:
1-ishchi suyuqlik uzatish quvuri;
2-konus naycha;
3-oqimcha;
4-aralashish

bo'linmasida bosim pasayadi va pastki sathdan suv (7) so'rish quvuri orqali aralashish bo'linmasiga ko'tariladi. Aralashish bo'linmasida ishchi suyuqlik (7) so'rish quvuridan ko'tarilgan suyuqlik bilan aralashib, unga o'z energiyasini beradi va diffuzor (5) hamda bosimli quvur (6) orqali yuqori sathga ko'tariladi. Diffuzorda suyuqlik tezligi kamayib, statik bosimi ortadi.

Oqimchali nasos FIK

$$\eta = \frac{QH}{Q_1 H_1}; \quad (7.1)$$


bu yerda, Q va H – oqimchali nasosning suyuqlik uzatishi va ko'tarish balandligi; Q_1 va H_1 –ishchi suyuqlik uzatish sarfi va bosimi.

Ishchi suyuqlik maxsus nasos bilan yoki yuqori suv sathidan H_1 balandlikda joylashgan suv manbasidan berilishi mumkin. Ishchi suyuqlik suv, bug' yoki havo bo'lishi mumkin va shunga mos ravishda oqimchali nasos gidroelelevator, injektor yoki ejektor deb nomlanadi.

Oqimchali nasoslarning FIK ancha past (15...30%) bo'ladi. Lekin shunga qaramay loyqa suyuqliklarni uzatishda, quduqdan suv chiqarishda, qurilish ishlari bajarishdagi suv chiqarish va suv sathini pasaytirishda, suv olish inshootlaridagi cho'kindilarni chiqarishda, markazdan qochma nasoslarni ishga solishdan avval suvga to'ldirishda keng qo'llaniladi. Chunki oqimchali nasoslarning tuzilishi sodda, o'lchamlari kichik, yeyiladigan detallar yo'q, ishonchiligi yuqoridir.

Konus naychadan chiqayotgan oqimchani tezligi qancha katta bo'lsa, oqimchali nasosning bosimi H shuncha yuqori bo'ladi. Konus naychadagi ishchi suyuqlik tezligi 20...50 m/s, so'rish va uzatish quvurlaridagi tezlik 2...3 m/s qabul qilinadi. Quduqlardan suv chiqarishda oqimchali nasos markazdan qochma nasos so'rish balandligi orttirish uchun qo'llaniladi. 7.5-rasmda quduqdan suv oluvchi oqimchali nasos markazdan qochma nasosning so'rish quvuriga o'rnatilgan tasviri keltirilgan.

Oqimchali nasosga suyuqlik markazdan qochma nasos bosimli quvuridan uzatiladi. Bu holda u quduqdagi suvni 30...40 m balandga ko'tarib, markazdan qochma nasos so'rish imkoniyatiga ega bo'ladigan sathgacha yetkazib beradi.



7.5-rasm. Quduqdan suv chiqaruvchi oqimchali nasos qurulmasining tasviri:
1-markazdan qochma nasos; 2-o'rama quvur; 3-oqimchali nasosning suv ko'tarish quvuri; 4-bosimli suv berish quvuri; 5-diffuzor; 6-aratlashish bo'linmasi; 7-konus naycha; 8-so'rish qopqog'i.

Hozirgi davrda quduqqa o'matiladigan markazdan qochma artezian nasosi va oqimchali nasos birlashgan, ya'ni bitta qobiqqa joylashtilgan nasoslar ham ishlab chiqarilgan.

7.3. Havoli suv uzatkichlar (Erliftlar)


Havoli suv uzatkich yoki erlift yordamida quduqlardan, ayniqsa, loyqa va qum aralash suvni chiqarishda hamda quduq suvidagi gazni chiqarib tashlashda keng qo'llaniladi. Erliftning ish tarzi tutash idishlar qonuniyatiga asoslangan bo'lib (7.6-rasm), quduqdagi suv va suv ko'tarish quvuridagi suv-havo aralashmasi (emulsiya) zichliklari farqi hisobiga emulsiya yuqoriga ko'tariladi. Suv ko'tarish quvuri (3) quduqdagi dinamik suv sathiga botiriladi.

Kompressordan uzatiladigan qisilgan havo (3) suv ko'tarish quvuriga (4) havo quvuri orqali h chuqurlikda uzatilib, (2) forsunka yordamida sochib beriladi. Natijada suv ko'tarish quvurida zichligi ρ_{em} teng suvning ρ zichligidan kam bo'lган emulsiya hosil bo'ladi va emulsiyanı suv H balandlikka siqib chiqaradi.

Erliftning geometrik uzatish balandligi:

$$H_g = h \cdot \left(\frac{\rho}{\rho_{em}} - 1 \right) - h_w; \quad (7.2)$$

bu yerda, h – forsunkani dinamik suv sathidan botirilish chiqurligi; ρ_{em} – suvning va emulsiyaning zinchliklari; h_w – suv ko‘tarish quvuridagi bosim isroflari



7.6-rasm. Erliftning o‘rnatalish tasviri:
1-quduq, 2-forsunka; 3-suv ko‘tarish quvuri; 4-havo uzatish quvuri; 5-olib ketish quvuri; 6-suv qabul qiluvchi idish; 7-havo chiqarish teshikchasi;
8-to‘suvchi devor.

Quduqdan Q (m^3/s) miqdorda suyuqlik uzatish uchun kompressorning quduqqa haydashi zarur bo‘lgan havo miqdori (m^3/s):

$$Q_{havo} = \frac{QH_g}{\eta_{erl} 23 \lg \frac{h+10}{10}} \quad (7.3)$$

Erliftning FIK

$$\eta_{erl} = \frac{\rho g Q H_g}{A} \quad (7.4)$$

bu yerda, A – forsunkadagi qisilgan havo energiyasi, kVt .

Erliftning ish jarayoni uchun havoning zaruriy bosimi (MPa):

$$P_p = 0,01(h + h_{w,x}) \quad (7.5)$$

bu yerda, $h_{w,x}$ – havo uzatish quvuridagi bosim isroflari ($h_{w,x} < 5$ m qabul qilinadi).

Erliftning geometrik ko'tarish balandligi H_g , nisbiy botirilish chuqurligi H/H_g va nisbiy havo sarfi Q_{havo}/Q bog'liq bo'ladi (7.1-jadval); bu yerda, Q_{havo} – atmosfera bosimi ta'sir etgan holdagi havo sarfi.

Kompressorni ishga solishdagi boshlang'ich havo bosimi, MPA:

$$P_t = 0,01(H - h_0 + 2) ; \quad (7.6)$$

bu erda h_0 – quduqdagi statik suv sathigacha chuqurlik.

Kompressor uzatadigan havo idishi (resiver) hajmi (m^3), uning havo haydash miqdori $Q_k \leq 30 m^3/min$ bo'lganda:

$$W_{res} = 2,2\sqrt{Q_k} . \quad (7.7)$$

7.1-jadval

Erliftning geometrik uzatish balandligini uning nisbiy botirilish chuqurligi va nisbiy havo sarfiga bog'liqligi

H_g, m	$K = H/H_g$	Q_{havo}/Q	η_{eff}
<15	3...2,5	1,5...2	0,59
15...30	2,5...2,2	3,5...2	0,57
30...60	2,2...2,0	5...5,5	0,53
60...90	2,0...1,75	6,5...7	0,5
90...120	1,75...1,65	8...9	0,4

$$\text{Agar } Q_k > 30 m^3/min \text{ bo'lsa:} \quad W_{res} = 3,9\sqrt{Q_k} \quad (7.8)$$

$$\text{Kompressor validagi quvvat} \quad N_r = N_0 Q_k P_p \quad (7.9)$$

bu yerda, $N_0 - 1 m^3$ havoni 1 min siqish uchun sarflanadigan kompressorning solishtirma quvvati (7.2-jadval).

Kompressorni solishtirma quvvati

Havo bosimi P_p kg/sm ²	Kompressorning solishtirma quvvati N_0 , kVt	
	bir pog'onalni	ikki pog'onalni
8	-	0,74...0,78
7	-	0,80...0,83
6	0,95...1,05	0,83...0,9
5	1,05...1,1	0,92...0,96
4	1,1...1,18	1,05...1,12
3	1,12...1,28	1,3...1,35
2	1,26...1,4	-


Erliftning FIK nisbatan past, ya'ni 20...25 % atrofida bo'ladi, lekin uning tuzilishi sodda, ishlashi ishonchli, qattiq zarrachalar (qum) aralashgan suyuqliklarni chuqur, diametri kichik, vertikal, qiya yoki devori egilgan quduqlardan chiqarish uchun qo'llanilishi mumkin. Sanoatda erliftlar ishlab chiqarilmaydi. Uni joyni o'zida hisoblar asosida tayyorlanadi.

7.4. Tebranma nasoslar

Tebranma nasoslar ishqalanish nasoslari turiga mansb bo'lib, ularni ishslash tarzi inersiya kuchlaridan foydalanishga asoslangan. Ishchi elementi (qopqoq-porshen) Mexanik tebratgich ta'sirida tebranib, ilgarilanma-qaytarilma harakat qiladi. Tebranma nasoslar oz miqdordagi suyuqlikka past bosim beradi, ya'ni suyuqlik uzatishi $Q=1$ l/s gacha va bosimi $H=30$ m gacha bo'ladi. Ular asosan ikki xil: yuzaga o'rnatiladigan va suvga botiriladigan tebratkichli turda ishlab chiqariladi.

Yuzaga o'rnatiladigan tebratkichli nasos diametri 100 mm dan katta bo'lgan quduqlardan suv chiqarishga mo'ljallangan (7.7-rasm).

Unga rezonansli elektr magnit tebratgich 1 o'rnatilgan. Suv uzatish quvuri (3) tebratgich (1) ni pastki qismiga mahkamlangan bo'lib, uning ostki qismiga (4) qopqoq joylashtiriladi. Elektromagnitni tebranishi (3) suv uzatish quvuri orqali (4) qopqoqqa uzatiladi va uning tebranishidan suv inersiya kuchi oladi.



7.7-rasm. Yuzaga o'rnataladigan tebranma nasos:

1-tebratgich; 2-prujinali amortizator; 3-suv uzatish quvuri; 4-qopqoq; 5-o'rama quvur.


Qopqoq (4) ustida bosim davriy ravishda o'zgarishi hisobiga suv quduqdan suv uzatish quvuriga o'tadi va yuqoriga ko'tariladi.

Hozirgi davrda (1) daqiqada 3000...6000 marta tebranish hosil qiladigan nasoslar ishlab chiqarilgan. Bu nasoslar quduqdagi suvda qum miqdori ko'p bo'lganda ham qo'llanishi mumkin. Tebranma nasoslarning kamchiligi: suv uzatishi oz va FIK past (20...35 %).

7.5. Tasmali va chilvirli suv uzatkichlar

Tasmali suv uzatkichlar. Shaxtali va burg'ulash quduqlardan suv chiqarishda qo'llaniladigan tasmali va chilvirli suv uzatkichlar **kapillar nasoslar** deyiladi. Tasmali suv uzatkichlarning asosiy ish elementi rezina aralashmali matodan tayyorlanadigan tasma (6) bo'lib, u quduq tepasiga joylashgan aylanuvchi (3) shkiv yordamida harakatga keltiriladi (7.8-rasm).

Ish tasmasini taranglovchi (8) yuk osilgan ergashuvchi shkiv (7) suvgaga kamida 0,5 m botiriladi. Yetaklovchi shkiv (3) dvigatel (5) yordamida tasmali uzatma (4) orqali harakatga keltiriladi. Yetaklovchi shkiv (3) aylanishi va suvgaga botirilgan ish tasmasi harakatlanishi natijasida ishqalanish kuchi ta'sirida unga yopishgan yupqa suv qatlami yuqoriga ko'tariladi.



7.8-rasm. Tasmali suv uzatkich tasviri:

1-tayanch ramasi; 2-qobiq; 3 va 7-yetaklovchi va ergashuvchi shkivlar;
4-tasmali uzatma; 5-dvigatel; 6-ish tasmasi; 8-yuk.

Tasmani (3) yetaklovchi shkivdan o'tishida unga yopishgan suv qatlami markazdan qochma kuch ta'sirida va kapilyar sirt tarangligi buzilishi oqibatida (2) qobiqqa sachraydi va novga oqib tushadi. Tasmaning kesim yuzasi 50×5 , 100×5 , 100×4 mm o'lchamlarda tayyorlanadi va uning eng qulay tezligi $4\dots6$ m/s qabul qilinadi.

Sanoatda ВЛМ-100, ЛВ-200, ГЛВ-250 va boshqa turdag'i tasmali suv uzatkichlar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning suv uzaqishi $Q=3\dots7$ m³/soat, uzaqish chuqurligi $H=250$ m gacha, FIK $\eta=0,25\dots0,65$, shkivning aylanish chastotasi $n=350\dots450$ ay/min, tasmaning chiziqli tezligi $4,5\dots6,5$ l/s ga teng bo'ladi.

Chilvirli suv uzatkichlar. Chilvirli suv uzatkichlar burg'ulash quduqlaridan suv chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, quduq diametri $d > 150$ mm bo'lgan holda qo'llaniladi. Ularning ishlash tarzi tasmali suv ko'targichlarga o'xshash bo'ladi. Ishchi elementi yumaloq yoki to'rtbur-chak kesim yuzali rezina aralashgan matodan tayyorlangan arqon (chilvir) bo'lib, u qo'shimcha quvurcha ichiga joylashtiriladi.


Chilvirning kesim yuzasi 32×12 , 32×7 mm o'lchamlarda tayyorlanib, teshikchalarga ega bo'ladi. Chilvirli suv ko'targichlar belgisi ВШП deb belgilanadi. Ularning suv haydashi $Q=3,5\dots8$ m³/soat,

uzatish balandligi $H=50$ m gacha, FIK $\eta=0,5$ gacha, chilvirming tezligi $V=4\dots6$ m/s ga teng bo'ladi.

7.6. Gidravlik taran

Gidravlik taran yordamida suvni yuqoriga ko'tarish uchun uning o'qidan yuqorida joylashgan suv manbasi bo'lishi talab etiladi (7.9-rasm). Gidravlik taranda suv gidravlik zarb energiyasidan foydalanib ko'tariladi. Og'irligi gidrostatik bosim kuchidan kam bo'lgan (2) qopqoq bosilsa, suv H_1 bosim bilan tashqariga oqa boshlaydi. Bu yerda suvning tezligi V noldan to V_1 tezlikka ortib boradi. Tezlikning ortishi mobaynida muayyan bir vaqtida statik va dinamik bosim (2) qopqoqning og'irlilik kuchidan ortib ketadi va uni ko'tarib yopib qo'yadi. Suv kelayotgan qurvurda to'g'ri zarba hosil bo'ladi va bosim kuchi (3) qopqoqning og'irlilik kuchi hamda (4) qalpoqdagi bosim kuchidan ham ortib ketadi. Natijada (3) qopqoq ochiladi va bir qism suv qalpoqqa o'tadi. Shu paytda suv kelayotgan (1) oziqlantiruvchi qurvurdag'i bosim pasayadi va (3) qopqoq berkiladi, ya'ni teskari zarb paydo bo'ladi va (2) qopqoq ochilib, suv yana tashqariga oqa boshlaydi. Yuqoridagi holat bayon qilingan tartibda qaytarilib turadi. Har bir zarbadan qalpoqda to'plangan suv qisilib, ortiqcha bosim hosil qiladi va (5) bosimli quvur orqali yuqoriga H_2 balandlikka ko'tariladi.

Zarbning 1 minutda qaytarilishi 20...100 ga teng. Gidravlik taranning o'chamlari quyidagicha qabul qilinadi: oziqlantiruvchi quvur uzunligi $L=(5\dots8)H_1$; $H_1=1\dots20$ m; $H_2=100$ m gacha.



7.9-rasm. Gidravlik taran tasviri:

1-oziqlantiruvchi quvur; 2-zarb qopqog'i; 3-bosimli qopqoq; 4-havo qalpog'i; 5-bosimli quvur; 6-yuqoridagi suv qabul qiluvchi manba.

Gidravlik taranning suv uzatishi

$$q = \frac{\eta H_1 Q}{H_2} \quad (7.10)$$

bu yerda H_1 —suvning tushish balandligi; H_2 —uzatish balandligi; Q —ishchi suyuqlik sarfi; η —taranning FIK.

Sanoatda gidravlik taranning turli konstruksiyalari ishlab chiqarilgan, masalan ТГ-1, ТГ-2, УИЖ-К100, ЭрГИ-250 va h.k. Ularning suv uzatishi $q=3\dots18$ l/s, bosimi $H_2=150$ m gacha va FIK $0,25\dots0,8$ ga teng.

Gidravlik taran oddiy va arzon, buzilmaydi, energiya va foydalanish xarajatlari talab qilmaydi. Ortiqcha ko‘p miqdordagi suvni tashlamaga tushirib yuborilishi uning kamchiligi hisoblanadi.

7.1-masala. Suv quyilish sathidan statik suv sathi $h_0=20$ m va dinamik suv sathi $H_g=30$ m chuqur joylashgan quduqdan $Q=80$ m^3/soat suv uzatadigan erliftning asosiy ish ko‘rsatkichlarini hisoblang.

Yechish: Forsunkani dinamik suv sathiga botirilish koeffitsiyenti $K=2,5$ va FIK= $0,57$ qabul qilamiz (7.1-jadval). U holda forsunkani botirilish chuqurligi

$$H=K \cdot H_f = 2,5 \cdot 30 = 75 \text{ m.}$$

Kompressoring havo sarfi

$$Q_{havo} = \frac{Q H_s}{23 \cdot \eta_{erl} \lg \frac{h+10}{10}} = \frac{80 \cdot 30}{0,57 \cdot 23 \lg \frac{(75-30)+10}{10}} = 4,13 \text{ m}^3/\text{min}$$

Kompressorni havo haydash miqdori:

$$Q_k = 1,2 Q_{havo} = 1,2 \cdot 4,13 = 4,95 \text{ m}^3/\text{min}$$

Kompressorni ishga solishdagi bosimi;

$$P_I = 0,01(H-h_0+2) = 0,01(75-20+2) = 0,5 \text{ mPa} = 5,7 \text{ kg/sm}^2$$

Kompressoring ishchi bosimi:

$$P_p = 0,01(H - H_g + h_{w,x}) = 0,01(75 - 30 + 5) = 0,57 \text{ mPa} = 5 \text{ kg/sm}^2$$

Ikki pog'onali kompressor uchun solishtirma quvvatni $N_0 = 0,94$ kVt qabul qilib (7.2-jadval), uning validagi quvvatni aniqlaymiz:

$$N_k = N_0 \cdot Q_k \cdot P_p = 0,94 \cdot 4,95 \cdot 5 = 23,3 \text{ kVt}$$

Kompressor elektrovdvigateli quvvati:

$$N_{dv} = \frac{N_k}{\eta_{uz}} \cdot K = \frac{23,3}{0,98} \cdot 1,1 = 26 \text{ kVt}$$

bu yerda η_{uz} – tasmali uzatmaning FIK (0,98);

K-zaxira koeffitsiyenti ($K=1,1$)

Nazorat savollari

1. Nima sababdan uyurmali nasoslarning bosimi markazdan kochma nasoslarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi?
2. Labirintli nasoslar qaysi sohada qo'llaniladi?
3. Shnekli nasosni tuzilishi va ish tarzi qanday bo'ladi?
4. Oqimchali nasosning asosiy detallari nimalardan iborat?
5. Oqimchali nasoslar qanday afzalliklarga ega?
6. Havoli suv uzatkich, ya'ni erliftning geometrik uzatish balandligi qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?
7. Erliftga havo uzatish miqdori va havoning bosimi qanday aniqlanadi?
8. Tebranma nasosning ish tarzini tushuntirib bering.
9. Tasmali va chilvirli suv uzatkichlarda suv ko'tarish qanday amalga oshiriladi?
10. Gidravlik taranning suv uzatishi qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?
11. Gidravlik taranning kamchiliklari va afzalliklarini tushuntirib bering.

II BO'LIM. NASOS STANSIYALARI

8 - bob. NASOS STANSIYALARINING TURLARI VA ULARNING INSHOOTLARI

8.1. Nasos stansiyalari va ularning inshootlari haqida umumiyl tushunchalar

Nasos stansiyalari gidroenergetik inshootlar turiga mansub bo'lib, sug'orish, quritish, xo'jalik-ichimlik yoki sanoat suv ta'minoti hamda kanalizatsiya (chiqindi suvlarini chiqarish) va boshqa tizimlarda suv uzatishga xizmat qiladi. Inshootlarning tarkibi, ularning tuzilishi, joylashtirilishi, o'rnatiladigan uskunalar soni va turi, nasos stansiyaning ahamiyati va unga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda, suv manbasidan kompleks foydalanish va tabiatni muhofaza qilish tadbirdirlari asosida aniqlanadi. Nasos stansiyaning gidrotexnik inshootlari tuzilishi va o'lchamlari ko'p hollarda suv manbasining gidrologik xarakteristikasi va joyning tabiiy holatiga (relyefi, geologiyasi) bog'liq ravishda belgilanadi. Suv talab qilish grafigi asosida suv uzatib berish bilan birga nasos stansiya inshootlariga qurilish va foydalanish xarajatlari kam sarflangan holda, ularning ishonchliligi va puxtaligi hamda beto'xtov ishlashi ta'minlanishi talab etiladi.

Suvni manbadan olib, uni iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlovchi gidrotexnik inshootlar, gidromexanik, energetik va mexanik uskunalar va jihozdar yig'indisiga mashinali suv uzatish gidrotexnika tizimi deyiladi. Ushbu bo'limda mashinali suv uzatish gidrotexnika tizimining barcha elementlarini tuzilishi, turlari, o'lchamlari va ishslash sharoitlari tahlil qilinadi.

Nasos stansiyalari va qurilmalari quyidagi omillar bo'yicha tasniflanadi:

I. Ahamiyati bo'yicha: sug'orish, zax qochirish (quritish), yomg'irlatib sug'orish, suv ta'minoti, kanalizasiya, suv yo'llari tizimlari nasos stansiyalari, gidroakkumulatorli (suv to'plovchi) elektr stansiyalari (GAES), suv-elektr akkumulatorli (VEAS) stansiyalar, gidrotexnika qurilishlari va gidromexanizatsiya ishlari uchun qo'llanadigan hamda nasos stansiyalaridagi yordamchi nasos qurilmalari.

II. Suv uzatish yo'nalishida joylashishiga ko'ra: sug'orish tizimidagi bosh, oraliq, kanaldan kanaldga uzatuvchi, yopiq tarmoqqa uzatuvchi, suv ta'minoti tizimidagi birinchi va ikkinchi ko'taruv, kuchaytiruvchi, aylantiruvchi nasos stansiyalari.

III. Suv manbasiga ko'ra: yer ustki manbasidan (dengiz, daryo, ko'l, suv ombori, kanal va h.k.) va yer osti manbasidan (shaxtalii va quvurli quduqlardan) suv oluvchi stansiyalar.

IV. Suv manbasiga nisbatan joylashishi bo'yicha: nasos stansiya binosi o'zanga, qirg'oqqa va qirg'oqdan uzoqqa (derevasion kanaldan so'ng) joylashgan nasos stansiyalar.

V. Suv olish inshooti va nasos stansiya binosini bir-biriga nisbatan joylashish holati bo'yicha: birlashgan va alohida qurilgan inshootli nasos stansiyalar.

VI. Tuzilishiga ko'ra: ko'chmas (doimiy) va ko'chma nasos stansiyalar.

VII. Ish tartibi bo'yicha: yil davomida va mavsumiy ishlaydigan nasos stansiyalar;

VIII. To'xtatilmaslik shartiga ko'ra: birinchi darajali (bir kecha-kunduz), ikkinchi darajali (ikki kecha-kunduz), uchinchi darajali (ikki kecha-kunduzdan ortiq to'xtatish ruxsat etiladigan) nasos stansiyalar.

IX. Boshqarish tarziga ko'ra: qo'lda, avtomatik va masofali avtomatik boshqariladigan nasos stansiyalar.

X. Sug'orish maydoniga ko'ra: birinchi sinf (sug'orish maydoni 300 ming ga dan ortiq), ikkinchi sinf (sug'orish maydoni 100...300 ming ga), uchinchi sinf (sug'orish maydoni 50...100 ming ga), to'rtinchi sinf (sug'orish maydoni 50 ming ga dan kam).


XI. Suv uzatishi bo'yicha: noyob (suv uzatishi $100 \text{ m}^3/\text{s}$ dan ortiq), katta (suv uzatishi $10\ldots100 \text{ m}^3/\text{s}$), o'rtacha (suv uzatishi $3\ldots10 \text{ m}^3/\text{s}$), kichik (suv uzatishi $3 \text{ m}^3/\text{s}$ dan kam) nasos stansiyalar.

XII. Bosimi bo'yicha: past (bosimi 20 m dan kam), o'rtacha (bosimi 20...60 m) va yuqori (bosimi 60 m dan yuqori) bosimli nasos stansiyalar.

XIII. Ishonchlilik darajasi bo'yicha: 1-toifa: nasos stansiyani to'xtatish insonlar hayotiga xavf soladigan yoki xalq xo'jaligiga katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan stansiyalar; 2-toifa: nasos stansiyani 5 soatga to'xtatish katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan stansiyalar; 3-toifa: nasos stansiyani 1 sutkaga to'xtatish material zarar keltirmaydigan stansiyalar.

XIV. Nasos stansiya binosining tuzilishiga ko'ra: «yer ustki» binoli, «bo'linmali» binoli va «blokli» binoli nasos stansiyalar.

Ochiq manbadan suv oladigan nasos stansiyaning tarkibiga kiruvchi inshootlarning umumiyligi holatdagi reja tasvirda 8.1-rasmida keltirilgan bo'lib, 1.1-rasmdagi tasvirga mos keladi.



8.1-rasm. Nasos stansiyaning umumiyligi reja tasviri:

1-suv manbasi; 2-suv olish inshooti; 3-suv keltirish kanali; 4-avankamera; 5-suv qabul qilish inshooti; 6-stansiya binosi; 7-bosimli quvurlar; 8-suv chiqarish inshooti; 9-bosimli havza; 10-mashina kanali; 11-elektr-kuch taqsimlash qurilmalari (RU).

Nasos stansiya inshootlariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

– **suv olish inshooti** – noqulay gidrologik va gidravlik sharoitlarda manbadan hisobiy suv sarfini olishni, inshootga loyqa, suzuvchi jismlar, muz parchalari miqdori kam kirishi hamda baliqlarni kiritmaslik, ta'mirlash, tozalash yoki favqulodda holatlarda inshootni berkitish imkoniyatini ta'minlashi zarur;

– **suv keltirish inshooti** odatda ochiq o'zi oqar kanal holatida qurilib, gidravlik qarshiligi oz, o'zani yuvilmaydigan, loyqa cho'kmaydigan, svjni filtratsiyaga kam o'tkazadigan xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

– **avankamera** – suv keltirish kanalining oxiridagi kengayish qismi bo'lib, uni suv qabul qilish inshooti bilan ravon bog'lab turadi;

– **suv qabul qilish inshooti** nasoslarni beto'xtov, oz gidravlik qarshilik bilan suv olishini ta'minlashi bilan bir qatorda svjni dastlabki mexanik tozalash (panjarada xas-cho'plarni to'sishi) va ta'mirlash davrlarida svjni to'sib qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur;

– **stansiya binosi** asosiy uskunalar (nasos, elektr dvigatel) hamda ularni ishonchli ishlatalish, boshqarish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni ta'minlovchi yordamchi asbob-uskunalar, boshqarish pulti, avtomatika

va himoyalash jihozlari, elektr-kuch taqsimlash qurilmalari va boshqa uskunalarini joylashtirish uchun xizmat qiladi. Binoga uskuna va jihozlarni joylashtirishda uning qurilish o'lchamlari kichik va foydalanish qulay bo'lishini ta'minlashga e'tibor beriladi;

– **bosimli quvurlar** nasoslardan suv chiqarish inshootiga suvni uzatib beruvchi inshoot bo'lib, uni gidravlik qarshiliqi kam, nasoslarni ishga solish oson bo'lishi, mustahkam, turg'un va puxtaligini ta'minlashi talab etiladi;

– **suv chiqarish inshooti** suvni ravon, oz gidravlik qarshilik bilan yuqori befga chiqarish va nasoslар to'xtatiladigan hollarda oqimni teskari harakatini to'sishi hamda mustahkamligi, turg'unligi va yuvilmasligi ta'minlanishi zarur;


– **bosimli havza** suv chiqarish inshootini mashina kanali bilan bog'lab turuvchi inshoot bo'lib, suvni mashina kanaliga o'zi oqib ketishi uchun yuqori befda zaruri suv sathini saqlab turadi;

– **mashina kanali** suvni bosimli havzadan iste'molchiga yoki keyingi nasos stansiyaga (pog'onali suv uzatishda) yetkazib beradi.

Daryo suvida loyqa miqdori ko'p bo'lgan hollarda suv keltirish kanali yo'nalishida tindirgich qurish zarur bo'ladi. Tabiiy, foydalanish va ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olib, nasos stansiya inshootlarining ba'zi elementlari qisqartirilishi yoki birlashtirilishi mumkin.

Suv ta'moti tizimi nasos stansiyalari ahamiyati va joylashishi bo'yicha birinchi va ikkinchi ko'taruv, kuchaytiruvchi va aylantiruvchi turlarga bo'linadi. Aylantiruvchi (sirkulatsion) nasos stansiyalar sanoat korxonalari va issiqlik elektr stansiyalari (IES) suv ta'moti tizimiga kiradi. Bu stansiyalarda bir guruh nasoslар ishlab chiqqan suvni sovutgich yoki tozalash qurilmasiga uzatsa, ikkinchi guruh nasoslар tayyorlangan suvni ishlab chiqarish qurilmasiga qaytarib uzatib beradi, ya'ni suv sirkulatsiya qilib ishlataladi. Hozirgi zamonaviy quvvati 3000...6000 m³/s IES lariga 100...360 m³/s miqdorda suv uzatuvchi nasos stansiyalar qurish talab etiladi [12]. Ushbu miqdordagi suvni 95...97 % IES larning sovutish tizimi uchun ishlatiladi.

Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan nasos stansiyalar sug'orish, quritish, yomg'irlatib sug'orish, qishloq va yaylovlar suv ta'moti tizimlariga suv uzatishga xizmat qiladi. Yer osti manbasidan suv oluvchi nasos stansiyalar kichik maydonlarni sug'orish, yer osti suvini sathini pasaytirish, qurilish ishlarini bajarishda suv chiqarib tashlash, hamda aholi va sanoat suv ta'moti maqsadlarida qo'llaniladi.



8.2-rasm. Ko‘chma nasos stansiyalarning tasvirlari:
a-suzuvchi nasos stansiya; b,d-yer ustki ko‘chma nasos stansiyalar;
e-funukulyar turdagı nasos stansiya.

Ochiq havzalardan suv olishda ko‘chmas nasos stansiyalar texnik yoki iqtisodiy jihatdan o‘zi oqlamaydigan hollarda ko‘chma yer ustki va suzuvchi nasos stansiyalar qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi (8.2-rasm).

8.2. Sug‘orish nasos stansiyalari

Sug‘orish tizimi nasos stansiyalari suv manbasi turi bo‘yicha daryordan, kanaldan, suv omboridan va yer osti suvidan oluvchi turlarga bo‘linadi. Joylashishi va vazifasi bo‘yicha sug‘orish tizimi nasos stansiyalari bosh stansiya, kanaldan kanalga suv uzatuvchi, oraliq (pog‘onali suv uzatuvchi), yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish tizimi stansiyasi deb yuritiladi.

Sug‘orish tizimi nasos stansiyalarining alohida xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– qishloq xo‘jalik ekinlarining vegetatsiya davrida (4...9 oy), ya’ni yilning issiq oylarida ishlaydi. Demak nasos stansiya binosi isitish zaruruti bo‘lmaganligi sababli uning tuzilishi ancha soddalashadi. Lekin suv omboriga suv uzatuvchi nasos stansiyalarni yil davomida ishlashini e’tiborga olish zarur. Masalan, Qarshi magistral kanalidagi 1, 2, 3, 4, 5, 6 va «Tolimardon» nasos stansiyalari yil davomida Tolimardon suv omboriga suv uzatib beradi va stansiyalar binolarida isitish tizimidan


foydalaniladi. Sug'orish nasos stansiyalarining mavsumiy ishlashi nasoslarning hisobiy suv uzatishini ortishiga va energiya iste'mol grafigini notejis bo'lishiga olib keladi. Natijada nasos stansianing qurilish bahosi, foydalanish xarajatlari va suvning tannarxini yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

— suvni maxsus tozalash talab etilmaydi, ya'ni suvda mayda suzuvchi zarrachalar bo'lishi ruxsat etiladi. Lekin yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish texnikalariga suv uzatishda suvni tozalash yoki filtrash zarur bo'ladi;

— ish davrida vaqtincha suv uzatish miqdorini kamaytirish va qisqa muddatda nasoslarni to'xtatish ruxsat etiladi. Bu esa zaxira agregatlar sonini qisqartirish imkonini beradi.

Ochiq havzalardan suv oluvchi sug'orish nasos stansiyalari inshootlarining joylashtirilishi va o'zaro bog'lanish tasvirlari xilma-xil bo'lib, asosiy inshootlarining namunaviy joylashish tasviri 8.1 - rasmida berilgan. Inshootlar tarkibi aniq joyning sharoitlari asosida tanlab olinadi. Masalan, suvdagi qattiq abraziv zarrachalar (qum, loyqa) konsentratsiyasi nasoslardan foydalanish shartlari bo'yicha ruxsat etiladigan miqdordan ortiq bo'lgan hollarda suv keltirish kanalida tindirgich qurish yoki bosh inshootda qum ushlovchi qurilmalar ko'zda tutiladi. Ba'zi hollarda katta o'chamdagagi suv keltirish kanali qurilib, tindirgich sifatida foydalaniladi.

Daryo yoki suv ombori qirg'og'ida olish uchun chuqurlik yetarli bo'lsa va suv sathi o'zgarishi nisbatan kichik (5 m gacha) bo'lgan holda odatda qirg'oqdagi birlashgan nasos stansiya turi qo'llaniladi (8.3-rasm).




8.3-rasm. Qirg'oqdagi birlashgan nasos stansiya tasviri:

1-nasos stansiya binosi; 2-elektr dvigatel; 3 va 6-bosimli quvurlar; 4-qulfak; 5-quvurlarni bog'lanish qismi jihozlari uchun qurilgan bino; 7-suv chiqarish inshooti.

Texnik-iqtisodiy hisoblar asosida hamda joyning rel'efi, geologiyasi, manbada suv sathini keng chegarada o'zgarishi, qirg'oqda suvni chuqurligi yetarli emasligini hisobga olib, nasos stansiya binosini daryo yoki suv ombori o'zaniga joylashtirish mumkin. Bunday hollarda suv olish inshooti, suv keltirish kanali va avankamera qurishga ehtiyoj bo'lmaydi (8.5 rasm).


Nasos stansiya binosini mustahkamligi va turg'unligini ta'minlash maqsadida u qirg'oqdagi suv olish inshootidan alohida qurilishi ham mumkin (8.4-rasm). Sug'orish nasos stansiyasining eng ko'p qo'llaniladigan turlari – bu katta kanallar yo'nalishidagi stansiyalar hisoblanadi. Bunday nasos stansiyalar tasvirlari 8.6-rasmida keltirilgan. Nasos stansiya binosini mustahkamligi va turg'unligini oshirish hamda avankamerada loyqa cho'kishini kamaytirish uchun uning o'chamlarini kichraytirish maqsadida suv qabul qilish bo'linmalari binodan alohida holda joylashtiriladi (8.6,a,b-rasm).




8.4-rasm. Alohida joylashgan qirg'oqdagi nasos stansiya tasviri:
1-qirg'oqdagi suv olish qudug'i; 2-nasos stansiya binosi; 3-so'rish quvuri; 4-qulfakni rostlash uskunasi; 5-panjara o'rnatish o'yilmasi;
6-to'suvchi qulfak; 7-chuquurcha.

Suv resurslari chegaralangan va suvgaga talab yuqori darajada bo'lgan mintaqalardagi qishloq xo'jalik va sanoat korxonalarini, katta aholi yashash markazlari suv ta'minotini tashkil etishning samarali usuli bir

necha yuz km uzoq masofalarda joylashgan suv manbalardan suv uzatib berish hisoblanadi.



8.5-rasm. Daryo o'zanidagi birlashgan nasos stansiya tasviri:
1-manba; 2-suv olish inshooti; 3-nasos stansiya binosi; 4-ko'pirik;
5-bosimli quvur.



8.6-rasm. Kanallardagi nasos stansiyalar tasvirlari:
a-«yer ustki» binoli nasos stansiya; b,d-«bo'linmali» binoli nasos stansiya; e-«blokli» binoli nasos stansiya; f-suvga botirilgan elektr nasosli nasos stansiya; 1-avankamera; 2-suv qabul qilish bo'linmalari;
3 va 5-so'rish va bosimli quvurlari; 4-stansiya binosi; 6 va 8-xashcho'p to'suvchi panjara; 7-konussimon baliq himoyalovchi qurilma;
9-suvga botirilgan nasos agregati.


Yirik suv xo'jalik majmuasi sifati qurilgan va ulardagi inshootlar va nasos uskunalarining noyobligi bilan ajralib turadigan Irtish - Qarag'anda va Qarshi magistral kanallarni misol keltirish mumkin. Irtish- Qarag'anda kanalining uzunligi 458 km bo'lib, Markaziy Qozog'istonni sanoat va qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Kanal yo'nalishida 22 ta nasos stansiya qurilgan bo'lib, ularning umumiyligi uzatish balandligi 418 m ga teng. Har bir nasos stansiyaga $15\dots19\text{ m}^3/\text{s}$ suv uzatib beruvchi to'rttadan o'qiy nasoslar o'rnatilgan [12].

Qarshi cho'llardagi 900 ming ga yerlarni sug'orish uchun Amudaryo suvini 140 m balandlikka uzatuvchi pog'onali nasos stansiyalar qurilgan bo'lib, Tolimarjon suv omboriga suv chiqarib beradi. Kanalning umumiyligi 76,14 km bo'lib, u $195\text{ m}^3/\text{s}$ suv o'tkazishga mo'ljallangan. Har bir nasos stansiyaga suv uzatishi $30\dots40\text{ m}^3/\text{s}$ bo'lgan oltitadan o'qiy nasoslar o'rnatilgan. Nasos stansiyalarning umumiyligi quvvati 450 mVt [1]. Pog'onali suv chiqarishda bosh nasos stansiya suvni yuqoriga ko'tarish bilan birga zaruriy miqdordagi suvni daryodan olishni kafolatlashi, suv olishni boshqarishni va to'xtatishni ta'minlashi zarur. Bu esa ba'zi hollarda daryoda oqim hajmini rostlovchi inshoot qurish zaruratini keltirib chiqaradi. Demak qabul qilanadigan suv olish inshootini turi va manbaning gidrologik tavsifiga bog'liq holda bosh nasos stansiya inshootlari tarkibi va tuzilishi turlicha bo'lishini taqozo etadi. Kanal yo'nalishidagi oraliq nasos stansiyalardan gidravlik jihatidan qulay ish tartiblarida foydalanish imkoniyati ega bo'lganligi sababli ularning inshootlari tarkibi ancha soddalashadi va bir xil namunaviy turdag'i mujassamlash tasvirlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Misol tariqasida 8.7-rasmida Qarshi magistral kanalidagi oraliq nasos stansiyasi namunaviy tasviri keltirilgan.

Stansiya inshootlari tarkibiga xas-cho'p to'suvchi panjara, nasos stansiya binosi, bosimli quvurlar va suv chiqarish inshooti kiradi. Nasos stansiya kanalning to'g'ri chiziqli qismiga joylashtirilgan. Kanal stansiya oldida kengayib, avankamera hosil qiladi. Doimo tozalash imkoniyati bo'lishi va nasoslarni bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida xas-cho'p to'suvchi panjara suv qabul qilish bo'linmalaridan tashqariga chiqarib joylashtirilgan. Bundan tashqari ular o'miga yassi darvozalar o'rnatib, ta'mirlash ishlarini bajarish imkoniyati ham yaratilgan. Suv diametri 3,6 m bo'lgan kalta metall quvurlar bilan suv chiqarish inshooti orqali yuqoridagi kanalga uzatiladi. Suv chiqarish inshooti so'ndiruvchi quduq va bog'lovchi devorlar bilan bosimli havzani hosil qiladi.

Inshootlar tarkibi va ularning joylashish tasviri bo'yicha ushbu nasos stansiya boshqa kanallardagi nasos stansiyalarga o'xshab ketadi. Katta kanallardagi pog'onali nasos stansiyalarini loyihalashda va qurishda ularni bosimlari bir-biriga yaqin bo'lishiga e'tibor berish zarur. Chunki bu holda bir xil turdag'i uskunalar qabul qilish, qurilish konstruksiyalari bir xilligiga erishish imkoniyati yaratiladi va qurilish uchun sarflanadigan kapital mablag'ni keskin kamaytiradi.

Suv uzatish grafigini tanlash eng murakkab masaladir. Bir tomondan vaqt davomida nasos stansiyani bir xil miqdorda suv uzatishi ma'qulroq hisoblanadi. Bu holda nasoslarning hisobi suv uzatishi kam bo'lishi inshootlar va uskunalar o'lchamlarini va ularni narxini kamayishiga olib keladi hamda xizmatchi xodimlarning doimiy bandligi ta'minlanadi va uzatiladigan suvning tannarxi kamayadi. Ikkinci tomondan tekis suv uzatish grafigi suv iste'molchilarini talabiga mos tushmaydi va energiya tizimi ishiga noqulaydir. Notekis suv uzatish energiya tizimi ishini yaxshilaydi, lekin nasoslarning hisobi suv uzatishining ortishi va oqimi ni rostlovchi suv ombori qurishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida pog'onali suv uzatish nasos stansiyalari qurilishini qimmatlashuvi va ulardan foydalanish xarajatlarini ortishiga olib keladi.



8.7-rasm. Qarshi magistral kanalidagi oraliq nasos stansiya:
1-xas-cho'p to'suvchi panjara; 2-nasos stansiya binosi; 3-bosimli
quvurlar; 4-sifonli suv chiqarish inshooti.

Suv omboridan suv oluvchi nasos stansiyalar uning gidrologik tavsifi va ish tartibiga bog'liq holda suv ombori ichiga, to'g'onnini pastki qismiga yoki to'g'on ichiga joylashtirilishi mumkin. Bu holda ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan inshootlar tarkibi saqlanib qoladi.

Sug'orish uchun yer ustki suv manbasi bo'Imagan hollarda yer osti suvlaridan foydalanildi. Yer osti suvlaridan oluvchi nasos stantsiyalarining inshootlarini mujassamlash tasvirlari aholi suv ta'minoti nasos stansiyalariga o'xshash holda amalga oshiriladi. Har qanday

xususiy hollarda nasos stansiya inshootlari tarkibi, turi, joylashtirilishi va tuzilishi bir nechta variantlarni texnik - iqtisodiy taqposlash asosida tanlab olinadi.

8.3. Quritish nasos stansiyalari


Quritish nasos stansiyalari yerlarni zaxini qochirish maqsadida ochiq kollektorlar va zovurlardan, tik zovur quduqlaridan, yangi inshootlar quriladigan joylardagi handaklardan suvlarni chiqarib tashlash uchun qo'llaniladi.

Quritish nasos stansiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- sug'orish va quritish tizimlaridagi yer osti suvlarni sathini pasaytirish;
- sug'orish tizimlaridagi tashlama suvlarni chiqarib tashlash;
- yer yuzasida yog'ingarchilikdan hosil bo'lgan chiqindi suvlarni chiqarib tashlash.

Quritish mintaqalari, ya'ni yog'ingarchilik miqdori potensial parlanishdan ortiq bo'lgan (Rossiya, Belorusiya) joylarda va botqoqliklarni quritib, qishloq xo'jaligida foydalandigan yerlarda ikki tomonlama ishlovchi quritish-namlash nasos stansiyalari qo'llaniladi [27].

Quritish nasos stansiyalarini loyihalashda ularning quyidagi alohida xususiyatlarga ahamiyat beriladi: a) yer osti suvlarini va daryodagi suv sathlarini yil davomida keng chegarada o'zgarib turishi; b) quritish maydonidan yil davomida suv miqdorini notejis oqib chiqishi sababli oqim hajmini rostlovchi havza qurish yoki kollektorning hajmidan foydalanish zarurligi; d) kollektordagi suv sati daryodagi suv sathidan yuqorida bo'ladigan davrlar uchun o'zi oqar tashlama qurishga e'tibor berish zarurligi.



8.8-rasm. Quritish nasos stansiyasining reja tasviri:

- 1-quritish kollektori; 2-avankamera; 3-nasos stansiya binosi; 4-bosimli quvur; 5-o'zi oqar tashlamaning darvozasi; 6-o'zi oqar tashlamaning quvuri; 7-damba; 8-suv chiqarish inshooti; 9-daryo.

Quritish nasos stansiyasining 8.8-rasmidagi umumiyligi reja tasvirida nasos stansiya binosi damba oldiga joylashtirilgan. Nasos stansiya ushbu tasvirdan boshqa ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Masalan, nasos stansiya binosi damba qobig'iga va daryoga qurilishi ham mumkin. Agar suv quritish maydonidan berk quvurlar orqali keltirilsa, u holda avankamera va o'zi oqar tashlama darvozalari qurish zaruriyati bo'lmaydi. Chunki suv quvurlar orqali chiqarib yuboriladi. Sug'orish maydonidagi tashlama suvlarni chiqarib tashlash uchun qo'llaniladigan nasos stansiyalarining vazifasi va tuzilishi quritish nasos stansiyalaridan farq qilmaydi.

Gidrotexnika va sanoat inshootlari qurilish joylaridagi handaklarni quritish uchun chiqarib tashlanadigan suv miqdoriga qarab, yakka nasos qurilmasi yoki handak atrofiga quriladigan bir nechta ignafiltrli vertikal nasos qurilmalaridan foydalaniladi.

8.4. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti va chiqindi suvlarni chiqarish nasos stansiyalari

Aholi va sanoat korxonalarini (iste'molchi)ni suv bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisiga suv ta'minoti deyiladi. Iste'molchini suv bilan ta'minlash uchun zarur bo'ladigan uskuna, mexanizm va inshootlar yig'indisiga suv ta'minoti tizimi deyiladi.

Iste'molchilarning turlari bo'yicha suv ta'minoti tizimini quyidagicha guruhanladi:

1. Qishloq ho'jalik suv ta'minoti (qishloqlarni suv bilan ta'minlaydi);
2. Kommunal xo'jalik tizimi (shaharlarni suv bilan ta'minlaydi va chiqindi suvlarni chiqarib tashlaydi);
3. Sanoat suv ta'minoti tizimi (zavodlar, fabrikalar, IES, AES va h.k. larni suv bilan ta'minlaydi);
4. Temir yo'l suv ta'minoti (paro-teplovozlarni, yo'lovchilar va temir yo'l stansiyalaridagi aholini suv bilan ta'minlaydi);
5. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi (alohida yoki aholi suv ta'minoti tizimi bilan umumlashtirilgan holda loyihamanishi mumkin).

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimining asosiy vazifasi – qishloq aholisi, dala shiyponlari, chorvachilik fermalari, yaylovlari va qishloq xo'jalik sanoat korxonalarini yuqori sifatli zaruriy miqdordagi suv bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va madaniy-maishiy darajasini ko'tarishdan

iboratdir. O'tkaziladigan barcha tadbirlar qishloq taraqqiyoti va farovonligi uchun xizmat qilishi zarur.

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti nasos stansiyalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:


- nasos stansiyaning yil davomida to'xtovsiz ishlashi (stansiya binosini isitish zarurligi);
- suv qabul qilish inshootini loyihalashda qishki muz parchalari oqimi, muz va qor qoplanishi va boshqa holatlarga e'tibor berish;
- nasos stansiyaning ishonchlilik darajasi yuqori bo'lishi (zaxira nasoslar o'matish);
- nasos stansiya atrofida sanitariya-qo'riqlanish zonasini belgilash;
- bino ichini sanitariya jihozlari (unitaz, rakkovina) bilan ta'minlash;
- xizmatchi xodimlar uchun xonalalar qurish;
- boshqarishni avtomatlashtirish;
- loyihalashda bog'lovchi quvurlarni nasos stansiya binosi ichiga joylashtirish (chunki suv uzatish nisbatan oz miqdorda bo'lganligi sababli kichik diametrli quvurlar o'rnatiladi).

Suv ta'minoti tizimidagi nasos stansiyalar yuqori mas'uliyatli inshootlar bo'lib, zaruriy miqdordagi suv uzatish va bosimni ta'minlab turishi talab etiladi. Suv ta'minoti tizimining ishonchli va samarali ishlashi nasos stansiyalarining qanchalik to'g'ri loyihalanishi, qurilishi va hamda ishonchli ishlatalishiga bog'liqdir.

Suv ta'minoti tizimida joylashishi va ahamiyati bo'yicha birinchi va ikkinchi ko'taruv, kuchaytiruvchi va aylantiruvchi nasos stansiyalar deb yuritiladi.

Birinchi ko'taruv nasos stansiyasi manbadan suvni olib, tozalash inshootiga yoki tozalash zarur bo'limgan hollarda to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa yoki suv minorasiga uzatib berishga xizmat qiladi. Ochiq manbadan suv olib tozalash inshootiga uzatuvchi birinchi ko'taruv nasos stansiyasi tasviri 8.9-rasmda keltirilgan. Suvni tozalamay tarmoqqa uzatiladigan hollarda ikkinchi ko'taruv nasos stansiyasi qurishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Ikkinci ko'taruv nasos stansiyasi suvni toza suv havzasidan tarmoqqa uzatib berishga xizmat qiladi (8.10-rasm). Ba'zi hollarda birinchi va ikkinchi ko'taruv nasos stansiyalari bitta binoga birlash-tirilishi ham mumkin.




8.9-rasm. Suv ta'minoti tizimidagi birinchi ko'taruv nasos stansiya tasviri:

1-suv qabul qiluvchi quduq; 2-nasos; 3-tozalash inshootining aralshtirgichi; SS-hisobiy suv sathi.

Kuchaytiruvchi nasos stansiyalar suvni juda uzoq masofalarga (masalan Tuyamo'in – Nukus – Chimboy – Taxtako'mir; Tuyamo'yin – Urganch – Gurlan – Mang'it; Kitob – Shaxrisabz – Qarshi – Muborak va h.k) yuqori bosimli quvurlar orqali uzatishga qo'llaniladi. Bu holda quvurlardagi gidravlik qarshiliklarni yengish uchun juda katta bosim hosil qilish zarur bo'ladi. Shu sababli yuqori bosim hosil qiluvchi nasoslar va yuqori bosimiga chidamli narxi qimmat quvurlardan foydalananishga to'g'ri keladi. Ayrim hollarda quvurlardagi bosimni pasaytirish maqsadida suv uzatish yo'nalishida bir nechta kuchaytiruvchi nasos stansiyalar ketma-ket, pog'onali tarzda qurilishi ham mumkin. Lekin bunday hollarda variantlarni texnik-iqtisodiy jihatdan taqqoslab, asoslangan variant qabul qilinadi.

Aylantiruvchi nasos stansiyalar ma'lum bir texnologik qurilmalarda (issiqlik va atom elektr stansiyalarida, sanoat korxonalarida) suvni mahalliy aylanishini ta'minlashga xizmat qiladi.




8.10-rasm. Suv ta'minoti tizimidagi ikkinchi ko'taruv nasos stansiya tasviri:

1-toza suv havzasi (idishi); 2-nasos; 3-suv minorasi.

Zamonaviy issiqlik elektr stansiyalarida (IES) sovitish suvidan foydalanish soni bo'yicha texnik suv ta'minotida bir marta va ko'p marta (aylantiruvchi) foydalaniladigan tizimlar qo'llaniladi. Bir marta foydalaniladigan tizimlarda manbadan olinib, nasoslar bilan uzatilgan suv kondensatorlarni sovutgach manbaning pastki qismiga tashlab yuboriladi. Aylantiruvchi tizimlarda kondensatorlardan tushgan suv qayta foydalanish uchun sovutgich (suv ombori, ko'l, gradiren yoki purkagich-havza) yordamida sovutilib, tozalangandan so'ng yana nasos stansiya orqali qayta kondensatorlarga uzatiladi va bu jarayon takrorlanaveradi (8.11-rasm).


Yer yuzi manbalaridagi suv miqdori yetarli bo'limgan hollarda yer osti manbalaridan foydalaniladi. Agar yer osti suvi tarkibi ichish uchun yaroqli bo'lsa, tozalash inshooti qurishga ehtiyoj bo'lmaydi va suv birinchi ko'taruv nasos stansiyasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa yoki suv minorasiga uzatiladi (8.12-rasm). Er osti manbalaridan suv olishda nasos stansiya inshootlari tarkibi suv qabul qilish qurilmasi (quvurli yoki shaxtali quduq, nursimon suv olish qurilmasi, gorizontal suv to'plagich va h.k.), stansiya binosi va quvurlardan iborat bo'ladi.

Nasos stansiyaning umumiy suv uzatishiga, yer osti qatlamidagi suvning serobligiga va uning chuqurligiga bog'liq ravishda yer ostidan suv olishni yakka (8.12,a-rasm) va guruhlangan (8.12,b-rasm) quduqlar yordamida amalga oshirish mumkin.



8.11-rasm. Issiqlik elektr stansiyasining nasos stansiyasi tasviri:
 1-nasos stansiya binosi; 2-bosimli quvurlar; 3-IES kondensatorlari;
 4-olib ketuvchi inshoot (quvur, kanal).

Birinchi holda har bir quduq (1) alohida nasos bilan ta'minlanib, kollektor (2) va bosimli quvur (3) orqali (4) suv minorasiga, undan (5) tarqatish tarmog'iغا uzatiladi.



8.12 - rasm. Yer osti manbasidan suv olish tasvirlari:
 a-yakka quduqdan suv olish; b-guruqlangan quduqlardan suv olish;
 1-nasos o'rnatilgan quduq; 2-kollektor; 3-bosimli quvur; 4-suv minorasi;
 5-tarqatuvchi tarmoq (iste'molchi); 6-nasossiz quduqlar; 7-o'zi oqar
 yoki sifonli quvurlar; 8-yig'ish qudug'i; 9-so'rish quvurlari; 10-nasos
 stansiya binosi.

Guruqlangan suv olishda (8.12,b-rasm) (6) nasossiz quduqlar (7) o'zi oqar yoki sifonli quvurlar orqali (8) yig'ish qudug'i bilan bog'lanib, undan (9) so'rish quvurlari orqali (10) binoga joylashgan nasoslar suv oladi. Suv olish quduqlari (6) va (8) yig'ish qudug'idagi suv sathlari farqi tufayli (7) sifonli quvurlar ishlaydi. Sifonli quvurlarda vakuum hosil qilish va suv oqishini ta'minlash uchun ularga vakuum-nasos o'rnatish zarur.


Vertikal suv olish qurilmalari suv o'tkazuvchi qatlam 5 m dan chuqurroqda joylashgan hollarda qo'llash tavsiya etiladi. Ular odatda shaxtali yoki quvurli quduqlar shaklida quriladi. Quduqlar soni 1 tadan

30 tagacha qabul qilinishi mumkin. Ular suv havzalarining qirg‘oq chizig‘iga parallel, ko‘ndalang yoki burchak ostida joylashtirilib, o‘zan suvlarni qabul qilishga mo‘ljallab quriladi.

Shaxtali quduqlar nisbatan katta kesim yuzaga ega bo‘lib, ulardan suv chiqarish uchun suzuvchi markazdan qochma (ПН-10), markazdan qochma-uyurmali, vintli, tebranma, markazdan qochma artezian, vertikal shtangali porshen nasoslar hamda tasmali va chilvirli suv ko‘targichlar qo‘llaniladi. Ba’zi hollarda B turdag‘i vertikal valli markazdan qochma nasos, hamda hamkorlikda ishlovchi ikkita ya’ni oqimchali nasos va markazdan qochma nasos birgalikda o‘rnatalishi ham mumkin (8.13,a-rasm).

Quvurli quduqlardan suv chiqarishda dinamik suv sathi chuqurligi 5...6 m gacha bo‘lgan hollarda gorizontal valli markazdan qochma va uyurmali nasoslar, suv sathi 6...10 m chuqurlikda joylashgan hollarda markazdan qochma artezian nasosi, shtangali porshen nasos, markazdan qochma nasos bilan birgalikda ishlovchi oqimchali nasos, erlift va tebranma nasos qo‘llanadi (8.13,b-rasm). Agar suv sathi 10 m dan chuqurroqda joylashgan bo‘lsa, asosan markazdan qochma artezian nasoslaridan foydalilanadi. Quvurli quduqlarning devorlari o‘rama quvur bilan mustahkamlanadi. Suv qabul qiluvchi qismiga simli yoki turli filtrlar o‘rnatalidi.

Gorizontal suv olish qurilmalari yer osti suvining chuqurligi 5 m gacha bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Tuzilishi bo‘yicha ular qum-shag‘al filtrlar bilan gorizontal yotqizilgan teshikchali suv ushlovchi quvurlar, yig‘uvchi va unga o‘rnatilgan nasoslardan tashkil topadi. Suv ushlovchi quvurlar daryo o‘zani bo‘yicha yoki yer osti suvlari oqimiga ko‘ndalang holda suv o‘tkazuvchi qatlama yotqiziladi.




8.13-rasm. Yer osti manbalaridan suv olish qurilmalari:

- a - shaxtali quduq, b - quvurli quduq;
- 1 - shaxtali quduqning yer ustki qismi;
- 2 - suv o‘tkazuvchi qatlama;
- 3 - quvurli quduq;
- 4 - ATN turidagi artezian nasosi;
- 5 - elektr dvigatel;
- 6 - yer ustki qurilma;
- 7 - bosimli quvur.

Nursimon suv olish qurilmalari shaxtali quduq atrofiga uning radiusi bo'yicha suv o'tkazuvchi qatlamaq gorizontal holda bosim ta'sirida kiritilgan bir nechta teshikchali, filtrlar o'rnatilgan quvurlardan iborat bo'lib, shaxtali quduqqa yig'ilgan suv ЭЦВ, А, ATH yoki B turdag'i nasoslar bilan iste'molchiga uzatiladi. Nursimon qurilmalar qalinligi kichik bo'lgan suv o'tkazuvchi qatlamlardan ko'proq miqdorda olish maqsadida qo'llaniladi.

Chiqindi suvlarni chiqarish nasos stansiyalari yog'ingar-chilikdan hosil bo'lgan, ishlab chiqarish va maishiy chiqindi suvlarni chiqarib tashlash uchun qo'llaniladi. Ular tuzilishi bo'yicha quritish nasos stansiyalariga o'xshab ketadi. (8. 14- rasm).

Chiqindi suvlarni chiqarish nasos stansiyalari yil davomida ishslashini e'tiborga olib, uning binosi, suv qabul qilishi hovuzi va panjaralarni isitilishi zarur. Agregatlar soni 3...4 ta bo'lgan nasos stansiyalar rejada doira shaklida qurilishi osonroq bo'ladi (8.14,a-rasm). Agregatlar soni 4 tadan ortiq bo'lgan katta nasos stansiyalarini to'rtburchak kesim yuzasi shaklda qurish maqsadga muvofiq bo'ladi (8.14,b-rasm). Ushbu stansiyalarda nasos va mashina xonalari suv qabul qilish hovuzidan suv o'tkazmaydigan temir - beton bilan ajratilgan.



8.14-rasm. Chiqindi suvlarni chiqarish nasos stansiyalari tasvirlari:
a - doira shaklidagi kesim yuzali; b - to'rtburchak shaklidagi kesim yuzali; 1 - suv qabul qilish hovuzi; 2 - panjara; 3 - mashina xonasi;
4-nasos.

Suv qabul qilish hovuziga mexanik tozalash panskhasasi bilan ta'minlangan panjara o'rnatilgan. Sanitariya talablariga asosan chiqindi

suvlarni chiqarish nasos stansiyasi odamlar yashaydigan binolar yoki jamoat binolaridan 25 m dan ortiq masofada uzoqqa joylashtiriladi.

8.5. Ko'chma nasos stansiyalar

Ko'chma nasos stansiyalar va qurilmalar bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilib ishlataladi. Ularni ko'chmas (doimiy) nasos stansiyalarni qurilishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan, ya'ni texnik jihatdan qurilishi qiyin bo'lgan joylarda va kichik (500 ga dan kam) ekin maydonlarini sug'orish uchun qo'llaniladi.

Ko'chma nasos stansiyalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

– **suzuvchi nasos stansiyalar** suv manbasining qirg'og'i yuviladigan va suv sathining o'zgarishi 5 m dan ortiq bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Suzuvchi nasos stansiyalar zavodlarda tayyorlanib, suv uzatishi $20 \text{ m}^3/\text{s}$ gacha va bosimi 125 m gacha chegaralarda ishlab chiqariladi (8.2,a-rasm);

– **yer yuzida siljitaladigan** nasos stansiyalarning osma, g'ildirakli (8.2,b-rasm) va sirpanuvchi chanaga o'rnatiladigan (8.2,d-rasm) turlari ishlab chiqarilib, 500 ga gacha maydonlarni sug'orishda qo'llaniladi;

– **qirg'oqda harakatlanuvchi (funikular) nasos qurilmalari** (8.2,e-rasm) g'ildirakli aravachaga o'rnatilib, qirg'oq bo'ylab joylashtirilgan relsda suv sathi o'zgarishi bo'yicha harakatga keltiriladi.

Nazorat savollari

1. Nasos stansiyalarning vazifalari nimalardan iborat?
2. Nasos stansiyalarga qanday talablar qo'yiladi?
3. Nasos stansiyalarining turli omillar bo'yicha tasniflanishini tushuntirib bering;
4. Ochiq manbadan suv oluvchi nasos stansiya tarkibiga qanday inshootlar kiradi?
5. Nasos stansiya inshootlariga qanday talablar qo'yiladi?
6. Sug'orish tizimidagi nasos stansiyalarining alohida xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Nasos stansiya binosini suv olish inshootlari bilan birlashgan yoki alohida quriladigan variantlarini tushuntirib bering.
8. Quritish nasos stansiyalari qanday maqsadlarda quriladi?
9. Quritish nasos stansiyalarini alohida xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Quritish nasos stansiya inshootlarini tushuntiring.

11. Suv ta'minoti tizimi iste'molchilarining turlari qanday bo'ladi?
12. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimi nasos stansiyalarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Suv ta'minoti tizimidagi birinchi va ikkinchi ko'taruv nasos stansiyalarining inshootlari tarkibini tushuntirib bering?
14. Ko'chma nasos stansiyalar qanday turlarga bo'linadi?

9 - bob. NASOS STANSIYALARINING GIDROMEXANIK, ENERGETIK VA YORDAMCHI USKUNA VA JIHOZLARI

9.1. Gidromexanik va energetik uskunalar haqida umumiyl tushunchalar

Suv talab qilish grafigi asosida iste'molchiga suvni uzlusiz uzatib berish jarayonida bevosita qatnashuvchi vositalar gidromexanik uskunalar deyiladi. Bularni tarkibiga asosiy nasoslар va ularni quvurlaridagi uskuna va jihozlar (surilma qulfak, to'sqich, tartibga soluvchi va himoyalovchi qopqoplar) kiradi.

Asosiy nasoslarni harakatga keltirish uchun xizmat qiladigan uskunalar asosiy energetik uskunalar deyiladi. Ularning tarkibiga asosiy nasoslarning dvigatellari, elektr energiya taqsimlash qurilmalari va dvigatellarning vallaridan nasoslarning vallariga mexanik energiya uzatmalarini kiradi.

Asosiy gidromexanik va energetik uskunalardan tashqari nasos stansiyalariga yordamchi gidromexanik va energetik uskuna va jihozlar o'rnataladi. Yordamchi nasoslар (vakuum-nasos, texnik suv ta'minoti, quritish, loyqa chiqarish, moy-bosim, o't o'chirish tizimi nasoslari), ularning quvurlari va quvurlaridagi jihozlar (ventil, kran va h.k.), suv o'lchov asboblari (suv sarfi o'lchagichi, vakuummetr, manometr, va h.k.), suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi va darvozalar yordamchi gidromexanik uskunalarni tashkil etadi. Nasos stansiyasidan foydalanish qulay bo'lishi uchun isitish, sovutish (shamollatish), yuk ko'tarish, pneumatik, sanitariya- texnik, metallarga yengil ishlov berish va boshqa mexanik uskunalar ham qo'llaniladi.

Yordamchi gidromexanik va mexanik uskunalarni harakatga keltirish uchun qo'llaniladigan dvigatellar, o'zgarmas tok hosil qiluvchi generatorlar va boshqa energiya bilan bog'liq vositalar yordamchi energetik uskunalar deyiladi. Bulardan tashqari energiya boshqarish va taqsimlash qurilmalari, pasaytiruvchi va avtomatika vositalari uchun turli yordamchi energetik uskuna va jihozlardan foydalaniлади. Nasos stansiya qancha katta bo'lsa, unga ancha murakkab uskuna va jihozlar o'rnatish zarur bo'ladi.

Asosiy nasoslarga quyidagi talabalar qo'yiladi:

- suv iste'moli grafigi bo'yicha yuqori darajada samarali va ishonchli suv uzatishni ta'minlashi;
- foydali ish koefitsiyenti (FIK) yuqori va yaxshi kaviatcion ish tartiblarida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- o'lcharmlari kichik, vazni engil va ishlatalish qulay bo'lishi;
- sanoatda muntazam ishlab chiqarilishi.

Har qanday muayyan holat uchun zaruriy talablarni qanoatlantiradigan masalalarni echish variantlarni texnik - iqtisodiy taqqoslash asosida amalga oshirilib, asosiy nasoslarni soni, turi va belgisi tanlab olinadi.

Asosiy nasoslар ishchi, zaxira va qo'shimcha (mayda) turlarga bo'linadi.

9.2. Sug'orish tizimi nasos stansiyalaridagi nasos agregatlarining hisobiy bosimi va suv uzatishi

Nasosning hisobiy bosimi quyidagi formula aniqlanadi:

$$H_x = H_{g.o.r} + \sum h_w, \quad (9.1)$$

bu yerda, $H_{g.o.r}$ – o'rtacha geodezik uzatish balandligi (m); $\sum h_w$ – quvurlardagi bosim isroflari (m).

O'rtacha geodezik (geometrik) uzatish balandligi nasosni yil davomida o'zgaruvchan va o'rtacha balandliklarga suv uzatishda bajariladigan ishlarining tenglik xususiyati asosida quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$H_{g.o.r} = \frac{\sum (Q_i H_{g.i} t_i)}{\sum (Q_i t_i)}, \quad (9.2)$$

bu yerda, Q_i va $H_{g.i}$ – nasos stansiyasining har bir t_i davrlardagi suv uzatishlari (m^3/s) va geodezik uzatish balanliklari (m), (9.1 rasm).

Quvurlardagi bosim isroflari $\sum h_w$ ikki qismdan, ya'ni ishqalanish hisobiga uzunlik bo'yicha gidravlik qarshiliklar uchun sarflanadigan $\sum h_t$ va mahalliy qarshiliklarga sarflanadigan $\sum h_M$ bosim isroflari yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$\sum h_w = \sum h_t + \sum h_M, \quad (9.3)$$

$$\sum h_t = iL, \quad (9.4)$$

bu yerda, i – o'rtacha gidravlik nishoblik yoki har 1 m uzunlik uchun solishtirma qarshilik (m), odatda $i = 0,0025\dots0,004$ qabul qilinadi; L – quvurning uzunligi, (m).

Mahalliy qarshiliklar hisobiga bosim isroflari loyihalashning dastlabki davrida statistik ma'lumotlar va tajribalar asosida $\sum h_m = 0,7\dots2$ m qabul qilinadi.

Har bir t_i davr uchun geodezik uzatish balandligi H_g yuqori va pastki, ya'ni suv chiqarish inshooti va suv manbasidagi suv sathlari ayirmasiga teng bo'ladi:

$$H_s = \nabla Y_{uSS} - \nabla P_{SS}.$$

Yuqori ∇Y_{uSS} va pastki ∇P_{SS} suv sathlari qiymatlari o'rtacha suv ta'minoti yili uchun ko'p yillik statistik ma'lumotlardan qabul qilinadi.


Suv sathi kam o'zgaruvchi (2 m gacha) manbalardan suv olishda $H_{g,0'}$ qiymatini geodezik uzatish balandliklarni maksimal $H_{g,max}$ va minimal $H_{g,min}$ qiymatlarini yarim yig'indisi sifati aniqlash tavsiya etiladi (9.1-rasm):

$$H_{g,0'} = \frac{H_{g,max} + H_{g,min}}{2}. \quad (9.5)$$

Nasos turi tanlangandan so'ng $H_{g,max}$ va $H_{g,min}$ qiymatlari asosida maksimal va minimal bosimlar aniqlanib, uning ish tartibi chegaralarini tekshirib ko'rish zarur bo'ladi. Maksimal va minimal bosimlar quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:


$$H_{x,max} = H_{g,max} + \sum h_w, \quad (9.7)$$

$$H_{x,min} = H_{g,min} + \sum h_w, \quad (9.8)$$



9.1- rasm. Nasos stansiyaning suv uzatish $Q = f(t)$ hamda yuqori va pastki beflarida suv sathlarini yil davomida o'zgarish grafiklari

Ishchi nasoslar soni va hisobiy suv uzatishi Q_x suv iste'moli grafigini to'la qoplash va har $1m^3$ suvning minimal tannarxini ta'minlash shartlari asosida qabul qilinadi. Suv iste'moli grafigi teng pog'onali (9.1- rasm) va teng pog'onaga ega bo'lmagan grafik (9.2-rasm) lar ko'rinishda bo'lishi mumkin.



9.2- rasm. Teng pog'onaga ega bo'lmagan suv iste'moli grafigi:
1- suv iste'moli; 2- suv uzatish.

Teng pog'onali suv iste'moli grafigi (9.1- rasm) bo'yicha ishchi nasoslar sonini tanlash anchagini oson bajariladi ya'ni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Z = \frac{Q_{\max}}{Q_{\min}}, \quad (9.9)$$

bu yerda, Q_{\max} va Q_{\min} – suv iste'moli grafigining maksimal va minimal suv sarfi miqdorlari (9.1 -rasm).

Bu holda har bir nasosning hisobiy suv uzatishi $Q_x = Q_{\min}$ bo'lib, suv iste'moli grafigini turli t davrlarda qoplash u yoki bu bir turdag'i nasos aggregatini yurgizish yoki to'xtatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bir turdag'i nasoslar qo'llanilishi ularga xizmat ko'rsatish, foydalanish va ta'mirlash ishlarini yengillashtiradi.

Suv iste'moli grafigi teng pog'onaga ega bo'limgan ko'rinishda bo'lsa, nasoslar sonini ikki xil usulda aniqlash tavsiya etiladi. Agar suv iste'moli grafigida uzoq muddatli suv uzatish davrlari (masalan t_1 va t_n) bo'lsa, bu davrlar hisobiy davrlar deb qabul qilinib, nasoslar soni hisobiy davrlarni to'la qoplash asosida tanlanadi.

Lekin qo'p hollarda teng pog'onaga ega bo'limgan suv iste'moli grafigi ancha murakkab ko'rinishda (9.2- rasm) bo'lib, nasos stansiyaning maksimal suv uzatishi Q_{\max} va tanlanadigan ishchi nasoslar coni Z asosida har bir nasosning suv uzatishi Q_x aniqlanadi:

$$Q_x = \frac{Q_{\max}}{Z}, \quad (9.10)$$

Suv xo'jalik qurilishi me'yorlari bo'yicha ishchi nasoslari soni Z ni quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi:

- agar $Q_{\max} < 1 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lsa, $Z = 2\dots4$ ta;
- agar $Q_{\max} = 1\dots5 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lsa, $Z = 3\dots5$ ta;
- agar $Q_{\max} = 5\dots30 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lsa, $Z = 4\dots6$ ta;
- agar $Q_{\max} > 30 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lsa, $Z = 5\dots9$ ta.

Masalan suv iste'moli grafigi bo'yicha suv uzatish $Q_{\max} = 10 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lsa, nasos aggregatlari soni 4, 5 va 6 ta qabul qilinib, har uchala variant uchun har bir nasosning hisobiy suv uzatishlari Q_x^1, Q_x^2 da Q_x^3 (9.10) formula bilan topiladi. Ushbu suv uzatish Q_x qiymatlar bo'yicha har uchala variant uchun suv iste'moli grafigini suv uzatish grafigi qoplash holati tekshirilib ko'rildi. Qaysi variant bo'yicha suv iste'moli va suv uzatish grafiklari bir-biriga mos kelsa, o'sha variantdagi nasos aggregatlar soni qabul qilinadi. Suv iste'moli va suv uzatish grafiklarining farqi katta bo'lgan ba'zi hollarda suv uzatishi ishchi nasos suv uzatishining yarmiga yoki chorak qismiga teng bo'lgan 2\dots4 ta mayda nasoslar ham qabul qilish ruxsat etiladi.

Asosiy nasoslar soni variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslashi yo'li bilan tanlab olinishi zarur. Bunday hisoblarda har bir variant uchun keltirilgan xarajatlar $K_{k,x}$ quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{k,x} = K \cdot E_N + C, \quad (9.11)$$

bu yerda, K – qurilishga sarflanadigan kapital mablag‘, so‘m; $C - y$ lik foydalanish xarajatlari, so‘m; E_N – iqtisodiy samaradorlikning me‘yriy koefitsiyenti ($E_N = 0,1 \dots 0,12$ qabul qilinadi).

Keltirilgan xarajatlarning minimal qiymatiga to‘g‘ri keluchchi variant bo‘yicha asosiy nasoslar soni qabul qilinadi.

Bir nechta nasos agregatlari bitta umumiy bosimli quvurga parallel ulanadigan hollarda ularning suv uzatishi kamayishi hiscbiga $Q_{max} < Q_x \cdot Z$ bo‘lishini ham tekshirib ko‘rish zarur. Bunday holarni e’tiborga olib hamda ishdan chiqqan nasos agregatlarni o‘rnini qoplash va sug‘orish davrida yuzaga keladigan orttirilgan suv sarfarini ta’minlash maqsadida nasos stansiyasiga zaxira nasos agregatlari ham o‘rnataladi.

Ba‘zi hollarda sug‘orish tizimi nasos stansiyalariga orttirilgan suv sarfi $Q_F = K Q_{max}$ qiymatlari asosida suv uzatish talabi qo‘yiladi. Orttirish koefitsiyenti K qiymatlari quyidagicha qabul qilinadi:

- agar $Q_{max} < 1 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lsa, $K = 1,2$;
- agar $Q_{max} = 1 \dots 10 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lsa, $K = 1,15 \dots 1,2$;
- agar $Q_{max} > 10 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lsa, $K = 1,1 \dots 1,15$.

Bu holda asosiy nasos agregatlari soni orttirilgan suv sarfi grafigini to‘la qoplash asosida tanlanadi. Sug‘orish va quritish tizimi nasos stansiyalari asosan II va III toifali ishchonchilik darajasiga ega bo‘lganligi uchun zaxira agregatlar soni quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi:

- agar asosiy nasoslar soni $Z = 1 \dots 6$ ta bo‘lsa, $Z_{zax} = 1$ ta;
- agar asosiy nasoslar soni $Z \geq 7$ ta bo‘lsa, $Z_{zax} = 2$ ta.

Mavsumiy ishlaydigan (2..4 oy), maksimal suv uzatish $1 \dots 1,5$ oyga to‘g‘ri keladigan, kichik ($Q < 1 \text{ m}^3/\text{s}$) nasos stansiyalari uchun zaxira agregatlar qabul qilish tavsiya etilmaydi.


9.3. Asosiy nasoslarni tanlash

Nasoslarni turini tanlashda «Nasoslard-katalogi»da [25, 26] beriladigan jamlangan grafiklardan foydalanish zarurligi 4.7 mavzuda qisman yoritilgan.

Jamlangan grafiklar har bir turdag‘i nasoslar uchun alohida shakllarda beriladi. Masalan, 9.3, 9.4, 9.5 va 9.6- rasmlarda D, B, ОП va ЭЦВ turdag‘i nasoslarning jamlangan grafiklari keltirilgan. Ushbu grafiklardan hisobiy bosimi H_x va suv uzatishi Q_x qiymatlari bo‘yicha nasos turi tanlab olinadi. Nasosni turini tanlashda uning qo‘llanish

sohasi, uzatadigan suyuqlik turi, harorati, aralashmalar miqdori va boshqa omillar e'tiborga olinishi zarur.

Jamlangan grafiklarda nasoslarning qo'llanilish chegaralari aksariyat hollarda egri chiziqli ko'pburchaklar shaklida beriladi[25,26].




9.3 - rasm. Markazdan qochma D turdag'i nasoslarning jamlangan grafiklari.


Bir vaqtning o'zida har xil turdag'i nasoslarni tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa, u holda quyidagi talablar asosida ularni taqqoslab, ulardan birini tanlab olinadi:

- 1) nasos H_x va Q_x qiymatlarni to'la qanoatlantira olishi zarur;
- 2) FIK yuqori bo'lishi talab etiladi;
- 3) ekspluatatsion va kavittatsion sifatlari yaxshi bo'lishi zarur;
- 4) aylanish chastotasi yuqori bo'lishi kerak;
- 5) nasos zavoddan muntazam ishlab chiqarilishini e'tiborga olish zarur.

Tanlab olingan nasosning belgisi va aylanish chastotasi bo'yicha «Nasoslar katalogi» dan uning xususiy yoki universal xarakteristikasi ko'chirib olinadi

[25, 26]. Agarda hisobiy koordinatalari H_x va Q_x bo'lgan ishchi nuqta A jamlangan grafiklardagi hech qaysi nasosning qo'llanish chegarasiga tushmasa, u holda nasosni turini tanlash quydagicha amalga oshiriladi.





9.6 - rasm. O'qiy O va OΠ turdag'i nasoslarning jamlangan grafiklari.

Ishchi nuqta A qiymatlariga yaqinroq joylashgan nasosning belgisi ko'chirib olinib, uning n aylanish chastotasiga yaqin keluvchi n_e standart aylanish chastota 9.1 - jadvaldan olinadi hamda H_x va Q_x qiyamlari quyidagi formulalar bilan qayta hisoblanadi:

$$H_x^l = H_x \left(\frac{n}{n_e} \right)^2; \quad Q_x^l = Q_x \frac{n}{n_e} ; \quad (9.12)$$

Eslatma: ishchi nuqta A ko'rيلayotgan nasosning egri chiziqli ko'pburchagidan chapda va pastroqda bo'lsa $n_{<n}$ qiymat qabul qilinadi ya aksincha.

Yuqoridagi (9.12) formulalar bilan topilgan H_x^1 va Q_x^1 qiymatlarga to‘g‘ri keluvchi B nuqta ko‘rilayotgan nasosning qo‘llanilish chegarasiga tushsa, u holda shu nasos qabul qilinadi va uning xarakteristikasi n_e – standart aylanish chastotasiga dinamik o‘xshashlik formulalaridan foydalanib, qayta hisoblanadi (4.3 - mavzu).

Agarda topilgan B nuqta ko'rيلayotган nasosning egri chiziqli ko'pburchagiga tushmasa, u holda yuqoridagi hisoblash ishlari A nuqtaga yaqinroq boshqa nasoslar uchun yana qayta bajarib ko'rildi.

Elektr dvigatellarning standart aylanish chastotalari

n_e ay/min, sinxron	3000	1500	1000	750	600	500	375	300	250
n_e ay/min, asinxron	2900	1540	960	730	583	485	368	290	242

Tanlangan nasos hisobiy H_x va Q_x qiymatlarini qanoatlantira olmasa, ya'ni ishchi nuqta A nasosning bosim xarakteristikasini 3% li chegarasidan tashqarida joylashsa, uning xarakteristikalari quyidagi usullardan foydalanib qayta hisoblab ko'riladi: 1) aylanish chastotasini o'zgartirish usuli; 2) ishchi g'ildiragini yo'nish usuli (faqt markazdan qochma nasoslarda qo'llaniladi); 3) umumlashtirilgan usul; 4) andozalash (modellash) usuli. Nasosning xarakteristikasida ishchi nuqtani aniqlash va uning xarakteristikasini qayta hisoblash usullari 4-bobda (4.2 va 4.3 – mavzular) yorilgan.

O'qiy nasosning bosim xarakteristikasi $H = f(Q)$ hisobiy bosimi H_x va suv uzatishi Q_x qiymatlari asosida universal xarakteristikadan aniqlanadigan ishchi g'ildirak kuraklarining o'rnatilish burchagi bo'yicha topiladi (4.3 - rasm). Bundan tashqari vertikal o'qiy va markazdan qochma nasoslarning universal xarakteristikalarida joiz vakuummetrik so'rish balandligi egri chizig'i $H_{vak}^l = f(Q)$ o'rniiga joiz kavitasiya zaxirasi egri chizig'i $\Delta h_i = f(Q)$ keltiriladi. Bu holda nasosning geodezik so'rish balandligini aniqlashda (3.74) formuladan foydalaniladi.

Quduqqa o'rnatiladigan ЭЦВ turdag'i nasoslarning jamlangan grafigidan $H = f(Q)$ egri chizig'i bo'yicha ishchi nuqta A ga yaqin joylashgan nasos belgisi tanlab olinadi. Masalan, 9.5- rasmdan A nuqtaga yaqin joylashgan 1 ЭЦВ10-63-65 belgidagi nasos qabul qilinadi.

9.4. Nasoslarning harakatlantiruvchi dvigatellari

Nasoslarni harakatga keltirish uchun elektr, ichki yonish, bug' va shamol dvigatellari qo'llanilishi mumkin. Hozirgi davrda asosan elektr dvigatellardan foydalaniladi. Chunki ular ixchamligi, vazni yengilligi, ishonchliligi, iqtisodiy samaradorligi, ish joyining pokizaligi, ishlatish

va avtomatlashtirish osonligi bilan boshqa dvigatellardan ustun turadi. Ba'zi hollarda ko'chma kichik nasos qurilmalarida ichki yonish dvigatellari va yaylovlari suv ta'minotidagi quduqlardan suv chiqarish qurilmalarida shamol dvigatellari ham qo'llaniladi. Elektr dvigatel, uni boshqarish uskunalarini va dvigateldan nasosga mexanik energiya uzatmasidan iborat majmua elektr - kuch uzatma deyiladi.

Nasos stansiyalarida gorizontal va vertikal valli uch fazali o'zgaruvchan tokli asinxron va sinxron elektr dvigatellardan keng foydalilanildi. Nasos stansiyalarida qo'llaniladigan elektr dvigatellarga quyidagi o'ziga xos talablar qo'yiladi: a) dvigateli yurgizish paytida to'la kuch bilan ishga solish zarurligi; b) tez-tez qayta to'xtatib - yurgizish imkoniyatiga ega bo'lishi; d) agregatni biror sababga ko'ra to'xtatish paytida elektr dvigatel valini uzoq muddat (5 daqiqadan ortiq) teskarai aylanishiga ruxsat etilishi.

Asinxron elektr dvigatellar. Sanoatda asinxron elektr dvigatellarning ikki xil turi ya'ni faza rotorli va qisqa tutashuv rotorli turlari ishlab chiqariladi. Faza rotorli asinxron elektr dvigatellar elektr tormog'iga qarshilik reostati yordamida ulanadi va yurgizish paytida kamroq tok kuchi talab qiladi. Lekin ularning yurgizish sxemasi va tuzilishi murakkab, narxi esa qimmat. Shu sababli ular ishlab chiqarishda kam qo'llaniladi. Qisqa tutashuv rotorli asinxron dvigatellarning tuzilishi sodda, foydalanish va avtomatlashtirish qulay, o'lchamlari kichik va narxi arzon bo'lganligi uchun nasos stansiyalarda va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida keng foydalilanildi. Lekin qisqa tutashuv rotorli asinxron dvigatellarning yurgizish paytidagi buralish momenti va tok kuchi me'yoriy ish tartibidagi qiymatidan 5...7 marta ortiq bo'ladi. Bundan tashqari elektr dvigatel validagi iste'mol quvvati ortishi bilan uning aylanish chastotasi kamayadi ya'ni rotor va stator magnit maydoni orasida «siljish» ortadi. Ularni yurgizish paytidagi tok kuchini kamaytirish uchun turli usullardan foydalilanildi: a) stator cho'lg'amlarini ishga solish paytida «yulduzcha» sxemasidan me'yoriy aylanish chastotasiga erishganda «uchburchak» sxemasiga qayta ulash; b) stator zanjiriga qo'shimcha qarshilik kiritib pog'onali tarzda ishga solish; d) ishga solish davrida qo'llaniladigan avtotransformatorlardan foydalanish. Lekin bu usullar qo'shimcha jihozlar o'rnatishni talab qiladi va avtomatlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun kichik quvvatlari (100 kVt gacha) elektr dvigatellarni bevosita qo'shimcha jihozlarsiz ishga solish ruxsat etiladi. Hozirgi paytda sanoatda asinxron dvigatellarning quyidagi turlari ishlab chiqariladi: gorizontal valli A 2

va AO2 (quvvati 100 kVt gacha), A va AK (quvvati 100...400 kVt), A3 va AK3 (quvvati 400 kVt dan ortiq), AH va AKH (quvvati 200...2000 kVt) seriyali elektr dvigatellar; vertikal valli BAH (quvvati 315...2500 kVt, aylanish chastotasi 375...1000 ay/min, 6 kV kuchlanishli) seriyali elektr dvigatellar [29].

Nasosning bosimi va suv uzatishini rostlash uchun ikki tezlikka ega bo‘lgan 6 kV kuchlanishli, quvvati 500...1400 kVt, aylanish chastotasi 500/300; 500/375 yoki 375/300 ay/min ga teng DBDA seriyali vertikal asinxron dvigatellardan ham foydalanish mumkin. Juft qutublari sonini o‘zgartirish yo‘li bilan aylanish chastotasini rostlovchi elektr dvigatellarning boshqa turlari ham ishlab chiqarilgan.

Sinxron elektr dvigatellarni uzoq muddat to‘xtovsiz ishlaydigan yuqori quvvatli nasoslarni harakatga keltirishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu turdagи elektr dvigatellarning quvvat koeffitsiyenti ($\cos\varphi=1$) yuqori va elektr tormog‘ining quvvat koeffitsiyentini yaxshilaydi, o‘zgarmas aylanish chastotasiga ega va tarmoqdagi kuchlanish o‘zgarsa ham bir tekis ishlaydi. Gorizontal valli nasoslар uchun CD, CDH, CDH3 seriyali sinxron eletr dvigatellar qo‘llaniladi. Rossianing «Uralelektrotajmash» zavodida vertikal valli nasoslар uchun quvvati 630...12500 kVt, kuchlanishi 6 va 10 kV bo‘lgan BCDH va BDC seriyali sinxron elektr dvigatellar ishlab chiqariladi [29]. Sinxron elektr dvigatellar tuzilish va yurgizish sxemasi murakkab va narxi qimmat bo‘lishiga qaramay amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Hozirgi davrda asinxron usulda ishga tushiriladigan qo‘zg‘atuvchi yordamida yoki statistik tiristorli qo‘zg‘atuvchi bilan yurgiziladigan sinxron elektr dvigatellar ishlab chiqarilmoxda. Tiristor qo‘zg‘atuvchi qo‘llangan elektr dvigatellar tok kuchini rostlash, qurilmani ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish xarajatlarini iqtisod qilish, elektr energiya sarfini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Ishlash sharoitiga bog‘liq ravishda elektr dvigatellarni ochiq havoda ishlaydigan, namlikdan himoyalangan, germetik va portlashga xavfsiz turlari ishlab chiqariladi.

Elektr dvigatellarni tanlashda quyidagi tavsiyalarga e’tibor berish zarur:

a) nasosning talab qiladigan quvvati 250 kVt gacha bo‘lganda, past kuchlanishli (1000 V dan kam) asinxron elektr dvigatellar qabul qilish;

b) nasosning talab qiladigan quvvati 250 kVt dan katta va tez-tez to‘xtatib - yurgiziladigan hollarda yuqori kuchlanishli (1000 V dan ortiq) asinxron elektr dvigatellar qo‘llash;

d) nasosning talab qiladigan quvvati 250 kVt dan katta va kam to‘xtatib yurgiziladigan holatlarda yuqori kuchlanishli (1000 V dan ortiq) sinxron elektr dvigatellar qo‘llash tavsiya etiladi.

Elektr dvigatellarni tanlash. Elektr dvigatelni tanlashda uning va nasosning aylanish chastotasi va validagi quvvati mos tushishiga e’tibor beriladi.

Elektr dvigatelning quvvati (kVt) quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{dv} = \frac{N_{max} K}{\eta_{uz}}, \quad (9.13)$$

bu yerda, N_{max} – nasos validagi maksimal talab qiladigan quvvati (kVt); uning qiymati nasosning xarakteristikasidan $N_{x,max}$ va $N_{x,min}$ qiymatlar asosida tanlab olinadi yoki (1.25) formula bilan $H_{x,max}$, $Q_{x,min}$ va $H_{x,min}$, $Q_{x,max}$ qiymatlar asosida hisoblab topiladi; K – zaxira koefitsiyenti, nasosning quvvati 50 kVt gacha bo‘lganda $K=1,3\dots1,2$; 51\dots100 kVt bo‘lsa, $K=1,2\dots1,1$ va 100 kVt dan ortiq bo‘lsa, $K=1,1\dots1,05$ qabul qilinadi; η_{uz} uzatmaning FIK; nasos va dvigatel vallari bevosita yoki lappakli elastik mufta yordamida ulanganda $\eta_{uz}=1$ qabul qilinadi.

Elektr dvigatellar katalogidan aylanish chastotasi n_{dv} (ay/min) nasosning aylanish chastotasi n_u (ay/min) ga teng va quvvati (9.13) formula bilan aniqlangan miqdorga mos keluvchi gorizontal yoki vertikal valli elektr dvigatelning turi tanlab olinadi. Elektr dvigatelni tanlashda tok turi, chastotasi, kuchi va kuchlanishi, elektr energiya manbasining dvigatelni yurgizish holatiga qo‘yadigan talablari, atrof muhit sharoiti (harorat, namlik, changlik, shamollatish), nasosning yurgizish, me’yoriy va maksimal aylanish momentlari dvigatelning mos aylanish momentlaridan kam bo‘lish holatlari tahlil qilinishini zarur.

Nasosning aylanish momentlari ($\text{kg}\cdot\text{m}$) quyidagi formula bilan topiladi:

$$M = 975 \frac{N}{n}; \quad (9.14)$$

bu yerda, N – nasosning yurgizishdagi, me’yoriy va maksimal quvvati, kVt; n – aylanish chastotasi, ay/min.

Elektr dvigatelining aylanish momentlari ularning kataloglarida yoki pasportida beriladi. Katalogdagi elektr dvigatellarning me'yoriy quvvati 35°C havo haroratida ishlashi uchun keltirilgan. Agar havo harorati 35°C dan yuqori bo'lsa, uning me'yoriy quvvati quyidagi K_t harorat koeffisentiga ko'paytirib, pasayish miqdori aniqlanadi:

- agar $t^{\circ} = 40^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, $K_t = 0,95$ (0,95);
- agar $t^{\circ} = 45^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, $K_t = 0,9$ (0,875);
- agar $t^{\circ} = 50^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, $K_t = 0,85$ (0,75).

Eslatma: harorat koeffitsiyenti K_t ning qavs ichidagi qiymatlari sinxron elektr dvigatellar uchun berilgan.


Elektr dvigatellarni tanlashda elektr ta'minoti manbasining texnik ko'rsatkichlariga va talablariga e'tibor berish zarur. Agar nasos stansiya quriladigan tumanda past kuchlanishli pasaytiruvchi podstansiya joylashgan bo'lsa, nasos stansiyasini unga ulash mumkin. Agar nasos stansiya yuqori kuchlanishli elektr tarmog'idan (LEP) tok olsa, uning binosi atrofiga pasaytiruvchi transformator podstansiyasi quriladi. Uning tarkibiga kuch trasformatorlari, boshqarish va energiya taqsimlash jihozlari va x.k. kiradi. Nasos stansiyasiga yuqori kuchlanishli (1000 V yuqori) dvigatellar o'rnatilsa, u holda ichki ehtiyojlarni qondirish (yordamchi uskunalar dvigatellari, yoritish, isitish va h.k) uchun qo'shimcha kichik transformator o'rnatiladi. O'ta muhim vazifani bajaruvchi va yuqori ishonchlilik darajasidagi I va II toifali nasos stansiyalar alohida mustaqil ikkita manbadan elektr energiya bilan ta'minlanadi.

Nasos stansiyalarning elektr energiya ta'minoti, elektr uskuna va jihozlari bo'yicha hisoblash ishlarini elektrotexnika sohasi mutaxassislar bajaradilar. Bu hisoblar texnik-iqtisodiy taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

9.5. Dvigateldan nasosga mexanik energiya uzatmaları

Dvigatel validan nasos valiga mexanik energiya turli moslamalar yordamida uzatiladi: lappakli, gidravlik, elektr magnit muftalar, tishli, tasmali uzatmalar va boshqalar. Bulardan tashqari nasos va elektr dvigatel bitta umumiy valga bevosita joylashtirilishi ham mumkin. Bunday bevosita ulash kichik KM turdag'i markazdan qochma va vakuum nasoslarda qo'llangan bo'lib, monoblokli deb nomlanadi va uzatmaning FIK birga teng bo'ladi.

Lappakli mufta bilan mexanik energiya uzatishda nasos va dvigatel vali o'qlari bir-biriga mos kelishi va ularning aylanish chastotalari teng bo'lishi zarur. Lappakli mufta ikkita lappakdan iborat bo'lib (9.7-rasm), ularning biridagi elastik, ya'ni rezina g'ilof kiydirilgan barmoqlari ikkinchisining teshikchalari kiritiladi. Rezina g'ilof vallarni aylanishida hosil bo'ladigan zARBni kamaytiradi. Lapakli mufta tuzilishi sodda va FIK 1 ga teng bo'lganligi sababli amaliyotda keng qo'llaniladi.



9.7 - rasm. Lappakli elastik mufta:

- 1- dvigatel valiga o'matiladigan lappak; 2- nasos valiga o'matiladigan lappak; 3- rezina g'ilofli barmoqlar.


Tasmali uzatma nasos va dvigatelning aylanish chastotalari teng bo'limgan va ularning o'qlari har xil tekislikka joylashtiriladigan hollarda qo'llanadi. Tasmalar charim, rezina, tuyu juni yoki ip gazlamadan tayyorlanib, yassi yoki ponasimon (trapetsiya kesim yuzali) shakkarda bo'ladi. Tasmaning tortuvchi tarmog'i pastki qismiga joylashtiriladi. Tasmali uzatmalarning FIK 0,94 ...0,98 ga teng bo'ladi.

Tishli uzatma (reduktor) ham nasos va dvigatel aylanish chastotalari teng bo'limgan hollarda qo'llaniladi, lekin tasmali uzatmaga nisbatan ancha ixcham bo'ladi va kichik maydonni egallaydi. Tishli uzatmalar vallarning parallel yoki perpendikular joylashish holatiga bog'liq ravishda silindrsimon yoki konussimon tishli shakkarda bo'lishi mumkin.

Tishlarning yeyilishini kamaytirish va FIK ni orttirish maqsadida tishlar maxsus moy qo'yiladigan quticha shakldagi qobiqqa joylashtiriladi. Bunday tishli uzatmalar reduktor deb nomlanadi. Ularning FIK 0,98...0,99 ni tashkil etadi. Tishli g'ildiraklar maxsus po'latdan toblanib tayyorlanadi.

Gidravlik mufta nasosning aylanish chastotasini dvigatel aylanish chastotasiga nisbatan o'zgartirish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi (9.8- rasm). Gidravlik mufta ikkita ishchi g'ildirak, ya'ni (2) markazdan qochma nasos g'ildiragi va (4) turbina g'ildiragidan iborat bo'lib, ular

orasida harakatlanuvchi suyuqlik yordamida mexanik aylanma harakat (1) dvigatel validan (3) nasos valiga uzatiladi. Gidravlik muftaga maxsus nasos qurilmasidan uzatiladigan ishchi suyuqlik miqdorini o'zgartirish hisobiga nasos aylanish chastotasini silliq o'zgartirish imkoniyatini beradi. Nasos va dvigatel aylanish chastotalari o'rtasidagi farq, ya'ni «sirpanish» 2...3 % bo'lganda, uzatmaning FIK 0,96...0,98 ga teng, «sirpanish» darajasi 50 % ga yetganda, FIK 0,6 gacha pasayadi.




9.8-rasm. Gidravlik muftaning tuzilishi:

1 va 3 – yetaklovchi (dvigatel) va ergashuvchi (nasos) vallari; 2 - mar-kazdan qochma nasos g'ildiragi; 4 - turbina g'ildiragi; 5 - aylanuvchi qobiq; 6 – mufta qobig'i.

Gidravlik mufta bir qator afzallikkлага ega, ya'ni aylanish chastotasini silliq pog'onasiz o'zgarish mumkin, bir – biriga tegib ishlaydigan va yeyiladigan detallar yo'q, shovqinsiz ishlaydi, FIK yuqori, avtomatik va masofadan boshqarish mumkin va ishonchlilik darajasi yuqori. Shuning uchun bunday muftalar texnikaning turli sohalarida ishlataladigan mashina va mexanizmlarda keng qo'llaniladi. Gidravlik mufta me'yoriy ish ko'rsatkichlaridan katta farq qiladigan holatlarda ishlatsa FIK keskin kamayadi va ishchi suyuqligi qizib ketadi.

Elektr magnit mufta ham gidravlik mufta kabi bir qator afzallikkagara ega (9.9- rasm). Lekin uning o'lchamlari katta, havo harorati o'zgarishi aylanish chastotasining qo'shimcha «sirpanish» iga sabab bo'ladi.


Elektr magnit muftaning bog'lanish halqalari (5) orqali qo'zg'atish cho'lg'amlari (3) ga o'zgarmas tok berilsa, yakor (1) va induktor (2) orasida elektr magnit bog'lanish hosil bo'lib, aylanayotgan yakor (1) induktor (2) ni ergashtirib, aylantiradi.



9.9- rasm. Elektr magnit muftaning tuzilishi:

1- yakor; 2- induktor; 3- qo'zg'atish cho'lg'amli; 4 –nasos vali; 5 – bog'lanish halqalari; 6- dvigatel vali.

Muftaga beriladigan tok kuchini o'zgartirish yo'li bilan nasos valining aylarish chastotasini silliq (pog'onasiz) o'zgartirish mumkin. Muftaning FIK induktorning «sirpanish» darajasiga bog'liq bo'ladi.



9.10 - rasm. Shtangali porshen nasos lebedkasi tasviri:

1 - shkiv; 2 va 3 – kichik va katta tishlar; 4 - ko'tarilib - tushuvchi element (plunger); 5 - tirsakli val; 6 - krivoship; 7- bosimli havo qalpogi; 8 - shatun; 9- sharnir; 10-polzun; 11 - bosimli quvur

Lebedkalar chuqur quduqlarga o'rnatiladigan shtangali porshenli nasoslarda qo'llaniladi (9.10-rasm). Lebedka yordamida aylanma harakat shtangali porshenli nasosning to'g'ri chiziqli ilgarilanma - qaytarilma harakatiga aylantirib beriladi va quduqdagi suyuqlik havo qalpogi (7) orqali bosimli quvurga uzatiladi. Lebedkaning ishlash tarzi 6.1-mavzuda bayon etilgan porshenli nasosga mexanik harakat uzatib beruvchi krivoship-shatun mexanizmiga o'xshash bo'ladi.

9.6. Yopiq sug'orish tarmog'i nasos stansiyalarining asosiy gidromekanik uskunalari

Yopiq sug'orish tarmog'iga suv uzatish nasos stansiyalarining xususiyatlari quyidagilaridan iborat [27]

- aniq suv iste'moli grafigi yo'qligi va 24 soat davomida noldan Q_{max} gacha har qanday miqdordagi suv uzatishni ta'minlab berish zarurligi;
- suv uzatishni yomg'irlatib sug'orish mashinalari soni va texnik ko'rsatkichlariga bog'liqligi;
- uzatiladigan suv toza bo'lishi.

Odatda, quvurlarning diametrлari kichik va qurilish bahosi arzon bo'lishi uchun bunday nasos stansiyalar suv iste'moli $1,2 \text{ m}^3/\text{s}$ dan kam bo'lgan sug'orish maydonlariga mo'ljallab loyihalanadi. Yopiq sug'orish tarmog'i nasos stansiyalariga ikki xil turdagи nasoslar, ya'ni boshlang'ich (buster) va ishchi nasoslar o'rnatiladi. Boshlang'ich nasoslar quvurlarni oldindan suvga to'ldirish va choklaridan sizib ketadigan suv miqdorini qoplash, hamda quvurlardagi bosimni saqlab turishga xizmat qiladi. Ishchi nasoslar faqat ekinlarni sug'orish davrida ishlatiladi. Ikkitagacha yomg'irlatish mashinasiga suv uzatuvchi nasos stansiyasiga bitta nasos agregati o'rnatilsa, bir nechta almaslab ekish maydonlarini sug'orishga xizmat qiluvchi ko'p sonli yomg'irlatish mashinalariga suv uzatishda 3...5 ta ishchi va 2 ta boshlang'ich nasos aggregatlari qabul qilinadi.

Umuman olganda, bu sohada tajribalar kamligi e'tiborga olib, nasoslar soni va turini tanlashda avval bajarilgan loyihalardan namuna sifatida foydalanish va texnik - iqtisodiy hisoblar bilan asoslash zarur bo'ladi. Qabul qilingan ishchi nasos aggregatlar soni Z bo'yicha har bir nasosning suv uzatishi Q_x (9.10) formula bilan aniqlanadi. Nasoslarning hisobiy bosimi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$H_x = H_{g,max} + \sum h_w + H_{erk}; \quad (9.15)$$

bu yerda, $H_{g,max}$ – suv manbasi bilan eng uzoqda joylashgan yoki erkin bosim miqdori kam bo'ladigan gidrant o'rtaida maksimal geodezik balandlik, m; $\sum h_w$ – suv manbasidan gidrantgacha bo'lgan quvurlardagi bosim isroflari, m; H_{erk} – eng uzoqda joylashgan gidrantdagи erkin bosim,m; (yomg'irlatish mashinasiga texnik ko'rsatkichlarida beriladi).

Hisobiy Q_x va H_x qiymatlar bo'yicha jamlangan grafiklardan nasosning belgisi tanlab olinadi (9.3, 9.4, 9.5, 9.6 - rasmlar). Boshlang'ich nasoslarning hisobiy bosimi ishchi nasoslar bosimiga teng qabul qilinadi. Ularning hisobiy suv uzatishi quyidagicha topiladi:

$$Q_{x,b} \geq (0,03 \dots 0,1) Q_{max}; \quad (9.16)$$

bu yerda, Q_{\max} – nasos stansiyaning maksimal suv uzatishi, m^3/s ; 0,03 va 0,1 – mos ravishda po'lat va abestosement quvurlar uchun qabul qilinadigan koeffitsiyentlar.

Yomg'irlatish («Fregat», «Voljanka» va «Dnepr») mashinalariga toza suv berish uchun suv olish inshooti 0,5...2 mm va undan katta loyqa va qum zarrachalarini ushlab qoluvchi filtrlar bilan jihozlanishi talab etiladi. Bosimli quvurlarida zaruriy bosimni saqlab turish, bosimni tebranishini susaytirish va avtomatik vositalarni bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida nasos stansiya binosidan chiqish joyiga 6...10 m^3 hajmli suv-havo idishlari o'rnatiladi. Idishni 1/3 qismi kompressoror yordamida avtomatik ravishda qisilgan havo bilan to'ldiriladi.


Yopiq sug'orish tarmog'i nasos stansiyalarini suv o'lchov asboblari (vakuummetr, manometr, induksion suv sarfi o'lchagichi va h.k.) bilan to'la jihozlanadi va avtomatik tarzda boshqariladi. Ularni boshlang'ich ishga solish va sug'orish mavsumi oxirida butunlay to'xtatish qo'lda bajariladi.

9.7. Quritish nasos stansiyalarining asosiy gidromexanik uskunalari

Quritish nasos stansiyalarining alohida xususiyatlari 8.2 - mavzuda yoritilgan. Nasoslarning suv uzatishi va bosimini aniqlash quritish maydonidan suv oqib chiqish tartibi bilan nasos stansiyaning ish tartibini bog'lab amalga oshiriladi [27,35]. Nasos stansiyasining qaysi toifali sinfga mansubligiga qarab, ko'p yillik statistik ma'lumotlar asosida suv oqib chiqish ta'minoti foizi p (%) va davri $\tau = 100/p$ (yil) tanlanadi. Ana shu asosda chiqarib tashlanadigan suv sarsining T vaqtidagi integral egri chizig'i va nasos stansiyasining taxminiy tanlangan maksimal suv uzatishlari Q_{ns}^I , Q_{ns}^{II} , Q_{ns}^{III} , qiyatlardagi integral chiziqlari chiziladi (9.11 -rasm). Quritish maydonidan sunvi chiqarib tashlash miqdori va yer osti suvi sathining yil davomida o'zgarishi bo'yicha hisoblar tahlili asosida nasos stansiyasining maksimal suv uzatish Q_{\max} aniqlanadi.

Nasoslarning hisobiy bosimi H_x suv qabul qilish inshooti (daryo) va suv to'plovchi (rostlovchi) havzadagi suv sathlarini o'zgarish grafiklari asosida (9.1) formula bilan aniqlanadi. Nasos aggregatlari sonini tanlashdagi to'xtatib – yurgiziladigan nasoslarning suv haydashi o'zgarishi natijasida kollektordagi suv sathi o'zgarish tezligi hisobiga uning qirg'og'i buzilishi sodir bo'lmasligiga e'tibor beriladi. Nasos

stansiya oldida rostlovchi havza quriladigan hollarda, hamda maksimal va minimal suv sarfi nisbatlari (7) dan katta qiymatga teng bo'lganda, kichik stansiyalarga (2) va undan ortiq, o'rtacha stansiyalarga (3) va undan ortiq, katta stansiyalarda (4) va undan ortiq nasos agregatlari o'rnatish tavsiya etiladi.



9.11 - rasm. Nasos stansiyaning turli miqdordagi suv uzatishlariga to'g'ri keluvchi tashlama suvlar yig'indi egri chiziqlari (1, 2, 3) va quritish maydonidan suv oqib chiqish integral egri chizig'i (4).

Nasos stansiyasining oldida rostlovchi havza qurilmaydigan hollarda kichik (mayda) nasoslar soni suv haydashi bo'yicha quyidagi nisbatda qabul qilinadi: 1:1:2; 1:2:2; 1:1:2:2; 1:1:3:3. Quritish nasos stansiyasidagi asosiy aggregatlardan birortasi ishdan chiqqan davrda xalq xo'jaligiga katta zarar yetmagan hollarda zaxira nasos agregatlari qabul qilinmaydi.

9.8. Qishloq xo'jalik suv ta'minoti nasos stansiyalarining asosiy gidromekanik uskunalari

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimida joylashishi bo'yicha nasos stansiyalari I va II ko'taruvi stansiyalariga bo'linadi. Birinchi ko'taruvi nasos stansiyasi uch xil ish holati uchun loyihalanishi mumkin: a) tozalash inshootiga uzatish; b) suv to'plovchi havzaga uzatish; d) bevosita tarmoqqa (iste'molchiga) uzatish (yer osti suvlaridan olishda suvni tozalash zaruriyat bo'limgan holda).

Birinchi ko'taruvi nasos stansiyasining o'rtacha bir soatdagi suv uzatishi (m^3/soat) quyidagi formula bilan topiladi:

$$Q_s = \frac{\alpha \cdot Q_{\max, \text{suv}}}{T} \quad (9.17)$$

bu yerda, $Q_{\max, \text{sut}}$ – maksimal bir kunlik suv sarfi, m^3/sut , T – nasos stansiyaning ishlash davri, odatda $T=24$ soat; α – suv ta'minoti tiziminining o'z ehtiyojlarini hisobga oluvchi koefitsiyent; suv tozalash inshootiga uzatiladigan hollarda $\alpha = 1,04 \dots 1,1$ va suvni tozalamay, to'plovchi havzaga uzatishda $\alpha = 1,01 \dots 1,03$ qabul qilinadi.

Birinchi ko'taruv nasos stansiyasi suvni bevosita iste'mol tarmog'iga uzatadigan hollarda uning o'rtacha bir soatdagi suv uzatishi Q_s ikkinchi ko'taruv nasos stansiyasi hisoblariga o'xshash aniqlanadi.

Suv ta'minoti tizimlari kelajakda suv iste'molini yanada ortishini hisobga olib loyihalanadi. Agar qurilishni birinchi davrida nasos agregatlari soni ikkita (bitta ishchi va bitta zaxira) qabul qilinsa, ularning har birini hisobiy suv uzatishi (9.17) formula bilan Q_s qiymatiga teng olinadi va bino ichida ikkinchi ishchi agregatga joy qoldiriladi.


Agarda nasos stansiyaga uchta (ikkita ishchi va bitta zaxira) agregatlar o'rnatilsa, kelajakda o'rnatiladigan ikkita ishchi nasos uchun bino ichida poydevorlar quriladi. Bu holda nasosning hisobiy suv uzatishi (m^3/soat):

$$Q_s = \frac{Q_t}{Z}; \quad (9.18)$$

Z- ishchi nasos agregatlari soni.

Birinchi ko'taruv nasos stansiyasidagi nasoslarning hisobi bosimi H_x (9.1) formula bilan topiladi. O'rtacha geodezik uzatish balandligi $H_{g,o}$, suv qabul qiluvchi havza va manbadagi suv sathlari ayirmasi bo'yicha aniqlanadi. Birinchi ko'taruv nasoslari bevosita iste'mol tarmog'iga suv uzatadigan hollarda ularning hisobiy bosimi H_x (9.15) formula bilan hisoblanadi.

Ikkinci ko'taruv nasos stansiyasining nasoslari soni va hisobiy suv uzatishini kunlik (sutkalik) suv iste'moli grafigi asosida tanlanadi (9.12-rasm).



9.12 - rasm. Sutkalik suv iste'moli (1) va suv uzatish (2) grafiklari:
3 – suv minorasi idishidan suv sarfi.

Agar nasos stansiyaga soatiga suv uzatishi $Q_x = 7,17$. $Q_{\text{sut}}/100$ bo'lgan bitta nasos o'rnatilsa, suv iste'moli grafigini to'la qanoatlantirish uchun 14 soat ya'ni soat 6 dan 20 gacha to'xtovsiz ishlashi talab etiladi (9.12 - rasm). Bu yerda suvning bir qismi iste'molchi va ikkinchi qismi bosimli minora idishiga uzatiladi. Soat 20 dan 5 gacha nasos to'xtatilib, iste'molchilarga suv bosimli minoradan, soat 11 va 13 oraliq'ida esa nasos va bosimli minora ikkalasidan uzatiladi. 9.12 - rasmdagi suv iste'moli va suv uzatish grafiklarini integral shaklda tuzib chiqilsa, ularning ordinalari farqidan bosimli minora idishining hajmini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ikkinchi ko'taruv nasos stansiyasining (nasosining) maksimal soatiga suv uzatishi

$$Q_c = \frac{Q_{\max}}{\bar{Q}_i} , \quad (9.19)$$

bu yerda, T_1 – nasos stansiyaning sutka davomida ishlash vaqt, soat.

Bosimli minoraga suv uzatuvchi ikkinchi ko'taruv nasos stansiyasiga odatda bitta ishchi va bitta zaxira nasos o'rnatiladi. Lekin bosimli minora idishining hajmini kamaytirish maqsadida nasoslar soni ko'proq qabul qilinishi mumkin. Nasos aggregatlari soni va bosimli minora idishi hajmini variantlarni texnik – iqtisodiy taqqoslab tanlanishi zarur. Nasoslarning hisobiy bosimi H_x (9.15) formula bilan aniqlanadi. Formuladagi geodezik uzatish balandligi $H_{g,max}$ bosimli minoradagi va toza suv havzasidagi suv sathilarini ayirmasi sifati aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik suv ta'minoti tizimi nasos stansiyalarining suv uzatishi bo'yicha I, II va III ishonchhlilik toifasiga ta'lulqi ekanligini e'tiborga olib va ularga o'rnatiladigan ishchi nasoslar soni 3 tadan 10 tagacha bo'lgan hollarda 1 tadan 3 tagacha zaxira aggregatlar o'rnatiladi. Bundan tashqari ikkinchi ko'taruv nasos stansiyalarida qo'shimcha yong'in o'chirish nasoslari ham bo'lishi zarur. Yong'inga qarshi nasoslardan uchun alohida suv minorasiga bog'lanmagan tarmoq qurish talab etiladi. Ba'zi hollarda yong'in o'chirish uchun bosimli minora idishida yong'inga mo'ljallangan suv zaxirasi ko'zda tutilib, tarmoqdagi yong'in gidrantlariga ulanadigan ko'chma nasos qurilmalaridan ham foydalaniлади. Yong'in o'chirish nasoslarining suv uzatishi va bosimi maxsus me'yorlar asosida qabul qilinadi.

9.1- masala. Quduqdan $\ell = 500$ m uzoqda joylashgan bosimli minoraga suv chiqarib berishga mo'ljallangan suvgaga botiriladigan ЭЦВ nasos turini tanlash talab etiladi. Quyidagi ma'lumotlar berilgan: suv uzatishi $Q_x = 50 \text{ m}^3/\text{s}$, yoki $180 \text{ m}^3/\text{soat}$, quduqning solishtirma debiti $q = 15 \text{ m}^3/\text{soat}$, po'lat quvur diametri $D = 250 \text{ mm}$, bosimli minoradagi suv sathi belgisi $\nabla BM = 74 \text{ m}$, quduqdagi statik suv sathi belgisi $\nabla S = 42 \text{ m}$, yer yuzasi belgisi $\nabla E = 62 \text{ m}$.

Echish:

Quduqdagi statik suv sathining dinamik suv sathicha pasayishi:

$$h_{g,1} = \frac{Q}{q} = \frac{180}{15} = 12 \text{ m.}$$

Nasosning to'la geodezik uzatish balanligi:

$$N_g = h_{g,1} + h_{g,2} = \nabla BM - \nabla S + h_{g,2} = 74 - 42 + 12 = 44 \text{ m.}$$

Quduqdan minora tagigacha quvurlarning umumiyligi uzunligi:

$$L = \ell + h_{g,1} + h_{g,2} = 500 + 32 + 12 = 544 \text{ m.}$$

Quvurlardagi bosim isroflari $\sum h_w$ quyidagi formula bilan topiladi:

$$\sum h_w = 1,1 A L Q^2$$

bu yerda, A solishtirma qarshilik; 1,1-mahalliy bosim isroflarini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Solishtirma qarshilik A ning qiymati quyidagi gidravlik hisoblar asosida aniqlanadi:

– dastlab gidravlik radius R, kesim yuzasi W, Shezi koeffitsiyenti C va solishtirma qarshilik A qiymatlari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

$$R = \frac{D}{4} = \frac{0,25}{4} = 0,0625 \text{ m} ;$$

$$W = 0,785 D^2 = 0,785 \cdot 0,25^2 = 0,049 \text{ m}^2 ;$$

$$C \frac{1}{n} R^{1/6} = \frac{1}{0,013} \cdot 0,0625^{1/6} = 48,5 .$$

$$K = WC\sqrt{R} = 0,049 \cdot 48,5 \sqrt{0,0625} = 0,55 \text{ m}^3 / \text{s}$$

$$A = \frac{1}{K^2} = \frac{1}{0,55^2} = 3,34$$

bu yerda, n = 0,013 – po'lat quvurning g'adir-budurlik koeffitsiyenti.
Quvurlardagi bosim isroflari:

$$\sum h_w = 1,1 \cdot 3,34 \cdot 544 \cdot 0,05^2 = 5,1 \text{ m}$$

Nasosning hisobiy bosimi:

$$H_x = H_g + \sum h_w = 44 + 5,1 = 49,1 \text{ m}$$

Hisobiy bosimi $H_x = 49,1 \text{ m}$ va suv uzatishi $Q_x = 180 \text{ m}^3/\text{soat}$ qiymatlari bo'yicha 9.5 - rasmdagi jamlangan grafiiklardan ЭЦВ12-210-55 belgili markazdan qochma artezian nasosini tanlab olamiz. Ushbu nasosning quduq ichidagi suv ko'tarish quvuri diametri $d = 150 \text{ mm} < 250 \text{ mm}$ bo'lganligi uchun

$\ell_1 = \nabla E - \nabla S + h_{x_2} - \nabla 62 - \nabla 42 + 12 = 32 \text{ m}$ uzunligi uchun bosim isroflari qiymatini qaytadan hisoblanadi. Yuqoridagi formulalardan $d_1 = 150 \text{ mm}$

uchun $R_1=0.0375$ m, $\omega_1 = 0,0176 \text{ m}^2$; $c_1 = 41,5$; $K = 0,166$ va $A_1 = 46,4$ qiymatlari aniqlanadi.

Diametrlari va uzunliklari: $D = 250$ m va $L_1 = 512$ m, $d = 150$ mm va $\ell_1 = 32$ m quvurlar uchun bosim isroflari quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Sigma h_{w}^{l_w} = 1,15 (AL + A_1 \ell_1) Q^2 = 1,05 (3,34 \cdot 512 + 46,4 \cdot 32) = 9,65 \text{ m};$$

Hisobiy bosim:

$$H_x' = H_g + \Sigma h_{w}^{l_w} = 44 + 9,65 = 54 \text{ m}.$$

Artezian nasoslari katalogidan [28] bosimi $H_h = 55$ m bo‘lgan ЭЦВ12-210 -55 nasosning quyidagi texnik ko‘rsatkichlari yozib olamiz: suv uzatish $210 \text{ m}^3/\text{soat}$, FIK 62 %, nasosning quvvati 35 kVt, elektr dvigatel turi ПЭДВ8-45-270, dvigatel quvvati 45 kVt, massasi 400 kg, quduqning o‘rama quvuri diametri $D_q = 12^1 \cdot 25 = 300 \text{ mm}$.


9.9. Nasos stansiyalarning texnik va xo‘jalik ta’minoti tizimi uskunalarini va jihozlari

Vakuum hosil qilish qurilmalari asosiy nasoslarni so‘rish balandligi musbat bo‘lgan hollarda ularni ishga solishdan avval suvgaga to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Suv - halqali vakuum-nasosning tuzilishi va ishlash tarzi 6.5 - mavzuda yoritilgan.

Amaliyotda vakuum-nasos va vakuum - qozondan iborat vakuum hosil qiluvchi qurilma keng qo‘llaniladi (9.13 - rasm).

Vakuum-nasoslar (7) ishga tushirilganda, (5) vakuum - qozondagi havoning bosimi pasayib, (9) quvur orqali asosiy nasoslardagi havo va keyinroq suv so‘riladi. Vakuum qozondagi suv sathi ∇I ga yetguncha vakuum - nasoslar ishlab turadi. Bu yerda ∇I -vakuum-nasoslar to‘xtatiladigan suv sathi, ∇II - birinchi vakuum-nasos ish tushiriladigan suv sathi, ∇III - ikkinchi vakuum-nasosni favqulodda holatda ishga solishdagi suv sathi.

Vakuum-qozon hajmi $1,6 \text{ m}^3$ gacha qabul qilinib, uning hajmini tanlashda vakuum-nasos bir soatda 4 martadan kam yurgizib - to‘xtatilishiga e’tibor beriladi.



9.13 -rasm. Vakuum-qozonli vakuum hosil qiluvchi qurilma:

- 1- asosiy nasoslar;
- 2- salniklarga suv uzatuvchisi;
- 3 - ventil;
- 4 - suv sathi signalchisi;
- 5 - vakuum -qozon;
- 6- suv quyish idishi;
- 7- vakuum-nasoslar;
- 8- qo‘l nasosi quvuri;
- 9- havo so‘rish quvuri.

Havo so‘rish quvuri diametri d (mm) quyidagicha qabul qilinadi:

$$d = (35 \dots 45) \sqrt{Q_x}, \quad (9.20)$$

bu yerda Q_x – vakuum nasosning havo so‘rish miqdori(m^3/mm), (6.13) formula bilan aniqlanadi.

Vakuum-qozon (5) ning tubi havo so‘rish quvurini nasos qobig‘iga ulanadigan sathga teng olish tavsya etiladi.

Maksimal vakuum hosil qilish miqdori quyidagi ifoda bilan topiladi (m):


$$h_{vak} = h_s + h_n^l + h_{w,vak}; \quad (9.21)$$

bu yerda h_s – asosiy nasoslarning geodezik so‘rish balandligi, m; h_n^l – asosiy nasosni o‘qidan qobig‘ining yuqori qismigacha balandligi, m; $h_{w,vak}$ – havo so‘rish quvuridagi bosim isroflari , m; (uning qiymati h_s ga nisbatan 10...15 % qabul qilinadi).

Havo so‘rish miqdori Q_x va vakuum hosil qilish darajasi h_{vak} qiymatlari asosida vakuum-nasos tanlanadi. Vakuum - nasoslar soni ikkita (bittasi zaxira) qabul qilinadi. Nasos stansiyalarida asosan BBH, KBH, PMK turdag'i vakuum-nasoslar qo‘llaniladi [35]. Avtomatlashgan

nasos stansiyalarda har bir nasos agregati uchun alohida vakuum - nasoslar qabul qilinadi.

Ba'zi hollarda o'rtacha va kichik nasos stansiyalarda vakuum hosil qilish ishonchlilik darajasini oshirish uchun ko'tarilgan tirsakli so'rish quvurli (9.14 -rasm) va oraliq akkumulator – idishli (9.15 - rasm) shakldagi nasos qurilmalari ham qo'llaniladi.



9.14-rasm. Ko'tarilgan tirsakli so'rish quvuri tasviri:


- 1- bosimli quvur; 2-qulfak ; 3-teskari qopqoq; 4-quvur ulamasi;
5- nasos; 6- so'rish quvuri; 7-tirsak; 8-quvurni kirish qismi; 9-ejektor

Ko'tarilgan tirsakli so'rish quvuri (9.14 -rasm) nasosni dastlabki birinchi yurgizish paytida suvga to'ldiriladi. Nasos to'xtatilganda (7) tirsak 5 nasosning qobig'idan yuqorida bo'lganligi uchun V_{suv} hajmi (6) so'rish quvurida saqlanib qoladi. Nasosni keyingi ishga solishda qulfak (2) berkitilib, qoldiq V_{suv} hajmi 9 ejektor orqali haydalganda unda vakuum hosil bo'lib, V_{havo} hajmdagi havo so'rildi va so'rish quvuri suvga to'ladi. Ejektorning uzatish quvuridan havo o'mniga suv chiqishi bilan (2) qulfak ochiladi va nasos bosimli quvur (1) ga suv uzata boshlaydi.

So'rish tarmog'iga akkumulator – idish o'mnatilgan holda (9.15 - rasm) ham (2) idishga so'rish quvuridan kiradigan havo uning yuqori qismiga o'mnatilgan (3) ejektor yordamida chiqarib tashlanadi. Nasos to'xtatilgan vaqtida (2) akkumulator – idishda qolgan suv hajmi, uni keyingi ishga solishda idishda vakuum hosil qilish va suvni manbadan so'riliш imkoniyatini beradi.

Kichik nasos qurilmalarida so'rish quvuri va nasosni suvga to'ldirish uchun so'rish quvuri kirish qismiga teskari qopqoq o'matilib

nasosdan yuqoriroqqa o'rnatilgan maxsus idishdagi suvdan yoki bosimli qurvurda qolgan qoldiq suvdan foydalanish mumkin



9.15-rasm. So'rish tormog'iga
akkumulator – idish o'rnatilgan
nasos qurilmasi tasviri:

- 1- nasos; 2 –akkumulator-idish;
3 -havo so'rvuchchi ejektor.

Katta nasos stansiyalarda aksariyat hollarda nasoslarning so'rish balandligi manfiy qiymatga ega bo'lib, nasoslar suv sathidan pastroqqa o'rnatiladi va vakuum hosil qilishga ehtiyoj bo'lmaydi.

Texnik suv ta'minoti tizimi nasos stansiyasining texnologik uskunalarini sovutish va moylash uchun zarur bo'lib, unga bo'lgan talab uskunalarini tayyorlash zavodlarining talablari asosida belgilanadi. Texnik suv ta'minoti tizimi elektr dvigatellarning sovutgichlari, podshipnik va panja osti tayanchlari moy idishlari sovutgichlarini bir me'yorda ishlashini ta'minlash, nasoslarni radial (sirpanuvchi) podshipniklarini moylash, kompressor qurilmalari va kuch transformatorlarni sovutish uchun xizmat qiladi.

Texnik suv ta'minoti tizimi suv olish bo'linmasi, filtrlar va tindirgichlar, nasoslar, quvurlar, ularning jihozlari va nazorat – o'lchov anjomlaridan iborat bo'ladi. Texnik suv taminoti uchun nasos stansiyaning suv chiqarish yoki suv olish inshooti suv manbasi hisoblanadi. Nasos stansiya uzatadigan suvda loyqa miqdori ko'p bo'lgan hollarda asosiy nasoslarning podshipniklarini moylash uchun texnik toza suv tindirgichdan olinadi. Ba'zi hollarda vertikal quduqlardagi yer osti suvlardan foydalanish mumkin.

Asosiy nasoslarning bosimiga bog'liq ravishda quyidagi suv ta'minoti tasvirlari qo'llaniladi:

- pastki befdan suv oluvchi qo'shimcha nasoslar qo'llash-asosiy nasoslarning bosimi 10 m dan kichik va 50 m katta bo'lganda;
- yuqori befdan suv oluvchi o'zi oqar tizim qo'llash-asosiy nasoslarning bosimi 10...50 m gacha bo'lganda;

d) yuqori befdan suv olib, bosim pasaytiruvchi uskunalar qo'llash-asosiy nasoslarning bosimi 50 m dan yuqori bo'lganda;

Texnik suv ta'minoti uchun o'zi so'ruvchi uyurmali BKC yoki markazdan qochma K turdag'i nasoslari o'matiladi. Asosiy nasoslari soni to'rtagacha bo'lganda, ikkita (bittasi zaxira) va to'rttadan ko'p bo'lgan hollarda uchta (bittasi zaxira) texnik ta'minoti nasoslari qabul qilinadi.

Drenaj va quritish nasoslari. Drenaj nasoslari nasos stansiya binosi devorlaridan va tagidan sizib kiradigan, hamda asosiy nasoslarning salniklaridan oqadigan suvlarni chiqarib tashlash uchun xizmat qiladi.

Binoga sizib kiradigan suvlar devor tagidagi ariqchagacha yig'ilib, binoning pastki qavati yon tomoniga quriladigan yig'uvchi quduqqa to'planadi va drenaj nasoslari yordamida pastki befga chiqarib tashlanadi. Drenaj nasoslarini avtomatik ravishda ishlashini ta'minlash uchun yig'uvchi quduqqa suv sathi o'zgarishini nazorat qiluvchi elektrodlı datchiklar o'matiladi.

Drenaj nasoslarning umumiy suv uzatishi quyidagi formula bilan aniqlanadi (l/s):

$$Q_{dr} = (1,5 \dots 2) (q_1 + q_2); \quad (9.22)$$

bu yerda, q_1 – asosiy nasoslarning salniklaridan oqadigan suv sarfi, l/s . Gorizontallı valli nasoslarning har bir salnigidagi oqimcha miqdori 0,05 ... 0,1 l/s qabul qilish mumkin. Vertikal ОП и В turdag'i nasoslari salnigidagi oqimcha miqdori zavod tomonidan belgilangan texnik ko'rsatkichlar asosida qabul qilinadi; q_2 – binoga kiradigan filtratsiya suv sarfi, l/s .

Ushbu q_2 suv sarfi binoning suv ostki qismi hajmi $W(m^3)$ qiymatiga mos ravishda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$q_2 = 1,5 + 0,0002 W. \quad (9.23)$$

Drenaj qudug'inining hajmi W_{qud} (m^3) 20 ... 30 daqiqa suv oqib kelish miqdori bo'yicha qabul qilinadi, ya'ni:

$$W_{qud} = (1,2 \dots 1,8) Q_{dr} \quad (9.24)$$

Drenaj nasoslari soni ikkita (bittasi zaxira) qabul qilinib, uning turi bir soatda to'xtab – yurishi uch martadan ortmasligi e'tiborga olinib

tanlanadi. Drenaj tizimi gorizontal valli markazdan qochma K, D yoki ATH turdag'i artezian nasoslari bilan jihozlanadi.

Quritish nasoslari asosiy nasoslarning suv qabul qilish bo'linmalari va suv keltirish quvurlarini, vertikal B turdag'i nasoslarning bosimli quvurlarini suvdan bo'shatish uchun xizmat qiladi. Kichik va o'rta nasos stansiyalarda drenaj va quritish nasoslari umumlashgan holda quriladi, ya'ni drenaj nasoslari vazifasini quritish nasoslari bajarishi mumkin.

Katta nasos stansiyalarining drenaj va quritish tizimlari alohida loyihalanadi. Quritish nasoslaring umumiyl suv uzatishi (m^3/soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_{\text{qur}} = \frac{W}{t} + q_{\text{sa}}, \quad (9.25)$$

bu yerda, W – suv qabul qilish bo'linmasi, suv keltirish va bosimli quvurlardagi chiqarib tashlanadigan suv hajmi, m^3 ; t – suv chiqarish vaqt, 2...6 soat qabul qilinadi; q_{sa} – darvozalarning zichlanmagan choklaridan sizib o'tuvchi suv sarfi (m^3/soat), har bir m choc uchun 1,8...3,6 m^3/soat qabul qilinadi.

Quritish tizimidagi suvlar maxsus quvurlar yordamida binoning ostki qismidagi beton blokka joylashtiriladigan g'orga tushirilib, undan yig'uvchi quduqqa keltiriladi. Yig'uvchi quduqdan suvni pastki besga chiqarib tashlash uchun ikkita (bittasi zaxira) gorizontal markazdan qochma yoki artezian nasoslari qabul qilinadi.

Cho'kindilarni chiqarish nasoslari. Manbadagi suv tarkibida loyqa miqdori ko'p bo'lган hollarda nasos stansiyaning suv qabul qilish bo'linmalarida, avankamerada va suv keltirish kanalida ko'p miqdorda cho'kindilar hosil bo'ladi. Suv keltirish kanali va avankameradagi loyqa cho'kindilarini mashina va mexanizmlar (ekskovator, buldozer) yoki zemsnaryadlar (suzuvchi nasos stansiyalar) yordamida tozalanadi.

Suv qabul qilish bo'linmalaridagi cho'kindilarni chiqarish uchun gidroelevator (har bir bo'linmaga alohida) yoki fekal nasoslari qabul qilinadi. Cho'kindi chiqarish nasoslaring uzatishi 3...8 $1/\text{s}$ qabul qilinib, cho'kindi nasos stansiya atrofidagi maxsus tindirgichga chiqariladi.

Moy ta'minoti tizimi katta vertikal valli nasoslari o'rnatiladigan nasos stansiyalarda elektr dvigatellarning moy idishlariga, o'qiy nasoslari kuraklarini boshqarish tizimiga, elektr taqsimlash va transformator

podstansiyasi jihozlariga moy uzatish uchun xizmat qiladi. Moy ta'minoti tizimi moy nasoslari, ularning quvurlari, katta hajmdagi moy idishlari, moy tozalash uskunalari va nazorat - o'Ichov jihozlaridan iborat bo'ladi. Yog'ning miqdori, belgisi va uzatish bosimi uskunalarining tayyorlovchi zavod tavsiyasi asosida qabul qilinadi.

Dvigatellarning moylash tizimidagi yog'lar 500...1000 soatda, nasoslarning boshqarish qismi gidrouzatmalaridagi yog'lar 10...12 ming soatda almashtirilib turiladi. Har bir turdag'i yoki yangi va ishlab chiqqan yog'lar uchun alohida moy nasoslari, quvurlar va moy idishlari ko'zda tutiladi. Yog'ning hajmi uning isrof bo'lishini e'tiborga olib, 10 ...15 % ortiqroq olinadi. Moy nasolaringning uzatishi 20 t li moy idishi (sisterna) ni 2 soat davomida to'ldiraolish sharti asosida tanlanadi. Yog' haydash uchun tishli hajmiy nasoslari qabul qilinadi. Masalan, ІІІ5-25, ІІІ8 -25 va h.k.

Moy xo'jaligi tizimi alohida yog'inga qarshi talablarga javob beradigan xonalarga joylashtiriladi, ya'ni devorlari yog'inga chidamli materialdan tayyorlanib, ikkita eshik va soatiga 3 marta shamollatib, havosini almashtiraoladigan so'rvuchni ventilatorlar hamda ko'pikli o't o'chirich va yong'in gidrantlari bilan jihozlanishi talab etiladi.

Yong'inga qarshi nasoslar va ularning jihozlari maxsus ko'rsatmalar va qurilish me'yorlari asosida qabul qilinadi. Nasos stansiyalar binolarining er ustki qavati hajmi 1000 m^3 dan ortiq bo'lgan hollarda maxsus yong'inga qarshi tizimlar quriladi. Yong'inga qarshi suv uzatish uchun ikkita (bittasi zaxira) nasos qabul qilinadi. Yong'in o'chirish gidrantlari orqali suv uzatish (l/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = 2q_1 + 2q_2 + q_3; \quad (9.26)$$

bu yerda $q_1 = 5 \text{ l/s}$ - tashqi yong'in o'chirish uchun suv sarfi; $q_2 = 2,5 \text{ l/s}$ - ichki yong'in o'chirish uchun suv sarfi; $q_3 = 2,5 \text{ l/s}$ - yordamchi xonalarda yong'in o'chirish uchun suv sarfi.

Yong'in o'chirish nasosining bosimi (m) quyidagicha topiladi:

$$H = H_g + \sum h_w + h_{nk} \quad (9.27)$$

bu yerda, H_g – manbadagi minimal suv sathi bilan binoning tomi eng yuqori nuqtasi orasida geodezik balandlik, m ; $\sum h_w$ – bosim isroflari, m ; $h_{nk} = 12 \text{ m}$ – bino tomi ustidan muallaq oqim balandligi, m .

Yong'in o'chirish shlangidagi bosim isroflari quyidagicha aniqlanadi (m):

$$\sum h_w = KLq^2; \quad (9.28)$$

bu yerda, q – shlangdagji suv sarfi, l/s; L – shlangni uzunligi, m; K – shlangni diametriga bog'liq koefisient; diametri 50 mm bo'lganda, $K = 0,012$; diametri 66 mm bo'lganda, $K = 0,00385$ qabul qilinadi.

Asosiy nasoslarning bosimi yong'in o'chirish uchun yetarli bo'lgan hollarda suvni bosimli quvurlardan ham olinishi mumkin. Lekin mavsumiy ishlaydigan nasos stansiyalarda ko'pikli o't o'chirgichlar zaxirada saqlanishi zarur. Ko'pikli o't o'chirgichlar soni dvigatel quvvatiga bog'liq ravishda qabul qilinadi ya'ni quvvati 100 kVt gacha bo'lgan har bir dvigatel uchun 2 ta, quvvati 100 kVt dan katta har bir dvigatel uchun 3 ta va quvvati 1000 kVt katta har bir dvigatel uchun 4 ta o't o'chirgichlar nasos stansiyada saqlanishi talab etiladi.

Pnevmatik uskunalar. Nasos stansiyalarining uskunalaridan foydalanishda yuqori bosimli qisilgan havo uzatish zarur bo'lgan hollarda pnevmatik uskunalar qo'llaniladi. Qisilgan havo quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- boshqarish tizimi moy-bosim qurilmalarining moy-havo qozonlarida $14\dots25 \text{ kg/sm}^2$ gacha bosim hosil qilish uchun;
- elektr dvigatellarni tormozlash jihozlariga $5\dots7 \text{ kg/sm}^2$ bosimli havo uzatish uchun;
- elektr dvigatel cho'lg'amlarini $4\dots5 \text{ kg/sm}^2$ bosimli havo bilan pudatib tozalash uchun;
- xas-cho'p to'suvchi panjarani $3\dots6 \text{ kg/sm}^2$ bosimli havo bilan pudatib tozalash uchun.

Katta nasos stansiyalarda ikkita (bittasi zaxira) kompressor o'rnatilib, ular havo to'plovchi resiver (idish) va nazorat o'Ichov asboblari bilan jihozlanadi. Kompressorning havo uzatishi $4\dots5 \text{ m}^3/\text{min}$ ni tashkil etadi.

Shamollatish va isitish tizimlari. Nasos stansiyaning xizmatchilari faoliyat ko'rsatadigan xonalarida sanitariya – gigiyena me'yorlari bo'yicha havo harorati $+20\dots25^\circ\text{C}$ va nisbiy namligi $40\dots60\%$ saqlanishi talab etiladi. Elektrtexnika uskunalarini joylashgan xonalarda havo harorati $+45^\circ\text{C}$ dan oshmasligi zarur. Ko'p hollarda nasos stansiyalaridagi havo harorati va namligi uskunalarini ishlab chiqaruvchi zavodlarning tavsiyalari asosida belgilanadi.

Shamollatish. Nasos stansiya binosiga o'rnatiladigan asosiy elektr dvigatellarning quvvati 630 ... 1000 kVt bo'lgan hollarda ochiq tarmoqli mexanik shamollatish tizimi qo'llaniladi, ya'ni ventilator yordamida tashqaridan olingan havo elektr dvigatel orqali o'tkazilib, yana tashqariga uzatiladi. Quvvati 1000 kVt dan ortiq bo'lgan elektr dvigatellardan foydalanilganda, havo elektr dvigatel tagiga o'rnatilgan maxsus havo sovutgichda sovitiladigan, berk tarmoq ichida ventilator yordamida aylantirib ishlataladi.

Xizmatchi xodimlar uzoq muddat faoliyat qo'rsatadigan xonalarni salqin qilish uchun kondisionerlar bilan jihozlanadi. Elektr dvigatellar va elektr kabellardan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori, hamda binoni sovutish uchun zaruriy havo miqdorini hisoblash usuli [27,37] adabiyotlarda keltirilgan.

Isitish tizimi nasos stansiya binosining pastki qavatida +5°C va ustki qavatida +18...20°C havo haroratini ta'minlashi zarur. Isitish uchun elektr kaloriferlar, suv va bug' qozonlari orqali isitiladigan radiatorlar, gaz yoki elektr isitgich jihozlaridan foydalanish mumkin. Isitish tizimi hisoblari SNiP II-33-75 «Isitish, shamollatish va havoni kondisionerlash» ko'rsatmalari asosida amalga oshiriladi.

9.10. Mexanik uskuna va jihozlar

Nasos stansiyalarda qo'laniladigan darvozalar, suzuvchi jismlarni to'suvchi panjaralar va ularni harakatga keltirish qismlari, panjara tozalash mashinalari, yuk ko'tarish qurilmalari, yuk va axlat tashish aravalari va h.k lar mexanik uskuna va jihozlar turkumini tashkil etadi.

Darvoza va qopqoqlar. Nasos stansiyalarni o'zgaruvchan ish tartibini rostlash hamda ayrim qismlari va inshootlarini tuzatish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun asosiy, falokatli holat va ta'mirlash darvozalari o'rnatiladi.


Asosiy darvozalar inshootlarning suv sathi va suv sarfini tezkorlik bilan rostlashni ta'minlab, ochish va berkitish suv bosimi ta'sirida amalga oshiriladi. Falokatli holatlar darvozalari favqulotda hollarda ya'ni bosimli quvurlar yorilganda, to'satdan elektr energiya o'chib qolganda, asosiy darvozalar ishdan chiqqanda va h.k holatlarda oqimni tezkorlik bilan to'sishga xizmat qiladi.

Ta'mirlash darvozalari inshootlarni, asosiy darvozalarni va nasoslarni hamda ularning ayrim qismlarini tekshirish, ta'mirlash yoki almashtirish uchun foydalaniladi. Ko'p hollarda falokatli holatlar va

ta'mirlash darvozalari o'rniga bitta falokatli-ta'mirlash darvozalari qo'llaniladi.

Nasos stansiya va uning inshootlari, turi va tuzilishi hamda suv bosimi ta'siriga bog'liq ravishda yassi sirpanuvchi va g'ildirakli hamda segmentli darvozalar qo'llash tavsija etiladi.

Yassi darvozalar yog'och yoki metaldan tayyorlanishi mumkin. Yog'och darvozalar suv bosimi 15 m gacha va o'lchamlari 2 x 2 m gacha bo'lgan kichik yuzali darchalarni to'sishda qo'llaniladi. Ularni chorqirra yog'och materiallarni boltlar yordamida qisib, yuzasi yupqa metall bilan qoplangan holda tayyorlanadi. Yassi metall darvozalar katta bosimga ega bo'lgan yirik suv olish inshootlari darchalariga o'rnatiladi. Kichik o'lchamdag'i darchalarga sirpanma va o'lchamlari katta darchali inshootlarga g'ildirakli darvozalar qo'llaniladi. Metall darvozalarning tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin. Oddiy yassi metall darvozaning ko'rinishi 9.16-rasmida keltirilgan. Uning g'ildiraklari gidrostatik bosim kuchini o'ziga qabul qiladi va ko'tarish kuchini kamaytiradi



9.16- rasm. Yassi metall darvoza:
1-g'ildirak;
2-yo'naltiruvchi rolik;
3-osilchoq.



Yassi darvozalarni ko'tarish uchun zaruri bo'lgan P kuch dastlabki hisoblar uchun quyidagi formula bilan aniqlanishi mumkin:

$$P = \frac{G + \rho H \cdot F \cdot f}{1000} \cdot K; \quad (9.29)$$

bu yerda G – darvozaning massasi, kg; ρ – suvning zichligi, kg/m^3 ; H – darvozaga ta'sir etuvchi bosim, m; F – darvozaning yuzasi, m^2 ; f – ishqalanish koefitsiyenti, sirpanuvchi metal konstruksiyalari uchun 0,3

va g'ildirakli konstruksiyalar uchun 0,1 qabul qilinadi; K – zaxira koefitsiyenti, 1,5 ga teng

Yassi darvozalar hamma turdag'i suv qabul qilish va suv chiqarish inshootlarida qo'llanadi. Ba'zi hollarda suv chiqarish inshootidagi oqimni teskari harakatini bartaraf qilish uchun bosimli quvurlarni chiqishdagi yuzasiga qopqoqsimon segmentli darvozalar ham o'rnatiladi.

Xas-cho'p to'sish panjaralari. Nasos agregatlarining bir me'yorda ishlashiga salbiy ta'sir etuvchi suvdagi turli suzuvchi jismldardan saqlash maqsadida suv qabul qilish inshootiga har xil xas-cho'p to'sish panjaralari o'rnatiladi. Yirik jismlarni ushlab qolishda o'zakli panjaralardan, hamda mayda jismlari to'sishda (suv ta'minoti tizimlaridagi nasos stansiyalarda) har xil o'lchamdag'i to'rlardan ham foydalilanadi. Suv qabul qilish quvurlarining kirish qismi nisbatan kamroq chuqurlikda joylashgan hollarda yassi o'zakli panjaralar o'rnatiladi. Ko'p hollarda panjara yuk ko'tarish qurilmalari yordamida chiqarib-tushiradigan qilib tayyorlanadi. Panjara o'zaklari oraliq masofasi S nasosning turiga bog'liq ravishda quyidagicha qabul qilinadi:

– o'qiy va diagonal nasoslar uchun:

$$35\text{ mm} < S = 0,05 \cdot D_2 < 150 \text{ mm}; \quad (9.30)$$

– markazdan qochma nasoslar uchun:

$$30\text{ mm} < S = 0,03 \cdot D_2 < 100 \text{ mm}; \quad (9.31)$$


bu yerda D_2 – nasos ishchi g'ildiragi diametri, mm.

Qo'lda tozalanadigan panjaralar uchun $S < 60$ mm qabul qilinadi. Balandligi 2,5 m gacha bo'lgan, qiya ($70\dots80^{\circ}$) o'rnatiladigan panjaralar qo'lda tozalanishi mumkin. Balandligi 2,5...10 m bo'lgan qiya va vertikal panjaralarni mexanik usulda tozalashda mexanik panshaxali yoki pnevmatik panjara tozalash mashinalarini qo'llash tavsiya etiladi. O'lchamlari 1250×2500 mm gacha bo'lgan, kirish darchasi uchun qo'llaniladigan yassi o'zakli panjaraning ko'rinishi 9.17-rasmida keltirilgan.

Panjaraning tayanch qismlari sinchlari burchak kesim yuzali po'lat yoki shvellerdan tayyorlangan ustun va rigellardan iborat. O'zaklari


tasmasimon yassi to'rtburchak kesim yuzali po'lat materialdan bo'lib, uning o'lchamlari 50×6 mm ga teng.

Panjara tozalash mashinalarining doimiy yoki davriy harakatdagi kovshli va turg'un, hamda qo'l panshahali va elektr uzatmali turlari mavjud. Kovshli panjara tozalash mashina harakatlanuvchi aravachaga o'rnatilgan kovshni ko'taruvchi va buruvchi mexanizm, hamda axlat yig'uvchi bunkerdan iborat bo'ladi. Uni vertikal yoki qiya holatda o'rnatiladigan panjaralarni tozalashda qo'llash mumkin.



9.17- rasm. Yassi o'zakli panjara.

Yuk ko'tarish qurilmalari. Nasos stansiyalaridagi nasoslar, elektr dvigatellar, qulfaklar, quvurlar va boshqa uskuna va jihozlarni ochish, berkitish va ta'mirlash ishlarini bajarishda yuk ko'tarish qurilmalaridan foydalilaniladi. Yuk ko'tarish qurilmasining turi inshoot-ning o'lchamlari, uskunalarining joylashishi va ko'tariladigan element-ning maksimal massasini hisobga olgan holda tanlanadi. Yuk ko'tarish qurilmasi nasos yoki elektr dvigatelning eng og'ir detalini ko'taraolish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Dastlabki hisoblarda vertikal valli agregatlar uchun eng og'ir detalning maksimal massasi nasos yoki dvigatel umumiy massasidan $50\ldots60\%$ ga teng qabul qilinadi. Gorizontal valli nasos agregati uchun kranning yuk ko'tarish qibiliyati nasos yoki dvigatelning umumiy massasiga teng olinadi.




9.18-rasm. Tallar:

a-chervyakli qo'lda boshqariladigan; b-koshkali qo'lda siljitudigan
mexanizmli; 1-ko'tarish mexanizmi;
2-zanjirli blok; 3-ilmoq; 4-harakat g'ildiragi; 5-tortish g'ildiragi.

Qo'lda boshqariladigan yuk ko'tarish uskunalarini quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- detalni massasi 1 t gacha bo'lganda yuk ko'tarish tallari va koshkalar (9.18-rasm);
- detal massasi 5 t gacha bo'lganda, osma kran- balkalar;
- detal massasi 5 t dan ortiq bo'lganda, ko'priksimon kranlar (19.20, a-rasm).

Binoning uzunligi 18 m dan yoki yuk ko'tarish balandligi 6 m dan katta yoki yukning massasi 5 t dan ortiq bo'lgan hollarda elektrlashgan kran-balkalar (9.19-rasm) yoki ko'priksimon kranlar qo'llash tavsiya etiladi (9.20-rasm).




9.19-rasm. Elektrlashgan osma kran- balka (yuk ko'tarishi 1...5 t)

Tal va koshkalar mustaqil yuk ko'tarish mexanizmi sifatida yoki osma va ko'priksimon kranlarning elementi sifatida ham foydalaniladi. Koshka talni osib qo'yish va yukni gorizontal harakatlantirish uchun xizmat qiladi. (9.18,b -rasm).

Osma kran-balkalar yuklarni vertikal holda ko'tarib-tushirish, gorizontal holda bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishda siljitim imkoniyatiga ega (9-19-rasm). Qo'lida yoki elektr uzatma bilan boshqariladigan kran-balka binoning to'siniga osilgan qo'shtavr monorelsda harakatlanadi.

Qo'lida boshqariladigan kran-balkalar binoni ichki eni 12 m gacha, ko'tarish balandligi 3...12 m bo'lganda, elektrlashgan kran – balkalar esa eni 17 gacha va ko'tarish balandligi 18 m gacha bo'lган binolarda qo'llaniladi.

Ko'priksimon kranlar binoga o'rnatiladigan kolonnanning konsol qismiga joylashgan kran – osti to'sini ustidagi rel'sda harakatlanadi (9.20-rasm). Yuk ko'tarish qobiliyati va binoning eniga bog'liq ravishda bir to'sinli yoki ikki to'sinli qo'lida boshqariladigan ko'priksimon kranlar o'rnatilishi mumkin. Bir to'sinli kranlarning yuk ko'tarish qobiliyati 8 t gacha, tayanchlari oralig'i 4,5 ...17 m, yuk ko'tarish balandligi 12 m gacha bo'ladi (9.20,a-rasm). Elektrlashgan ko'priksimon kranlarning yuk ko'tarish qobiliyati 5...50 t va tayanchlari oralig'i 11...32 m ni tashkil etadi. Maxsus buyurtma asosida 500 t gacha yuk ko'taradigan ko'priksimon kran tayyorlanishi mumkin.



9.20-rasm. Ko‘priksimon kranlar:
a-qo‘lda boshqariladigan (yuk ko‘tarishi 3,2...8t); b-elektrlashgan (yuk ko‘tarishi 5...50 t); 1-ko‘pri;
2-ko‘priksi harakatlantirish mexanizmi; 3- yukni ko‘tarish va harakatlantirish mexanizmi.

Yer ustki qavati qurilmagan ochiq yoki yarim ochiq nasos stansiyalarida baland tayanchli to‘rt oyoqli kranlar yoki avtokranlar yordamida yuk ko‘tarish ishlari amalga oshiriladi. Bunday kranlar suv qabul qilish va suv chiqarish inshootidagi darvoza va panjaralarni ko‘tarib-tushirish va ta‘mirlashda ham foydalaniлади.

Nasos stansiyaning suv qabul qilish va suv chiqarish inshootlarida darvozalarni holatini o‘zgartirib turish uchun vintli yoki lebyodkali ko‘targichlar qo‘llaniladi.

9.1-jadval

Nasos stansiyalarning yuk ko‘tarish qurilmalari

Yukning maksimal massasi, t	Ko‘tarish mexanizmi yoki kranni turi	Tayanch orasini uzunligi,m	Izoh
0,5 gacha	Uch oyoqli, to‘rt oyoqli, balkali tallar	-	Nasoslar soni 3 donagacha
0,5...5	Osma kran - balkalar	3...12	Sinchsiz binolarga
0,5...10	Ko‘priksimon bir balkali	5...11	Nasoslar soni 4 tadan ortiq bo‘lganda

5...20	Ko'priksimon ikki balkali	8...17	Shunga o'xhash
5...50	Umumiy ahamiyatli ko'priksimon	11...32	Shunga o'xhash

Dastlabki taxminiy hisoblarda yuk ko'tarish qurilmasini turini tanlash uchun 9.1 - jadvaldagи ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Ko'tariladigan yukni massasi 3 t dan ortiq bo'lgan hollarda elektr uzatmali kranlar tanlash tavsiya etiladi.

9.11. Nazorat - o'lchov asboblari va avtomatika vositalari


Nasos stansiyalarining inshootlari va asosiy uskunalarini bir me'yorda ishlatishni ta'minlash uchun nazorat-o'lchov asboblari o'rnatiladi. Asboblarning tarkibi, turi va o'rnatish joylari asosiy uskunalarining ish jarayoni va ularni boshqarish tizimiga (avtomatik, dispecherlik, mahalliy) bog'liq ravishda aniqlanadi.

Elektrlashgan nasos stansiyalarida quyidagi asosiy texnologik ko'rsatkichlar nazorat qilinadi: nasoslarning suv uzatishi, quvurlardagi bosim, suv qabul qilish bo'linmasidagi suv sathi va uning panjaradagi farqi, elektr dvigatellariga beriladigan tokning kuchlanishi, kuchi, quvvat koeffitsiyenti va chastotasi, sarflanayotgan elektr energiya miqdori, valning aylanish chastotasi, nasos va elektr dvigatel tayanch va yo'naltirish podshipniklaridagi moyning sathi va harorati va h.k.

Nasos stansiyalarda suv sarfini o'lchash uchun hajmiy parrakli hisoblagichlar, qisilgan kesim yuzali, parsial, ultratovush va elektromagnit sarf o'lchagichlardan foydalilanadi.


Parrakli hajmiy hisoblagichlar suvni tezligini o'lchashga asoslangan bo'lib (9.21-rasm), qobiq ichiga o'rnatilgan parrak (2) suvni tezligiga proporsional aylanadi. Uning aylanish chastotasi uzatma (3) orqali hisoblash mexanizmi (4) da jamlanadi va W (m^3) suv hajmini ko'rsatadi. Suv sarfini aniqlash uchun (4.23) formuladan foydalilanadi.

Parrakli hajmiy hisoblagich aniq ishlashi uchun quvurning to'g'ri chiziqli qismi oldi tomonidan 6...8 diametrdan ortiq, orqa tomonidan 3...5 diametr uzunligida masofa bo'lishi talab etiladi. Parrakli hajmiy VT turdagи hisoblagichlar diametri 50...200 mm gacha va 70...1700 m^3 /soat suv sarfiga mo'ljallab ishlab chiqariladi.



9.21- rasm Parrakli hajmiy hisoblagich:
1-qobiq; 2-parrak; 3-uzatgich;
4-hisoblash mexanizmi.


Qisilgan kesim yuzali suyuqlik sarf o'lgan hajmiga (diafragma, konus naycha, Venturi quvuri) o'zgaruvchan bosimlar farqini aniqlash usuli asoslangan bo'lib, bosimlar farqi difmanometr yordamida o'lganadi.



9.22-rasm. Diafragmali suyuqlik sarfi
o'lgan hajmichi:
1-diafragma, 2-bosim o'lgash bo'linmasi,
3-difmanometr.

Diafragmali suyuqlik sarfi o'lgan hajmida qidravlik qarshilik bosimlar farqiga nisbatan 30...60 % ni tashkil etadi. Shuning uchun ular kichik diametrli quvurlarga o'matiladi. Konus naycha (9.23-rasm) nisbatan kamroq qidravlik qarshilikka ega, lekin narxi ancha qimmat.


Venturi quvuriyuqoridagi suyuqlik sarfi o'lcagichlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega, ya'ni gidravlik qarshiligi bosimlar farqiga nisbatan 10...12% ni tashkil etadi (0,4 m gacha), harakatlanadigan va yeyiladigan qismular yo'q, suyuqlik o'tkazish qobiliyati yuqori va ifloslangan suyuqliklar uchun qo'llash mumkin.



9.23-rasm. Konus naychali suyuqlik sarfi o'lcagichi.

Venturi quvurning qisilish darajasi, ya'ni d/D qiymat 0,3...0,7, kengayish burchagi $10\dots16^0$ qabul qilinadi. Uning qurilish uzunligi [$L=(5\dots8)\cdot D$] katta bo'lganligi sababli nasos stansiya binosidan tashqariga bosimli quvurning to'g'ri chiziqli qismidagi maxsus yer osti bo'linmasiga joylashtiriladi.

O'lhash aniqligi yuqori bo'lishi uchun qisilgan kesim yuzali suyuqlik sarfi o'lcagichlarini oldida 10...30 diametriga va orqasida 3...5 diametriga teng bo'lgan quvurning to'g'ri chiziqli masofasiga joylashtirish talab etiladi. Qisilgan kesim yuzasi suv sarfi o'lcagichlaridagi bosimlar farqini o'lhash va yozib borish uchun difmanometr-sarf o'lcagich va difmanometr-datchiklar ham ishlab chiqarilgan. Ular suv sarsfini vaqt davomida jamlab boruvchi integratorlar yoki ikkilamchi suv sarfi o'lchov asbobiga signal uzatuvchi datchiklar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.




9.24-rasm. Venturi quvuri.

Difmanometrlarni qisilgan kesim yuzali sarf o'Ichagichlariga ulash uchun uzunligi 30 m gacha, diametri 12...20 mm li bog'lovchi quvurchalar qo'llaniladi. Oddiy difmanometr (9.22-rasm) bilan bosimlar farqi o'Ichanganda, suyuqlik sarfi (1.1) formula bilan hisoblab topiladi. Qisilgan kesim yuzali suyuqlik sarfi o'Ichagichlari tarzida to'g'ri burchakli tirsaksimon quvurlardan ham foydalanish mumkin. Lekin ularni taqqoslash grafigini keltirib chiqarish ancha mehnat talab qiladi.

Nasos stansiyalarning quvurlaridagi suvni tezligini Pito naychasi yoki vertushka yordamida o'Ichash asosida suv sarfini yuqori aniqlikda topish mumkin. Lekin bu usullardan foydalanish ancha murakkabligini e'tiborga olib, faqat ilmiy - tadqiqot ishlarida qo'llaniladi.

Oxirgi yillarda induksion va ultratovush sarf o'Ichagichlari amaliyatga tatbiq qilinmoqda. Elektromagnit (induksion) sarf o'Ichagichlarining IR-51 va 4-RIM turlari ishlab chiqarilmoqda. Ularni ish tarzi oqim tezligini elektr yurituvchi kuchga aylantirishga asoslangan (9.25-rasm).



9. 25-rasm. Induksion sarf o'Ichagichi:


1-elektromagnit; 2-elektrodlar; 3-quvur bo'lagi; 4-elektr toki manbasi; 5-o'zgartgich; 6-ikkilamchi asbob; 7- bog'lash tizimi.

Bunday sarf o'Ichagich quvur bo'lagi tashqarisiga joylashtirilgan elektromagnit cho'lg'amlaridan iborat bo'ladi. Quvurdan o'tayotgan suyuqlik elektromagnit maydonini kesib o'tishda, suv sarfiga proportional ravishda elektr yurituvchi kuchni o'zgartirishi elektrodlar yordamida o'Ichov blokiga uzatiladi va unda sarf ko'rsatkichiga aylantirib beriladi.

Induksion sarf o'Ichagichlarida gidravlik qarshilik ortmaydi va uning ish tarzi suyuqliknинг ifloslanish darajasiga bog'liq emas.

Induksion sarf o'Ichagichlari 10...800 mm diametrarda ishlab

chiqarilgan. Ularni parzial tasvirda o'rnatilsa, katta diametrlı quvurlardagi sarfni ham o'lhash mumkin (9.26 -rasm).



9.26 -rasm . Quvurlarga induksion sarf o'lchagichini parzial tasvirda o'rnatish:

- 1-sarf o'lchagichga suv uzatuvchi qo'shimcha quvur; 2-qulfak;
3-induksion sarf o'lchagich; 4-katta diametrlı quvur.

Ultratovushli sarf o'lchagichi Y3P-B diametri 3600 mm gacha bo'lган quvurlarda qo'llaniladi. Uning ishslash tarzi oqim bo'yicha va unga qarshi ultratovush tarqalish tezligini o'zgarishiga asoslangan. Y3P-B sarf o'lchagichini o'lhash aniqligi yuqori va quvurni tashqi qismiga o'rnatiladi. Lekin uning narxi qimmat va yuqori malakali xizmat ko'rsatish, hamda maxsus qurulmalarda davriy ravishda nol holatini tekshirib turish talab etadi.

Manometrlar va vakuummetrlar suyuqlik bosimini o'lhash uchun xizmat qiladi. Har bir nasosning bosimli uzatkichiga manometr va so'rgichiga vakuummetr o'rnatiladi. Agar nasos o'zgaruvchan so'rish balandligida ishlasa, ya'ni so'rish quvuridagi bosim atmosfera bosimidan ortib va kamayib tursa, so'rgichga manovakuummetr o'rnatish zarur bo'ladi. Ifoslangan suyuqliklar uzatuvchi nasos stansiyalarda manometrlar maxsus tundirgich-bo'linma orqali ulanadi.

Manometrlar va vakuummetrlarni prujinali, gidravlik (suvli va simobli), elektrik va o'zi yozib boruvchi turlari ishlab chiqariladi. Amaliyotda asosan prujinali manometr va vakuummetr keng qo'llanadi. Ularni spiralsimon yoki egilgan quvurcha va uch yo'nalishli jumrak orqali nasosning uzatkich va so'rigichiga ularash tavsya etiladi. Chunki ularni ishlatishda quvurchadagi havoni chiqarish yoki havo kiritish zarur bo'ladi.

Differensial manometrlar ikkita nuqtadagi bosimlar farqi o'lhash uchun xizmat qiladi. Ularda ishchi suyuqligi simob yoki suv bo'lishi mumkin. Mexanik qalqovuchli DP turdag'i difmanometrlar o'zi yozish mexanizmi bilan jihozlangan holda tayyorlanadi.

Avtomatika vositalari nasos agregatlarini xizmatchi xodimlar ishtirokisiz, oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida boshqarishni ta'minlaydi, stansiyaning ishonchli va uzlusiz ishlashi, uskunalarini saqlanish darajasini va agregatlarning ish samaradorligini oshiradi, ishchi xodimlarning ish sharoiti yaxshilanishi va mehnat unumdonorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Boshqarish xususiyati bo'yicha nasos stansiyalarini quyidagi turlarga bo'linadi:

- qo'lda boshqariladigan – agregatlarni ishga solish va to'xtatishdagi barcha ishlar xizmatchi xodimlar tomonidan bajariladi;
- avtomatik boshqariladigan – nasos stansiyani boshqarishdagi barcha ishlar bino ichiga joylashgan avtomatik vositalar bilan bajariladi;
- avtomatik masofadan boshqariladigan – agregatlarni ishga solish, to'xtatish va suv uzatishini rostlash bilan bog'liq barcha ishlar nasos stansiya binosidan uzoq masofada joylashgan dispetcherlik punktidan boshqariladi.

Nasos stansiyaning inshootlari va uskunalarini ularni bir me'yordagi ish tartibi buzilishini qayd etuvchi va signal beruvchi hamda halokat kelib chiqadigan xavfli, ortiqcha yuklamalii hollarda shikastlangan agregatlarni yoki stansiyani to'xtatuvchi nazorat-o'lchov asboblari bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Avtomatika vositalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- asosiy nasos agregatlarining elektr dvigatellarini ishga solish va to'xtatish uchun impuls hosil qiladi va uzatib boradi;
- elektr dvigatellarni ishga solish va to'xtatish bilan bog'liq jarayonlar oraliq'ida ma'lum bir vaqtini saqlab turadi;
- belgilangan tartibda ketma-ket nasos agregatlarni ishga solishni ta'minlaydi;
- so'rish quvridagi zaruriy vakuum miqdorini saqlab turadi;
- quvurlardagi qulfaklarni ochadi va berkitadi;
- ish tartibi buzilgan ishchi agregatni to'xtatadi va zaxiradagi agregatni ishga soladi;
- agregatni holati bo'yicha dispetcherlik punktiga signal beradi;
- drenaj nasoslarini ishga soladi va to'xtadi;
- binoning belgilangan harorati va loyihibaviy ventilatsiya tizimi ko'rsatkichlarini ushlab turadi;
- nasos agregatlarining suv uzatishi va bosimini rostlab turadi.

Avtomatlashgan nasos stansiyalarda nasos agregatlarini yurgizish va to'tatish jarayoni yuborilgan impuls asosida qatiy ketma-ketlik

bo'yicha bajarilishi lozim. Masalan, asosiy nasoslar pastki befdagi suv sathidan yuqoriga o'rnatilganda, ularni suvgaga to'ldirish uchun vakuum-nasos ishga tushiriladi. Asosiy nasoslarga suv to'lishi bilan elektrokontakt datchik (ЭПСВ-3) asosiy elektr dvigatellarni yurgizish va vakuum – nasoslarni to'xtatishga signal beradi. Elektr dvigatellar nominal aylanish chastotasiga yetishi bilan qulfaqlarni ochishga va ular to'la ochilishi bilan yurgizish jarayoni yakunlanganligi haqida signal beriladi. Nasos agregatlarini to'xtatish teskari tartibda amalga oshiriladi.

Avtomatlashgan nasos stansiyalar bir me'yorda ishslash davrida quyidagilar nazorat qilib boriladi: pastki va yuqori beflardagi va drenaj quduqlaridagi suv sathlari, elektr dvigatellarning yog' vannalaridagi va yog'-moy qozonlaridagi moy sathlari hamda elektr dvigatellarning o'ramlari va podshipniklaridagi harorat, quvurlardagi suv, moy va havo bosimlari, texnik-suv ta'minoti tizimlaridagi suv oqimi, xas-cho'p to'suvchi panjarada suv sathining farqi va hokazo. Boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish anjomlarini o'zgarmas tok generatori hosil qiladigan o'zgarmas tok bilan ta'minlash zarur. Nasos agregatlarini avtomatik boshqarishni ta'minlash uchun elektromagnit, mexanik, gidravlik va issiqqlik anjomlari qo'llaniladi. Nasos stansiyaning avtomatika tizimi ishi datchiklar, relelar va magnitli kontaktorlar yordamida bajariladi.

Datchiklar deb, nazoratdagi yoki rostlanadigan ko'rsatkichni elektrik, pnevmatik yoki gidravlik signalga aylantirib beruvchi o'lchov elementlariga yoki asboblariga aytildi.

Rele-tashqi omillar ta'sirida chiquvchi signallarni o'zgartirib beruvchi element hisoblanadi.

Bu turdag'i vositalarga quyidagilar kiritish mumkin:


1) suv sathi relesi kanal yoki suv manbasidagi, quduqdagi va hajmiy idishdagi suyuqlik sathi o'zgarishiga bog'liq ravishda agregatlarni ishga solish va to'xtatishga impuls beradi. Nasos stansiyalarida qalqovuchli va elektrotdli rele qo'llaniladi. Qalqovuchli sath relesi (9.27-rasm) quyidagicha tuzilgan. Suv sathi nazorat qilinadigan manbara qalqovuch (1) egiluvchan sim bilan osilib, sim blok (3) orqali o'tkaziladi va uning ikkinchi uchiga muvozanatlovchi yuk (6) osib qo'yiladi. Simga ikkita (2) va (5) shaybalar mahkamlanib, suv sathi o'zgarishida kontakt-lovchi (8) moslama (4) koromislasini harakatga keltiradi va ular kontaktlarni tutashtiradi. Bu kontaktlar nasos agregatlarini boshqarish tar-mog'ini tutashtirib yoki uzib turadi, hamda suv sathining ma'lum chegaralarida signallar beradi.

Elektrodli suv sathi relesining asosiy elementlari ikkita elektrod bo'lib, uning ishlash tarzi suyuqlikning elektr o'tkazuvchanligiga asoslangan. Suv sathi ko'tarilganda elektrodlar tutashadi va oraliq elektromagnit releda qo'zg'alish hosil bo'lib, boshqarish tarmog'ini ulab beradi. Suv sathi pasayganda, elektrodlar ochilib qoladi va oraliq releda tok yo'qoladi hamda boshqarish tarmog'ini uzib qo'yadi.

2) bosim relesi yoki elektrokontaktli manometrlar-quvurladagi bosim o'zgarishi bilan avtomatik zanjirlarni boshqaradi;

3) oqimchali rele quvurlardagi oqim yo'nalishiga mos ravishda avtomatik zanjirlarni boshqarishga xizmat qiladi;

4) vaqt relesi-agregatlarning ma'lum bir ish jarayoni vaqtini hisoblashga xizmat qiladi;



9.27-rasm Qalqovuchli suv sathi relesi:

1- qalqovuch (po'kak); 2 va 5 – chegaralovchi shaybalar; 3- blok; 4-koromisla; 6-yuk; 7 va 9- elektr simlari; 8-kontaktlovchi moslama.

5) termik rele yordamida podshipniklar va salniklar harorati nazorat qilinadi;

6) vakuum – rele nasosning so'rish quvuridagi ma'lum bir vakuum darajasini saqlab turishga xizmat qiladi;

7) oraliq rele ba'zi avtomatik zanjirlarni belgilangan tartibda bog'lanishiga xizmat qiladi;

8) kuchlanish relesi elektr tarmog'ining belgilangan kuchlanish miqdorida agregatlarni ishlab turishini ta'minlaydi;

9) falokatli holat relesi agregatlarni belgilangan ish tartibi buzilgan hollarda to'xtatilishiga xizmat qiladi;

10) magnitli kontaktorlar past kuchlanishli qisqa tutashuv elektr dvigatellarini avtomatik, masofadan va qo'lda yurgizishda qo'llaniladi.

Nasos stansiyalarini elektr energiyasi bilan ishonchli va muntazam ta'minlash, nasos – kuch uskunalarini, so'rish va bosimli tarmoqlarni, quvurlardagi armatura va jihozlarni doimiy ish holatida bo'lishi avtomatik boshqarishga o'tishning asosiy shartidir. Nazorat-o'chov

asboblari, suv sathi va suv sarfi o'chagichlari, signalizatorlari suv sathi va uskunalar holatini nazorat qilib, nasos stansiyalarining avtomatik tizimlariga signal uzatib turadi.

Avtomatik boshqarish sxemalari va ularning hisoblari «Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlash» kursida to'liq yoritiladi.

Nazorat savollari

1. Nasos stansiyaning asosiy gidromexanik uskunalari nimalardan iborat?
2. Nasos stansiyalarining energetik uskunalari tarkibini tushuntiring.
3. Asosiy nasoslarning hisobiy bosimi qanday aniqlanadi?
4. Asosiy nasoslar soni va hisobiy suv uzatishi qanday qabul qilinadi?
5. Nasosning turi va belgisi qayerdan va qaysi ko'rsatkichlar asosida tanlab olinadi?
6. Nasosning xarakteristikasini nima sababdan qayta hisoblanadi?
7. Nasosning xarakteristikasini qayta hisoblashda qaynday usullardan foydalilaniladi?
8. Nasoslarni harakatga keltirish uchun nasos stansiyalarida qaysi turdag'i dvigatellar qo'llaniladi?
9. Elektr dvigatellarni qanday ma'lumotlar asosida tanlab olinadi?
10. Asinxron va sinxron elektr dvigatellarining afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirib bering.
11. Dvigateldan nasosga mexanik energiya qanday uzatmalar yordamida uzatiladi?
12. Yopiq sug'orish tizimiga suv uzatuvchi nasos stansiyalarining gidromexanik uskunalarini tanlashni tushuntirib bering.
13. Quritish tizimi nasos stansiyalari uchun asosiy agregatlar soni qanday tanlanadi?
14. Suv ta'minoti tizimi nasos stansiyalarida ishchi nasoslarning hisobiy bosimi va suv uzatishi qanday aniqlanadi?
15. Nasos stansiyaning texnik va xo'jalik suv ta'minoti tizimiga qanday uskunalar qabul qilinadi?
16. Nasos stansiyaning mexanik uskuna va jihozlarini tushuntirib bering.
17. Nasoslarning suv uzatishi va bosimini aniqlashda qanday o'lchov asboblaridan foydalilaniladi?
18. Nasos stansiyaning avtomatlashda qo'llaniladigan datchik va relelarni vazifalarini tushuntirib bering.

10-bob. NASOS STANSIYA BINOLARI

10.1. Binolarning turlari va ularga qo'yiladigan talablar

Nasos stansiya binosi asosiy va yordamchi gidromexanik va energetik uskunalar, stansiya ichki quvurlari va ulardagji jihozlar, energiya taqsimlash qurilmalari, boshqarish va nazorat-o'chov asboblari, avtomatika va aloqa vositalari hamda boshqa anjomlarni joylashtirish va tashqi muhitdan saqlash uchun xizmat qiladi.

Nasos stansiya binosining turi va tuzilishi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:


- a) stansiyaning ahamiyatiga va suv uzatish miqdoriga;
- b) nasos agregatlarning tuzilishi va o'rnatilish sxemasiga;
- d) nasosning kavitations va energetik ko'rsatkichlariga (so'rish balandligi, ishga solish sharti);
- g) binoni suv olish inshootiga nisbatan joylashtirilishiga (alohida yoki birlashgan);
- d) suv manbasining ish tartibiga;
- e) bino quriladigan joyning geologik va hidrogeologik sharoitiga, hamda iqlimiga;
- j) mahalliy qurilish materiallari va qurilish ishlari texnologiyasiga.

Tuzilishi bo'yicha ko'chmas (turg'un) nasos stansiyalar binolari quyidagi uch turga bo'linadi:


1) blokli bino – bu turdagji binoning asosini katta hajmdagi ulkan beton blok tashkil etganligi uchun «blockli» bino deb nomlanadi (10.1,a,b,d- rasm). Blokli bino ikki qavatdan iborat bo'lib, yer ostki qavatiga nasoslar va yer ustki qavatiga elektr dvigatellar o'rnatiladi. Nasoslarning suv keltirish quvurlari beton blok ichiga joylashtiriladi.

2) bo'linmali bino ham ikki qavatli ko'rinishda bo'lib, binoning asosida tasmasimon poydevor yotqizilib, so'rish quvurlari poydevor ustiga joylashtiriladi (10.1,e,f,g,h,i,j - rasm).

3) yer ustki binolari bir qavatli sanoat qurilishi binolari shaklida bo'lib, devor ostidagi va nasos agregatlari poydevorlari bir-biri bilan bog'lanmagan alohida ko'rinishda quriladi (10.2, e,f-rasm).



10.1-rasm. Nasos stansiya binolarining shakllari.



10.2-rasm. Nasos stansiya binolarining shakllari.

Bulardan tashqari meliorativ va suv ta'minoti tizimlarida ko'chma (suzuvchi, yer ustki, funikulyar) nasos stansiyalar (8.2 - rasm) hamda quduq nasos qurilmalari ham keng qo'llaniladi. (8.13. b - rasm).

Blokli va bo'linmali binolarning yer ostki qismi balandligi 6 m dan ortiq bo'lgan hollarda ularni «Shaxta - blokli» va «Shaxta - bo'linmali» bino deb nomlanadi (10.1. d,i,j - rasm).

Ko'p hollarda binoning yer ostki qavati quyma temir-betondan tayyorlanadi. Yer ostki qismi ta'sir etuvchi kuchlarni (suv bosimi, tuproq bosimi, filtratsiya suvlari bosimi, asbob-uskunalar va binoning o'zini og'irlilik kuchlari, muz, qor va shamol ta'sirida hosil bo'luvchi kuchlar) hisobga olib turg'unlik va mustahkamlikka tekshirib ko'rildi.

Binoning pastki yer osti qavati odatda to'g'ri to'rburchakli reja ko'rinishida bajariladi (10.3 - rasm). Chunki bunday shaklda uskuna va quvurlardan foydalanish qulay hisoblanadi va qurilishi ochiq xandakda bajariladi. Nasos agregatlari va quvurlarni binoga joylashtirishda asosiy va yordamchi uskunalarni ishonchli ishlashi hamda xizmat ko'rsatish qulay, oson va xavfsiz bo'lishiga e'tibor berish zarur.

Gorizontal valli nasos agregatlarini to'g'ri burchakli shakldagi binolarga o'rnatishda quyidagicha joylashtirish sxemalari keng qo'ilaniladi:


a) binoning bo'ylama o'qiga agregatlar o'qini parallel holatda bir qatorli joylashtirish (10.3,a-rasm), bu holda binoni eni qisqa, lekin uzunligi ortiqroq bo'ladi;

b) binoning bo'ylama o'qiga agregatlar o'qini perpendikular holatda bir qatorli joylashtirish (10.3,b-rasm), bunda binoning uzunligi qisqaroq bo'lib, eni biroz ortadi;

d) binoning bo'ylama o'qiga agregatlar o'qini burchak ostida bir qatorli joylashtirish (10.3,d-rasm), bu holda yuqoridagi har ikki shaklning afzalliklari umumlashadi;

e) agregatlarni ikki qatorli joylashtirish (10.2,e-rasm) ko'p agregatli nasos stansiyalarda binoning uzunligini qisqartirish maqsadida qo'ilanadi, lekin bu holda bino eni ancha ortadi va quvurlarning kommunikatsiyalari joylashishi murakkablashadi;

f) agregatlarni shaxmat tartibida ikki qatorli joylashtirishda (10.3, f-rasm) quvurlarning kommunikatsiyalari ixchamlashadi va mashina zali maydoni qisqaradi. Lekin bu holda har ikkala qatordagi agregatlar vallarining aylanish yo'nalishlari qarama-qarshi bo'lishiga e'tibor berish zarur.



10.3-rasm. Gorizontal valli nasos agregatlarining to'rtburchak shakldagi binoga joylashtirish.

Vertikal valli nasoslar asosan bino bo'ylama o'qi bo'yicha bir qator joylashtiriladi. Ba'zi hollardi bino pastki qavati juda baland va agregatlar soni to'rttagacha bo'lganda, suv atrof aylanasidan keladigan silindr yoki prizma shakldagi, tepasiga beton quyish jarayonida yerga cho'ktirib boriladigan quduq usulida quriladi. Irtish-Qarag' anda kanalidagi nasos stansiyalarining namunaviy shakli 10.4-rasmida keltirilgan bo'lib, unda nasos agregatlari ancha mujassam joylash-tirilgan [12]. Stansiya binosi kanalning kengaygan qismiga erkin joylashtirilib, qirg'oq bilan xizmat ko'prigi orqali bog'langan. Bino 12 burchaklik prizma shaklida qurilgan va unga suv aylananing 120° li sektori bo'yicha keladi. Har bir agregat binoga radial holda joylashtirilgan bo'lib, 60° -li sektorni egallab turadi.

So'rish quvurlari bo'yi past, kalta va eni keng shaklda bo'lib, kirish qismi ikkita qanotdan iborat. Suzuvchi jismlarni to'suvchi panjara ta'mirlash davrida telfer yordamida ko'tarib olinadi va uni o'rniga sirpanuvchi yassi metall darvozalar o'rnatiladi. Binoning rejadagi diametri 21,56 m, tashqi devori qalinligi 1 m, poydevorning qalinligi 1,45 m ga teng. Qavatlar oralig'ida yuk chiqarib-tushirish uchun 2,4x1,2 m o'lchamdagи tuyniklar o'rnatilgan. Sathi 19,55 m dagi qavatlar oralig'idagi temir-beton to'sqich elektr dvigatellar uchun tayanch bo'lib

xizmat qiladi va uskunalar hamda yuqori qavatning qurilish konstruksiyalaridan hosil bo'luvchi kuchlarni qabul qiladi. Binosi to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan, agregatlari bir qatorga joylashtirilgan Quyumozor nasos stansiyasi bilan solishtirilganda, aylana bo'yicha suv oluvchi Irtish-Qarag' anda nasos stansiyasi binosi qurilishiga 20-22% kam mablag' sarflangan. Lekin atrof aylanasidan suv keladigan silindrik yoki prizma shakldagi binolarni loyihalashda turg'unlik, mustahkamlik, suvni ko'tarish kuchi va filtratsiya bo'yicha maxsus hisoblar bajarish talab etiladi.


Stansiya binosi qurilishiga minimal kapital mablag' sarflangan holida asbob-uskunalarining eng qulay ish tartibini va ekspluatatsiya sharoitini ta'minlash kerak. Binoning elementlarini qulay mujassam joylashtirilgan holatini topish ancha qiyin bo'lib, variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslash usuli bilan aniqlanadi.

Binoning yer ustki qismi quyma yoki yig'ma temir-beton buyumlardan tayyorlanadi va uning ichiga suv sizib kirishiga qarshi choralar ko'rildi. Bino pastki qavati uchun mustahkamlik belgisi ($15\dots20 \cdot 10^6$ Pa) dan yuqori, suv o'tkazmasligi B-4 dan ortiq va sovuqqa chidamliligi Mp3-100 dan kam bo'Imagan, qurilish me'yordlari (BCH-II-18-36) talablariga javob beradigan gidrotexnik beton qo'llaniladi. Suv sizib kirishiga qarshi tashqi tomonidan devoriga bitum surkalib, ichki tomonidan sement qorishmasi bilan suvaladi va namlikka chidamli bo'yoq bilan pardozlanadi. Betondan tayyorlanadigan suv keltirish qurvining yuzasi temir kukuni va sement aralashmasidan tayyorlangan qorishma bilan katta bosimda choplanadi.

«Blokli» binoga beton quyishda, uning ish bajarilish texnologiyasi hamda issiqlik sharoitlari bo'yicha alohida bloklarga bo'lib qo'yiladi. Har bir blokni uzunligi harsang toshli asoslarda 25 m gacha, birikmagan tuproqlarda 60 m ga qabul qilinadi. Betonning quvurlar yoki asbob-uskunalar o'rnatiladigan joylari bo'sh qoldirilib, keyin to'ldiriladi. Binoning yon tomonida ta'mirlash maydonchasi loyihalanib, uning yer osti qismiga yordamchi nasos qurilmalari (vakuum-nasos, drenaj va quritish hamda moy-bosim nasoslari) o'rnatiladi.

Binoning yer ustki qismi yig'ma temir-beton ustunli (sinchli) yoki ustunsiz (sinchsiz) tuzilishda bo'lishi mumkin. Agar o'rnatiladigan uskunalarining eng og'ir detali 5 t dan ortiq bo'lsa, u holda bino yig'ma temir-beton ustunli (sinchli) tuzilishda loyihalanadi va ularni oralig'i ikki g'isht o'lchamida to'ldiriladi. Boshqa hollarda yer ustki qismi ustunsiz g'ishtdan bajariladi. Binoni tomi yig'ma temir-beton plita

(yopg'ich) bilan berkitilib, suv o'tkazmaydigan qoplama (ruberoid va saqich), issiqlik saqllovchi qoplama (keramzit yoki shlak) hamda sement qorishma bilan mustahkamlanadi. Yer ustki qismiga o'rnatiladigan derazalarning umumiy yuzasi polning yuzasidan $1/3 \div 1/5$ qismida olinadi.



10.4-rasm. Irtish-Karag'anda kanalidagi nasos stansiyalarning namunaviy shakli:

1-suv chiqarish qopqoqchasi; 2-filtr; 3-OP-185 nasosi; 4-elektr telfer (5t); 5-yuk ko'tarishi 20/5 tonnali ko'priksimon kran; 6-dvigatelni qo'zg'atish uskunasi; 7-o'lhash shiti; 8-elektr kuch yig'ilmasi; 9-elektr taqsimlash qurilmasi (6 kV), 10-suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi; 11-vaqtinchalik beton devor.

Binoning elementlarini mujassamlashda quyidagi larga e'tibor berish zarur:

- binoga agregatlar bir qator joylashtiriladi, lekin gorizontal valli nasoslar o'rnatilsa va agregatlar soni to'rttadan ortiq bo'lsa, ikki qator shaxmat ko'rinishida o'rnatishga ham ruxsat etiladi;


- murakkab elektr tarmoqli stansiyalarda (ya'ni dvigateл quvvati 1000 kVt dan yuqori va agregatlar soni to'rttadan ko'п bo'lsa) balandligi $h = 1,6$ m bo'lgan alohida kabel qavati quriladi;
- yordamchi asbob-uskunalarining og'irligi 100 kg dan ortiq bo'lsa, yuk ko'tarish qurilmasining ta'sir doirasiga o'rnatiladi;
- binoning yer ustki qismidan yon tomonda eni bino eniga teng, uzunligi agregatlar o'qlari oralig'idagi masofadan 1,5 barobar katta bo'lgan ta'mirlash maydonchasi ko'zda tutiladi. Binoning umumiy uzunligi 60 m dan ortiq bo'lsa, ta'mirlash maydonchasi uning har ikki tomonida ham loyihalanadi;
- pastki qavatdan yuqori qavatga yuklarni chiqarish uchun diametri $D=D_{nas}+0,3$ m bo'lgan tuynuklar qoldiriladi (D_{nas} —nasosning eng yirik detali o'lchami);
- qavatlar oralig'idagi to'siq quyma yoki yig'ma temir-betondan tayyorlanadi. Bu yerda asosiy balkalar imoratga ko'ndalang bo'lib, balandligi $h = (0,1 \div 0,2)\ell$ qabul qilinadi (ℓ —balkani uzunligi). Ikkinci darajali balkalari asosiy balkalarga (to'sinlarga) perpendikular o'rnatilib, balandligi $h = (0,07 \dots 0,1)\ell$ olinadi va plita bilan qoplanadi. Etajlar oralig'idagi to'siqlar elektr dvigateлlarga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Agar binoning eni 9 m dan ortiq va dvigateлning quvvati 5000 kVt dan yuqori bo'lsa, u holda dvigateлning tagiga ko'taruvchi kolonnalar o'rnatilishi zarur;
- pastki qavatni yuqori qavat bilan bog'lash uchun qiyaligi 1:2; 1:1,75 yoki 1:1,5 va eni $b=0,9 \dots 2,2$ m o'lchamda zinapoyalar o'rnatiladi. Pastki qavatning balandligi 12 m dan ortiq bo'lsa, u holda lift loyihalanadi;
- quvurlarni ustidan o'tish, yuqoridagi podshipniklarga va balandligi 1,4 m dan ortiq bo'lgan qulfa klarga xizmat ko'rsatish, ba'zi hollarda kabellarni joylashtirish uchun xizmat ko'prichalari quriladi;
- elektr energiya o'chib qolgan hollarda qulfa klarni berkitish uchun akkumulator batareyalari o'rnatiladigan xona ko'zda tutilishi zarur;
- kuchlanishi $u = 6 \dots 10$ kV bo'lgan stansiyalarda 1,2 va 4 seksiyali elektr taqsimlash qurilmalari o'rnatiladigan alohida bino quriladi. Uning o'lchamlari maxsus elektrotexnika uskuna va jihozlari loyihasi asosida aniqlanadi;
- katta nasos stansiyalarda ustaxona, omborxona, dush, kutubxona, boshliq xonasi va boshqa maishiy hamda yordamchi inshootlar ko'zda tutiladi.

10.2. Binolarning tuzilishi va ularni turini tanlash

Blokli turdag'i binolar yuqori qvvatliligi vertikal nasoslar bilan jihozlanadigan yirik nasos stansiyalarda qo'llaniladi. Bunday turdag'i binolar suv olish inshooti bilan birlashgan holda quriladi. Nasoslarga suv beton blok ichiga joylashgan murakkab shakldagi maxsus so'rish quvurlari yordamida keltiriladi (10.5-rasm).

Blokli binolarning suv keltirish (so'rish) quvurlari shakli ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

- to'g'ri chiziq o'qli, to'rtburchak kesim yuzali (10.6,a-rasm);
- egri chiziq o'qli, o'zgaruvchan kesim yuzali, tirsaksimon (10.6,b-rasm).




10.5-rasm. Markazdan qochma V turdag'i nasos o'rnatilgan «blokli» binoning tuzilishi:

- 1-vertikal valli markazdan qochma nasos; 2-nasoslar bo'linmasi;
- 3-elektr dvigatel; 4-mashina zali; 5-ulama quvur; 6-qulfak (zadvijka); 7-teskari qopqoq; 8-kuzatish g'ori (yo'lagi); 9-tashlama quvur; 10-suv keltirish quvuri; 11-suv qabul qilish bo'linmasi;
- 12-suzuvchi jismarlari to'sish panjarasi; 13-ekspluatatsiya va ta'mirlash darvozalari uchun o'yilmalar; 14-val ulamasi;
- 15-yo'naltiruvchi podshipnik.

Katta o'Ichamdag'i nasoslarning so'rish qismida gidravlik qarshiliklarni kamaytirish maqsadida 10.6- rasmagi shakllar bo'yicha suv keltirish quvurlarini o'Ichamlarini aniqlash nasos ishlab chiqaruvchi zavodlar tomonidan tavsiya etilgan. To'rtburchak kesim yuzali suv keltirish quvurlari (10.6,a-rasm) ishchi g'ildiragi diametri 1 m dan kichik bo'lgan o'qiy nasoslar o'rnatiladigan binolarda qo'llaniladi.

Blokli binolar V turdag'i markazdan qochma nasoslar bilan jihozlanganda (10.5-rasm) nasosning uzatgichidan keyin ulama quvur 5, teskari qopqoq (7) va qulfak (6) o'rnatiladi. O'qiy nasos o'rnatiladigan hollarda (10.1,a-rasm) bunday uskunalar o'rnatish zarurati bo'lmaydi. Chunki o'qiy nasoslarning bosimi past (26 m gacha) va ishga solishda bosimli qulfak ochiq holda bo'lsa, kam qvvat talab qiladi.



10.6-rasm. Suv keltirish quvurlari:

a - to'rtburchak kesim yuzali; b - tirsaksimon.

Pastki bef dagi suv sathining o'zgarishi 2 m ortiq bo'lgan hollarda binoning pastki qavati balandligi ortadi va bino «shaxta-blokli» deb nomlanadi, hamda nasos va dvigatellar vallari ulama val (14) orqali ulanadi. Val ulamasining uzunligi 2,5 m dan ortiq bo'lsa, tebranishni kamaytirish uchun yo'naltiruvchi podshipnik (15)o'rnatish zarur bo'ladi.

Blokli binolarga suv uzatishi $2 \text{ m}^3/\text{s}$ dan yuqori bo'lgan vertikal valli (asosan B turdag'i markazdan qochma, O va OП turdag'i o'qiy) nasoslar

o'rnatiladi. Nasoslar pastki qavatdag'i bo'linmaga, elektr dvigatellar yuqori qavatdag'i mashina zaliga joylashtiriladi. Nasosning geodezik so'rish balandligi h_s hisoblar asosida manfiy qabul qilinib, uning o'qi minimal suv sathidan pastga joylashtiriladi. Ta'mirlash davrlarida suv to'sib qo'yish uchun (13) o'yilmalarga ta'mirlash darvozalari o'rnatiladi va (11) bo'linmadagi qoldiq suv tashlama quvur (9) va kuzatish g'ori (8) orqali yig'uvchi quduqqa uzatilib, quritish nasoslari bilan chiqarib tashlanadi.


Xorijiy davlatlar irrigatsiya va suv xo'jalik tizimlarida agregatlari o'qlari gorizontal va qiya joylashgan hamda kapsula agregatli blokli binoli nasos stansiyalari qurilishi amaliyotga keng tatbiq etilgan. Masalan, 10.7-rasmida sug'orish tizimidagi Impianto (Italiya) nasos stansiyasining ko'ndalang kesimi keltirilgan [12].

Nasos stansiya bosimi 2,3 m va suv uzatishi 13 m^3/s bo'lgan gorizontal valli o'qiy nasoslar bilan jihozlangan bo'lib, uning oldidagi tubi qiya nishoblikdagi avankameraga suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi joylashtirilgan. Panjara tozalovchi mashina (2) yordamida tozalab turiladi. Suv chiqarish inshooti gidravlik ko'targich (7) yordamida berkitiladigan qopqoqsimon darvoza 6 bilan jihozlangan. Ta'mirlash davrida nasoslarni suvdan bo'shatish uchun avtokran bilan tushiriladigan (8) va (9) ta'mirlash darvozalaridan foydalaniлади. Nasos aggregatlarini o'lchamlarini qisqartirish maqsadida nasos (5) va elektr dvigatel (3) pasay-tiruvchi reduktor (4) orqali ulangan. Poydevorni chuqurlashishi va dvigateli suv bosish xavfi, hamda kichik nasos qurilmalarida quvurlari qarshiligini ortishi gorizontal valli nasoslari o'rnatilgan blokli turdag'i binolarning asosiy kamchiliklaridir.

Qiya agregatli blokli binolar bunday kamchiliklardan holidir. Masalan 10.8-rasmida «Xitochi» (Yaponiya) firmasining qiya valli o'qiy va diagonal nasoslari bilan jihozlangan sifon-blokli binolari tasvirlari keltirilgan.


10.8,a-rasmida ishchi g'ildiragi diametri 230 sm, har birining suv uzatishi 13,5 m^3/s , bosimi 3,75 m, aylanish chastotasi 160 ay/min va quvvati 698 kVt ga teng bo'lgan o'qiy nasoslari o'rnatilgan yirik nasos stansiya tasvirlangan.

Xuddi shunga o'xhash uchta diagonal nasos o'rnatilgan nasos stansiya tasviri 10.8,b-rasmida ko'rsatilgan. Bunda har bir nasosning suv uzatish 6 m^3/s , bosimi 6,6 m, aylanish chastotasi 134 ay/min, ishchi g'ildiragi diametri 180 sm va dvigateling quvvati 810 kVt.



10.7-rasm. «Rivo Kolsoni» (Italiya) firmasining gorizontal valli o'qiy nasoslari o'rnatilgan Impianto Lepri nasos stansiyasi.


Agar ushbu tasvirlarni o'xshash bo'lgan gorizontal valli nasos stansiya binosi bilan taqqoslansa, suv oqish qismi kalta va soddaligi hisobiga gidravlik qarshiligi kamayishi, nasosni kavitatsiya shartlari asosida suv sathidan pastroqqa o'matilishi, bino poydevori chuqurligini kamayishi e'tiborni jalb etadi. Ularni kamchiligi-qiya joylashgan podshipniklarni ishlashi murakkabroq bo'ladi.



10.8-rasm. Qiya valli nasos agregatlari joylashgan nasos stansiyalar:
a - «Xitochi» firmasining o'qiy nasoslari o'rnatilgan; b – shu firmaning
diagonal nasoslari o'rnatilgan.

Kapsulali agregatlar qo'llanganda suvni nasos o'qi bo'yicha keltirish va olib ketish, suv oqish qismlarining oddiy geometrik shakli nasos stansiya binosi tuzilishini soddalashtiradi (10.9-rasm).

Kapsula agregatli nasos stansiyalarining quyidagi afzalliklariga e'tibor berish zarur: bino bloki eni 30 % gacha qisqaradi; poydevorining yotqizilish sathi yuqoriqoda bo'lishi tuproq ishlari hajmi va qurilish bahosini kamaytiradi bir xil ish ko'rsatkichlariga va o'lchamga teng bo'lgan vertikal agregatga nisbatan FIK 2...4 % yuqori; to'g'ri o'qli so'rish quvuri qo'llanganligi sababli, nasos noqulay ish tartiblarida ham ortiqcha yuklamada yaxshi ishlaydi; agregatlar turbina ish tartibida ishlab, elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ham ega. Shu bilan birga kapsulali nasos stansiyalarining quyidagi kamchiliklarini ham e'tirof etish zarur: detallarni kuzatish va ta'mirlash uchun suvni butunlay quritish zarurligi, elektr dvigatelni sovutishni qiyinligi, agregatlarning elektr tarmog'i bilan bog'liq elektr turg'unlagini pastligi.




10.9-rasm. Kapsula agregatli nasos stansiya binosi:

- 1-poydevor;
- 2-kapsulali agregat;
- 3-suv chiqarish bo'linmasi;
- 4-oraliq devor;
- 5-yuk ko'tarishi 100 t li ko'priksimon kran;
- 6-elektr kommunikasiyalari kanali;
- 7-ochiladigan tuynik;
- 8-mashina zali;
- 9-nasos joylashgan suv oqish qismi;
- 10-so'rish quvuri.

Bo'linmali binolarning pastki qavati asosiga yoppa temir-beton poydevor yotqiziladi va uning ustki qismi bo'linma shaklida bo'lib, nasoslar xonasi yoki suv qabul qiluvchi hovuz vazifasini bajaradi. Birinchi holda bino «quruq» (10.1,e,f,g,h,i-rasm) va ikkinchi holda

«ho'l» (10.1,j va 10.2,b,d-rasmlar) bo'linmali deb nomlanadi. Bo'linmali binolar uch xil shaklda bo'lishi mumkin:

- «quruq» bo'linmali (10.10- rasm);
- nasos suvga botirilmagan «ho'l» bo'linmali (10.1,j va 10.2,b-rasmlar);
- nasos suvga botirilgan «ho'l» bo'linmali (10.2,d-rasm).




10.10-rasm. Gorizontal valli markazdan qochma nasoslar o'rnatilgan quruq bo'linmali bino:
1-so'rish tarmog'i; 2-bosimli tarmoq.

Quruq bo'linmali bino suv olish qurilmasi bilan birlashgan (10.10-rasm) yoki alohida (8.4-rasm) joylashtirilishi mumkin. Har qanday holda ham quruq bo'linmali binolarda nasoslarga suv uzun va kalta so'rish quvurlari orqali uzatiladi.


Quruq bo'linmali va ho'l bo'linmali nasos suvga botirilmaydigan binolarga suv uzatishi $2 \text{ m}^3/\text{s}$ gacha bo'lgan har qanday turdag'i nasoslar o'rnatilishi mumkin. Ho'l bo'linmali nasoslar suvga botiriladigan binolarga o'qiy va suv botiriladigan markazdan qochma artezian nasoslari o'rnatiladi.

10.11-rasmda ishchi g'ildiragi diametri 1 m gacha bo'lgan vertikal valli o'qiy nasoslar umumiyy bo'linmaga o'rnatilgan ho'l bo'linmali bino tasviri berilgan. Bu holda nasoslar suvga botirilib, kirish qismiga so'rish konfuzori o'rnatiladi. Bunday binolarning tuzilishi oddiy va ta'sir etuvchi kuchlarga yaxshi ishlaydi. Ta'mirlash davrida nasos butunlay chiqarib olinib, ta'mirlash maydonchasida ochib ko'riladi. Ushbu tuzilishdagi nasos stansiyalar kichik kapsula agregatli stansiyalarga nisbatan yuqori ishonchli darajada suv uzatishni ta'minlaydi. Agar nasoslarni alohida bo'linmalarga joylashtirilsa, ularga suv keltirish sharoiti yaxshilanadi, binoning mustahkamligi ortadi, ish davridagi alohida bo'linmani kuzatish va loyqadan tozalash imkoniyati yaratiladi.



10.11-rasm. Suvga botirilgan o‘qiy nasos o‘rnatilgan ho‘l bo‘linmali bino.

Yer ustki binolari suv sathining o‘zgarishi nisbatan kichik bo‘lgan ochiq suv manbalaridan suv oluvchi va geodezik so‘rish balandligi musbat qiymatga ega bo‘lgan gorizontal valli nasoslar o‘rnatiladigan nasos stansiyalarga mos keladi (10.2,g,d-rasm). Suv manbasi qirg‘og‘i tik va yuvalmaydigan, asosida mustahkam tuproq bo‘lgan hollardagina yer ustki binosi suv olish inshooti bilan birlashgan shaklda quriladi (10.12,a-rasm).



10.12-rasm. Yer ustki binolari:


a) suv olish inshooti bilan birikkan bino; b) suv olish inshootidan alohida joylashgan bino; 1-so‘rish tarmog‘i; 2-bosimli tarmoq.

Ko‘p hollarda yer ustki binolari suv olish qurilmalaridan alohida holda qurilib, har bir nasos agregati o‘zaro bog‘lanmagan alohida poy-devorlarga o‘rnatiladi (10.12,b-rasm).

Bu turdag'i binolar odatdag'i sanoat imorati shaklida bir qavatli ko'rinishda bo'lib, devor osti poydevorlari sathi manbadagi va yer osti suvlari sathlaridan yuqoriga joylashtiriladi.

Poydevorlar. Gorizontal valli K turdag'i markazdan qochma nasoslar elektr dvigatel bilan birga zavoddan cho'yan plitaga o'rnatilgan holda keladi. Markazdan qochma D, HD, ЦНС, ЦН turdag'i gorizontal nasoslar qurilish joyida po'lat prokatdan tayyorlanadigan ramalarga o'rnatilib, keyin maxsus poydevorga mahkamlanadi (10.13-rasm).

Poydevorning eni va uzunligi agregatning po'lat ramasi o'chamrlaridan 10...15 sm, pol yuzasidan balandligi 10 sm ortiqroq qabul qilinadi.




10.13-rasm. Markazdan qochma 6HD_n nasos agregatini poydevorga o'matish tasviri.

Poydevorning chuqurligi asosidagi tuproq xususiyati bo'yicha hisoblab aniqlanadi. Har qanday holatda uni chuqurligi 50...70 sm dan kam bo'lmasligi zarur. Poydevorning pol bilan bog'lanish joylariga cho'qish chocklari joylashtiriladi; agregatlar va devor osti poydevorlari bir-biridan ajratib qo'yiladi.

Tayanch ramalari poydevor bilan anker boltlari yordamida mahkamlanib, anker uyalari beton bilan to'ldiriladi. Agregatlarni ramaga


o'rnatishda nasos va dvigatel vallari o'qlarining aniq mos tushishiga e'tibor berish zarur, chunki noto'g'ri o'rnatilganda podshipniklar tez ishdan chiqish, aggregatni tebranish holatlari ro'y beradi.

Vertikal valli markazdan qochma B turdag'i nasoslarni poydevorlarga o'rnatilish shakli 10.14-rasmda keltirilgan. 28B-12, 32B-12, 36B-22 va 40B-16 nasoslarning qobig'idagi tayanch tovonlari betonga anker boltlari bilan mahkamlanadi (10.14,a-rasm). Katta o'lchamdag'i (52B-11, 52B-17, 56B-17, 72B-22 va 88B-22) nasoslarning qobig'i maxsus chuqurcha shaklidagi beton asosga o'rnatiladi va qobiq yarmigacha atrofiga yana shtrab beton qo'yiladi (10.14,b-rasm).




10.14-rasm. Vertikal valli B turdag'i markazdan qochma nasoslarning o'rnatilishi

Vertikal valli o'qiy nasoslarning o'rnatilishi asosan ularning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Ishchi g'ildiragi diametri 870 mm gacha bo'lgan kichik o'lchamdag'i o'qiy nasoslarning tayanch flaneslari nasoslar xonasi bilan suv qabul qilish bo'linmasi orasidagi berkituvchi plitaga mahkamlanadi (10.15,a-rasm). Ishchi g'ildiragi diametrlari 1100...1450 mm li nasoslarning qobig'i kronshteynlar yordamida ikki katta o'lchamdag'i beton poydevorga tayanadi (10.15,b-rasm). Ishchi g'ildiragi diametri 1850 va 2600 mm li yirik o'qiy nasoslar binoga ko'ndalang, vertikal devorlarga yoki to'singa tayanuvchi maxsus oraliq temir-beton yopqichga mahkamlanadi (10.15, d-rasm).



10.15-rasm. Vertikal valli O, OΠ turdag'i o'qiy nasoslarning o'rnatilishi.

Tayanch konstruksiyalar. Vertikal valli nasoslarning elektr dvigatellari binoning pastki va yuqori qavatlarini ajratib turuvchi temir-beton yopqichlarga o'rnatiladi. Dvigatel quvvati nisbatan katta bo'limgan (800...1000 kVt gacha) hollarda qavatlar oraliq yopqichi quyma qovurg'ali konstruksiya shaklida bajariladi (10.16,a-rasm).



10.16-rasm. Vertikal valli elektr dvigatellarning tayanchlari konstruksiyalari:

1-elektr dvigatellar; 2-oraliq yo'naltiruvchi podshipnik; 3-binoning buylama devori; 4-asosiy to'sinlar; 5-ikkinchi darajali to'sinlar; 6-qavatlar oraliq yopqich plitalar; 7-ko'ndalang devordagi o'tish darchasi; 8-binoning pastki qavatidagi bo'lувчи ko'ndalang devorlar.

Elektr dvigatellar tayanuvchi asosiy temir-beton to'sinlar binoga ko'ndalang o'rnatilib, pastki qavat devorlariga mahkamlanadi. Ikkinci darajali to'sinlar bino bo'ylama o'qi bo'yicha o'rnatiladi. To'sinlarning o'lchamlari ta'sir etuvchi kuchlar asosida hisoblab topiladi. Qavatlar oraliq yopqich plitaning qalinligi 10...15 sm ga teng bo'ladi.

Quvvati, o'lchamlari va massasi katta elektr dvigatellar uchun qavat oraliq yopqich ramali ko'rinishda bajariladi (10.16,b-rasm). Asosiy to'sinlar katta o'lchamda bo'lib, binoni uzunligi bo'yicha o'rnatiladi va vertikal ko'ndalang bo'luchchi devorlarga tayanadi. Ulkan vertikal o'qiy nasos agregatlarining elektr dvigatellari ostiga parallelepiped shaklidagi ichi bo'sh tayanchlar o'rnatiladi. Shaxtali binolarda qo'shimcha val ulamalari o'rnatilib, ularni tebranishini kamaytirish maqsadida ko'ndalang to'sinlarga tayanuvchi yo'naltiruvchi podshipniklar ko'zda tutiladi (10.16,a-rasm).

10.1 – jadval

Binoning turini tanlash bo'yicha tavsiyalar

Binoning turini belgilovichchi omillar	«Blokli» bino	«Bo'linmalii» bino			«Er ustki» bino
		«quruq bo'linmali»	nasos suvgaga botirilgan «ho'l bo'linmali»	nasos suvgaga botirilmagan «ho'l bo'linmali»	
Nasosning suv uzatishi Q_x , m^3/s	≥ 2	<2	<2	<2	<1,5
Nasosning turi	B, O, OП	har qanday	O, OП	har qanday	gorizontal valli
Nasosning geodezik so'rish balandligi h_s , m	manfiy	har qanday	manfiy	har qanday	musbat
Pastki befdag'i suv sathining o'zgarishi K_{pb} , m	har qanday	har qanday	nasosning o'lchamiga bog'liq	o'rtacha 8 m gacha	$< h_s$

Eslatma: Oxirgi yillarda blokli binolarga gorizontal va qiya o'qli, hamda kapsulali nasos aggregatlari o'rnatish amaliyoti qo'llanilmoqda (10.7., 10.8. va 10.9. - rasmlar).

Nasos stansiya binosining turi 10.1-jadvalda keltirilgan tavsiyalar asosida tanlanadi. Masalan, vertikal V turdag'i nasosning suv uzatishi 2 m^3/s dan ortiq, geodezik so'rish balandligi qiymati manfiy va pastki befdan suv sathining o'zgarishi har qanday bo'lsa, blokli turdag'i bino tanlanadi.

10.3. Nasos stansiya binosining asosiy o'lchamlarini aniqlash

Binoning o'lchamlari asosiy nasoslar, elektr dvigatellar, yordamchi asbob-uskunalar, so'rish va bosimli kommunikatsiyalari, hamda ta'mirlash maydonchasini joylashtirish shartlari asosida aniqlanadi. Asbob-uskunalarni binoga jöylashishini aniqlashda agregatlarni ochib-berkitish va ta'mirlash ishlarini xavfsiz bajarilishiga e'tibor berish zarur.

Asbob-uskunalar va jihozlarning oralig'idagi minimal o'tish joyi masofalarini quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi:

- past kuchlanishli elektr dvigatellar oralig'i.....1 m;
- yuqori kuchlanishli elektr dvigatellar oralig'i.....1,5...2 m;
- agregat bilan devor oralig'i.....0,7...1,0 m;
- harakatlanmaydigan qismlari oralig'i.....0,7 m;
- agregatlarning harakatlanadigan qismlari oralig'i.....1,2 m;
- agregat bilan taqsimlash shkafi oralig'i.....1,5 m.

Binolarning o'lchamlarini aniqlash va texnologik qismlarini bog'lash quyidagicha amalga oshiriladi (10.17 - rasm). Binoning pastki qavati balandligi nasos o'qini manbadagi minimal suv sathiga nisbatan joylashishiga bog'liq bo'lib, bu balandlik geodezik so'rish balandligi qiymati bilan aniqlanadi.

Nasos o'qining o'rnatilish sathi belgisi


$$\nabla N.O.' = \nabla PBSS_{min} + h_s \quad (10.1)$$

bu yerda $\nabla PBSS_{min}$ – pastki bef dagi (yoki manbadagi) minimal suv sathi belgisi, m; h_s – joiz geodezik so'rish balandligi (r°). (3.75) formula bilan aniqlanadi.

Umumiy holda barcha turdag'i binolarning pastki qavati balandligini quyidagi formula bilan topish mumkin (10.17-rasm):

$$H_{p,q} \geq h_f + h_{nas} \pm h_S + K_{ps} + h_0 \quad (10.2)$$

bu yerda h_f – poydevorning qalinligi, statik hisoblar asosida aniqlanadi (odatda 0,8...1,5 m qabul qilinadi); h_{nas} – poydevorning yuqori sathidan nasos o'qigacha balandlik.



10.17-rasm. Vertikal valli OP turdag'i o'qiy nasos o'rnatilgan blokli binoning o'lchamlarini aniqlash tasviri.

Blokli binolarda suv keltirish quvuri balandligi $h_{tr} = h_{nas}$ ga teng (10.6-rasm); h_s -joiz geodezik so‘rish balandligi (uning musbat qiymati nasos o‘qi minimal suv sathidan pastga o‘rnatilgan holda qabul qilinadi); K_{ps} – pastki befdagi suv sathining o‘zgarishi; h_0 – maksimal suv sathidan bino pastki qavati devorini zaxira ko‘tarilish balandligi (0,8...1 m qabul qilinadi).

Blokli binolarda nasos va elektr dvigatel o'chamlari asosida binoning ichki qismi bo'yicha pastki qavat balandligi $H_{p,q}$ qayta topiladi va (10.2.) formula bilan aniqlangan $H_{p,q}$ qiymati bilan solishtirib ko'riladi. Agar $H_{p,q} > H_{p,q}$ bo'lsa, u holda uzunligi $h_{val} = H_{p,q} - H_{p,q}$ ga teng bo'lган qo'shimcha ulama val o'rnatiladi. Aks holda, ya'ni $H_{p,q} > H_{p,q}$ bo'lsa, ularni ayirmasi qiymati h_0 zaxiraga qo'shiladi.

Blokli binoning eni uchta kesim bo'yicha quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$B_{bl} = \ell_{tr} + \ell'_{nas} + S + \delta_{dev}; \quad (10.3.)$$

$$B'_{bl} = 2 \delta_{dev} + b_1 + b_2 + b_3; \quad (10.4.)$$

$$B''_{bl} = 2 \delta_{yu,dev} + D_{dv} + b_4 + b_5; \quad (10.5.)$$

bu yerda ℓ_{tr} – suv keltirish quvurining uzunligi (10.6-rasm); ℓ'_{nas} – nasos o‘qidan uzatgichning chiqish kesimigacha uzunligi; S – nasos uzatkichidan devorgacha oraliq zaxira, (0,3...0,4 m); δ_{dev} – pastki devorning qalinligi, statik hisoblar asosida aniqlanadi (odatda $\delta_{dev} = 0,1H_{dev} \leq 1$ m qabul qilinadi); $\delta_{yu,dev}$ – yuqori qavat devorining qalinligi (ikki g‘isht uzunligiga teng olinadi); D_{dv} – elektr dvigatel qobig‘i diametri; b_1 – nasosning o‘rnatilish o‘lchami; b_2 , b_3 , b_4 , b_5 – uskunalarining yonidan o‘tish oraliq masofalari.

Yuqoridagi (10.3), (10.4), (10.5) formulalardan topilgan bino pastki qavati enining eng katta qiymati hisoblar uchun qabul qilinib, ushbu qiymat binoni tomini yopish uchun qo‘llaniladigan yig‘ma temir-beton buyumlarning standart o‘lchamlari bilan bog‘lanadi.

Eslatma: bo‘lmali va yer ustki binolarining enini topishda so‘rish va bosimli kommunikatsiyalarga o‘rnatiladigan qulfak, teskari qopqoq, ulama quvur, konfuzor kabi jihozlarning o‘lchamlarini e’tiborga olish zarur (10.18-rasm).

Vertikal valli agregatlarining o‘qlari oralig‘idagi masofani aniqlashda quyidagi ifodalardan topilgan uning eng katta qiymati hisob uchun qabul qilinadi:

$$L_{o'q} = b_{nas} + \ell_2; \quad (10.6)$$

$$L'_{o'q} = D_{dv} + \ell_1; \quad (10.7)$$

$$L''_{o'q} = B_{tr} + \delta_{ust}; \quad (10.8)$$

yoki aggregatlar oralig‘iga qo‘shimcha δ_{dev} qalinlikdagi devor o‘rnatilsa,

$$L'''_{o'k} = b_{nas} + 2\ell_2 + \delta_{dev}; \quad (10.9.)$$

bu yerda b_{nas} va D_{dv} – nasos va elektr dvigatelin o‘lchamlari; B_{tr} – tirsaksimon suv keltirish quvurining kirish qismi eni (10.7-rasm); δ_{ust} – suv qabul qilish bo‘lmasi ustuni qalinligi; ℓ_1 va ℓ_2 – ekspluatatsion o‘tish masofalari.

Gorizontal valli agregatlarning o'qlari oralig'idagi masofa quyidagicha topiladi:

$$L_{o'q} = \ell_{agr} + \ell; \quad (10.10)$$

bu yerda, ℓ_{agr} – nasos va elektr dvigatel vallarining uzunliklari yig'indisi.

Hamma turdag'i binolarning uzunliklarini quyidagi ifoda bilan topish mumkin:

$$L_{bino} = L_{o'q} (Z_{agr} - 1) + \ell_{agr} + \ell_{t.may} + 2\ell_l + \delta_{dev} + \delta_{yu.dev} + 0,1; \quad (10.11)$$

bu yerda, Z_{agr} – binoga o'rnatiladigan agregatlar soni; $\ell_{t.may}$ – ta'mirlash maydonchasi uzunligi ($\ell_{t.may} = 1,5 L_{o'q}$ qabul qilinadi).

Eslatma: Vertikal valli nasos agregatlari o'rnatiladigan binolar uchun $\ell_{agr} = b_{nas}$ yoki $\ell_{agr} = D_{dv}$ qabul qilinadi.

Binoning uzunligi ham uning tomini berkitish uchun qo'llanadigan yig'ma temir-beton buyumlarning standart o'lchamlariga bog'lanadi. Bunda kolonnalar (ustunlar) qadami 6 m qabul qilinadi.

Binoning yuqori qavati balandligi hamma turdag'i binolar uchun bir xil usulda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi (10.18-rasm):



$$H_{yu.q} = h_{dv} + h_{zax} + h_{det} + h_{hog} + h_{kran} + h_l \quad (10.12)$$

bu yerda, h_{det} – nasos yoki dvigatelning eng uzun detali o'lchami; h_{zax} – o'rnatilgan va ko'tariladigan uskunalar oralig'idagi zaxira (0,5 m qabul qilinadi); h_{hog} – bog'lagich uzunligi (0,5...0,7 m qabul qilinadi); h_{kran} – yuk ko'tarish kranining vertikal o'lchami;

$h_l \geq 0,1$ m – kran aravachasi bilan tom to'sin oralig'idagi zaxira; h_{dv} – vertikal valli agregatlar o'rnatiladigan binolar uchun elektr dvigatelinig balandligi.

Gorizontal valli nasoslar o'rnatiladigan bo'linmali binolar uchun (10.12) formula bo'yicha $H_{yu.q}$ ni hisoblashda $h_{dv}=0$, yer ustki binolar uchun esa $h_{dv}=h_{nas}+0,2$ m ga teng qabul qilinadi.

Agar aggregatlarning detallari kran yordamida ta'mirlash maydonchasiga kiradigan avtotransportga yuklansa, binoning $H_{yu.q}$ balandligi $h_{dv}=h_{avt}$ qiymatiga qayta aniqlanadi (h_{avt} – avtotransportni balandligi).




1 10.18-rasm. Vertikal vali V turdag'i markazdan qochma masos o'matilgan quruq bo'limmali binoning o'lchamlarini aniqlash tasviri.

Yuqori kuchlanishli (6...10 kVt) agregatlar o'rnataladigan nasos stansiyalarida 1, 2 va 4 seksiyali elektr taqsimlash qurilmalari joylashtiriladigan alohida qo'shimcha bino quriladi. Uning o'chamlari elektr-kuch uskunalarini joylashtirilish shartlari asosida maxsus elektrotexnik loyihamlar bo'yicha aniqlanadi.

Bundan tashqari boshqarish pulti, ustaxona, omborxona va maishiy xonalar ham qurilishi zarur (10.19 va 10.20-rasmlar).

Nasos stansiya binolarining mujassamlangan tasvirlari 10.19 va 10.20-rasmlarda keltirilgan. 10.19-rasmda bo'linmali nasos stansiya binosiga gorizontal valli D turdag'i nasoslar o'rnatalgan bo'lib, suv nasoslarga alohida joylashgan suv olish bo'linmalaridan po'lat quvurlar orqali keltiriladi. Binoning asosidagi poydevor plitalariga asosiy nasos agregatlaridan tashqari drenaj nasoslari va qudug'i, quvurlarning armaturalari, elektr kolorifer ham joylashtirilgan.


Ta'mirlash maydonchasining osti qismidagi binoning balandligi 2,3 m dan kam bo'lgan hollarda, u joy tuproq bilan to'ldiriladi, 2,3 m dan baland bo'lganda yordamchi nasoslarni joylashtirish uchun foydalilaniladi. Binoning yuqori qavatiga ko'priksimon kran o'rnataladi. Ushbu nasos stansiyada elektrotexnik uskunalar alohida binoga joylashtirilgan bo'lib, asosiy binodagi shovqin va tebranishdan himoyalangan.



10.19-rasm. Bo'linmali nasos stansiya binosining mujassamlangan tasviri:

- 1-nasos agregati; 2-nasoslар xonasi; 3 va 7-qulfaklar; 4-yuqori qavati;
- 5-ko'priksimon kran; 6-xizmat ko'prikhiasi; 8-drenaj ariqhasi;
- 9-teskari qopqok; 10-ta'mirlash maydonchasi; 11-kabel kanali;
- 12-gidroizolatsiya; 13-koridor; 14-sanitariya xonasi; 15-yuvinish xonasi;
- 16-elektrotexnik jihozlar ombori; 17-boshqarish pulti; 18-elektr-kuch taqsimlash qurilmalari;
- 19-o'z ehtiyoji transformatorlari bo'linmasi;
- 20-boshliq xonasi;
- 21-navbatchilarning umumiy xonasi.

Vertikal valli o'qiy nasoslar bilan jihozlangan blokli turdag'i nasos stansiya binosining mujassamlangan tasviri 10.20-rasmida keltirilgan. Bu bino boshqa binolardan qisilgan shakli va xonalar sonini kamligi bilan farq qiladi. Yuqori qavatiga ochiq holda vertikal elektr dvigatellar, boshqarish sandiqlari, elektr-kuch taqsimlash qurilmalari o'matilganligi bu binoning kamchiligidir. Chunki xizmat ko'rsatuvchi navbatchi xodimlarga shovqin, issiq havo oqimi va boshqa noqulayliklar ta'sir etadi. Shuning uchun bunday tuzilishdagi binolar avtomatlashgan masofadan boshqariladigan nasos stansiyalarga mo'ljallab quriladi.



10.20-rasm. Blokli nasos stansiya binosining mujassamlangan tasviri:

1-elektr dvigatel BDC-213/24-10; 2-o'qiy nasos OT3-110; 3-so'rish quvuri; 4-kuzatish tuynugi; 5 va 6-ustundagi o'yilmalar; 7-ta'mirlash darvozasi; 8-suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi; 9-panjara tozalash moslamasi; 10 va 11-oyoqli va ko'priksimon kranlar; 12-boshqarish sandiqlari; 13-quzatish g'ori; 14-tashlama quvur; 15-mujassamlangan elektr-kuch taqsimlash qurilmalari; 16-ikki uyali moy idishlari; 17-artezian nasosi; 18-suv to'plovchi quduq.

Yuqorida aytilgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida aksariyat nasos stansiyalarda boshqarish pulti, elektr taqsimlash qurilmalari, yordamchi transformatorlar va qo'shimcha xonalar uchun asosiy binodan alohida to'silgan holda uning yon yoki orqa tomonidagi er ustki qismiga qo'shimcha bino quriladi.

Nasos stansiyaning elektr qurilmalari kuch transformatorlari, yuqori va past kuchlanish chiqarish moslamalari, taqsimlash qurilmalari (RU), elektr dvigatellarga tok o'tkazuvchi kabellar, o'ziga xizmat qilish tizimi jihozlari va nazorat asboblaridan iborat bo'ladi.O'ziga xizmat qilish tizimi jihozlari moy-bosim qurilmalari, texnik suv ta'minoti va drenaj tizimi elektr dvigatellarini, yoritish va isitish jihozlarini, avtomatika va himoya vositalarini elektr energiya bilan ta'minlaydi.

10.4. Maxsus turdag'i nasos stansiyalar

I.Jihozlangan yig'ma-blokli nasos stansiyalar. Nasos stansiyalarning qurilish muddatini qisqartirish uchun yangi turdag'i yig'ma-blokli jihozlangan nasos stansiyalar ishlab chiqilgan. Bunday stansiyalar zavoda jihozlangan alohida-alohida boks, ya'ni blok ko'rinishida tayyorlanib, qurilish maydonchasida oldidan tayyorlangan beton plita ustida yig'iladi.

Har bir boks alohida maqsad bo'yicha tayyorlanadi: 1) yordamchi asbob-uskunalar (vakuum-nasos, kompressor va h.k.) boksi; 2) ta'mirlash maydonchasi boksi; 3) asosiy agregatlar bokslari; 4) elektr uskunalarini boksi; 5) maishiy xona boksi.

Bunday stansiyalarni qo'llanishi loyiha chini ishini yengillashtiradi, loyihalash va qurilish muddatini qisqartiradi. Yig'ma-blokli jihozlangan stansiyalar suv haydashi $Q=0,1\dots10\text{ m}^3/\text{s}$ va bosimi $H \leq 120\text{ m}$ gacha bo'lgan turlari Rossiya zavodlarida ishlab chiqarilgan bo'lib, nasosning geodezik so'rish balandligi h_s musbat va h_s pastki suv sathini o'zgarishi $K_{p.s.}$ dan katta bo'lgan hollarda qo'llanishi mumkin. Bunday stansiyalar bir qavatli gorizontal valli nasoslar va elektr dvigatellar bilan jihozlangan yer ustki binosiga o'xshaydi.

II. Suvga botiriladigan nasos agregatlari bilan jihozlangan nasos stansiyalarini ish muddati qisqa va manbadagi suv sathi keng chegarada o'zgarib turadigan hollarda qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tuzilishi bo'yicha nasos va elektr dvigatel germetik (mustah-kam) qobiqqa joylashtirilib (monoblok) agregatni tashkil etadi. Agregat bosimli quvur bilan sharnir asosida bog'lanadi. Bunday agregatlarni qo'llanishi nasos qurilmasini soddalashtiradi va bino qurilishiga za'urat

bo‘lmaydi, hamda ekspluatatsiya ishlari yengillashadi. Ularni kanalning qiya qirg‘og‘iga, ho‘l bo‘linmali binoga, quduqqa va boshqa joylarga o‘rnatish mumkin. Suv botiriladigan monoblokli nasos agregatlarining ЦМПВ, ГНОМ, ОМПВ, КСБ kabi turlari ishlab chiqilgan.

Suvga botiriladigan monoblokli nasos agregatlari bilan jihozlangan nasos stansiyalar quyidagi kamchiliklarga ega:

- ОПВ turdag'i nasoslarning qobig'i (kapsulasi) ga suv kirib qolishi oqibatida elektr dvigatel va podshipniklarning tez ishdan chiqishi, ОМПВ, ВПЛ va ВМИ turdag'i nasoslarning elektr dvigatellari suv bilan to‘liq yetarli to‘ldirilmasligi;

- ishchi g‘ildiragiga axlat to‘lib, ishdan chiqishi va loyqa ta’sirida tez eyilishi;

- qobig‘ini suvga to‘lganligini nazorat qiluvchi asbobning yo‘qligi, avtomatika vositalarining ishonchli ishlamasligi va h.k.

III. Ko‘chma nasos stansiyalar tez ishga tushiriladi, qurilmani joyini tez o‘zgartirish mumkin, qurilish materiallarini tejaydi va zavodda tayyorlanganligi uchun sifati yuqori bo‘ladi.

Ko‘chma stansiyalar quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: a) yer ustki ko‘chma stansiyalar; b) suzuvchi nasos stansiyalar; v) funikulyar nasos qurilmalari.

Yer ustki ko‘chma stansiyalarining 20 xil turi ishlab chiqilgan bo‘lib, asosan gorizontal valli markazdan qochma yoki o‘qiy nasoslar bilan jihozlanadi. Nasoslarni harakatga keltirish uchun ichki yonish dvigatellari yoki elektr dvigatellar qo‘llaniladi. Ularni tuzilishi bo‘yicha СНП, СНПЭ, ПИСТ, СНХ belgidagi turlari ishlab chiqariladi. СНП turdag'i ko‘chma nasos stansiyalarning suv haydashi $Q = 0,02 \dots 0,7 \text{ m}^3/\text{s}$ va bosimi $N = 5 \dots 110 \text{ m}$ chegaralaridagi turlari mavjud. Masalan, СНП -50/80; СНП-500/10, ya’ni suv uzatishi 50 va 500 l/s, bosimi 80 va 10 m ga teng.

Osma CHH nasos stansiyalar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Ular traktor orqasiga o‘rnatilgan rama joylashtirilgan reduktornasos va so‘rish quvuridan iborat. So‘rish quvurida vakuum hosil qilish uchun u rezina quvur bilan traktorning tutin chiqarish quvuriga ejektor orqali ulanadi. So‘rish quvuri qo‘lda boshqariladigan mexanizm orqali ko‘tariladi. Bosimli quvurlari tez yig‘iladigan bo‘laklardan iborat bo‘ladi.

Xususiy dvigateli ko‘chma nasos stansiyalar ikki o‘qli aravaga o‘rnatilgan bitta yoki ikkita nasos va elektr dvigatel o‘rnatilgan holda tayyorlanadi. Ba’zi hollar traktor dvigatelidan foydalaniлади. Ikkita nasos

agregati joylashtirilgan hollarda ularni parallel yoki ketma-ket ulab ishlatish imkoniyati ko'zda tutiladi.


Funikulyar nasos stansiyalari manbadagi suv sathi o'zgarib turadigan, qирг'ог'i mustahкам ochiq havzalardan suv olishda qо'llaniladi. Nasos agregati metall aravaga о'rnatilib, maxsus lebedka yordamida qирг'oqqa о'rnatilgan relsda suv sathi o'zgarishi bo'yicha harakatga keltiriladi. Bosimli quvur rezina shlangdan tayyorlanadi. Bunday stansiyalarni ishlatish ko'п mehnat talab qiladi. Lekin ularni qurilish bahosi arzon, tez qurish va joyini hamda holatini o'zgartirish oson.

Suzuvchi nasos stansiyalar suzuvchi kemani eslatib, tryum, ya'ni ostki gidromexanik va energetik asbob-uskunalar joylashtiriladigan qismiga va paluba, ya'ni tepadagi kran о'rnatiladigan qismiga ega bo'ladi (10.21-rasm). Ularning qobig'i metall, temir-beton yoki yog'ochdan tayyorlanib, barja ponton, ya'ni yuk tashuvchi kema ko'rinishida bo'ladi. Suzuvchi nasos stansiyalarni suv sig'imi, kemaning ko'tarish kuchini va og'maslik momenti, hamda boshqa barcha hisoblash masalalari daryo registrlari qoidalari asosida bajariladi.

Nasoslarni harakatga keltirish uchun ichki yonish dvigatellari yoki elektr dvigatellardan foydalaniladi 10.21-rasmida ikkita 12HD_c nasoslari va elektr dvigatellar bilan jihozlangan suzuvchi nasos stansiya tasviri berilgan. Nasos agregatlari yig'ma temir-beton pontonning tryum (pastki) qismiga joylashtirilgan bo'lib, nasoslarga suv pontonning tubidan olinadi. Bosimli quvurlarning qирг'oqqacha bo'lган qismi po'lat materialdan bo'lib, sharnir yordamida ulanadi.

Suzuvchi nasos stansiyalar НАП, СНПЛ deb belgilanib, suv uzatishi 0,1...20 м³/s va bosimi 6...125 m gacha chegaralarda ishlab chiqariladi. Suzuvchi nasos stansiyalaridan foydalanishda uni daryoning chuqur va qирг'ог'i tik joyiga joylashtirish, katta muz parchalaridan saqlash, suvning to'lqini balandligi 0,8 m dan kam bo'lishi va qирг'oqning yuvilib ketmasligiga e'tibor berish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'chma nasos stansiyalarda uzatadigan suvning tannarxi yuqori bo'ladi, ya'ni ko'chmas nasos stansiyalarga nisbatan 2...4 baravar qimmatga tushadi. Lekin ularni zavoda tayyorlanganligi va qurilishi arzonligi, qurilish materiallari kam sarflanishi va tez ishga tushirish mumkinligi hamda ko'chirib ishlatishni osonligi kichik nasos stansiyalarida o'z samarasini beradi.




10.21-rasm. Suzuvchi nasos stansiyasi

IV. Yer osti suvlari olish nasos stansiyalari va qurilmalari. Yer osti suvi sathi 10 m dan chuqurda joylashgan hollarda suv olish uchun quvurli quduqlar yordamida transmission valli va elektr dvigateli suvgaga botiriladigan artezian nasoslari qo'llaniladi (2.13 va 2.14-rasmlar).

Har ikki holda ham yer ustki yoki yer ostki xonali nasos stansiyasi qurilishi mumkin. 10.22-rasmda ЭЦВ nasosi bilan jihozlangan yer ustki nasos stansiyasi tasviri berilgan

Bosimli quvurga vantuz, suv to'kish jumragi, teskari qopqoq va qulfaq o'rnatilgan. Quduqni chiqish joyidagi beton bilan mustahkamlangan boshcha qismiga suv sathini o'lchash moslamasi joylashtirilagan. Nasosning suv uzatishi (4) er osti bo'linmasiga o'rnatilgan diafragma (5) va unga ulangan difmonometr (13) yordamida aniqlanadi.

Nasos stansiya xonasiga mexanik uskunalardan tashqari nasos agregatini boshqarish va rele sandiqlari, yoritish va harorat 5°C dan pasayganda avtomatik ishga kiruvchi elektr isitish jixozining qutisi joylashtirilgan. Nasos stansiya xonasi rejada $3 \times 4,5$ m o'lchamda temir-beton yoki g'ishtdan quriladi. Xonani shamollatish unga o'rnatilgan tuynik-quvur orqali tabiiy amalga oshiriladi. Nasos agregatlarini ochib-berkitish va ta'mirlash uchun yuqori qismida darcha ko'zda tutilgan bo'lib, avtokran yoki uch oyoqli tallar yordamida yuklar ko'tarib olinadi.



10.22.-rasm. Suvga botirilgan ЭЦВ nasos agregati bilan jihozlangan yer ustki nasos stansiyasi:


1-bosimli quvur; 2-qulfak; 3- vantuz; 4-yer osti bo'linmasi;

5-diafragma; 6-teskari qopqoq; 7-suv chiqarish jo'mragi; 8-boshcha qismi; 9-suv sathini o'lchash moslamasi; 10-yoritgich sandig'i; 11-nasos stansiyani boshqarish sandig'i; 12-rele sandig'i; 13-difmanometr.

Elektr dvigatellarni energiya bilan ta'minlash havodagi elektr tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Yuqori quvvatli elektr dvigatellar qo'llanganda, nasos stansiya atrofiga pasaytiruvchi transformatorlar o'rnatiladi. Yer osti xonali nasos stansiyasining elementlari ham shunga o'xshash bo'ladi. Oxirgi yillarda gidropnevmatik idishlar bilan jihozlangan avtomatlashgan nasos qurilmalari xorijiy davlatlar aholi suv ta'minoti tizimlarida keng qo'llanilmoqda (10.23-rasm).

Chexiya «Sigma» firmasining suvgaga botiriladigan nasoslari bilan jihozlangan avtomatlashgan nasos qurilmasi 10.23-rasmida tasvirlangan. Nasos suv ko'tarish quvuri orqali po'lat silindr shaklidagi gidropnevmatik hajmiy idishga suv uzatib beradi. Gidropnevmatik idishdagi bosimiga bog'liq ravishda yurgizish elektr uskunalarini relesi komandasi bilan nasos avtomatik ravishda to'xtaydi va ishga tushadi. Havo zaxirasi tartibga solish uchun idishdagi havo kiritish moslamasiga havo zaxirasi rostlagichidan impuls yuboriladi.

Bunday qurilmalarni ixchamligi, ishonchliligi, samaradorligi hamda yaxshi fo'dalanish va sanitariya-gigiyena sifatlari ularni kelajakda keng qo'llash imkoniyatini beradi.



10.23-rasm. Suvga botirilgan nasos agregatli avtomatlashgan nasos stansiya:

1-nasos agregati; 2-suv ko'tarish quvuri; 3-havo kiritish moslamasi; 4-yuritgich elektr uskunasi; 5-bosim relesi; 6- gidropnevmatik hajmiy idish; 7-suv o'chash pezometri; 8-suv olish quvuri; 9-qalqovuchli havo zaxirasi rostlagichi; 10-suv keltirish quvuri qufgagi.

Nazorat savollari

1. Ko'chmas nasos stansiyalar binolari qanday turlaga bo'linadi?
2. Blokli va yer ustki binolarining qo'llanilish shartlarini aytib bering.
3. Bo'linmali binolar qanday omillar asosida qabul qilinadi?
4. Blokli binolarda suv keltirish quvurlari qanday materialdan tayyorlanadi?
5. Blokli va bo'linmali turdag'i binolar bir-biridan nimasi bilan farq qilishini ko'rsatib bering.
6. Bo'linmali turdag'i binoning pastki qavati balandligi qanday aniqlanadi va qaysi hollarda uning qiymati binoning uzunligiga ta'sir etadi?

7. Binolarning yuqori (yer ustki) qavati tuzilishi qanday bo‘ladi va uning o‘lchamlari nimalarga bog‘liq?
8. Maxsus nasos stansiyalarning turlarini aytib bering.
9. Ko‘chma nasos stansiyalar qachon qo‘llanadi?
10. Quvurli quduqlardan suv olish nasos stansiyalarining elementlari tarkibini tushuntirib bering.

11 - bob. NASOS STANSIYALARINING SUV OLISH VA QABUL QILISH INSHOOTLARI

11.1. Suv olish inshootlarining turlari va ularga qo‘yiladigan talablar

Suv olish inshooti gidrobo‘g‘inning bosh inshooti bo‘lib, quyidagi talablarga javob berishi zarur: a) suv iste’moli grafigi asosida me’yoriy miqdordagi suv sarfini olishi; b) inshootlarga suv oqindilari (loy, qum), suzuvchi jismlar, suv o’tlari, muz parchalari va baliqlarni kirishiga yo‘l qo‘ymasligi; d) ta’mirlash, tozalash va halokatli favqulodda holatlarda nasos stansiyaga manbadagi suvni kiritmaslikni ta’minlashi; e) suv manbasidan mukammal foydalanish (kema suzishi, yog‘och oqizish, baliq boqish) va h.k. ga. imkon berishi.

Suv olish inshootlarining tasviri, tuzilishi va ayrim elementlarni joylashishini bir nechta variantlarni texnik - iqtisodiy jihatdan taqqoslab tanlanadi. Bunday hisoblarda quyidagi omillarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- joyning tabiiy sharoiti (relyefi, obi-havosi, geologik va gidrogeologik ko‘rsatkichlari);
- suv manbasining ish tartibi va gidrologik xususiyatlari;
- manbadan kelajakda mukammal foydalanish shartlari (ya’ni kema suzish, yog‘och oqizish, baliqchilik xo‘jaligi tashkil etish, GES qurilishi va h.k.);
- inshootning sinfi, toifasi va undan maqsadli foydalanish;
- inshootning xizmat muddati va unga o‘xshash inshootlardan foydalanish tajribasi.

Suv olish inshootlarini quyidagi belgilari bo‘yicha turlarga bo‘lish mumkin:

1. Suv olish inshootidan maqsadli foydalanish bo‘yicha: sug‘orish, quritish va suv ta’minoti nasos stansiyalarining suv olish inshootlari.
2. Suv manbasi turi bo‘yicha: daryodagi, ko‘ldagi, suv omborida va kanaldagi inshootlar.
3. Suv manbasiga nisbatan joylashishi bo‘yicha: o‘zanga, qirg‘oqqa va «kovsh»ga joylashgan inshootlar.

4. Suv sathiga nisbatan: cho'ktirilgan, suv bosadigan va vaqtincha suv bosadigan inshootlar.

5. Nasos stansiya binosiga nisbatan joylashishi bo'yicha: alohida va birikkan inshootlar.


6. Tuzilishi bo'yicha: turg'un, ko'chma, suzuvchi inshootlar.

7. Ishlash davri bo'yicha: doimiy ishlaydigan va mavsumiy ishlaydigan inshootlar.

8. Suvning oqimini tartibga solish bo'yicha: to'g'onli va to'g'onsiz inshootlar deb nomlanadi.

Suv olish inshootlarining manbaga nisbatan joylashish variantlari

11.1 - rasmda keltirilgan. Masalan, a - shaklda qirg'oqdagi, b - shaklda o'zandagi, c va g shakkarda kovshga joylashgan yuzadan va tubidan suv oluvchi, e - shaklda to'g'onsiz, f - shaklda to'g'onli suv olish inshootlari tasvirlangan.



11.1 - rasm. Suv olish inshooti turlari:

1 - nasos stansiya bilan birikkan qirg'oqdagi inshoot; 2 - o'zandagi suv olish inshooti; 3 - nasos stansiya binosi bilan birikkan qirg'oq qudug'i, 4 - suv qabul qiluvchi kovsh; 5 - ostonalni yonboshdan suv qabul qiluvchi inshoot; 6 - to'g'onning tubidan tashlamasi; 7 - bo'luvchi ustun; 8 - to'suvchi to'g'on.

Suv manbasi daryo, suv ombori, ko'l yoki kanalligini e'tiborga olgan holda bu suv olish inshootlari turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

11.2. Daryolardagi va suv omborlaridagi suv olish inshootlari

Daryolardagi suv olish inshootlarining tuzilishi, tarkibi, joylashish o'rni va o'lchamlari ko'p jihatdan daryoning gidrologik holatiga, qirg'oq va o'zanidagi gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlariغا, suvning sifati, o'zanning shakli va turg'unlik darajasiga hamda olinadigan suv sarfiga bog'liq bo'ladi.

Tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda nasos stansiya bilan suv olish inshootini mujassamlashda har xil variantlar bo'lishi mumkin ya'ni qirg'oqdagi yoki o'zandagi birikkan yoki alohida joylashgan inshootlar qurilishi mumkin. Daryodagi suv olish inshooti bilan stansiya binosini mujassamlash shartlari 11.1 - jadvalda keltirilgan.

Daryodan suv olish inshootlarini loyihalashda quyidagilar e'tiborga olinadi:

a) inshoot cho'kmasligi uchun geologik jihatdan ishonchli joyni tanlash zarur;

b) inshootni daryo qirg'og'ining to'g'ri chiziqli qismiga yoki qirg'og'ining botiq tomoniga, egilish yoyining pastki 1/3 qismiga joylashtiriladi;

d) inshootni qirg'oqqa joylashtirishning iloji bo'lgagan holda daryoning o'zaniga quriladi, lekin daryo jonli kesim yuzini qisilishi 15...20% dan ortib ketmasligi zarur;

e) daryodagi suv sathi minimal qiymatga teng bo'lgan davrda nasos stansianing maksimal suv haydashi daryoni minimal suv sarfini 25 foizidan ortmasligi kerak. Agar ushbu shart bajarilmasa, daryoga oqimni boshqarish to'g'oni qurilishi talab etiladi;

f) suv sathi keng chegarada o'zgarib turuvchi loyqa miqdori ko'p bo'lgan daryolardan suv olishda darchalari har xil balandlikka joylashtiriladigan inshootlar qurilishi lozim.


Suv olish inshooti ta'mirlash va foydalanish darvozalari, suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi, tozalash va yuk ko'tarish uskunlari, baliq himoyalash qurilmasi, xizmat ko'prikhalarini va h.k. bilan jihozlanadi. Suv ta'minoti maqsadlari uchun suv olinsa, mayda sim to'r o'rnatilib, yuvib, tozalab turish zarur bo'ladi. Inshootlarga o'rnatiladigan darvozalar va suzuvchi jismlarni to'sish panjaralari haqidagi ma'lumotlar 9 - bobning 9.3 - mavzusida bayon etilgan.

Daryodan suv olish inshooti bilan stansiya binosini mujassamlash shartlari

Manbaning tabiiy sharoiti	Qirg‘oqdagi inshootlarni mujassamlash shartlari	O‘zandagi inshootlarni mujassamlash shartlari
qirg‘oq holati	qiya	a) har qanday bo‘lganda-birikkan inshoot; b) yotiq bo‘lganda-alohida inshoot
zaruriy chuqurlik	qirg‘oqda etarli	qirg‘oqdan uzoqda
manbadagi suv sathining o‘zgarishi	a) 10 m gacha-alohida inshoot, b) 10 m dan ortiq bo‘lsa, birikkan inshoot	a) 10...20 m bo‘lganda-birikkan inshoot; b) har qanday bo‘lganda alohida inshoot
suv bosadigan qayir	a) 300 m dan kam bo‘lganda-birikkan inshoot; b) 300 m dan ortiq bo‘lganda-alohida inshoot	har qanday
qirg‘oqdagi zamin tuprog‘i	cho‘kmaydigan	har qanday

Qirg‘oqdagi suv olish inshooti daryodagi suv sathining o‘zgarishi 10 m gacha, qirg‘oq qiya, suvning chuqurligi qirg‘oqda yetarli va zamin tuprog‘i cho‘kmaydigan hamda qirg‘oq yuvilmaydigan va turg‘un bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Agar so‘rish balandligi musbat qiymatga ega bo‘lgan gorizontal valli markazdan kochma nasoslar qo‘llansa, suv olish inshooti binodan alohida joylashtiriladi (8.4-rasm). So‘rish balandligi manfiy qiymatga ega bo‘lgan nasoslar qo‘llanganda, bino va suv olish inshootlarining poydevorlari sathlari teng qabul qilinib, birikkan shakldagi qirg‘oq suv olish inshootlari qo‘llanishi mumkin (8.3 va 10.10-rasmlar).

Qirg‘oqdagi suv olish inshooti ko‘p hollarda qirg‘oq qudug‘i deb nomladi. Qirg‘oq qudug‘iga suv turli balandliklarga joylashtirilgan darchalardan kiradi (11.2 - rasm).



11.2-rasm. Qirg'oqdagi binodan alohida joylashtirilgan suv olish inshooti:

a-nasosni geodezik so'rish balandligiga musbat holda; b-nasosni geodezik so'rish balandligi manfiy holda.

Darchalar suzuvchi jismlarni to'suvchi panjara va yassi kichik o'lchamdagи darvozalar bilan jihozlanadi. Suv ta'minoti tizimlari uchun mo'ljallangan qirg'oq qudug'i uzunligi bo'yicha ikki qismga ajratilib, o'rtasiga aylanib harakatlanuvchi mayda sim turlar o'rnatiladi va doimiy yuvilib, tozalab turiladi (8.9 - rasm). Daryo tubida harakatlanuvchi yirik shag'al va qum zarralarini quduqqa kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida pastki darcha eng kami 0,5 m ostona ustiga joylashtiriladi. Darchaning minimal suv sathiga botirilishi 0,5 m va quduq poydevorining qalinligi daryo tubini yuvilishini e'tiborga olib, eng kami 2 m qabul qilinadi. Asosdagи tuproqlar mustahkamligi past bo'lgan hollarda poydevor perimetri bo'yicha shpuntli to'siqlar joylashtiriladi va inshoot atrofi temir-beton plitilar yoki xarsang tosh bilan mahkamlanadi.

Yuqoridaqи darchaga muz va suzuvchi jismlar kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, maksimal suv sathidan $2/3 K_{p,b}$ pastga joylashtiriladi. ($K_{p,b}$ - pastki be`fedagi suv sathini o'zgarish balandligi). Darchaning kesim yuzasini aniqlashda undagi oqim tengligini $0,5...0,7$ m/s qabul qilib, uni ifloslanish va panjara o'zaklari hisobiga $25...30\%$ yuzasini qisilishini e'tiborga olish lozim.

Suv olish inshootining umumiyligi: tashqi va ichki o'chamlari bo'yicha aniqlanadi (11.2 - rasm):

$$h = h_{noy} + p + h_{dar} + h_3 + K_{PB} + h_o ; \quad (11.1)$$

$$\text{yoki} \quad h' = h_{poy} + h_I + h_2 + K_{PB} + h_o ; \quad (11.2)$$

bu yerda, h_{poy} – poydevorning qalinligi; statik hisoblar asosida aniqlanadi (yerning muzlash darajasi va daryo tubining yuvilishini e'tiborga olib, 2 m dan ortiq qabul qilinadi); p – ostonaning balandligi (0,5...1,5 m); h_3 – pastki darchani minimal suv sathidan botirilishi; K_{PB} – manbadagi suv sathining o'zgarish balandligi; h_o – maksimal suv sathiga nisbatan inshootning balandligiga qo'shiladigan zaxira (0,5...1 m); h_{dar} – darchanining balandligi; h_I – bo'linma tubidan quvurning kirish qismigacha balandlik; h_2 – quvurning kirish qismini minimal suv sathiga botirilishi.

So'rish quvurini bo'linmaga o'rnatishdagi h_I va h_2 balandliklarni gidravlik qarshiliklarini kamaytirish va suv uyurmalarini (girdob) hosil bo'lmaslik shartlari asosida quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi:

$$h_I = (0,8 \dots 1) D_{kir} \quad \text{va} \quad h_2 = (1 \dots 2) D_{kir} \geq 0,5 \text{ m}, \quad (11.3)$$

bu yerda, D_{kir} – so'rish quvurining kirish qismi diametri; uning qiymati kirishdagi oqim tezligini 0,8...1 m/s qabul qilib aniqlanadi.

Yuqorida (11.2) va (11.3) formulalar bilan inshootni balandligini aniqlashda bo'linmada suv uyurmalarini hosil bo'lishi va so'rish quvuriga havo so'rilishini oldini olish uchun quyidagi shart bajarilishiga e'tibor berish zarur:

$$h_I + h_2 \geq p + h_{dar} + h_3 \quad (11.4)$$

Qirg'oq qudug'i temir - betondan rejada to'rtburchak yoki doira shaklida tayyorlanadi. Ta'mirlash va tozalash davrida uzuksiz ishlashini ta'minlash uchun qirg'oq qudug'i so'rish quvurlari soniga teng bo'linmalarga bo'linadi. Har bir bo'linmaga kirish qismi diametri D_{kir} teng bo'lgan so'rish quvurlari o'rnatiladi. Bo'linmaning eni $V_{bo'l} = (2 \dots 2,5) \cdot D_{kir}$ qabul qilinib, uning minimal uzunligi $L_{bo'l}$ quyidagi ifoda bilan aniqlanadi (11.2-rasm):

$$L_{bo'l} \geq \frac{Q_x t}{B_{bo'l}(h_1 + h_2)} \geq 3D_{kr} , \quad (11.5)$$

bu yerda Q_x – har bir nasosning hisobiy suv uzatishi, m^3/s ; t - bo'linmadagi suv sathi minimal holatdagi suv almashish vaqt (t = 15...20 s).

Manbadan suv olish qiyin bo'lgan (loyqa va muz parchalari ko'p oqadigan) hollarda qirg'oq suv olish inshootlari «kovsh» ko'rinishidagi qo'lliqqa joylashtirilishi mumkin (11.1, d,e - rasm). Suvda loyqa miqdori ko'p bo'lganda, yuqori qatlardan suv oluvchi (11.1, d- rasm) va muz parchalari ko'p oqadigan hollarda, pastki qatlardan suv oluvchi (11.1,e - rasm) kovshlar qo'llanadi.

Qirg'oqdagagi nasos stansiya binosi bilan birikkan suv olish inshootlari asosan nasoslarni suv uzatishi katta bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bu holda bino va suv qabul qilish inshooti tublari bir xil sathga o'rnatilib, umumiy devorga ega bo'ladi.


Bo'linmali va blokli binolarning suv qabul qilish qurilmasi tuzilishi asosiy nasoslarning suv uzatishi va suv sathining o'zgarishi, hamda suvning sifatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, manbadagi suv sahini o'zgarishi 2,5 m gacha bo'lganda, qiya panjaralari, qo'lda tozalanadigan va vintli yuk ko'targich o'rnatiladigan oddiy suv qabul qilish qurilmalari qo'llash tavsiya etiladi (11.3, a - rasm). Suv uzatishi 4 m^3/s gacha bo'lgan nasos stansiyalarda oyoqlik yuk ko'tarish kraniga o'rnatilgan mexanik panshaha bilan panjaralari tozalanadigan, bir o'yilma ustunli inshoot (11.3, b - rasm), suv uzatishi 4 m^3/s katta bo'lgan nasos stansiyalarda darvoza va panjara uchun alohida ikki qator o'yilmali inshoot (11.3, d - rasm) yoki o'yilmasiz panjaralari suyanib turuvchi, panjara tozalash mashinasi bilan jihozlangan suv qabul inshootlari (11.3,e,f - rasm) qo'llanishi mumkin.

Suvda ko'p miqdorda suzuvchi jismlar (qurigan xashak va daraxt shoxlari) oqib keladigan manbalarda sifonli suv qabul qilish inshooti qo'llash tavsiya etiladi.

Katta nasoslar o'rnatiladigan blokli binolarda suv uyurmalarini (girdob) hosil bo'lishiga qarshi quvurni minimal suv sathiga botirilishi S ni aniqlash uchun (11.4-rasm) quyidagi empirik formuladan foydalilaniladi [8]:

$$S = 0,75 V_c \sqrt{h_c} - a \quad (11.6)$$


bu yerda, V_c – quvurning qisilgan tirsak oldi kesimidagi oqim tezligi; h_c – quvurning qisilgan kesimi balandligi; a – quvurning kirish qismidagi yuqori sathi va qisilgan qismi sathi orasidagi balandlik.



11.3 - rasm. Nasos stansiya binosi bilan birikkan suv qabul qilish qurilmasining turli shakllari:


- 1 - suv manbasi;
- 2 - suzuvchi jismalarni to'sish panjarasiz;
- 3 - yo'naltiruvchi devorcha; 4 va 13 - darvoza va panjara o'matish o'yimalari;
- 5 - nasosni so'rish quvuri;
- 6 - vintli yuk ko'targich;
- 7 - mashina zali;
- 8 - axlat tashish aravachasi;
- 9 - oyoqli yuk ko'tarish krani;
- 10 - panjara tozalash mashinasi;
- 11 - mah kamlash to'sini;
- 12 - darvozalarni saqlash joyi.

Suv qabul qilish bo'linmalaridagi loyqa cho'kindilarni nasos stansiya binosi ichiga o'rnatilgan NF turdag'i fekal nasoslar yoki ejektor yordamida chiqarib tashlanadi. O'zandagi suv olish inshootlari daryo o'zanida joylashgan suv qabul qilish qurilmasi, berk suv keltirish quvurlari va qirg'oq qudug'idan iborat bo'ladi (11.4-rasm). So'rish balandligi manfiy bo'lgan nasoslar o'rnatiladigan nasos stansiya binolari qirg'oq qudug'i bilan birikkan holda quriladi.



11.4-rasm. Suv keltirish quvurini minimal suv sathiga nisbatan botirilish chuqurligini aniqlash tasviri.


O‘zandagi suv olish inshootlarining tuzilishi va ulardan foydalanish qirg‘oqdagi inshootlarga nisbatan ancha murakkabdir. Chunki suv kirish qismini kuzatib turish qiyin, suv keltirish quvurlarida ko‘p loyqa cho‘kadi, kirish kismidagi panjara tez ifloslanadi. Shuning uchun ularni kichik va o‘rtacha nasos stansiyalarida, qirg‘oq qiyaligi yotiq ($M \leq 1:10$) va qirg‘oq suv olish inshootini qurilishi iloji bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi.



11.5 - rasm. Alovida quriladigan o‘zandagi suv olish inshoti tasviri:
1 – daryo; 2 - suv qabul qilish qurilmasi; 3 - o‘zi oqar quvur; 4 - qirg‘oq qudug‘i; 5 - so‘rish quvuri; 6 - nasos stansiya binosi.

Suv qabul qilish qurilmasi qirg‘oqdagi inshootlardan (qirg‘oq qudug‘i va nasos stansiyasi binosidan) alovida daryo e‘zanida qurilganda, o‘zandagi alovida inshoot deyiladi (11.5 - rasm). Agar suv qabul qilish qurilmasi stansiya binosi bilan birga o‘zanga joylashtirilsa, o‘zandagi birikkan inshoot deyiladi (8.5 - rasm). Bu holda o‘zi oqar quvurlar va qirg‘oq qudug‘i qurishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Lekin bunday inshoot qurilish bahosi qimmat va foydalanish murakkab bo‘lganligi sababli juda kam qo‘llaniladi. Suv qabul qilish qurilmasi daryo o‘zanidan suv olish inshootlarining asosiy elementi hisoblanadi. Uning


tuzilishi va joylashishi nasos stansiyaga ishonchli suv olishni belgilab beradi. Suv sathiga nisbatan ularni cho'ktirilgan, suv bosadigan va suv bosmaydigan turlarga bo'lish mumkin.



11.6 - rasm. Cho'ktirilgan tirkishli suv qabul qilish qurilmalari:
1 - panjarasiz tirkishsimon teshiklar; 2 - qo'shni qurilma;
3 - ayvonchani oxiri; 4 - ko'tarib turuvchi tirkak; 5 - ayvoncha.

Suv qabul qilish qurilmalarini xil konstruksiyalari ishlab chiqilgan. Ular to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar maxsus adabiyotda berilgan [4]. Katta suv sarfini olishda asosan suvgaga cho'ktirilgan tirkishli (11.6 - rasm) va uyurma bo'linmali (11.7-rasm) qurilmalar bir qator avfzalliliklarga ega. Har ikki turdag'i qurilmalar tuzilishi sodda va kirishdag'i panjarada tezliklilar teng taqsimlangan. Tirkishli o'zandagi suv qabul qilish qurilmasi (11.6 - rasm) biror tirkakka mahkamlangan o'zgaruvchan kesim yuzali tirkishga ega bo'lgan temir - beton to'rburchak yoki yumaloq quvur bo'lib, o'zi oqar quvurchaga tirkish yuzasi qisqarib boradi. Mayda baliqlarni so'rib ketmasligi uchun kirish qismidagi oqim tezligi $0,1\ldots0,15$ m/s qabul qilinadi. Bunday inshootlarning har bir seksiyasi $30\text{ m}^3/\text{s}$ suv olishga mo'ljallab quriladi.

Uyurma bo'linmali qurilmalar (11.7 - rasm) $2\text{ m}^3/\text{s}$ dan katta suv sarfi olishda qo'llaniladi. Suv qabul qilish darchasi o'zgaruvchan kesim yuzali kollektor o'qiga nisbatan nosimmetrik joylashtiriladi. Shuning uchun kollektordagi oqim aylanma harakatga ega bo'ladi. Oqimni gidravlik xarakteristikasini yaxshilash uchun kollektor tubi qiya joylashtiriladi. Uyurmali bo'linma uzunligini eniga nisbatan 5...8 marta ortiq qabul qilinadi.



11.7 - rasm. Uyurma bo'linmali ochiq turdag'i suv qabul qilish qurilmasi:

1 - suv qabul qilish darchasi; 2 - o'zi oqar quvurlar; 3 - temir - beton plita; 4 - suv ostida beton quyish uchun darchalar.

Suv bosadigan suv olish qurilmalari tuzilishi bo'yicha cho'ktirilgan qurilmalarga o'xshaydi. Suv sathi minimal bo'lgan holda ularni suvdan chiqib turishini kuzatish, panjaralarni tozalash va baliq himoyalash qurilmalarini almashtirish kabi ishlarni bajarish imkoniyatini beradi.

Suv bosmaydigan suv olish qurilmalaridan foydalananancha qulay va ishonchli suv olishni ta'minlaydi. Lekin daryo o'zaniga joylashgani uchun qurilish bahosi qimmat bo'ladi. Shu sababli bunday qurilmalar inshootni qirg'oqqa o'rnatishni iloji bo'limgan hollarda qo'llaniladi.

Suv omborlaridagi suv olish inshootlari ko'p jihatlari bilan daryodagi inshootlarga o'xshab ketadi. Suv omboridan suv olishda quyidagi qiyinchilik tug'diruvchi holatlarni e'tiborga olish zarur ya'ni to'lqin ta'sirida inshootni buzilishi, qirg'oq chizig'ini o'zgarib turishi, daryordan oqib keladigan va qirg'oq yuvilishidan hosil bo'ladigan loyqani cho'kishi, suvni sovib ketishi va muz parchalarini hosil bo'lishi, suv o'tlari va suv hayvonlarini tez ko'payishi va h.k. Suv ta'minoti maqsadida quriladigan suv olish inshooti suv omborining o'rtaga va pastki to'g'on oldi zonasiga o'rnatilib, o'zandagi alohida cho'ktirilgan inshoot shaklida quriladi va qirg'oq qudug'i nasos stansiya binosi bilan birikkan yoki alohida holda joylashtirildi. Qirg'oqqa joylashtiriladigan suv olish inshootlariga suv keltirish kanali orqali uzatiladi.

Sug'oriladigan maydonni joylashishi va tabiiy sharoitdan kelib chiqib, nasos stansiya binosini suv omborining yuqori yoki pastki besiga yoki to'g'on ichiga joylashtirish tasvirlari taqqoslanib, iqtisodiy hisoblar bilan asoslanadi.

11.3. Suv keltirish inshootlari

O'zi oqar quvurlar. Manbaga joylashgan suv olish qurilmalaridan qirg'oqqa svnvi berk va ochiq suv keltirish inshootlari yordamida uzatiladi. Ochiq kanallar qo'llashni iloji bo'limgan hollarda (daryo qayiri keng, suv bosadigan va o'zani yengil gruntlardan iborat bo'lsa) ya'ni suv sathi birdaniga tez o'zgarishida qirg'og'i yemirilishi va suv toshganda kanal loyqaga to'lib qolishi mumkin bo'lgan hollarda berk quvurlar quriladi. Ular o'zi oqar yoki sifon shaklida bo'lishi mumkin. O'zi oqar quvurlar po'lat yoki temir-betondan tayyorlanib, suv harakati bo'yicha 0,005 nishoblikda, daryo tagidan 0,5 m chuqurlikda yotqiziladi. Quvurlarning kesim yuzasi yumaloq to'rtburchak yoki oval shaklida bo'lishi mumkin. Quvurlarning kesim yuzasini aniqlashda undagi oqimning hisobi tezligini 1...2 m/s qabul qilinadi, ya'ni quvurda loyqa cho'kmasligi va gidravlik qarshiligi oz bo'lishini e'tiborga olinadi.

O'zi oqar quvurlar davriy ravishda teskarri yoki to'g'ri oqim bilan yuvib turiladi, chunki suv sarfi kam bo'lgan yoki quvur ishlamaydigan davrlarda bir qism qum zarrachalari quvurda cho'kib qoladi. Oxiri davrlarda vakuum hosil qiluvchi qurilmalar yordamida impulsli bosim hosil qilish usuli bilan quvurlarni yuvish keng qo'llanilmoqda.

Ochiq suv keltirish kanallari iqtisodiy jihatdan qulay, bosimli quvurlarning uzunligini qisqartirishni va nasos stansiya ish tartibini buzmagan holda loyqadan tozalashni imkoniyati bor, manbadagi suv sathini o'zgarishi kichik chegarada va uning qirg'og'i mustahkam bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ular o'zi boshqariladigan va o'zi boshqarilmaydigan bo'lishi mumkin.

O'zi boshqarilmaydigan kanallarning suv sarfi va suv sathi uning bosh qismiga qurilgan suv olish inshooti darvozalari bilan tartibga solib turiladi. Kanalning oxirgi nasos stansiya oldidagi qismida halokatli holat tashlamasi ko'zda tutilishi zarur.

O'zi boshqariladigan kanaldagi suv sathi manbadagi suv sathiga va nasos stansiyaning ish tartibiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Nasos stansiya to'xtatilgan davrda manbadagi va kanalda suv sathlari teng bo'ladi. Chunki bunday kanallarni bosh qismida suv olish inshooti

qurilmaydi. O'zi boshqarilmaydigan kanalda uni bosh qismiga suv olish inshooti quriladi va nasos stansiya binosining balandligi ancha past bo'ladi. O'zi boshqarladigan kanalda suv olish inshooti qurilmaydi, lekin nasos stansiya uchun ancha baland bino qurishga to'g'ri keladi. Shuning uchun qaysi turdag'i kanalni qo'llash variantlarni iqtisodiy taqqoslab tanlanadi.

Ko'p hollarda o'zi boshqariladigan kanal qabul qilinib, undan tindirgich sifatida ham foydalilanadi. Quritish nasos stansiyalarida suv keltirish kanali suv to'plovchi havza sifati quriladi. Kanalning uzunligi nasos stansiya binosini joyini tanlash bo'yicha bajariladigan texnik-iqtisodiy hisoblar asosida aniqlanadi.

Kanalning kesim yuzasi ko'p hollarda trapesiya shaklida qabul qilinib, uning o'lchamlari odatdag'i gidravlik hisoblar bilan qurilish me'yorlari va qoidalari asosida topiladi. Gruntli kanalning gidravlik elementlari yuvilmaslik va loyqa cho'kmaslik shartlariga tekshirib ko'rish zarur. Kanalning kesim yuzasini kichraytirish va filtratsiya suvlarini kamaytirish maqsadida turli qoplamlardan foydalanish mumkin.

11.4. Kanallardagi suv olish inshootlari

Suv olish inshootlari kanallarga ikki xil shaklda joylashtirilishi mumkin: a) oxiri berk kanaldagi inshoot (11.8, a - rasm); b) kanalning yonidan suv oluvchi inshoot (11.8,b - rasm). Oxiri berk kanaldagi suv olish inshooti avankamera va suv qabul qilish qurilmasidan iborat bo'ladi.


Suv qabul qilish qurilmasi nasos stansiya binosining tuzilishi va nasoslarning so'rish balandligiga bog'liq ravishda binodan alohida (8.6,a,b va 11.8 - rasmlar) yoki birikkan (8.6, v,g va 11.3 - rasmlar) shaklda quriladi: Nasos stansiya binosidan alohida joylashtirilgan suv qabul qilish qurilmasi asosan gorizontal valli markazdan qochma nasoslar bilan jihozlangan nasos stansiyalarda qo'llaniladi. Bu holda avankamerani eni va suv qabul qilish qurilmasining umumiyligi uzunligi qisqaradi, hamda binoni poydevorini yuqoriyoq o'rnatish imkoniyatini yaratiladi; so'rish quvurlari uzun bo'lib, burchak ostida bo'linmalarga bog'lanadi (11.8 - rasm).

Bino bilan birikkan suv qabul qilish qurilmalari asosan vertikal valli nasoslar o'rnatiladigan blokli yoki bo'linmali binolarda qo'llanadi. Bu holda bino pastki qismi va suv qabul qilish bo'linmalarini balandliklari

bir-biriga mos tushadi hamda bo'linma va suv keltirish quvurining eni teng qabul qilinadi (10.17 - rasm). Suv qabul qilish qurilmasi ustunlar bilan bo'linmalarga ajratilib, ulardan nasoslarning so'rish quvurlari orqali suv olinadi.

Suv uzatishi $0,3 \text{ m}^3/\text{s}$ va undan katta bo'lgan nasoslardan qo'l langanda, bo'linmalar soni nasoslarning so'rish quvurlari soni teng qabul qilinadi. Suv uzatishi $0,3 \text{ m}^3/\text{s}$ gacha bo'lgan kichik nasoslarning so'rish quvurlari kovsh shaklidagi umumiy bo'linmaga joylashtiriladi. (11, 8, d, e- rasmlar) . Nasoslarni ishonchli ishlashi va so'rish tarmog'ida gidravlik qarshiliklarini oz bo'lishi suv qabul qilish bo'linmasining o'chamlariga va so'rish quvurining kirish qismini unga to'g'ri joylashtirishga bog'liq bo'ladi.

Britaniyaning gidromexanik tadqiqotlar assotsiatsiyasi tavsiyalari bo'yicha so'rish quvurlarini suv qabul qilish bo'linmalariga joylashtirish shakllari 11.9 - rasmda keltirilgan.




11.8 - rasm. Ochiq turdag'i suv olish inshooti:

- a - nasosning geodezik so'rish balandligi musbat bo'lgan holda;
- b - nasosning geodezik so'rish balandligi manfiy bo'lgan holda.

11.9-rasmda keltirilgan suv qabul qilish bo'linmalarining o'chamlarini Rossiya olimlari tavsiyalari bilan solishtirilsa, ular o'rtasidagi ancha farq borligini va bu sohada qattiy me'yorlar to'la ishlab

chiqarilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun katta nasos stansiyalarini loyihalashda ularni suv qabul qilish bo'linmalarining maqbul shakli va o'lchamlari laboratoriyada o'tkazilgan kichik andozasi sinovi natijalarini asosida qabul qilinadi.

So'rish quvurlarini alohida va umumiy bo'linmaga turli holatlarda to'g'ri va noto'g'ri joylashtirish shakllari 11.10 - rasmida berilgan.




11.9- rasm. So'rish quvurlarini suv qabul qilish bo'linmalariga joylashtirish (Britaniya gidromexanik tadqiqotlari assotsiatsiyasi tavsiyalari bo'yicha):

a - alohida bo'linmaga joylashtirish; b - umumiy bo'linmaga joylashtirish.

Gidravlik qarshiliklarni kamaytirish maqsadida so'rish quvurining kirish qismi diametri D_k quvurning diametri d dan kattaroq qabul qilinadi. Bu holda kirish qismidagi suvning tezligi $0,8 \dots 1 \text{ m/s}$ ni tashkil etadi. So'rish quvurining ichki qismidagi konusning torayishi burchagi $8 \dots 16^\circ$ qabul qilinsa, uning uzunligi $l_k = (3,5 \dots 7) \cdot (D_k - d)$ ga teng

bo‘ladi (11.8 - rasm). Suv qabul qilish bo‘linmalari o‘lchamlarini so‘rish quvurining kirish qismi diametriga bog‘liq ravishda aniqlanadi. Bo‘linmani eni ($1,5\dots 2$) D_k , tubidan quvur og‘zigacha balandlik $h_1=0,8\cdot D_k$, quvur og‘zini suvgaga botirilish chuqurligi $h_2=(0,6\dots 1)\cdot D_k \geq 0,5$ m qabul qilinadi. Umumiy bo‘linmaga o‘rnatilgan quvurlar o‘qlari orasidagi masofa $3D_k$ dan kam bo‘lmasiligi zarur (11.8, d,e - rasm).



11.10 - rasm. So‘rish quvurlarini suv qabul qilish bo‘linmasiga to‘g‘ri (a,b) va noto‘g‘ri (v) joylashtirish shakllari:
1,2 - tavsiya etiladi; 3 - tavsiya etilmaydi.

Bo‘linmaning minimal uzunligi (11.5) formula bilan topiladi, lekin uning haqiqiy uzunligini aniqlashda so‘rish quvurining bosh qismi, xizmat ko‘prikchalarini, to‘sish va ta’mirlash darvozalari uchun o‘yilmalar, suzuvchi jismilarni to‘suvchi panjara va uni tozalash mashinasi, hamda yuk ko‘tarish mehanizmining o‘lchamlarini e’tiborga olish lozim.

Blokli binolarning suv qabul qilish bo'linmasi eni suv keltirish quvuri eniga teng $B_{tr} = B_{bo'l}$ (11.10 - rasm) va quvur og'zini minimal suv sathiga botirilish chuqurligi S (11.6) formula bo'yicha aniqlanadi (11.0 - rasm).

Suv qabul qilish qurilmasining umumiy uzunligi


$$B=B_{bo'l} n + \delta_{ust} (n - 1), \quad (11.7)$$

bu yerda, n – bo'linmalar soni; δ_{ust} – bo'luvchi devorning qalinligi (11.10 - rasm), (0,6...1 m) qabul qilinadi.

Suv qabul qilish bo'linmalari suzuvchi jismlarni to'sish panjarasi va yassi ta'mirlash darvozalari bilan jihozlanadi (11.3-rasm). Darvozalar maxsus o'yimalarga o'rnatiladi. Panjaralar vertikal yoki $70\dots80^\circ$ li burchak ostida o'rnatilishi mumkin. Qiya joylashgan panjaralar relsda harakatlanuvchi maxsus RN turdag'i mashina yordamida tozalab turiladi. Vertikal o'rnatilgan panjaralar oyoqli yuk ko'tarish kraniga osilgan maxsus moslama yoki harakatlanuvchi RV turdag'i mashina bilan tozalanadi. Panjara va darvozalarga xizmat ko'rsatish uchun sharoitga qarab turli yuk ko'tarish mexanizmlarini qo'llash mumkin (11.3 - rasm).

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo sharoitida foydalani layotgan nasos stansiyalarda suv qabul qilish bo'linmalaridagi suvning tezligi kichik bo'lganligi uchun suv tarkibida loyqa va qum zarrachalari cho'kib qolishi oqibatida bo'linmaning kesim yuzasi qisqaradi va so'rish quvuriga kirishdagi gidravlik qarshiliklar ortadi. Bundan tashqari quvurga suv oqimning yuza qismidan so'riliishi sababli bo'linmada havo uyurmalar (girdob) hosil bo'ladi. Oqibatda bu nasosning suv uzatishini kamayishiga va kavitations xususiyatlarini yomonlashuviga olib keladi [20,22].

Suv qabul qilish bo'linmasini gidravlik qarshiligidni kamaytirish va so'rish quvuri atrofida loyqa cho'kishini oldini olish maqsadida bo'linmaning oqim yo'naltiruvchi devorchali konstruksiyasi sinab ko'rilib, ishlab chiqarishga tavsiya etilgan (11.11-rasm). Oqim yo'naltiruvchi devorchali suv olish bo'linmasida suvning tezligi teng taqsimlanganligi, suv kichik burchak ostida kirishi va uning atrofida loyqa cho'kmasligi hisobiga odatdag'i bo'linmaga nisbatan 24HD_c nasoslarining suv uzatishi 40 l/s ortishi tajribalar bilan tasdiqlangan.



11.11 - rasm. Oqim yo'naltiruvchi devorchali suv qabul qilish bo'linmasi:

1 - suv qabul qilish bo'linmasi; 2 - so'rish quvuri; 3 - oqim yo'naltiruvchi devorcha; 4 - teshikchalar; 5 - harakatsiz suv qatlami

Bundan tashqari so'rish quvuri kirish qismi yuqorisida harakatsiz «o'lik» suv qatlami 5 paydo bo'lib, havo uyurmalar (girdob) hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa o'z navbatida quvurning og'zini suvga botirilish h_2 chuqurligini kamayish hisobiga inshoot balandligini 25...28 % ga kamaytirish imkoniyatini beradi [21].

Avankamera. Oxiri berk kanalning nasos stansiya binosi oldida diffuzor ko'rinishida kengaytirilib, suv qabul qilish qurilmasi bilan bog'lanadigan qismi avankamera deyiladi. Odatda uning kengayishi burchagi 30...45°, tubi 0,2 to'g'ri nishoblikda va yoni qiya shaklida quriladi (11.8, a,d - rasm). Avankamerada loyqa cho'kishi oldini olish maqsadida uni kengayish burchagi 40...45 ° va suv qabul qilish bo'linmalari eni $B_{bo'l} = (1,2..1,3) \cdot D_k$ qabul qilib, uni o'lchamlarini qisqartirish tavsiya etiladi.


Qisqa avankamerada nasos stansianing har qanday ish tartiblarida ham ikki yon tomonlari devorlari bo'ylab suv uyurmalarini hosil bo'ladi va bu loyqa cho'kishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida avankamerada suv oqimi kengayishi darajasini pasayishi va oqimning egilgan troektoriya bo'yicha harakatlanishiga olib keladi. Oqimni suv qabul qilish bo'linmalariga qiyshiq, ya'ni burchak ostida kirishi so'rish quvuri kirish kesimi oldida uyurmali havo varonkalari hosil bo'lishiga va nasosga havo so'rili shiga imkoniyat yaratib beradi. Nasosga kirishdagi oqimning strukturasi buzilishi uni ishchi gildiragiga o'zgaruvchan oqim ta'siri natijasida qo'shimcha kuchlar va tebranish paydo qiladi, suv uzatishi kamayadi va podshipniklarga ortiqcha

zo'riqish keltiradi. Suv qabul qilish bo'linmalariga suv oqimini eng maqbul kirish burchagi 15° dan kam bo'lishi zarurligi hisoblar asosida tasdiqlangan. Lekin amaliyotda buni bajarish ancha murakkabdir. Bo'linmalarga oqimni kirish burchagini kamaytirish va tezliklarni teng taqsimlanishiga erishish uchun suv qabul qilish qurilmasi egri chiziq o'qli (11.12 - rasm) va tubi teskari nishoblikdagi (11.13 - rasm) avankamerali suv olish inshootlari shakllari tavsija etilgan [27,35].

Suv qabul qilish bo'linmalarida tezliklarni teng taqsimlanishi erishish va havo uyurmali hosil bo'lishini oldini olishda 11.11 - rasmda keltirilgan oqim yo'naltiruvchi devorchali konstruksiya yaxshi samara beradi [21].


Suv oqimini yaxshi kengayib oqishini ta'minlash uchun avankameralarga bo'ylama yoki ko'ndalang devorchalar o'rnatish ham mumkin [27, 35]. Lekin bunday devorchalar avankamera tuzilishini va undan foydalanishni murakkablashtiradi. Shuning uchun devorchalarni katta nasos stansiyalar avankameralariga o'rnatish holatlarini va o'lchamlarini laboratoriya tadqiqotlari asosida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kanalning yonidan suv olish inshooti kovsh va suv qabul qilish qurilmalaridan iborat bo'ladi (11.8,b-rasm). Nasosning suv uzatish $0,3 \text{ m}^3/\text{s}$ dan kam bo'lgan hollarda so'rish quvurlari kovsh ko'rinishida umumiy bo'linmaga joylashtiriladi (11.8,e - rasm). So'rish quvurlari o'qlarga orasidagi masofa (3...4) D_k qabul qilinadi. Kanaldagi suvni tezligi $1\text{m}/\text{s}$, so'rish quvuriga kirishdagagi tezlik $1,2 \text{ m}/\text{s}$ ga teng bo'lganda, quvurning minimal suv sathiga botirilishi chuqurligi $1,5 D_k$ qabul qilinadi, lekin $0,5 \text{ m}$ kam bo'lmasligi zarur. Bu holda suzuvchi jismilar to'sish panjarasi quvurning og'ziga yoki kovshga umumiy holda o'rnatilishi mumkin. Suv uzatish $0,3 \text{ m}^3/\text{s}$ dan katta nasoslarning quvurlari alohida bo'linmali suv olish qurilmasiga o'rnatiladi (11.8,b - rasm).



11.12 - rasm. Egri chiziq o'qli suv qabul qilish qurilmalariga ega bo'lgan suv olish inshooti:
1 - suv keltirish kanali;
2 - avankamera; 3 - suv qabul qilish qurilmasi; 4 - nasoslarning so'rish quvurlari.

11.13 - rasm. Tubi teskari nishob avankamerali suv olish inshooti:
 1 - suv keltirish kanali;
 2 - tubi teskari nishoblikdagi avankamera;
 3 - suv qabul qilish qurilmasi; 4 - tubi to'g'ri nishoblikdagi avankamera;
 5 - chiqarib olinadigan panjara;
 5 - nasosni so'rish quvuri.




Yuqoridagi 11.8,b,e - rasmlardagi suv olish qurilmalari oldida suv uyurmalarini hosil bo'lishi oqibatida juda tez loyqa cho'kish jarayoni yuz beradi.

Nasoslar ishlamaydigan davrlarda bu jarayon yanada tezlashadi. Kanal yonidan suv olish inshootida loyqa cho'kishini oldini olish maqsadida qarama - qarshi tomondagi qirg'og'i ichkariga kiritilgan ko'rinishda loyihalash tavsiya etiladi (11.14 - rasm).

Bunda qirg'oqni ichkariga kiritilish eni quyidagicha qabul qilinadi:

$$B_s \geq (0,25 \dots 0,3) \sigma_{o,r} \quad (11.17)$$

bu yerda, $\sigma_{o,r} = \sigma + mh$; h – suvning chuqurligi; σ – suv o'tkazuvchi kanalning eni; m – qiyalik koefitsiyenti.



11.14 - rasm. Kanal yonidan suv olish inshooti:

- 1 - suv o'tuvchi kanal;
- 2 - kovsh;
- 3 - suv qabul qilish bo'linmasi;
- 4 - kanalning ichkariga kiritilgan qirg'og'i.


Ushbu tasvir bo'yicha loyihalanganda, kanalning kesim yuzasi simmetrik holdan nosimmetrik shaklga o'tadi va kanaldagi burilish hisobiga oqimning sirkulatsiyasi paydo bo'lib, pastki tubidagi loyqasi ko'p suv qatlamini qarama-qarshi tomonga yo'naltiradi.

Nasos stansiyaga suv olish kanaldagi suv sarfni 20 % dan ortiq bo'lган hollarda kanal pastki qismiga suv to'suvchi (dimlovchi) inshooti qurish zarur bo'ladi.

11.5. Baliq himoyalash qurilmalari

Baliq himoyalash qurilmalarini baliqlilik ho'jaligi ahamiyatiga ega bo'lган suv havzalaridagi barcha suv olish inshootlariga o'rnatilishi zarur. Baliq himoyalash qurilmalari bilan jihozlanadigan suv olish inshootlarini loyihalashda quyidagi talablarni e'tiborga olish zarur:
a)90% baliqlarni saqlab qolishi; b)baliqlarni mayib qilmasligi;
v)baliqlarni inshoot oldida to'planmasligi; g)baliqlarni xususiyatlarini hisobga olishi.


Baliq himoyalashda quyidagi usullardan foydalaniladi: 1)mexanik usul-to'sqli to'sqichlar, filtrlar va h.k. qurilmalar qo'llash; 2)gidravlik usul - oqim yo'naltiruvchi qurilmalardan foydalanish; 3)fiziologik usul - elektr, nur, tovush maydoni hosil qilish yoki havo pufakchalaridan to'siq hosil qiluvchi qurilmalar o'rnatish; 4)o'ta chuqur joydan suv olish usuli.



11.15 - rasm. Konusli

(a) va yassi to'rli (b)
baliq to'sish
qurilmalari:

1 - ustun; 2 - estakada;
3 - to'rlar; 4 -
teshikchali yuvish
quvuri; 5 - baliq
tashlamasi; 6 - to'rni
o'qiy mahkamlagichi.



Fiziologik va optik usullar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va ularni amaliyatda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmagan. O'ta chuqur joydan suv olishda suvni kirish tezligini 0,15 m/s dan kam qabul qilish va himoyalash filtrlarni o'matish yaxshi samara beradi. Lekin katta nasos stansiyalariga suv olish uchun suv havzasi chuqur bo'lishi va filtrlar maydonini juda katta qabul qilish talab etiladi.

Baliqni himoyalash qurilmalarini loyihalashda uzunligi ℓ ga teng baliqlar yengib o'tuvchi kritik tezlik V_k quyidagicha topiladi (sm/s):

$$V_k = 10 \ell \quad (11.8)$$

Hozirgi paytda turli yassi, aylanadigan silindr va konus shaklidagi mexanik to'siqlardan keng foydalaniladi. Agar baliq to'rga tortuvchi oqimni yengaolsa va baliq tashlamasiga oqizib ketilsa, mexanik himoyalovchi qurilma samara berishi mumkin.

Suv ostidan yuvib turuvchi quvurli va gidravlik baliq va axlatni olib ketuvchi konussimon to'rli qurilma (11.15,a-rasm) baliq himoyasida yaxshi samara beradi. Konus to'r gorizontal o'q atrofida aylanadi va unga ichki tomondan burchak ostida suv berib turiladi. To'rga yopishgan baliq va axlat konus ichiga uzatiladi va u yerdan gidroelevator yordamida qayta manbaga tashlanadi. Tashlama suv sarfi umumiy sarfga nisbatan 2% ni tashkil etadi. Aylanadigan to'rli konuslar ancha qo'pol va ko'p metall sarflanadigan qurilma shaklida bo'lganligi uchun katta suv sarfiga ega bo'lgan irrigatsiya tizimlarida kanal o'qiga 10...17° qiyalikda o'matiladigan yassi turli yoki V - shakldagi baliq to'suvchi qurilmalar qo'llanadi (11.15,b-rasm). To'rlar zanglamaydigan po'lat, latun, mis yoki kaprondan 1×1, 2×2 va 4×4 mm uyali o'lchamlarda tayyorlanadi.

Yassi turli qurilmada bo'ylama o'qi bo'yicha harakatlanib turadigan teshikchali quvurlar 4 yordamida to'rlari yuvilib turadi. Yuvishdagi suv sarfi har 1 m to'r uzunligiga 15...40 l ga teng bo'lib, umumiy qurilma suv sarfiga nisbatan 10% tashkil etadi. Yuvish suvi bosimi 30 m ga teng bo'ladi.

Aylanuvchi konusli to'rga nisbatan V shakldagi yassi to'rli qurilmaning ish samaradorligi pastroq, lekin uning tuzilishi sodda va ixcham.

Nazorat savollari

1. Nasos stansiyaning suv olish inshootlariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Daryolardagi suv olish inshootlarini tuzilishini tushuntirib bering.
3. Suv olish inshootlarining o'lchamlari qanday aniqlanadi?
4. Qanday hollarda suv olish inshooti daryo o'zaniga joylashtiriladi?
5. Suv olish inshootiga qanday jihozlar va uskunalar o'matiladi?
6. Qaysi hollarda suv keltirish kanallari qo'llanadi?
7. Kanallardagi suv olish inshootlari qanday elementlardan iborat bo'ladi?
8. Avankameraning turli konstruksiyalarini tushuntirib bering.
9. Qanday hollarda suv qabul qilish bo'linmalarini nasos stansiya binosidan alohida joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi?
10. Baliq himoyalash usullari va qurilmalarini tushuntirib bering.

12 - bob. NASOS STANSIYALARING SO'RUVCHI VA BOSIMLI QUVURLARI

12.1. So'rish va suv keltirish quvurlari

So'rish quvurlari suv qabul qilish bo'linmalaridan suvni nasoslarga keltirishga xizmat qilib, ulardagi bosim atmosfera bosimidan kam bo'ladi. Shu sababli ulanadigan joylaridan havo so'rilmasligi uchun yaxshi zichlanish darajasiga e'tibor berish zarur. Bundan tashqari suv qabul qilish bo'linmasida girdob hosil bo'lishi natijasida havo so'riliishi mumkin. So'rish quvuri atrofida girdob hosil bo'lishini oldini olish uchun quvur og'zini minimal suv sathidan botirilish chquqrligini belgilash, hamda so'rish quvurlarini suv qabul qilish bo'linmalariga joylashtirish masalalari 11.2 va 11.4 mavzularida bayon etilgan. So'rish quvurlari uchun asosan po'lat material qabul qilinib, ular payvandlanib yoki gardishsimon lappak (flanes) yordamida ulanadi. Binoning tashqarisidagi quvurlar ochiq yoki berk holda tayanchlarga o'rnatilib, 0,005 dan kam bo'lmagan teskari nishoblik yotqiziladi. Maxsus so'rish quvurlari tirsaksimon ko'tarilagan, ejektorlar yordamida havosi so'rib olinadigan nasos qurilmalarida to'g'ri nishoblikda o'rnatilishi mumkin (9.14 - rasm). Quvurlarni ta'mirlash va kuzatish turishni e'tiborga olib, uning tagini yer yuzasidan balandligi diametrlerga bog'liq holda 0,3...1 m qabul qilinadi. Bino ichida so'rish quvurlari asosan ochiq holda yotqiziladi.

So'rish quvurlari har bir nasos uchun alohida olinib, burilishlari kam holda loyihalanadi. Ularning diametrлари ruxsat etiladigan tezliklar asosida tanlab olinadi, ya'ni diametri 250 mm gacha tezlik 0,6...1 m/s; diametri 250...800 mm bo'lganda, tezlik 0,8...1,5 m/s; diametri 800 mm katta bo'lgan hollarda tezlik 1,2...1,8 m/s qabul qilinib, diametr tanlanadi. So'rish quvurining kirish qismidagi gidravlik qarshilikni kamaytirish uchun tezlik 0,8...1m/s ya'ni kirish kesimi diametri $D_k = (1,25...1,5) D_s$ qabul qilinadi (D_s - so'rish quvuri diametri). Katta diametrdan kichik diametrga o'tishda konfuzorning kengayish burchagi $8 \dots 16^\circ$ qabul qilinib, uning uzunligi aniqlanadi: $\ell = (3,5 \dots 7) (D_k - D_s)$. Xuddi shu kabi nasosni so'rgichi va so'rish quvuri konfuzor orqali

ulanadi. Konfuzorlar gorizontal holda o'rnatilsa, tepe qismi gorizontal holdagi bir tomonlama konus shaklida bajarilishi zarur.

So'rish quvurlari nasoslarni ishga solishdan avval suvga to'ldirilishi lozim. Diametri 250 mm dan kichik quvurlarni suvga to'ldirish uchun kirish qismiga suv qabul qiluvchi teskari qopqoq o'rnatilib, tashqaridan nasos ustidagi teshikchaga suv quyib to'ldiriladi (5.1 - rasm). Katta diametrli so'rish quvurlariga ega bo'lgan nasos stansiyalarida vakuum - nasos yordamida havosini so'rib, suvga to'ldiriladi (8.13 - rasm). Ba'zi hollarda o'rtacha va kichik nasos stansiyalarida so'rish quvuri tirsaksimon ko'tarilgan yoki maxsus vakuum idishlar o'rnatilgan nasos qurilmalaridan foydalanib, so'rish tarmog'idagi havoni chiqarib tashlash mumkin (8.14 va 8.15 - rasmlar).

Nasos stansiya binosi bilan suv qabul qilish bo'linmalari birlashgan holda qurilganda, so'rish quvurlarining uzunligi juda qisqa va rejada burilishsiz ko'rinishda bo'ladi (10.10 va 10.18 - rasmlar). Agar suv qabul qilish qurilmalarining uzunligi binoning uzunligiga nisbatan kam bo'lib, ular alohida joylashtirilsa, so'rish quvurlarining uzunligi 30 m gacha qabul qilinadi va rejadagi burilishi 45 gacha⁰ bo'lgan burchak bilan bog'lanadi (8.4 va 10.12, b - rasmlar).

Suv keltirish quvurlari. So'rish va suv keltirish quvurlarining vazifalari bir xil, lekin suv keltirish quvurlarida bosim atmosfera bosimidan ortiq bo'ladi, chunki bu holda nasoslarning o'qi pastki befdag'i suv sathidan pastga o'rnatiladi. Suv keltirish quvurlari po'lat yoki temir - betondan tayyorlanib, nasos tomonga ko'tarilib yoki pasayib boruvchi nishoblikda yotqizilishi mumkin. Ularning diametrlari ham so'rish quvurlari singari ruxsat etilgan tezliklar bo'yicha yuqorida keltirilgan shartlar asosida aniqlanadi.

Bo'linmali binolarda suv keltirish va bosimli tarmoqlari po'lat materialdan tayyorlanib, ularning uskuna va jihozlari (armaturalari) ikki xil shaklda joylashtirilishi mumkin:

1) agar quvurlarga o'rnatiladigan uskuna va jihozlar (qulfak, teskari qopqoq, ulama quvur)ning diametrlari nasosning so'rgichi va uzatkichi diametriga teng qabul qilinsa, ularning o'lchamlari kichik bo'lganligi uchun qurilish bahosi ancha arzon bo'ladi. Lekin bu holda suvning tezligi katta bo'lishi, quvurlarning uskunalaridagi gidravlik qarshiliklarni va bunga bog'liq foydalanish xarajatlarini ortishiga olib keladi (10.10 va 10.18-rasmlar).

2) agar quvurlarga o'rnatiladigan uskuna va jihozlarning diametрini so'rish va bosimli tarmoqlar diametriga teng qabul qilinsa, ularning

o'Ichamlari katta bo'lishi hisobiga qurilish bahosi ortadi, lekin suvni tezligi kamayishi hisobiga foydalanish xarajatlari kamayadi (10.19 - rasm).

Quvurlarga jihozlarni qanday o'matilish shakli har ikkala variantni texnik - iqtisodiy taqqoslab tanlanadi. Ko'p hollarda ikkinchi variant qabul qilinadi. Chunki bunday shaklda gidravlik qarshiliklar kamayishi dan tashqari jihozlarning suvdagi qattiq zarrachalar ta'sirida gidroabraziv yejilish tezligi pasayadi.


Suv ta'minoti tizimidagi nasos stansiyalarida suv keltirish quvurlari nisbatan uzun va suv qabul qilish qurilmalari murakkab tuzilishga ega bo'lgan hollarda suv keltirish quvurlari soni nasoslar sonidan kam olinib, umumiy kollektor quvurga ulanishi ham mumkin. Irrigatsiya va boshqa tizimlaridagi nasos stansiyalarida har bir nasos uchun alohida suv keltirish quvurlari qabul qilinadi.

Blokli turdag'i nasos stansiya binolarining suv keltirish quvurlari beton blok ichiga joylashtiriladi. Ularning shakllari ikki xil, ya'ni to'g'ri chiziq o'qli to'rburchak kesim yuzali (10.6, a - rasm) va egri chiziq o'qli tirsaksimon, o'zgaruvchan kesim yuzali (10.6, b - rasm) ko'rinishda bo'ladi. To'g'ri chiziq o'qli to'rburchak kesim yuzali suv keltirish quvurlarining qarshilik koeffitsiyenti $\xi=0,6$ ga teng bo'lib, asosan so'rg'ichi diametri $D_s < 1$ m bo'lgan vertikal o'qiy nasoslar uchun qo'llaniladi. Egri chiziq o'qli tirsaksimon suv keltirish quvurlarining qarshilik koeffitsiyenti $\xi=0,5$ ga teng bo'lib, vertikal valli katta o'qiy va markazdan qochma nasoslar uchun qo'llanishi mumkin. Bunday standart suv keltirish quvurlarining o'Ichamlari nasos so'rg'ichining diametri qismlariga beriladi. Quvurlar beton ichiga qurilganligi sababli ularga uskuna va jihozlar o'rnatilmaydi. Shu sababli ta'mirlash davrida suv to'sish uchun qabul qilish bo'linmalariga o'rnatiladigan yassi darvozalardan foydalaniladi (10.5 va 10.20 - rasmlar).

12.2. Bosimli kommunikasiyalar

Nasoslardan suvni tashqi bosimli quvurlarga uzatib beruvchi, teskarli qopqoq, qulfak va suv sarf o'Ichagichi bilan jihozlangan stansiyaning ichki bosimli quvur tarmoqlari bosimli kommunikatsiyalar deyiladi. Bosimli quvurlar soni nasos aggregatlari soniga teng yoki ulardan kam bo'lishi mumkin. Bosimli kommunikasiyalar tasviri ko'p jihatdan nasos stansiyadan qanday maqsadlarda foydalanilishiga bog'liq. Suv ta'minoti

tizimi nasos stansiyalarida bosimli quvurlar soni odatda nasoslar sonidan kam qabul qilinadi. Shuning uchun yig'uvchi kollektor qurishga ehtiyoj tug'iladi. Kollektor va bosimli tarmoqqa qulfaklarni o'rnatilishi har qanday nasosni, tashqi bosimli quvurni, teskari qopqoqni va qulfakni xo'jalik - ichimlik suvini to'xtovsiz uzatilishini ta'minlagan holda ta'mirlash imkoniyatini berishi zarur. Masalan, 12.1 - rasmda doimiy to'la uzlusiz suv ta'minotiga erishish uchun ikkita kollektorli yoki halqali tizimda nasoslarni bosimli tarmoqlarini ulash kommunikatsiyalari tasvirlari keltirilgan.




12.1 - rasm. Stansiya ichki bosimli kommunikasiyalari tasvirlari.

Rasmning a va b shakllaridagi kommunikatsiyalarni har qanday birorta qulfakni bitta nasosni to'xtatib ta'mirlash mumkin. Yuqori darajada uzlusiz suv uzatishni ta'minlab, ta'mirlash ishlarini bajarish, v tasvirdagi kommunikatsiyalarda amalga oshirilishi mumkin. Nasoslar umumiy bosimli kollektorga ulanadigan suv ta'minoti va berk sug'orish tarmog'idagi nasos stansiyalarining bosimli kommunikasiyalari ancha murakkab bo'lib, ularning qurilish bahosi qimmat va bosim isroflari yuqori bo'ladi (12.2, d, e - rasmlar).

O'qiy nasoslar qo'llanadigan nasos stansiyalarning (12.2,a-rasm) bosimli kommunikasiyalari ancha sodda bo'ladi, chunki ularda to'suvchi uskunalar o'rnatilmayadi. Rasmdagi b tasvirda ikkita quvurga to'rtta nasosdan suv uzatish sxemasi berilgan bo'lib, teskari qopqoq to'suvchi qulfakdan oldin o'rnatilgan. Ba'zida teskari qopqoqlarning o'chamlari katta bo'lgan hollarda ularni bino tashqarisidagi alohida maxsus quduqlarga o'rnatiladi. Yomg'irlatish mashinalariga suv uzatuvchi sug'orish nasos stansiyasining bosimli kommunikatsiyasi v tasvirdan keltirilgan. Har bir nasosning bosimli tarmog'i ulama quvur, teskari qopqoq va qulfak bilan jihozlangan. Bosimli quvurni bosh qismiga suv - havo idishi ulangan bo'lib, tarmoqdagi bosimni mo'tadil saqlab turishga xizmat qiladi. Nasos stansiyani avtomatik ishlashini ta'minlash uchun quvurga induksion suv sarfi o'chagichi o'rnatilgan. Suv ta'minoti tizimi nasos stansiyasi (12.2, e - rasm) bir nechta qulfaklar bilan


jihozlangan bo'lib, har qanday holatda birinchi yoki ikkinchi quvurga hamma nasoslarni suv uzatish imkoniyatini beradi.



12.2-rasm. O'qiy va gorizontal valli markazdan qochma nasoslar o'rnatiladigan nasos stansiyalarning bosimli kommunikatsiyalari:
a – o'qiy nasoslarning quvurlari; b, d, e - gorizontal markazdan qochma nasoslarni ikkita quvurga, berk sug'orish tarmog'iga, suv ta'minoti tarmog'iga suv uzatishi.

Ish davrida tanaffus bo'lishi ruxsat etiladigan III - toifali meliorativ nasos stansiyalarida bosimli kommunikatsiyalar tasvirlari ancha soddalashadi, chunki nasoslarni umumiy kollektorga ulash talab etilmaydi. Bu holda bosimli kommunikatsiyalardagi bosim isroflarini kamaytirish mumkin bo'ladi.

Vertikal valli markazdan qochma nasoslar bilan jihozlangan sug'orish tizimi nasos stansiyalarining bosimli kommunikatsiyalari tasvirlari 12.3 - rasmida keltirilgan. Ushbu rasmida teskari qopqoq o'rnatilmay, faqat to'suvchi qulfak bilan jihozlash tasvirlari ko'rsatilagan. Teskari qopqoqlarni ko'p hollarda o'rnatilmaslik sabablari quyidagicha izohlanadi: birinchidan, halokatli holatlarda suvni teskari harakati natijasida quvurdagi bosim keskin ortib ketishi; ikkinchidan, diametri 1000 mm katta, yuqori bosimga chidamli teskari qopqoqlar ishlab chiqilmaganligi; uchinchidan, markazdan qochma vertikal valli nasoslar va ularning elektr dvigatellari vallarini qisqa muddatda teskari aylanishiga ruxsat etilishdir.



12.3 - rasm. Vertikal valli nasoslar o'rnatilgan sug'orish tizimi



nasos stansiyalarining bosimli kommunikatsiyalari tasvirlari:

a - alohida quvurlarga suv uzatish; b, d, e, f - ikkita quvurga suv uzatish.

12.3,a-rasmda nasoslarni alohida quvurlarga suv uzatishi tasvirlangan bo'lib, ularning uzunligi qisqa bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Ushbu rasmdagi b, d, e, f - shakllardagi kommunikatsiyalar bosimli quvurlari uzun bo'lgan nasos stansiyalarda qo'llanadi. Bu shakllar bosimli kommunikatsiyalari tuzilishi soddaligi bilan boshqa tasvirlardan ajralib turadi.

Bosimli tarmoqning diametri 250 mm gacha bo'lganda, undagi oqimning tezligi 1...2 m/s, diametri 250 mm dan katta bo'lganda, tezligi 2...2,5 m/s qabul qilinib, uning aniq diametri tanlab olinadi. Bosimli tarmoqdagi diffuzorning uzunligi $\ell = (6...7) \cdot (D_x - d_x)$ qabul qilinadi (bu yerda D_x - bosimli tarmoq diametri, d_x - nasosning uzatkichi diametri).

Sug'orish tizimi nasos stansiyalari bosimli tarmoqlarini bosimli quvurlarga bog'lanish tuguni 12.4 - rasmda tasvirlangan. Ikkita nasos bitta quvurga ishlaganda, bosimli tarmoqlarning bog'lanish burchagi 60° , uchta nasos ishlaganda, 45° qabul qilish tavsiya etiladi.



12.4 - rasm. Ikkita (a), uchta (b) va to'rtta (d) bosimli tarmoqlarning bosimli quvurlarga bog'lanish tasvirlari.


12.3. Quvurlardagi uskuna va jihozlar

Quvurlarga o'rnatilagan uskuna va jihozlar adabiyotlarda quvur armaturalari deb nomланади. Quvur armaturalari ichki diametri va hisobiy bosim bo'yicha tanlab olinади. Улар ish bajarish xususiyati bo'yicha: a) to'suvchi; b) rostlovchi; d) aeratsion; e) saqlovchi; f) saqlovchi-to'suvchi va g) yig'ish armaturalari deb yurитилади.

I. To'suvchi armaturalar quvurlardagi suyuqlik oqimi harakatini to'sish uchun xizmat qiladi. Bu turdagи armaturalarga surilma qulfak (zadvijka), lappakli buriluvchi qopqoq, jo'mrak (ventil), tiginsimon qopqoq (kran) kabi jihozlarni misol keltirish mumkin.

Surilma qulfakni ishchi elementi o'qi oqimiga perpendikular holatda qaytarilma - ilgarilanma harakatlanuvchi lappak yoki ponasimon to'sqichdan iborat bo'ladi. To'suvchi elementini tuzilishi bo'yicha parallel va ponali turga bo'lish mumkin.

Parallel surilma qulfakning qobig'idagi suv o'tkazuvchi yuzasi ikkita bir-biriga bog'langan lappaklar bilan to'siladi (12.5, a - rasm). Zichlash halqasi va lappagi qulfak o'qiga perpendekular joylashgan. Ponali surilma qulfak (12.5,b-rasm)da qobig'idagi suv o'tkazuvchi kesimi, ko'ndalang kesimli pona shaklidagi yumaloq lappak bilan to'siladi. Har ikki turdagи surilma qulfaklarning ko'tarilib harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan shpindelii turlari ishlab chiqariadi.




12.5 - rasm. Surilma qulfaklar:
a-harakatlanuvchi shpindelli va
elektr uzatmali parallel qulfak;
b - harakatlanmaydigan shpindelli va
qo'l uzatmali, ponali qulfak.

Harakatlanuvchi shpindel aylanishi davomida, ilgarilanma harakatlanadi, harakatlanmaydigan shpindel faqat aylanadi. Harakatlanuvchi shpindelni tozalash va yog'lash oson, lekin uni o'rnatish katta balandlikdagi joyni talab qiladi.

Sanoatda surilma qulfaklar 1650 mm gacha diametrдаги quvurlar uchun ishlab chiqariladi. Boshqarishni osonlashirish maqsadida diametri 400 mm dan katta qulfaklarning elektr yoki gidrouzatma bilan mexanik tarzda boshqariladigan turlarini qo'llash tavsiya etiladi. Elektr uzatmali surilma qulfaklar masofadan va avtomatik boshqarish uchun qulay, o'rnatish uchun kichik joy talab qiladi, lekin yuqori bosimli tizimda gidravlik uzatmaliga nisbatan ishonchlilik darajasi past. Gidrouzatmali qulfaklar suv, moy va ba'zida qisilgan havo bilan boshqariladigan bo'lishi mumkin. Surilma qulfaklar quyidagicha belgilanadi: 30ch6br; 30ch15br; 30s375nj; 30ch906br; 30ch706br (bu yerda 30 – qulfakning tartib raqami; ch yoki s- qobig'i cho'yan yoki po'latdan; 6, 15, 75, 06 – andozasining tartib raqami; 3 - chervyakli uzatma; 9 - elektr uzatma; 7 - gidravlik uzatma; br yoki nj - zichlash qismi bronza yoki zanglamaydigan po'latdan).

Gidravlik uzatma surilma qulfakni qobig'iga mahkamlangan po'lat silindrдан iborat bo'lib (12.6-rasm), uni ichida shpindelga bog'langan porshen harakatlanadi. Shpindel qulfak qobig'i va silindr qopqog'i orqali o'tganligi uchun salnikli zichlagichlar bilan jihozlangan. Ishchi suyuqlik sifatida mineral yog' yoki suvdan foydalaniлади ва uni bosimi 1 MPa bo'lishi zarur. Qulfakni to'rt yo'lli gidravlik kran orqali boshqariladi.



12.6 - rasm. Gidravlik uzatmali surilma qulfakni harakatlanish tasviri:

I - qulfakni ochishdagi gidravlik kranning holati; II - qulfakni berkitishdagi gidravlik kranning holati, 1 – tashlama.


Surilma qulfaklar to‘la ochiq holatida nisbatan oz gidravlik qarshilikka ega, ya’ni qarshilik koefitsiyenti $\xi=0,06$ ga teng. Surilma qulfaklarning afzalligi quvurlarni zich berkitish xususiyatidir, lekin ularning o‘lchamlari katta, og‘ir, bahosi qimmat hamda zichlagich qismi tez yemiriladi.

Buriluvchi lappakli qulfak diametri 100...2800 mm o‘lchamlarda ishlab chiqariladi. Ularning o‘lchamlari surilma qulfakka nisbatan kichik, vazni engil, narxi arzon va tez boshqarish mumkin.

Buriluvchi lappakli qulfaklar ham quvurlardagi oqimni to‘sishga xizmat qiladi. Bu qulfakning ishlash tarzi quyidagicha amalga oshiriladi, ya’ni buriluvchi lappak qobiq ichidagi egarsimon zichlash qismi yuzasiga qattiq bosilib, oqim yo‘lini to‘sadi; lappak vertikal o‘q bo‘yicha 90° ga burilganda, suyuqlik qulfakdan erkin o‘tadi. Buriluvchi qulfakda surilma qulfakka nisbatan bosim isroflari ancha katta bo‘lib, ularni ochishda qulfakni har ikki tomonidagi bosimni tenglashtirish zarur bo‘ladi. Buning uchun uning atrofidan aylanib o‘tuvchi yordamchi quvur (baypas) o‘rnataladi.

Jo‘mrak (ventil) kichik diametrarda tayyorlanib, ichki suv ta’mi-noti tarmoqlariga va yordamchi nasoslarning quvurlariga o‘rnataladi.

Tirqinsimon qopqoq (kran) ham kichik diametrarda ishlab chiqariladi. Quvurni kesim yuzasini konussimon yoki sharsimon tijinni 90° ga burib, to‘sib qo‘yiladi.



12.7 - rasm. Elektr uzatma bilan boshqariladigan buriluvchi lappakli qulfak:


1 - pastki podshipnik; 2 - o'q; 3 - buriluvchi lappak; 4 - qobiq;
5 - salnik; 6 - yuqoridagi podshipnik; 7 – gidrouzatma.

II. Rostlovchi armaturalarga o'zidan oldingi yoki keyingi bosimni hamda suv sarfini rostlovchi uskuna va jihozlar kiradi. Bosimni rostlovchi uskuna rostlovchi qopqoq (12.8 - rasm) bilan jihozlanadigan gidravlik uzatmali buriluvchi qulfak asosida tayyorlanishi mumkin.

Qulfakdan keyingi oqimdag'i bosimni ortishi membrana (7) ga va unga bog'langan plujer (6) ga uzatiladi. Plujer (6) chapga siljiydi. Suv bog'lovchi quvurcha gidrosilindrning bo'sh qismiga kiradi. Silindrning ikkinchi qismi ana shu paytda atmosfera bilan bog'lanadi va qulfak berkiladi. Quvurdagi bosim pasaysa, rostlovchi qopqoqning prujinasi plunjerni o'nga siljitadi va bosim gidrosilindrning ikkinchi bo'shlig'iga uzatiladi. Bu holda birinchi bo'shliq atmosfera bilan bog'lanadi va qulfak ochiladi.

III. Aeratsion armatura. Bunday armaturalarga havo chiqaruvchi vantuzlar va havo kirituvchi qopqoqlar kiradi.


Vantuzlar davriy ravishda quvurlarga to'planib qoladigan havoni chiqarib turishga xizmat qiladi. Ular sharli, dastali va membranali turlarga bo'linadi.



12.8 - rasm. Rostlovchi qopqoq tasviri:

- 1 - qalpoqcha; 2 - prujina; 3 - stakan; 4 - qobiq; 5 - g'ilof; 6 - plunjер;
7 - membranalar; 8 - halqa; 9 - gardishli lappak; 10 - shtusер.

Masalan, qurvurda havo yo'q paytida suv sharli vantuzdag'i (12.9 - rasm) polietilen shar (6) ni ko'taradi va u g'ilofning havo chiqarish teshikchasi (3) ga bosiladi. Vantuzni yuqori qismida havo to'plansa, suvda suzib yuruvchi shar suv bilan pastga tushadi, g'ilofni teshigi ochilib, havo tashqariga chiqadi.




12.9 - rasm. Sharli vantuz:

- 1 - qobiq; 2 - gardishli lappak; 3 - havo chiqarish teshigi; 4 - qopqoq; 5 - rezina g'ilof;
6 - polietilen shar.

Havo kiritish qopqog'i ikki xil turda bo'ladi, ya'ni teskari qopqoq tarzida ishlovchi va membranalı turlari ishlab chiqarilgan.

Masalan, 12.10,a - rasmida teskari qopqoq tarzida ishlovchi havo kiritis qhopqog'i ko'rsatilgan.

Qurvurda vakuum hosil bo'lsa, tarelka (3) atmosfera bosimi ta'sirida ko'tariladi va qurvurga havo kiradi. Tashqi va ichki bosimlar tenglashganda tarelka (3) o'z og'irligi bilan yopiladi va teshikni berkitadi. Membranani havo kiritish qopqog'i ham xuddi shu tartibda ishlaydi (12.10, b - rasm).




12.10 - rasm. Havo kiritish qopqoqlari:

a – teskari qopqoqli: 1 - gardish; 2 - o'q; 3 - tarelka; 4-bosimli quvur;
 b – membranalni: 1 - qobiq; 2 - qopqoq; 3 - membrana; 4-drossel.

IV. Saqlovchi armatura suv sarfi yoki bosimni avtomatik ravishda chegaralab turishga xizmat qiladi. Nasoslarning ish jarayonidagi o'tish (ishga solish va to'xtatish) davrlarida quvurlardagi bosimni chegaralash uchun saqlovchi-tashlamali PSU-100 qurilmasi, himoya-lovchi gidravlik qopqon (KZG-120), gidravlik zarb so'ndiruvchi (GUM) va saqlovchi qopqoq-vantuz (UkrVODGEO)lar qo'llanishi mumkin. Bularni asosiy kamchiligi – bosim chegaralangan qiymatidan ortib ketganda, biroz kechikib ishga tushishi hisoblanadi.


V. Saqlovchi - to'suvchi armaturalarga suyuqlik oqimini teskari harakatini oldini oluvchi va nasoslarni bosimli quvurlardan ajratib qo'yuvchi teskari qopqoqlar kiradi. Sanoatda tarelkasi yuqoriga osidaligan va ekssentrik o'qli teskari qopqoqlar ishlab chiqariladi (12.11-rasm).



12.11 - rasm. Teskari qopqoqlar:

a - tarelkasi yuqori ochiladigan:
 b - ekssentrik o'qli:
 1 - qobiq; 2 - tarelkasi;
 3 - o'q; 4 - dasta.

Tarelkasi yuqoriga osiladigan teskari qopqoqda (11.12, a - rasm) dasta (4) o'q (3) atrofida aylanadi. Ekssentrik o'qli teskari qopqoqda tarelka (2) boltlar (4) bilan yarim o'q (3) ga qotirib mahkamlanadi. Nasoslar suv uzatayotganida tarelka (2) ga gidrodinamik kuch ta'sir etib, o'qqa nisbatan aylanish momenti hosil qiladi va u ochiladi. Nasoslar to'xtatilganda tarelkani og'irlik kuchi gidrodinamik kuchdan ortib ketishi bilan u berkiladi. Tarelkani ochilish burchagi suvni tezligiga bog'liq bo'lib, tezlik kam bo'lgan hollarda tarelka qisman ochilishi va uni tebranishi vujudga keladi.




12.12 - rasm. Yig'ish ulamalari:

a - salnikli kompensator; 1 va 3 - ichki va tashqi quvurlari;
2 - harakatlanuvchi gardish; 4 - salnik tiqini; b - payvandlanadigan
ulama; 1 - tashqi quvuri; 2 - gardish; 3 - zichlagich; 4 - ichki quvur.

Teskari qopqoqlarni kamchiligi: oqimni harakati tez o'zgarishida tarelkasini yopilishga ulgira olmasligi va yopilishida gidravlik va mexanik zarb hosil bo'lishidir. Hozirgi vaqtida zarsazish ishlovchi rostlab berkitiladigan teskari qopqoqlar ham ishlab chiqarilgan.

VI. Yig'ish va o'tkazish armaturalari. Stansiya ichki kommunikatsiyalarini ochib - berkitilishini yengillashtirish uchun yig'ish ulamalari sifatida salnikli kompensator va payvandlanadigan po'lat ulamalar qo'llanadi (12.12,a,b - rasm).

Nasos stansiya binosi devoridan quvurlarni o'tkaziladigan joylariga qisib turuvchi moslamali yoki moslamasiz salniklar o'rnatiladi (12.13 - rasm). Bunday salniklar quvurni binoni cho'kishida, uni issiqlikdan kengayishi, yer qimirlaganda hosil bo'lувчи kuchlar ta'siridan saqlaydi.



12.13 - rasm. Quvurlarni devoridan o'tkazilishda qo'llaniladigan salnikli zichlagichlar:

a - qisadigan moslamali; b - qisadigan moslamasiz; 1 - gaykali shpilka; 2 - gardishli qisuvchi quvur; 3 - gardish; 4 - zichlagich; 5 - halqa-qovurg'a; 6 - qobiq; 7 - tirkak halqa; 8 - qoplama; 9 - salnik tiqini.

Quyma temir-betondan quriladigan blokli va bo'linmali binolarning devorlaridan quvurlar qattiq mahkamlanadigan, qovurg'ali payvandlanadigan po'lat quvur orqali o'tkaziladi.

12.4. Bosimli quvurlar

Nasos stansiyadan suv chiqarish inshootiga yoki suv olish joyiga suvni bosim bilan uzatuvchi inshootlar bosimli quvurlar deyiladi. Bosimli quvurlarni loyihalash quyidagi talablar asosida bajariladi:

- zaruriy miqdordagi suv sarfini belgilagan bosimda o'tkazib berish;
- qurilishga oz kapital mablag' sarflanishi, foydalanish xarajatlari kam va ishlatish qulay bo'lishi;
- ishonchhliliqi va uzoq muddat ishlashi ta'minlanishi.

Quvurlarning yo'nalishi, uzunligi, soni, materiali, diametri, qoplamasi to'g'ri tanlansa, uning xizmat muddati ortadi, foydalanish va qurilish xarajatlari kam bo'ladi. Suv xo'jaligi va melioratsiya tizimlaridagi nasos stansiyalarida asosan po'lat, cho'yan, plastmassa, asbestosement, yig'ma va quyma temir-betondan tayyorlangan quvurlar keng qo'llaniladi.

Bosimli quvurlar ko'p hollarda yer osti xandaklariga yotqizilib, ustidan 0,8 m qalinlikda tuproq yotqiziladi. Faqat diametri 1,5 m dan katta po'lat quvurlar yer ustida ochiq holda tayanchlarga o'rnatiladi. Tuproqqa ko'miladigan po'lat quvurlar zanglashga qarshi bitum

surkalib, gidroizolatsiya qoplamlari bilan o'rnatalishi lozim. Yer ustiga o'rnataladigan po'lat quvurlarga har yili zanglatmaydigan bo'yoq surkaladi. Yomg'ir va filtratsiya suvlarini olib ketish uchun quvurlarni yo'nalishi bo'yicha yonidan drenaj quriladi. Qurilish va foydalanish sharoitlarini hisobga olib quvurlar orasidan 0,7...2,2 m masofa qoldirish tavsiya etiladi.

Quvurlarning yo'nalishini tanlashda quyidagi omillarni e'tiborga olish zarur:

- uzunligi qisqa va qurilish ishlari kam bo'lishi;
- burilishlar soni kam va geologik holati yaxshi joydan o'tishi;
- yog'ingarchilik suvlaridan atrofdagi joylar yuvilmasligi;
- ishlamaydigan hollarda quvur ichidagi suvni chiqarish oson bo'lishi;
- quvurlar ko'tarilib boruvchi teskari nishoblikda qurilishi lozim.

Agar joyning relyefi bo'yicha quvurlarni to'g'ri nishoblikdagi quriladigan joylari bo'lsa, u holda bunday qismlarining cho'qqi joylariga nasoslar suv uzatadigan davrlar uchun havo chiqaruvchi vantuz va nasoslar to'xtatiladigan va suvni quvurdan chiqarish zarur bo'lgan hollarni hisobga olib, havo kiritish qopqoqlari o'rnatalishi zarur bo'ladi. Quvurlarni pasayish nuqtalariga ulardagagi suvni chiqarib tashlash uchun jo'mraklar o'rnatalidi.

Agar quvurlar yotqiziladigan yo'nalishda cho'kadigan gruntlar bo'lsa, asosini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar qo'llanadi. Quvurlarni o'qi vertikal va gorizontal tekislikda buriladigan joylariga anker tuyanchlari qurilishi lozim.

Quvurlar soni ularni uzunligiga bog'liq ravishda tanlab olinadi. Agarda quvurlarni uzunligi 100 m gacha bo'lsa, u holda ularni soni nasoslar soniga teng qabul qilinadi (12.2, a va 12.3, a - rasmlar). Uzunligi 100...300 m bo'lgan quvurlar soni variantlarni texnik-iqtisodiy taqqoslash asosida tanlanadi. Agar quvurlarni uzunligi 300 m ortiq bo'lgan nasos stansiya ochiq havzalarga suv uzatib bersa, quvurlar soni Z_{quv} bitta quvurga uchtagacha nasoslarni ularash asosida tanlab olinadi (12.3, b, v, g - rasm):

$$ya'ni \quad Z_{quv} = \frac{Z_{max}}{3} \geq 2, \quad (12.1)$$

bu yerda Z_{nas} – nasos stansiya binosiga o'rnataladigan agregatlar soni.

Bu holda quvurlarning umumiyligi soni 2 tadan kam bo'lmashligi talab etiladi. Lekin ba'zi hollarda suv ta'minoti tizimlariga va berk sug'orish tormoqlariga suv uzatishda (12.3, d - rasm) hamda suv uzatish $3 \text{ m}^3/\text{s}$ dan kam bo'lgan va ish davrida tanaffus ruxsat etiladigan kichik sug'orish nasos stansiyalarida bosimli quvur soni bitta qabul qilinishi ham mumkin (12.4, d - rasm).

Sug'orish va quritish tizimidagi nasos stansiyalarning parallel yotqizilgan bosimli quvurlarini bir-biri bilan bog'lovchi quvurlar o'rnatishga ruksat berilmaydi, chunki ular qo'shimcha xarajatlarga sabab bo'ladi (12.3, b, f - rasm). Lekin oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki [43], bosimli quvurlarni bog'lovchi quvur o'rnatish yo'li bilan ulardagi oqim tezligini tenglashtirish va gidravlik qarshiligidini kamaytirish hisobiga elektr energiya sarfini kamaytirish yaxshi samara beradi. Elektr energiya narxi ortib borayotgan hozirgi davrda bunday tavsiyalar ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

Quvurlarni materiali ularni ish sharoitini hisobga olgan holda statik hisoblar asosida tanlab olinadi. Bunday hisoblarda quvurning va suvning massasi, ichki gidrostatik va gidrodinamik bosim, atmosfera bosimi, tuproq va grunt suvlarini bosimi va h.k. lardan hosil bo'luvchi kuchlarning ta'siri e'tiborga olinadi. Bundan tashqari quvurni burilish joylarida hosil bo'ladigan markazdan qochma kuchlar va gidravlik zarb kuchini ham hisobga olish zarur.


Bosimli quvurlarning materialini tanlashda quyidagi taxminiy qo'llash chegaralari tavsiya etilgan:

- asbestosement quvurlar-maksimal hisobiy bosimi 1,2 MPa gacha va diametri 0,5 m gacha bo'lganda;
- quyma temir-beton quvurlar – maksimal bosimi 0,5 MPa gacha va diametri 1,6 m gacha bo'lganda;
- yig'ma temir-beton quvurlar – maksimal bosimi 1,5 MPa gacha va diametri 0,5...1,6 m bo'lganda;
- cho'yan quvurlar – maksimal hisobiy bosimi 1 MPa dan yuqori va diametri 0,065...1 m bo'lganda;
- plastmassa quvurlar – maksimal hisobiy bosimi 0,25...1 MPa va diametri 0,01...0,630 m bo'lganda;
- po'lat quvurlar – har qanday bosim uchun va turli diametrlarda tayyorlanadi. Lekin ularni boshqa turdag'i quvurlarni qo'llashni iloji bo'lmagan quyidagi hollarda qo'llash tavsiya etiladi ya'ni hisobiy bosim 15 MPa dan katta bo'lganda, diametri 1,6 m dan va bosimi 0,5 MPa dan katta bo'lgan hollarda hamda quvurlarni avtomobil va temir

yo'llari tagidan, suvlik, jarlik va g'orlardan o'tish joylarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ularni narxi nometall quvurlarga nisbatan ancha qimmat.

Bosimli quvurlarni diametrini tanlashda ularning standart o'lchamlari 500 mm gacha 50 mm dan, 3000 mm gacha 100 mm dan, 5000 mm gacha 200 mm o'zgarib borishga e'tibor berish zarur. Ma'lum bir nasos stansiya uchun bosimli quvurni diametri variantlarni texnik - iqtisodiy taqqoslash asosida tanlab olinadi. Bunday hisoblash usuli [23,35] adabiyotlarda keltirilgan bo'lib, asosiy mezon sifatida quvurni diametri ortishi bilan uning qurilish bahosi qimmatlashuvi, lekin gidravlik qarshiliqi kamayishi hisobiga elektr energiyasiga sarflanadigan xarajatlar kamayib borish ko'sratkichlari qabul qilinadi.

Asbestosement quvurlar to'rt xil belgida ishlab chiqariladi: BT6, BT9, BT12, BT15 ya'ni 6; 9; 12 va 15 MPa hisobiy bosimga chidamliligi belgilangan. Har bir belgidagi quvurlar diametri va uzunligi bo'yicha uch xil turga bo'linadi: birinchisiga diametri 100...500 mm va uzunligi 3...4 m; ikkinchisiga diametri 200...500 mm va uzunligi 5 m, uchinchisiga diametri 200...300 mm va uzunligi 6 m bo'lgan quvurlar kiradi. Asbestosement quvurlar tarkibi 75...80 % portland sement va 20...25% asbest tolasidan iborat bo'lib, quvur tayyorlash zavodlarida hisobiy bosimiga ikki barobar ortiq gidrostatik bosim bilan suv o'tkazishga sinab ko'riladi.



12.14 - rasm. Asbestosement quvurlarni asbestosement (a) va cho'yan (b) muftalar yordamida ulanishi:
1 - mufta, 2 - quvur.

Asbestosement quvurlarni joyga o'rnatishda bir-biri bilan cho'yan yoki asbestosement mufta yordamida ulanib, choki rezina halqa bilan zichlanadi (12.14 - rasm).


Asbestosement quvurlarga uskuna va jihozlar o'rnatishda cho'yan gardishlardan foydalaniladi. Asbestosement quvurlar yengil, dielektrik, zanglamaydi, lekin mo'rt bo'ladi. Ularga zarb berilganda yoki ezilganda

hosil bo‘ladigan yoriqlarni oddiy ko‘z bilan aniqlab bo‘lmaydi. Bundan tashqari asbestosement quvurlar deformatsiyaga chidamsiz va choklari ko‘p bo‘lishi foydalanishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Cho‘yan quvurlar 1 mPa dan yuqori bosimli va diametrlari 65...1000 mm chegaralarda ishlab chiqariladi. Diametri 65...300 mm li quvurlar 2...6 m uzunlikda va diametri 400...1000 mm li quvurlar 5...10 m uzunlikda tayyorlanadi.

Cho‘yan quvurlarni bir tomoni kengayma shaklida bo‘lib, bir-biriga kiydirib ulanadi va chokiga bitumga shmdirilgan kanop o‘rnatilib, ustidan asbest qorishmasi bilan qoplanadi. Ba’zi hollarda choki rezina halqa bilan ham zichlanishi mumkin. Rezina halqali choklar nisbatan mustahkam, egiluvchan va deformatsiyaga chidamli hamda o‘rnatish oson bo‘ladi. Cho‘yan quvurlar po‘latga nisbatan zanglashga chidamli, uzoq muddat ishlaydi, ish davrida gidravlik qarshiligi kam o‘zgaradi. Lekin ular og‘ir va bahosi qimmat bo‘ladi.

Yig‘ma temir-beton quvurlar zavodda tebranma gidrosiquv va markazdan sochma usullarda tayyorlanib, hisobiy bosim 1,5 gacha MPa gacha va diametri 0,5...1,6 m bo‘lgan hollarda qo‘llanadi. Ularning uzunligi 5 m gacha bo‘lib, ulanishi kengayma shakldagi qismiga keyingi quvurni uchini kiydirish yo‘li bilan amalga oshirladi (12.15 - rasm). Chokiga rezina halqa o‘rnatiladi.




12.15 - rasm. Yig‘ma temir-beton quvurlarning kengayma shakldagi
ulanish qismi:

- a - tebranma gidrosiquv usulda tayyorlangan quvur uchun;
- b - markazdan sochma usulda tayyorlangan quvur uchun.

Chokdagi rezina zichlagich quvurni $1,5^\circ$ gacha burilishiga va o‘q bo‘yicha 5 mm gacha siljishiga imkoniyat beradi. Yig‘ma temir-beton quvurlarni gidravlik qarshiligi ularni tayyorlanish sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Qurilish me‘yorlari va standart bo‘yicha tayyorlangan yig‘ma

temir-beton quvurning qidravlik qarshiligi cho'yan va po'lat quvurlarga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Quyma temir-beton quvurlar joyida tayyorlanib, hisobiy bosim 0,5 MPa gacha va ichki diametri 1,5 m dan katta bo'lgan hollarda qo'llanadi. Bunday quvurlarni tayyorlashda oldindan kuchlanish berilgan (cho'zilgan) armaturalar o'rnatilishi mumkin. Quyma temir-beton quvurni issiqlik-cho'kish deformatsiyasiga kuchlanishini pasaytirish uchun har 25...50 m masofada deformatsiya choklari joylashtiriladi. Choklarga rezina shponka o'matilib, butum bilan to'ldiriladi (12.16 - rasm). Bu choklar quvurlarni mustahkamligi saqlanganligi holda ularni qisman siljishiga imkoniyat beradi.



12.16 - rasm. Deformatsiya choklari
a - qo'zg'almas temir - beton mufta;
b - rezina shponkali egiluvchan chok;
1 - sement qorishma; 2 - bitum
aralashmasi; 3 - rezina.


Quyma temir - beton quvurlar handakka joylashtiriladi va ustidan eng kami 0,8 m balandlikka tuproq bilan ko'miladi (12.17 - rasm). Asosiga 0,1...0,15 sm qalinlikdagi shirasiz betondan yostiq tayyorlanadi. Agar asosini cho'kadigan gruntlar tashkil etsa, turli usullar bilan mustahkamlash ishlari olib boriladi.

Filtratsiya suvlarini yig'ish va chiqarib tashlash uchun handakni ikki yonidan quvurli drenaj quriladi. Drenaj atrofiga qum va toshdan tayyorlangan teskari filtr ichiga joylashtirilgan teshikchali BT3 asbestosement quvurlaridan iborat bo'ladi.

Quyma temir - beton quvurlarining taxminiyligini qalinligi quyidagi formula bilan topiladi (sm):

$$\delta = 5 + 8 D + 0,2 H, \quad (12.2)$$

bu yerda, D va H – quvurning ichki diametri va hisobiy bosimi, m.



12.17 - rasm. Quyma temir - beton quvurlarni kesimi:

1 - quyma temir - beton quvur; 2 va 3 - teskari filtr; 4 - teshikchali asbestosement quvur; 5 - shirasiz beton yostiq.

Temir-beton quvurlar quyidagi afzallikkлага ega: zanglamaydi, dielektrik, foydalanish davrida suv o'tkazuvchanligi o'zgarmaydi, metall sig'imi kam va uzoq muddat ishlaydi. Lekin ularni choki ko'p, og'ir va mo'rt bo'ladi.


Plastmassa quvurlar hisobiy bosimi 0,2...1 MPa va diametri 10...630 mm chegaralarida ishlab chiqariladi. Ular asosan polietilen va viniplastdan tayyorlanib, bir – biri bilan ulash qizdirib payvandlash usulida amalga oshiriladi.

Plastmassa quvurlarni turini tanlashda ish sharoiti, ishlash muddati, suvni harorati va tuproqni sho'rланish darajasiga e'tibor berish zarur. Bu quvurlar quyidagi avfzallikkлага ega: zanglamaydi, gidravlik qarshiligi po'lat quvurga nisbatan 30 % kam va ish davrida o'zgarmaydi, egilishga chidamli. Lekin plastmassa quvurlar ezilishga va quyosh nuriga chidamsiz, chiziqli kengayish koeffitsiyenti yuqoridir.

Po'lat quvurlar zavodlarda choksiz va payvandli (chokli) usulda uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Ba'zi hollarda sovuq (- 20°C dan past) zonalar uchun legirlangan po'lat quvurlar ham ishlab chiqariladi.

Diametri 1,5 m gacha bo'lgan quvurlar yer ostiga ko'milgan holda quriladi. Ko'miladigan quvurlar zanglashga qarshi qoplamlar bilan qoplanadi yoki elektrik himoyalash usuli q'llanadi. Qoplama sifatida tashqi tomoniga bitum - polimer, bitum - mineral, eliten va h.k., diametri 1200 mm dan katta quvurlar ichki tomoniga esa sement - polimer qorishmalar ishlatiladi. Yer ostiga ko'miladigan quvurlar asosan payvandlab ulanadi, yer ustida quriladigan quvurlarni payvandlab yoki gardishli lappak (flanes) yordamida ulanishi mumkin. Bu holda chokiga 3...5 mm li poronit yoki rezina halqa joylashtiriladi.

Ochiq po'lat quvurlar anker va oraliq tayanchlarga o'rnatiladi (12.18 - rasm).



12.18 - rasm. Katta nasos stansiyadagi ochiq po'lat quvurlarni mujassamlanish tasviri:


1 - nasos agregatlari o'qi; 2 - issiqlik-cho'kish kompensatorlari;
3 - anker tayanchi; 4 - juvoz shaklidagi oraliq tayanch; 5 - issiqlik kompensatori.

Yer osti quvurlariga anker va oraliq tayanchlari hamda kompensatorlar o'rnatilmaydi. Lekin tayanchlar o'rnatilmasligi uchun quvurning gruntga ishqalanish kuchi o'qiy kuchlaridan ortiq bo'lishi zarur, ya'ni quyidagi shart bajarilishi talab etiladi:

$$t g \alpha < t g \gamma \text{ yoki } t g \alpha = \frac{\$}{\kappa}, \quad (12.3)$$

bu yerda, α - quvurni gorizontga nisbatan yotqizilish burchagi; γ - gruntning ichki ishqalanish burchagi; $\$$ - quvurni gruntga ishqalanish koefitsiyenti; κ - sirpanishga turg'unlikni hisobga olish koefitsiyenti (1,25...1,35 qabul qilinadi).

Anker tayanchlari (12.19 - rasm) quvurlarning vertikal va gorizontal tekislikdagi burilish joylariga, hamda to'g'ri chiziqli qismining har 150...200 m masofa oralig'ida o'rnatiladi.




12.19- rasm. Anker tayanchining tuzilishi:
1 - anker; 2 - xomut.

Anker tayanchlari o‘ziga harorat o‘zgarishi va suvni ishqalanishidan hosil bo‘lувчи o‘qiy kuchlarni, ichki gidrostatik va gidrodinamik kuchlarini, suvni va quvurni og‘irlik kuchlarini va burilishlarda hosil bo‘lувчи markazdan qochma kuchlarni qabul qiladi.

Oraliq tayanchlari (12.20 - rasm) o‘rtasidagi masofa 12...21 m ya’ni (4...7) D qabul qilinib, hisoblar asosida bu qiymat yana aniqlashtiriladi. Bu tayanchlar asosan ishqalanish va ko‘ndalang kuchlarini qabul qiladi.

Oraliq tayanchlar egarsimon (12.20, a - rasm), juvoz shaklida (12.20, b - rasm) va tebranma ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Tebranma tayanchlar quvurlarni jar yoki suvliklarni yuqorisidan olib o‘tishda qo‘llaniladi.



12.20 - rasm. Oraliq tayanchlar:
a - egarsimon; b - juvoz shaklida; 1 – tayanchni asosidagi beton;
2- juvoz; 3 - tayanch halqasi; 4 – bosimli po‘lat quvur; 5-tayanchni
yig‘ishda quyiladigan beton.

Ochiq po‘lat quvurlarni issiqlikdan kengayishi natijasida uza-yishini kompensatsiya qilish uchun anker tayanchlari orasiga kom-pensatorlar o‘rnataladi (12.12,a va 12.18. - rasmlar). Po‘lat quvurlarni bosimga chidamliliginи orttirish maqsadida mustahkamlash halqalari o‘rnatalishi mumkin. Tayanchlarga o‘rnataladigan quvurlarga xizmat

ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bajarish uchun ular er yuzasidan 0,6 m balandlikda o'rnatiladi.

12.5. Bosimli quvurlarni sinash

Bosimli quvurlarni foydalanishga topshirishdan avval gidravlik yoki pnevmatik sinov o'tkazilib, mustahkamlikka va zichlikka chidamliligi tekshirib ko'rildi. Buning uchun uzunligi 1km gacha masofadagi quvurni ikki tomoni maxsus qopqoqlar bilan payvandlab berkitilib, suvgaga to'ldiriladi va gidropress yordamida hisobiy sinash bosimi hosil qilinadi. Tuproqqa ko'miladigan quvurlar ikki marta sinaladi, ya'ni birinchi marta quvurga uskuna va jihozlar o'rnatilmasdan va ko'mishdan avval-mustaxkamlik sinovi, ikkinchi marta hamma ishlar tugatilib, ko'milgandan so'ng zichlanganlik darajasini aniqlash sinovi o'tkaziladi. Ochiq o'rnatiladigan quvurlar bir marta sinaladi. Sinovni boshlashdan avval quvurning hamma nuqtalaridan havo chiqarib tashlanishi va sinov paytida quvur atrofida odam yurmasligi lozim. Sinov bosimi quvurlarning hisobiy bosimidan (ya'ni maksimal hosil bo'ladigan bosimdan) 25...30% ortiq qabul qilinadi. Quvurlarni mustahkamlikka sinov o'tkazishda bosim asta-sekin orttirib borilib, maksimal qiymatiga yetkaziladi va 10 min davomida undagi bosim 0,1 mPa dan ortiq pasayib ketmasligiga e'tibor beriladi. Agar quvur hisobiy bosim ta'sirida yorilmasa va uning choklari buzilmasa, mustahkamlikka chidamli deb hisoblanadi.

Quvurlarni zichlanganlik darajasini aniqlash uchun sinov o'tkazishdan 72 soat avval suvgaga to'ldirib qo'yiladi. Sinov o'tkazish uchun belgilangan t vaqtida choklariagi oqimcha miqdori q ruxsat etiladigan oqimcha miqdori q_{rux} dan ortib ketmasligi talab etiladi, ya'ni

$$q = \frac{W}{t} \leq q_{rux}; \quad (12.4)$$

bu yerda, W -sinash vaqtida quvurga uzatilgan qo'shimcha suv hajmi.


12.6. Bosimli quvurlardagi gidravlik zarb va unga qarshi choralar

Bosimli quvurlarni materialini tanlashdagi hisobiy bosim ularda gidravlik zarb ta'sirida bosimni ortishini e'tiborga olib belgilanadi. Nasoslarni o'tish jarayonlarida, ya'ni ishga solish va to'xtatish davrlari da bosimli quvurlarda gidravlik zarb bilan bog'liq bosimni ortib ketishi

sodir bo'ladi [3,34]. Dvigatelni to'xtatish paytida nasosni aylanish chastyotasi, suv uzzatishi, bosimi pasayib boradi va biroz muddatdan so'ng oqimni teskari harakati vujudga keladi.

Agar bosimli quvurga teskari qopqoq o'rnatilgan bo'lsa, uning tarelkasi berkiliishi oqim harakatini keskin to'xtashiga va quvurdagi bosimni ortib ketishiga sabab bo'ladi. Quvurdagi oqimni uzalishi ro'y beradigan hollarda bosimni ortishi yanada yuqori bo'ladi.

Masalan 12.21-ramda bosimli quvurda bosim pasayish to'lqinini tarqalish tasviri keltirilgan. Quvurning keskin burilish B nuqtasida oqimni uzilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday joylarda bosim to'yingan suv bug'lari darajasigacha pasayishi oqibatida undan bug' va erimagan havo pufakchalarai ajralib chiqadi. Suyuqlik oqimining teskari harakatida quvurning BC qismidagi suv ustuni tezligi AB qismidagi suv ustuni tezligidan ortiq bo'ladi. Bu esa BC va AB suv ustunlarini B nuqtada to'qnashishi oqibatidagi bosimni keskin ortib ketishiga, ya'ni gidravlik zarb hosil bo'lishiga olib keladi.



12.21-rasm. Bosimli quvurdagi bosim pasayish to'lqinini tarqalish tasviri.

Quvurlardagi gidravlik zarb natijasida bosimni ortishi quyidagi formula bilan topiladi:

$$\Delta H = \frac{a \cdot V}{g} . \quad (12.5)$$

Agarda suyuqlik oqimida uzilish paydo bo'lsa, ΔH quyidagicha formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta H = \frac{a \cdot V}{g} + 2H_s ; \quad (12.6)$$

bu yerda, V – oqimning boshlang'ich tezligi, m/s; g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2 ; H_s – nasosning geodezik uzatish balandligi, m; a – zarb to'lqini tarqalish tezligi, m/s.

Zarb to‘lqini tarqalish tezligi α quyidagi formula bilan topiladi:

$$\alpha = \frac{1425}{\sqrt{1 + ED/E_M \cdot \delta}} ; \quad (12.7)$$

bu yerda, 1425-tovushni suvdagi tarqalish tezligi, m/s; D—quvurning diametri, m;

E—suvning hajmiy elastiklik moduli ($2,1 \cdot 10^{-5}$ N/m²); E—quvurning elastiklik moduli (temir beton uchun $E_m = (1,4 \dots 4) \cdot 10^{10}$ N/m²; po‘lat uchun $E_m = 20 \cdot 10^{10}$ N/m²); δ —quvur devori qalinligi, m.

Quvur devori qalinligini aniqlash quyidagi tartibda bajariladi:

1) dastlab quvur devori qalinligi taxminan quyidagi formulalar bilan topiladi (sm):

$$- po‘lat quvur uchun \quad \delta = 5 + 0,1H_x , \quad (12.8)$$

$$- temir-beton quvur uchun \quad \delta = 5 + 8D + 0,2H_x , \quad (12.9)$$

$$- asestolement quvur uchun \quad \delta = 5 + 10D + 0,2H_x , \quad (12.10)$$

bu yerda, H_x — nasosning hisobiy bosimi, m.

2) zarb to‘lqini tarqalish tezligi α (12.7) formula bilan aniqlanadi.

3) gidravlik zarb fazasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$t = 2 \ell / a \quad (12.11)$$

bu yerda, ℓ — quvurning uzunligi.

4) koeffisient k aniqlanadi:

$$k = \frac{\ell \cdot V}{gH_g \cdot T} \quad (12.12)$$

bu yerda, T — qulfakni berkitilish vaqt (3...5 s);

5) gidravlik zarb natijasida quvurdagi bosimni ortishi ΔH turli holatlar uchun aniqlanib, eng katta qiymati hisob uchun qabul qilinadi:

a) agar $t > T$ ya'ni to'g'ri zarb bo'lsa:

$$\Delta H = \frac{a \cdot V}{g} \quad (12.13)$$

b) agar $t < T$ va zarb to'g'ri bo'limgan musbat holatida:

$$\Delta H_1 = \frac{2K}{2-K} \cdot H_g \quad (12.14)$$

d) agar $t < T$ va to'g'ri bo'limgan manfiy zarb bo'lsa:

$$\Delta H_2 = \frac{2K}{1+K} \cdot H_g \quad (12.15)$$

Keyingi hisoblarda $t > T$ bo'lsa, (12.13) formuladan chiqadigan ΔH qiymati, $t < T$ bo'lsa, ΔH_1 va ΔH_2 qiymatlardan kattasi qabul qilinadi.

6) maksimal hisobiy bosim teng:

$$H_{\max} = H_g + \Delta H \quad (12.16)$$

7) Quvur devorining qaliligi quyidagi formula bilan aniqlanadi (m):

$$\delta = \frac{H_{\max} \cdot \gamma \cdot D}{2[\sigma]} + 2 \cdot 10^{-3} \quad (12.17)$$

bu yerda, γ – suvning hajmiy massasi (9790 N/m^3); $[\sigma]$ – materialning mustahkamlik chegarasi, (po'lat uchun $1,6 \cdot 10^7 \text{ N/m}^2$; temir-beton uchun 10^7 N/m^2 , asbestosement uchun $8 \cdot 10^6 \text{ N/m}^2$ qabul qilinadi).

Gidravlik zARBga qarshi choralar ikki xil yo'naliishda olib boriladi ya'ni: a) suvni tezligini kamaytirishga asoslangan usullar; b) quvurdan suvni tashlashga asoslangan usullar.

Suvni tezligini kamaytirish uchun quyidagi usullardan foydalaniлади:

1) quvurdagi statik bosim 20 m gacha bo'lgan hollarda, oqimni uzilish ehtimoli bor nuqtalariga havo kiritiladi (havo kiritish qopqog'i 12.10-rasmda keltirilgan);

2) quvurdagi statik bosim 20 m dan ortiq bo'lganda, oqimni uzilish ehtimoli bor nuqtalariga suv kiritiladi. Buning uchun o'sha nuqta tepasiga idishda suv joylashtirib, teskari qopqoq orqali ulab qo'yiladi;

3) quvurning bosim ortadigan nuqtasiga tepasi ochiq suv-bosimli minora o'rnatib, bosim kuchi susaytiriladi. Suv ustuni quvurdagi

bosimga mos ravishda juda baland bo'lgani uchun bu usul kam qo'llaniladi;

4) diametri 700 mm dan kichik quvurlarning bosim ortib ketadigan nuqtalariga 6...10 m² hajmdagi 70% qismi suv va 30% qismi havo bilan to'ldirilgan bosimli idish o'rnatilib, zarb kuchi kamaytiriladi;

5) quvurga uni balandligi bo'yicha bo'laklarga bir nechta teskari qopqoqlar o'rnatilib, zarb kuchi kamaytiriladi. Bu holda quvurda gidravlik qarshiliklar ancha ortishi va teskari qopqoqlarni kechikib berkilish holatlarini e'tiborga olish zarur.

Quvurdan suv tashlab zarb kuchini kamaytirish uchun nasos agregatini yoki qulfakni aylanib o'tuvchi diametri (0,2...0,35)-D ga teng tashlama o'tkazilib, unga teskari qopqoq o'rnatiladi. Agar nasos va dvigatel valini teskari aylanishi zavod ruxsat etadigan darajadan ortib ketmasa, suvni nasos orqali tashlab yuborilishi mumkin.

Bulardan tashqari, quvurga o'rnatiladigan boshqariladigan qulfak va teskari qopqoqlarni berkitilish vaqtini tanlab, zarb kuchini kamaytirish mumkin. Bu vaqt quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_3 = \frac{l \cdot V}{g(H_{\max} - H_x)} \sqrt{\frac{H_{\max}}{H_x - h_w}} ; \quad (12.18)$$

bu yerda, H_{\max} – quvurdagi maksimal hisobiy bosim; H_x – nasosning hisobiy bosimi; h_w – quvurdagi bosim isroflari yig'indisi.

Nazorat savollari

1. So'rish va suv keltirish quvurlari qanday farq qilinadi?
2. So'rish quvurlari diametrlari qanday qabul qilinadi?
3. So'rish quvurlarini suvgaga to'ldirish usullarini tushuntirib bering.
4. Metalldan tayyorlanadigan suv keltirish va bosimli kommunikatsiyalarga o'rnatiladigan uskuna va jihozlarning joylashtirish shakllari qanday bo'ladi?
5. Bosimli quvurlar soni qanday aniqlanadi.
6. Temir-beton, asbestosement va cho'yan quvurlarni bir-biriga ulash choklarini tushuntirib bering.
7. Qanday ko'rsatkichlar asosida bosimli quvurni materiali tanlanadi?
8. Bosimli quvurni diametri qanday aniqlanadi?
9. Qanday bosimli quvurlar yer ustiga ochiq holda quriladi?
10. Bosimli quvurning qaysi joylariga anker va oraliq tayanchlari o'rnatiladi?

- 11.Bosimli quvurlarda gidravlik zarb hosil bo‘lish sabablarini tushuntirib bering.
- 12.Quvurlarni gidravlik zarbdan saqlash uchun qanday choralar qo‘llanadi?

13-bob. SUV CHIQARISH INSHOOTLARI

13.1. Suv chiqarish inshootlarining ahamiyati va turlari


Suv chiqarish inshooti bosimli quvurlarni qabul qiluvchi manba (kanal, suv ombori, daryo) bilan bog'lovchi inshoot bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- a) nasos agregati to'satdan to'xtab qolganda yoki bosimli quvurlar yorilgan paytda suvni teskari harakat qilishiga yo'l qo'ymasligi;
- b) qabul qiluvchi manbagaga suvni ortiqcha energiyasini so'ndirib, silliq (kam qarshilik bilan) chiqarishi;
- c) oqimni teskari harakatida va quvurlarni bo'shatishda unga havo kiritishi;
- d) nasoslarni oson ishga solish imkoniyatini berishi;
- e) mustahkamligini va chidamliligi yuqori, foydaalanish qulay bo'lishi.

Ochiq havzalarga suv chiqaruvchi nasos stansiyalarda mexanik qulfaqli, sifonli va shovva devorli suv chiqarish inshootlari qo'llaniladi. Mexanik qulfaqli suv chiqarish inshootining turli ko'rinishdagi tasvirlari 13.1 - rasmida keltirilgan bo'lib, bosimli quvurni suvgaga cho'ktirilgan oxirgi diffuzor qismi, ishchi va ta'mirlash darvozalaridan iborat bo'ladi. Nasos aggregatlari to'xtatilganda yuqori befdagi suvni orqaga bosimli quvurlarga teskari harakatini to'sish uchun mexanik qulfaq (teskari qopqoq, yassi va segmentli darvoza) lar qo'llaniladi.

Mexanik qulfaqli suv chiqarish inshootlari tuzilishi sodda bo'lishi bilan birga oz gidravlik qarshilikka ega, sifonli suv chiqarish inshootiga nisbatan arzon, kanaldagi suv sathini o'zgarishi ularning ish jarayoniga ta'sir etmaydi. Lekin darvozalarining zich berkilmasligi oqibatida suv sizishi bosimli quvurlarni ta'mirlash va kuzatish ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sifonli suv chiqarish inshooti (13.2-rasm) bosimli quvurni oxirgi qismi bo'lib, uni egilishi shunday o'matiladiki, bo'yincha qismi 2 maksimal suv sathidan yuqorida, chiqish qismi og'zining yuqori qirrasi 3 minimal suv sathiga botirilgan holda joylashtiriladi.




13.1 - rasm. Turli xil darvozalar o'rnatilgan mexanik qulfakli suv chiqarish inshooti tasvirlari:
 a va b - yassi darvozali inshootlar; d - segment darvozali inshoot;
 e - qopqoq darvozali inshoot;
 1 - bosimli quvur; 2 - havo kiritish tuynugi; 3 - tez harakatlanuvchi darvoza; 4 - ta'mirlash darvozasi uchun o'yilma.

Nasos ishga solinganda bosimli quvur suvgaga to'lishi bilan undagi havo ochiq holdagi vakuum yo'qotish qopqog'i orqali siqib chiqariladi. Quvur suvgaga to'lgandan so'ng suv sifonni yelkasidan quyilib o'ta boshlaydi. Sifonning pasayuvchi tomonidagi suv sathi ana shu holatda ortiqcha bosim qiymatigacha pasayadi (13.2,b-rasm). Suv aeratsiyalanib o'zi bilan havoni yuqori befga chiqarib ketadi. Bu holatda dastlab bosim atmosfera bosimi darajasigacha pasayadi va keyin vakuum hosil bo'ladi.

Vakuum hosil bo'lishi bilan sifonning bo'yincha qismi tashqi atmosferadan ajraladi. Nasos bosimi yuqori va pastki beflardagi suv sathlari ayirmasi va quvurdagi bosim isroflari yig'indisi darajasigacha pasayadi (13.2, d-rasm).

Nasoslarni to'xtatish paytida sifonni bo'yincha qismiga vakuum yo'qotish qopqog'i orqali havo kiritilib, atmosfera bilan bog'lanadi va oqimni uzib qo'yadi. Vakuum yo'qotish qopqog'i kesim yuzasini tanlashda, undagi energiya yo'qolishi sifonda bosimni pasayib ketishiga va suvni pastlovchi tarmoqdan yuqoriga ko'tarilishiga yo'l qo'ymasligiga e'tibor beriladi (13.2,e-rasm).



13.2 - rasm. Nasosni ishga solish va to‘xtatish holatlarida sifonni ishlash tasviri:

1-vakuum yo‘qotish qopqog‘i; 2-bo‘yinchasi yuzasi; 3-chiqish og‘zining yuqori qismi; 4-bo‘yinchasi tomi.

Sifonli suv chiqarish inshootlarida mexanik qulfaklar qo‘llanilmaydi. Vakuum yo‘qotish qopqoqlari bosimli quvurlarni tez va butunlay kanaldan ajratib qo‘yadi va oqimni teskari harakatini yo‘qotishni to‘la ta’minlaydi. Lekin shakli murakkabligi sababli va vakuum yo‘qotish qopqog‘i zichlanmagan hollarda bosim isroflari ortishi, hamda ruxsat etiladigan vakuum miqdori bo‘yicha olib ketuvchi kanaldagi suv sathini o‘zgarishi 4...5 m gacha bo‘lishi zarurligi sifonli inshootlarni qo‘llashni chegaralaydi. Bitta bosimli quvurga bir nechta nasoslar suv uzatadigan nasos stansiyalarda bosim isroflari yanada ko‘proq bo‘ladi.

Shovva-devorli suv chiqarish inshootlarining iqtisodiy ko‘rsatgichlari yuqoridagi ikki turdagи suv chiqarish inshootlardan ancha pastroq, chunki suvni shovva devorlaridan oshirib tashlashi uchun nasoslarni bosimi yuqoriroq bo‘lishi talab etiladi. Bunday inshootlarni suv olib ketuvchi kanaldagi suv sathi kam chegarada o‘zgaradigan hollarda qo‘llash tavsiya etiladi. Shovva-devorli suv chiqarish inshootlari mexanik jihozlar qo‘llanmasligi va to‘la avtomatik holda ishlashi bilan ajralib turadi.


Suv qabul qilish manbalari soni bo'yicha to'g'ri suv uzatuvchi va bo'luvchi suv chiqarish inshootlari turlariga bo'lish mumkin. Nasos stansiyasi binosiga nisbatan suv chiqarish inshootini joylashishi bo'yicha birlashgan va alohida joylashgan inshootlar deb nomlanadi. Suv sathi nisbatan joylashishi bo'yicha chuqurdagi (13.1,b,f-rasm) va yuzadagi (13.1a,d,e - rasm) inshootlar deyiladi.

13.2. Mexanik qulfakli suv chiqarish inshootlari

Katta suv chiqarish inshootlarida quvurning chiqishdagi kesim yuzasi 2 m^2 dan ortiq bo'lsa, oxirgi qismi kengayish burchagi 6^0 gacha bo'lgan burchak ostida yumaloq kesim yuzasidan to'rtburchak kesim yuzaga o'tuvchi quvur shaklida quriladi. Chiqishdagi gidravlik qarshiligi kamroq bo'lishi uchun suvni tezligi $1,5 \text{ m/s}$ gacha qabul qilinadi.

Mexanik qulfak va moslamalar sifati quydagilardan foydalaniadi:

a) chiqish quvuri diametri $1,2 \text{ m}$ gacha bo'lganda, oddiy bir lappakli teskari qopqoqli yopqich qo'llanadi (13.3-rasm).



13.3-rasm. Teskari qopqoqli yopqich:

1- quvurni chiqishdagi diffuzor qismi; 2- lappak; 3-sharnir; 4- qarama-qarshi yuk; 5-havo kiritish tuynugi.

Bunday qopqoqlar avtomatik ravishda o'z og'irlilik kuchi va suvning bosim kuchi ta'sirida ochilib-berkiladi. Lekin to'liq ochilmaganda gidravlik qarshiligi katta va berkilishida zarb bilan urilishi bu qopqoqni asosiy kamchiligi hisoblanadi. Zarbni oldini olish uchun o'qidan qarama - qarshi tomoniga yuk o'rnatiladi;

b) chiqish quvuri diametri $1,2\ldots2 \text{ m}$ bo'lganda, gorizontal o'qli ekssentrik o'rnatiladigan lappakli qopqoq – yopqich qo'llanadi.

d) chiqish quvuri kesim yuzasi 20 m^2 gacha bo'lsa, gidrouzatma bilan boshqariladigan qopqoqsimon darvozalardan foydalaniladi (13.1,e-rasm);

e) chiqish quvuri kesim yuzasi 1 m^2 katta bo'lgan hollarda beton ustunlarning o'yilmalariga o'rnatiladigan va yuk ko'tarish qurilmalari bilan boshqariladigan yassi yoki segment darvozalar qo'llash tavsiya etiladi (13.1, a,b,d-rasm);

f) quvurning diametri 1 m gacha bo'lgan hollarda uni o'ziga o'rnatiladigan standart teskari qopqoq qo'llanilishi mumkin (12.11-rasm).

Mexanik qulfakli suv chiqarish inshootlarida nasoslarni ishga solish paytida quvurdagi havoni chiqarish va nasoslarni to'xtatishda quvurga havo kirgizish uchun maxsus havo tuyniklari o'rnatilishi zarur. Havo tuyningining kesim yuzasini $40...50 \text{ m/s}$ havo tezligi uchun topiladi. Havo sarfi nasosning hisobiy suv uzatishiga teng qabul qilinadi.

Suv chiqarish inshootining o'lchamlari quvurlarni soni va o'lchamiga, suv olib ketuvchi kanalning o'lchamlari va undagi suv sathining o'zgarishiga bog'liq holda, quyidagi tartibda aniqlanadi.

Quvurning chiqish qismidagi diffuzorning diametri

$$D_{dif} = (1,1 \dots 1,2)D; \quad (13.1)$$

bu yerda, D – bosimli quvur diametri.



Diffuzordan chiqishdagi oqimnmng minimal tezligi:

$$V_{dif} = \frac{4Q_{min}}{\pi D_{dif}^2} \leq 1,5 \text{ m/s}. \quad (13.2)$$

bu yerda, Q_{min} – bitta aggregatning suv uzatishi, m^3/s .

Quvurning chiqishdagi diffuzori kengayish burchagi $0^0=8\dots10^0$ olinadi. Diffuzorning yuqori qismini minimal suv sathidan botirilishi

$$a = (4\dots5) \cdot \frac{V_{dif}^2}{2g} \geq 0,2 \text{ m}; \quad (13.3)$$



13.4-rasm. Mexanik qulfakli suv chiqarish inshootining o'lchamlarini aniqlash tasviri.

Diffuzorning pastki qismidan inshoot tubigacha masofa $S=0,2$ m qabul qilinsa, so'ndirish qudug'ining minimal chuqurligi:

$$H_{\min}^{quad} = a + D_{def} + S ; \quad (13.4)$$

Quduq ostonasining balandligi:

$$h_p = H_{\min}^{quad} - h_{\min}^{kor} ; \quad (13.5)$$

Quduqning maksimal chuqurligi:

$$H_{\max}^{quad} = h_p + h_{\max}^{kor} ; \quad (13.6)$$

bu yerda, H_{\min}^{kaz} va H_{\max}^{kaz} – mashina kanalining minimal va maksimal chuqurliklari.

Inshoot devorining maksimal suv sathidan yuqori qismi balandligi $t=0,3 \dots 0,6$ m olinadi. Bosimli havzaning har bir bo‘linmasi eni

$$B_{bo'l} = D_{dif} + 2s; \quad (13.7)$$

Bosimli havzaning umumiy eni

$$B_{xav} = B_{bo'l} \cdot n + \delta_{av} (n-1) \quad (13.8)$$

bu yerda: s – ustundan diffuzorgacha qoldiriladigan zaxira ($s=0,2 \dots 0,3$ m);

n – bosimli kuvurlar soni; δ_{av} – bo‘luvchi ustunning qalinligi ($\delta_{av}=0,6$ m).

Bosimli havza qudug‘ining uzunligi

$$L_{qud} = \ell_1 + \ell_2 = (2 \dots 3) \cdot D_{dif} + 5h_p; \quad (13.9)$$

Inshootning yonidagi devorlari qalinligi 0,4…0,6 m, orqa devori qalinligi 0,6…0,8 m va poydevori 0,8…1,0 m qabul qilinadi.

Havzaning eni B_{xav} mashina kanali eni s_{kan} dan katta bo‘lsa, ular rejada $\beta=35 \dots 40^\circ$ burchak bilan bog‘lanadi. U holda bog‘lanish masofasi quyidagicha topiladi:

$$\ell_{bog} = \frac{B_{xav} - s_{kan}}{2 \cdot \operatorname{tg} \frac{\beta}{2}}; \quad (13.10)$$

Mashina kanalining boshlanish qismi yuvilishiga qarshi $\ell_{max} = (4 \dots 5) \cdot h_{max}^{kaz}$ – masofada xarsangtosh yoki beton bilan mahkamlanadi.


13.3. Sifonli suv chiqarish inshootlari

Sug‘orish tizimidagi nasos stansiyalarida sifonli suv chiqarish inshootlari keng qo‘llaniladi.

Sifonli suv chiqarish inshootlarini qo‘llash quyidagi shartlar asosida chegaraiangan:

- sifondagi maksimal statik vakuummetrik bosim 6 m dan kam bo'lishi zarur;
- nasoslarni ishga solish paytida ularni xarakteristikasida belgilangan ish chegarasidan chiqib ketmasligi lozim;
- har qanday ish holatlarda ham sifonda vakuum hosil qilishning imkoniyati bo'lishi zarur.

Bosimli quvurdan suv haydalganda sifon to'la vakuum sharoitida ishlaydi, buning uchun uning bo'g'izi maksimal suv sathidan $\delta \geq 0,25$ yuqoriga o'rnatiladi (13.5-rasm). Sifonli inshootlarda mexanik qulfaqlarga zarurat bo'lmaydi, chunki sifoning yelka qismiga o'rnatiladigan qopqoq yordamida havo kiritilib, vakkum yo'qotiladi va oqimning teskari harakati to'xtatiladi. Vakuum yo'qotish, ya'ni havo kirishi qopqoqlarining gidravlik va mexanik turlari ishlab chiqilgan. Gidravlik havo kiritish qopqog'i suv sathining o'zgarishi 1,2 m gacha bo'lganda qo'llaniladi. Mexanik havo kiritish qopqog'i suv sathi har qanday chegarada o'zgarganda ham qo'llanilishi mumkin, lekin sifondagi maksimal vakuum $H_{vak}^{\max} < 6$ m bo'lishi zarur.



13.5-rasm. Sifonli suv chiqarish inshootining o'lchamlarini aniqlash tasviri.

Sifonni loyihalashda uning elementlarini quyidagicha qabul qilish tavsiya etiladi (13.5-rasm):

1) yuqoriga ko'tarilish tarmog'ining qiyalik burchagi $\alpha_1=30\dots45^\circ$, pasayuvchi tarmog'ining qiyalik burchagi $\alpha_2=30\dots40^\circ$

2) yuqoriga ko'tarilish tarmog'ining radiusi $r = (1,5\dots2)\Delta_s$ va bo'g'izining radiusi $r_s = (2\dots3,5)\Delta_s$, bu yerda Δ_s – sifonning diametri.

3) sifon bo'g'izining maksimal suv sathidan balandligi $\delta \geq 0,2m$;

4) sifon bo'g'izining burilish burchagi $\theta = 60^\circ$ va diffuzorning chiqishdagi kengayish burchagi $8\dots10^\circ$;

5) havzaning umumiyligi eni:

$$B_{\text{sum}} = nD_{\Delta_f} + g(n-1) \quad (13.11)$$

bu yerda – diffuzorning diametri; n – sifonlar soni; g – sifonlar orasidagi masofa ($g=0,7\dots1,0$ m qabul qilinadi).

Sifonli inshootlarda bo'luvchi ustunlar o'matishga zarurat bo'lmaydi. Sifonli inshootning boshqa o'chamlari yuqoridagi mexanik qulfaqli suv chiqarish inshooti uchun keltirilgan tartibda aniqlanadi. Yuqoridagi (13.4) formuladagi $S=0$ qabul qilinadi. Sifonning samarali ishlashi to'liq zichlanganligi va undan havoni olib chiqib ketilish sharoitiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida sifondagi tezlikni qanday taqsimlanishi hamda uning yuqoriga ko'tariluvchi va pasayuvchi tarmoqlari qiyaligi bilan belgilanadi.

Sifondagi W hajmdagi havo pufakchasi ikki xil kuch ta'sir etadi (13.2,d-rasm);

–birinchisi, gidrostatik bosimning vertikal yo'naligan so'ruvchi kuchi:

$$P = \rho g W \quad (13.12)$$

–ikkinchisi, oqimdagagi gidrodinamik bosimning etaklovchi kuchi:

$$F = \omega \cdot \frac{\rho V^2}{2} \quad (13.13)$$

bu yerda, ω va V – sifon bo'g'izining kesim yuzasi va oqimi tezligi.

Pufakchada ta'sir etayotgan P kuchni gorizantal va vertikal yo'nalish bo'yicha N va F kuchlarga ajratamiz:

$$\begin{aligned} N &= P \cdot \cos \alpha ; \\ T &= P \cdot \sin \alpha ; \end{aligned} \quad (13.14)$$

bu yerda, α -sifon tepa devorining qiyalik burchagi.

Demak, N kuch pufakchani yuqori devorga ko'taradi, T kuch esa uni tashqariga chiqishga qarshilik qiladi. Sifon o'zidan havo chiqarishi uchun $T \leq F$, bo'lishi zarur. Bu shart bajarilishi uchun sifon tepa devoridagi oqim tezligini oshirish va pasayuvchi tarmog'i qiyaligini kamaytirish zarur bo'ladi.

Sifon o'zi havosini to'la chiqarishi uchun quvurdagi minimal suv sarfi $Q_{\min} \geq Q_{zar}$ bo'lishi kerak (Q_{zar} -sifondagi havoni chiqarish uchun zaruriy suv sarfi).

Yumaloq kesim yuzali sifon uchun zaruriy suv sarfi Q_{zar} quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{zar} = \sqrt{g D_b}^{2.5} (0.53 - 0.17 \alpha_1 / 90^\circ), \quad (13.15)$$

To'rtburchak kesim yuzali sifon uchun Q_{zar} teng:

$$Q_{zar} = \sqrt{g A B_s} \sqrt{H_s^3 / \alpha} \quad (13.16)$$


bu yerda, D_b va B_s - sifon bo'g'izining diametri va eni, m; α_1 - sifon yuqoriga ko'tarilish tarmog'ining o'rnatilish burchagi: H_s -sifon bo'g'izi balandligi, m; A - koefitsiyent ($0,6 \dots 0,7$); α - Kariolis koefitsiyenti ($1,05$ ga teng).

Bosimli quvurlarning diametri $D < 2$ m bo'lgan hollarda sifon yumaloq kesim yuzali po'lat materialdan tayyorlanadi (13.6,a-rasm). Diametri $D > 2$ m bo'lganda sifon temir-betondan to'rtburchak shaklda bajarilib, eni $B=D$ va balanligi $H=0,8D$ ga teng qabul qilinadi va ichki qismi po'lat material bilan qoplanadi (13.6,b-rasm).

Sifondan havo chiqarish va unda vakuum hosil qilish yengil bo'lishi uchun yuqoriga ko'tariluvchi tarmog'ining qiyalik burchagini orttirish va pasayuvchi tarmog'ining qiyalik burchagini kamaytirish tavsya etiladi [33].

Qarshi magistral kanalidagi nasos stansiyalar uchun loyihalangan sifonli suv chiqarish inshootining suv oqish qismi yuqori energetik ko'rsatgichlarga ega ekanligini va o'lchamlari ixchamligi bilan boshqa inshootlardan ajralib turadi.

Ishlab chiqarish sharoitida bu suv chiqarish inshootining sifon bo'g'izida oqim tezligi $V=2,5\dots3,5$ m/s teng bo'lganda zaruriy vakuumni hosil qilish mumkinligi aniqlangan [30]. Uning bosimli quvur diametri D ga nisbatan o'lchamlari quyidagicha qabul qilinadi: $R=2D$; $R_1=1,44D$; $R_2=2,67D$; $R_3=3,7D$; $\ell=0,735D$; $r_0=1,75D$; $r_1=1,5D$; $r_2=2D$; $L=5,5D$; $a=0,5D$; $b=1,8D$; $H=1,2D$.




13.6 –rasm. Kesim yuzasi yumaloq (a) va to'rtburchak shakldagi sifonli suv chiqarish inshootlari (b):

1- bosimli quvur; 2 va 5- yuqoriga ko'tariluvchi va pasayuvchi tarmoqlari; 3- vakuum yo'qotish qopqog'ini o'rnatish tuynugi; 4-sifon bo'g'izi; 6-diffuzor.

Sifonli suv chiqarish inshootidan samarali foydalanish uning vakuum yo'qotish qopqog'ini ishonchli ishlashiga bog'liqidir. Vakuum yo'qotish qopqog'i quyidagi talablarga javob berishi talab etiladi: bosimli quvurdan suv uzatish to'xtaganda, sifonga havo kiritib, vakuumni to'la yo'qotishni ta'minlashi; bosimli quvurga suv uzatilganda,

vakuumni ushlab turish uchun yuqori darajadagi zichlangan bo'lishi; avtomatik ravishda ishlashi. Demak vakuum yo'qotish qopqog'i ham havo chiqarish, ham havo kiritish imkonyati ega bo'lishi zarur. Ishlash tarzi bo'yicha vakuum yo'qotish qopqog'lari gidravlik va mexanik turlarga bo'linadi.



13.7-rasm. Qarshi magistral kanalidagi nasos stansiyalarining suv chiqarish inshootlari uchun tavsiya etilgan sifon shakli.

Gidravlik vakuum yo'qotish qopqog'i (13.8-rasm) tuzilishi sodda bo'lib, stakan-pezometr 1 va havo quvurchasi 3 dan iborat. Stakan sifondagi yuqoriga ko'tariluvchi tarmog'i 2 ga o'rnatiladi. Havo quvurchasi 3 ning bir uchi sifonni bo'g'iz qismiga va ikkinchi uchi stakan 1 ga kiritib qo'yiladi. Vakuum yo'qotish qopqog'ining 13.8,a-rasmdagi shakli quyidagi tartibda ishlaydi. Nasoslar bir me'yorda ishlagan paytida stakandagi suv sathi bosimli havzadagi suv sathidan yuqori bo'ladi. Ularni farqi sifondagi bosim isroflari qiymati ΔH_1 ga teng bo'ladi. Shuning uchun stakandagi havo quvurchasini uchi bosimli havzadagi minimal suv sathidan pastroqqa joylashtiriladi. Nasoslar to'xtagandan keyin sifondagi suvni orqaga harakati natijasida stakandagi suv sathi teskari oqimdagisi ΔH_2 qiymatiga pasayadi.

Sifonda vakuum yo'qotish uchun havo quvurchasining stakandagi uchi teskari harakat paytidagi bosimli havzadagi maksimal suv sathiga nisbatan joylashadigan stakandagi suv sathidan yuqorida turishi zarur. Shunday qilib, bosimli havzadagi suv sathini o'zgarish chegarasi quyidagicha bo'lganda gidravlik qopqoqni qo'llash mumkin bo'ladi:

$$\Delta H = \Delta H_1 + \Delta H_2 + \Delta h + \Delta P/\rho g ; \quad (13.17)$$


bu yerda, ΔH_1 va ΔH_2 — oqimni to‘g‘ri va teskari harakatidagi sifonning gidravlik qarshiliklari hisobiga bosim isroflari, Δh —suvni to‘g‘ri va teskari harakatida bosimli havzadagi suv sathini o‘zgarishi qiymati; ΔP —teskari gidravlik zarb hisobiga bosimni o‘zgarishi.

Bosimli havzadagi suv sathini o‘zgarish chegarasini kengaytirish uchun tezlik quvurchasi o‘rnataladigan vakuum qopqoqlarini qo‘llash tavsija etiladi (13.8,b,d,e,f,g,h,i,j-rasm). Yuqoridagi tasvirda berilgan vakuum yo‘qotish qopqoqlarida havoni to‘liq chiqarib tashlanmasligi sababli nasoslarni ish tartibi buzilishi amaliyotdagi tadqiqotlar asosida tasdiqlangan [12]. Suv chiqarish inshooti ish jarayoniga bog‘liq bu noxush holatlarni oldini olish maqsadida gidravlik vakuum yo‘qotish qopqog‘ini havo chiqaruvchi vantuz bilan birga qo‘llash istiqbolli natijalar keltirishi mumkin. Bunday tuzilishdagi gidravlik qopqoqlar Qarshi magistral kanalidagi nasos stansiyalarda ko‘llangan va yaxshi natijalarga erishilgan.


Gidravlik vakuum yo‘qotish qopqoqlarini qo‘llash chegarasini kengaytirish maqsadida, uning stakanini bosimli havzada suzuvchi qalkovuchga o‘rnatish tavsija etiladi. Vakuum yo‘qotish qopqog‘ining havo quvurchasi kesim yuzasi maxsus hisoblar asosida aniqlanadi. Odatda uning kesim yuzasi sifon bo‘g‘izi kesim yuzasidan 5...8 %, stakanni diametrini havo quvurchasi diametridan 2...3 marta kattaroq qabul qilish yetarli bo‘ladi.

Mexanik vakuum yo‘qotish qopqoqlarida to‘suvchi yoki havo kirituvchi element vazifasini metall membrana (tarelka) bajaradi. Bunday qopqoqlar sifondagi maksimal statik vakuummetrik bosimni (6) m gacha saqlagan holda bosimli havzadagi suv sathining turli o‘zgarish chegaralarida qo‘llanishi mumkin. 13.9-rasmda mexanik qopqoqning eng sodda tuzilishdagi tasviri berilgan. Quvurdan suv sifonga etib kelishi bilan bosim ta’sirida kurakcha (1) o‘nga harakatlanadi va dasta (2) yordamida berkituvchi lappak (3) zichlovchi rezina egarga bosiladi va sifon atmosferadan ajraladi.

Suvni teskari harakatida kurakcha chap tomonga harakatlanishi natijasida berkituvchi lappak (3) ochilib, sifonga havo kiradi va vakuum yo‘qolishi oqibatida bosimli havzadagi suv quvurga qaytib o‘tmaydi.



13.8- rasm. Gidravlik vakuum yo‘qotish qopqoqlari tasvirlari:
1-stakan-pezometr; 2-yuqoriga ko‘tariluvchi tarmoq; 3-havo quvurchasi.



13.9 - rasm. Vakuum yo‘qotuvchi
mexanikqopqoqning tuzilishi:
1-kurakcha; 2-dasta; 3-berkituvchi
lappak; 4-sifonni bo‘g‘iz qismi.

Ushbu qopqoqlarni kamchiligi quyidagilardan iborat: bitta bosimli quvurga bir nechta nasoslar suv uzatadigan hollarda tezlikdan hosil bo‘luvchi bosim o‘zgarishida qopqoqni to‘la zichligini saqlash qiyinligi, ochilib-berkilishida kechikishi, qopqoq elementlariga xas-cho‘p ilinib

qolishi natijasida uni yaxshi ishlamasligi, suvni notekis harakatida dasta qismini tebranishi.

13.4. SHovva – devorli suv chiqarish inshootlari


Shovva-devorli suv chiqarish inshootlarining tuzilishi sodda, foydalanish oson va ishonchlidir. Lekin suvni devordan oshirib tashlanganligi uchun ortiqcha energiya sarf qilish zarur bo‘ladi.

Bosimli quvurning diffuzori (1) dan chiqayotgan suv bosimli havza (3) dan vertikal shovva-devor (2) bilan ajratilgan hovuz (4) ga kiradi. Shovva-devorning yuqori qirrasi gorizontal holatda bosimli havzadagi maksimal suv sathidan 0,1 m gacha balandroqqa joylashtiriladi. Suv shovva-devor atrofidan bosimli havzaga oqib tushadi.

Shovva-devor ustidagi suv qatlami qalinligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$H_s = \left(\frac{Q}{mL\sqrt{2g}} \right)^{2/3}, \quad (13.18)$$

bu yerda, Q – kuvurning suv sarfi; m – suv sarfi koeffitsiyenti; L – devorning uzunligi;



13.10-rasm. Shovva-devorli suv chiqarish inshooti:
1-bosimli quvurning diffuzorli chiqish qismi; 2-shovva-devor; 3-havza;
4-hovuz.

Shovva-devorli suv chiqarish inshootining gidravlik hisoblari adabiyotlarda berilgan [27,35]. Ushbu turdag'i inshootlarni qurilish va foydalanish harajatlari boshqa turdag'i inshootlarga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli amaliyotda kam qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Suv chiqarish inshootlari qanday vazifalarni bajaradi?
2. Suv chiqarish inshooti qanday turlarga bo'linadi?
3. Mexanik qulfakli suv chiqarish inshootiga qanday uskuna va jihozlar o'rnatiladi?
4. Mexanik qulfakli suv chiqarish inshootining o'lchamlari nimalarga bog'liq bo'ladi?
5. Sifonli suv chiqarish inshootida qaysi turdag'i vakuum yo'qotish qopqoqlari qo'llanadi?
6. Sifonli suv chiqarish inshootlarida qo'llanadigan mexanik vakuum yo'qotish qopqog'ining ishlash tarzini tushuntirib bering.
7. Gidravlik vakuum yo'qotish qopqog'ining ishlash tarzini tushuntirib bering.
8. Sifonli suv chiqarish inshootining qo'llanish chegarasi nimalarga bog'liq bo'ladi?
9. Sifonli suv chiqarish inshootining samarali ishlashi qaysi o'lcham-larga bog'liq bo'ladi?
10. Shovva-devorli suv chiqarish inshootini qanday hollarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi?

14-bob. NASOS STANSIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING TEXNIK IQTISODIY HISOBLARI

14.1. Nasos stansiyalardan texnik foydalanish qoidalaringning asosiy shartlari

Nasos stansiyaning foydalanish xizmati belgilangan reja asosida uning samarali va ishonchli ishlashini ta'minlash zarur. Nasos stansiyadan foydalanish rejasi quyidagi larni o'z ichiga oladi [35]: 1) suv uzatish grafigi; 2) nasos stansiyaning foydalanish smetasi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (suving tannarxi va h.k.); 3) suvning tannarxini kamaytirish va stansiyadan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tashkiliy - texnik tadbirlar; Bu tashkiliy – texnik tadbirlar sug'orish tormoqlarida suvni isrof bo'lishini oldini olish, ta'mirlash ishlarni mexanizatsiyalash, avtomatik boshqarish elementlarini qo'llash, uskunalarini o'z vaqtida yog'lash va ta'mirlash hamda ularni ish ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha sinov o'tkazish, kaskadli (pog'onali) suv uzatuvchi stantsiyalarda nasoslar va kanallarni hamkorlikda ishslash tartibini aniq belgilash, eski yaroqsiz holdagi uskunalarini yangi zamonaviylariga almashtirish, xizmatchi xodimlarni malakasini tizimli ravishda oshirib borish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

Nasos agregatlariga xizmat ko'rsatish medisina ko'rigidan o'tgan, mashinist guvohnomasiga ega va texnika xavfsizligi bo'yicha imtihon topshirgan shaxslarga ruxsat beriladi. Navbatchi mashinist nasoslarni ishga solishdan avval nasos va so'rish quvuriga suv to'lganligini tekshirishi zarur. Nasosni ishga solish davrida uni vali to'la aylanish chastotasiqa erishgani va uzatgichiga o'rnatilgan manometr to'la bosimni ko'rsatganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng bosimli quvurdagi surilma qulfakni asta-sekin, to'liq ochiladi. Suv qizib ketmasligi uchun surilma qulfak berk holatda nasosning ishslash davri 2...3 min dan ortmasligi kerak. Nasosni bir me'yorida ishslash davrida vakuummetr, manometr va podshipniklarni sovitish uchun o'rnatilgan quvurlarda jumraklar ochib qo'yiladi va nasoslar to'xtatilganda ularni berkitiladi. Nasoslarni to'xtatishdan avval bosimli quvurdagi surilma qulfak asta-sekin yopilishi zarur. Navbatchi mashinist agregatlarning ish jurnaliga har soatda ampermetr, voltimetrik, elektr energiya hisoblagichi,

vakuummetr, manometr va suv sarfi o'Ichagichi ko'rsatkichlarini yozib boradi.

Nasos stansiyaning hamma xonalariga nasos va elektr - kuch uskunalaridan foydalanish tartibi bo'yicha ko'rsatmalar ilib qo'yilishi zarur. Agregatlarni ish jarayonida navbatchi nasoslarni ishga solgan va to'xtatgan vaqtin, hamda ulardagi nosozliklarni ma'lumotnomaliga jurnaliga yozib boradi, podshipniklarni harorati atrof haroratidan $40\dots50^{\circ}\text{C}$ ga ortib ketmasligini kuzatib turadi, podshipniklardagi yog'lar sathi pasayib ketmasligiga e'tibor beradi va salniklarni gaykasini 1 daqiqada $30\dots40$ tomchi suv oqadigan darajada mahkamlab turadi.

Navbatchi mashinist markazdan qochma, o'qiy va quduq nasoslarida qanday nosozliklar bo'lishi mumkinligini bilib olishi zarur [18].

14.2. Joriy va kapital ta'mirlash

Nasoslar, elektr dvigatellar, elektrotexnika uskunalarini, yordamchi uskuna va jihozlarning holatini xizmatchi xodimlar kuzatib boradilar.

Rejali ogohlantiruvchi ta'mirlashda boltli ulamalarning holati tekshiriladi; nasoslarni qismlarga ajratmay valini ko'zdan kechiriladi; belgilangan joylarni tebranish, zichlash qismlari va podshipniklarni sovutish qismlaridan suv oqishi va moyning harorati nazorat qilinadi; salnik zichlagichi almashtiriladi; o'qiy nasoslarda kuraklarini burish mexanizmi holati tekshiriladi.

Joriy ta'mirlash agregatini to'xtatib va suvi quritilgandan so'ng, detallarini qismlarga qisman ajratilib, amalga oshiriladi. Bunda nasos stansiyaning uskunalarini muddatidan avval yeyilishdan va halokatlari holatlardan saqlash uchun kichik hajmdagi shikastlanishlarni va nosozliklarni bartaraf qilinadi. Joriy ta'mirlashda podshipniklarni sirpanma qismi, valning zichlash elementlari almashtiriladi, valni podshipnik va zichlagich o'rnatiladigan joylari, ishchi g'ildirakni zichlash qismi elementlari eyilishi aniqlanadi; nasos va dvigatel o'qarini o'zaro to'g'ri kelishi tekshiriladi.

Kapital ta'mirlash. Nasos aggregatlarini profilaktik kuzatish va energetik xarakteristikasini nazorat qilish ma'lumotlari asosida kapital ta'mirlash rejsasi tuziladi va yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi. Bunday ta'mirlash jarayonida yeyilgan detallar va elementlar to'la almashtiriladi yoki ba'zi hollarda umuman yangi nasos aggregati o'rnatilishi mumkin. Ko'p hollarda nasosni ishchi g'ildiragi, podshipniklari,

rezinali yon zichligichi, rezinali podshipnikning sirpangichi, valning bo'yincha qismi almashtiriladi.

Yog' sovutgichlari idishlarida teshik yo'qligi 0,3 MPa bosimda 5 min sinab ko'rildi. Nasos qobig'ini xlorlab yuvilib, dvigateli elektr tormog'iga bog'langandan so'ng ruxsatnoma olinadi va agregatlar sinab ko'rildi. Kapital ta'mirlash xarajatlari asosiy fonddan ajratiladigan amortizatsiya mablag'i hisobidan qoplanadi.

14.3. Nasos stansiyalardan foydalanishni tashkil etilishi

Foydalanish xizmatining tashkiliy tuzilmasi. Nasos stansiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ma'muriy – boshqaruv, bevosita boshqaruv va ta'mirlash xizmati tashkil etiladi. Ma'muriy – boshqaruv xizmati xodimlari foydalanishning mahoratlari boshqarish rejasini ishlab chiqish va kapital ta'mirlash grafiklarini tuzish, material ta'minoti, kadrlar tayyorlash va foydalanish sifatini nazorat qilish kabi ishlarga javob beradi.

Bevosita boshqaruv xizmati yoki navbatchi xodimlar nasos stansiyani suv iste'moli grafigi asosida yuqori tashkilotlar buyrug'i bo'yicha svjni uzlusiz uzatib berishni ta'minlashi zarur. Bundan tashqari uskuna va inshootlardagi nosozliklarni kuzatib, uni bartaraf qilish ishlarni tashkil etishi talab etiladi.

Ta'mirlash xizmati xodimlari bir nechta nasos stansiyalarga xizmat ko'rsatuvchi brigadalardan iborat bo'lib, markaziy ta'mirlash ustaxonasiga joylashtiriladi. Nasos stansiyalaridan foydalanishni to'rtta davrdagi bajariladigan ishlar jarayoniga bo'lish mumkin:

1. Qurilish yoki ta'mirlash tugallanib, uskunalar to'la yig'ilgandan so'ng ishga tushirish va sozlash ishlari bajarilishi zarur. Buning uchun avvalo uskunalar va yordamchi tizimlarning aniq o'rnatilishi, agregat poydevoriga va flaneslarga o'rnatilgan boltlarni mahkamlik darajasi, nasoslarning ishchi g'ildiraklari zichlash qismlari tirqishlari o'lchamlari, o'qiy nasoslarning kuraklari o'rnatilishi burchaklari tengligi, nasoslar va dvigatellar o'qlarining mos tushganligi, podshipniklarni yig'ilish sifati va ularning vannalarida moyning borligi tekshirib ko'rildi.

Tayyorgalik ishlaridan so'ng yordamchi tizimlar: vakuum – nasos, podshipniklar va zichlash qismlarining sovitish va moylash, texnik – suv ta'minoti tizimi, asosiy aggregatlarning gidrouzatma qismini boshqarish tizimlari ishga tushiriladi. Yuqoridagi jarayonlardan so'ng asosiy aggregatlarni birinchi dastlabki sinash uchun bir nechta sekund ishga

tushiriladi va to'xtatilib, diqqat bilan ko'zdan kechiriladi hamda aniqlangan kamchiliklarga bartaraf etiladi. Shundan so'ng chiniqtirish sinovi o'tkazish uchun agregat ikki-uch soat ishlatib ko'rildi va podshipniklar vannalaridagi moylar sathi va harorati aniqlanadi, salniklarni ishlash holati, elektr dvigatel o'ramlari qizishi, agregatlar va qurilish konstruksiyalari tebranish darajasi nazorat qilib boriladi.

Agregatlar to'xtalib, barcha kuzatilgan kamchiliklar bartaraf qilingandan so'ng yana qaytadan ish bajarish (suv uzatish) qobiliyatini tekshirish uchun 8....15 soat davomida yurgiziladi va turli ish tartiblarida suv uzatishi, bosimi, quvvati, FIK, tebranish darajasi va kavitsiyasiz ishlashi aniqlanadi. Agregatlar to'xtatilib, yana qayta nazoratdan o'tkazilib, qabul komissiyasiga topshirish uchun 12...20 soat davomida nazorat sinovi o'tkaziladi va foydalanish xizmatiga topshiriladi. Nazorat sinovi davomida nasos stansyaning to'la jihozlanganligi, aggregatlarning ish ko'rsatkichlarini zavod tavsiyasi va loyiha ma'lumotlariga mos tushishi tekshirilib ko'rildi.

2. Nasos stansiyalardan foydalanishdagi asosiy ishlarni uskunalar tayyorlash zavodlarining qo'llanmalari va texnika xavfsizligi qoidalari talablarasi asosida bevosita boshqaruvin xizniati xodimlari bajarishlari zarur. Avtomatlashgan nasos stansiyalarda bevosita boshqaruvin xodimlari doimo stansiyada bo'lishi talab qilinmaydi, ammo ular davriy ravishda kelib, uskunalar va inshootlarni ko'zdan kechirib turishi zarur. Kanaldan kanalga suv uzatuvchi sug'orish tizimidagi nasos stansiyalarda bevosita boshqaruvin xodimlari stansiyada muntazam bo'lishi va navbatchi bevosita dispatcher ko'rsatmasi bo'yicha aggregatlarni ishga solishi yoki to'xtatishi, uskunalar, mexanizmlar va inshootlarning ishlashini nazorat qilishi, kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatib borishi lozim. Inshootlarni nazorat qismidagi choklardan va tuproqli qismlaridan suvni sizib o'tishi, inshootlarning cho'kishi va siljishi, qurilish konstruksiyalarining tebranishi, panjaralarining ifloslanishi va inshootlar atrofidagi choklarning deformatsiyalanishi kuzatib turiladi.

Bulardan tashqari o'chov asboblari yordamida aggregatlarning suv uzatishi, bosimi, quvvati, podshipniklar va elektr dvigatel o'ramlari harorati hamda vallarning bo'yin qismi, podshipniklar, kollektorlar, kontakt halqa va cho'tkalar, avtomatika va elektrotexnika vositalari, kompensator va vakuum - uzish qopqog'i, boshqaruvin va suv to'su chi uskunalar tizimlarini nazorat qilib, tekshirib boriladi. Nasoslardan foydalanishda uchraydig'an nosozliklar va ularning aniqlash usullari 14.1-jadvalda keltirilgan.[18]

3. Asosiy ta'mirlash ishlari sug'orishdan keyingi kuzgi- qishki davrlarda amalga oshiriladi. Ta'mirlash talab etadigan uskunalar va inshootlar bo'yicha kamchiliklar qaydnomasi tuziladi, ishlarni bajarish bahosi va muddatlari aniqlanib, zaruriy material va ehtiyyot qismlar keltiriladi. Kapital ta'mirlashdan so'ng yuqorida bayon etilgan tartibda yurgizish –sozlash ishlari to'liq bajariladi.

4. Sug'orish va ta'mirlash ishlaridan so'ng inshootlar va uskunalar qishki saqlashga tayyorlash zarur. Buning uchun nasoslar, quvurlar va hajmiy idishlardan suvlarni chiqarish,sovuoqdan saqlash zarur bo'lgan uskunalar joylashgan xonalarni isitish, nazorat asboblarini, gidromexanik va elektromexanik uskunalarning zaruriy qismlarini maxsus moylar bilan yog'lash va g'iloflar bilan o'rash ishlari amalga oshiriladi.

14.1-jadval

Nasoslardagi nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari

Nosozligi mohiyati	Nosozligi sababi	Bartaraf qilish usuli
1	2	3
1. Markazdan qochma nasoslar		
Dvigatelni ortiqcha zo'riqishi	Dvigatelni noto'g'ri tanlangan	Tekshirish va dvigatelni almashtirish
Ishga tushirilgandan so'ng suv haydamay qolishi	Nasos noto'g'ri tanlangan, so'rish quvuriga havo so'rilishi	Nasos ishchi g'ildiragini yo'nish imkoniyati tekshirib ko'rildi yoki yuqori aylanish chastotali dvigatel o'rnatiladi. Salniklar, choklarning bolt va gaykalari mahkamlanadi, so'rish quvurining kirish qismini suvgaga botirilish darajasi ta'minlanadi
Nasosni kam suv uzatishi	Nasosga havo kirishi	Yuqoridagi tadbirlar amalga oshiriladi
	Ishchi g'ildirak ifloslanishi	Tekshirish va tozalash zarur
	Ishchi g'ildirak yoki zichlash halqasini shikastlanishi	Ochish, tekshirish va almashtirish
	Quvurlarni ifloslanishi yoki to'silib qolishi	So'rish va bosimli quvurlarini tekshirish va tozalash
	Ishchi g'ildirakni qobiqqa nisbatan siljib qolishi	Ishchi g'ildirakni tekshirib, to'g'ri joylashtirish

1	2	3
Nasosni zaruriy bosimini hosil qilaolmasligi	Ishchi g'ildirak chiqish qismida kuraklarining yeyilishi	Ishchi g'ildirak almash-tiriladi
	Ishchi g'ildirak zichlash qismi tirkishining suvdagi abraziv zarrachalar ta'sirida kengayib ketishi	Zichlash halqasi almash-tirilib, tirkishini toraytirish
	Suvda havo borligi	So'rish quvurining ulanish joylarini tekshirish, sal-niklarini almashtirish va qisish
Dvigatel quvvati ortib ketishi	Ishchi g'ildirak yoki uni zichlash halqasini yeyilishi	Ishchi g'ildirak yoki zich-lash halqasi almashtiriladi
	Rotorni noto'g'ri yig'ilganligi, ishchi g'ildirakni zichlash halqasi yoki boshqa detallarga tegib aylanishi	Nasos va dvigatel valla-rining o'qi mos tushishini tekshirish
Nasos valini tebranishi, undan quruq qarsillash ovozi chiqishi	Kavitsatsiya hodisasi	Nasos ish tartibini o'zgar-tirib yoki kavitsatsiyaga qarshi tadbirlar qo'llab, uni oldini olish
Salnikdan suv oqishi	Salnik arqoni yeyilgan yoki noto'g'ri o'matilgan	Salnik arqonini almashtiriladi yoki qayta o'rabi tiladi
MS(ДИС) nasoslarida tayanch podshipniklarini ruxsat etiladigan darajadan yuqori haroratda qizishi	Podshipnik soqqalarini tayanch halqlarini orasida o'ta zich qisilishi	Tayanch halqlarini qisuvchi gaykalarni bir oz bo'shatish
2. Suvga botiriladigan elektr dvigatelli markazdan gochma quduq nasoslari		
Elektr- nasos yurmaydi	Boshqarish pulti va kabel noto'g'ri ulangan	Elektr dvigatel zanjiridagi va boshqarish punktidagi bog'lanish (kontakt)larini tekshirish
	Tormoqda kuchlanish yo'q yoki saqlagich ishdan chiqqan	Yangi saqlagich qo'yish
	Tormoqdagi kuchlanishning pastligi yoki yurgizish paytida kuchlanishni birdan pasayib ketishi	Yurgizish davridagi kuch-lanishni tekshirish

1	2	3
	Kabel simlari yoki elektr dvigatel o'ramlari qoplamlarini ko'chib ketishi	Simlardagi qoplamlarni ko'chgan joylarini aniqlab, qoplash yoki almashtrish
Nasosni yurgizishda to'satdan o'chib qolishi (avtomatik jihozlar ishlashi natijasida yoki saqlagich ishdan chiqishi oqibatida)	Avtomatik jihozlarning nosozligi	Yuqoridagi talab etiladigan tok miqdori bo'yicha avtomatika jihozlarini tekshirish va sozlash
Elektr – nasos biroz muddat ishlagandan so'ng to'xtab qoladi	Elektr dvigatel yoki boshqarish stansiyasi zanjirida kisqa tutashuv ro'y berishi	Elektr dvigatel va boshqarish stansiyasi elektr zanjirini tekshirish
	Avtomatika tizimini nosozligi	Zaruriy ishlov toki miqdori uchun tekshirish va sozlash
	Boshqarish stansiyasining nosozligi	Boshqarish stansiyasi va himoyalash sxemalarini ko'zdan kechirish va tekshirish
Nasos zaruriy miqdordagi suvni chiqarmaydi	So'rish qismidagi himoyalovchi to'rni ifloslanishi natijasida qarshilik ortib ketishi.	Suv uzatish quvuri orqali teskari oqimda yuqori bosimli suv bilan yuvish
	Valning teskari aylanishi	Elektr tormog'i fazalarini almashtirib, valning aylanish yo'nalishini o'zgariishi
	Nasos detallarini yeylimishi, zichlash qismi tirqishini kengayishi. Suv ko'taruvchi kolonna quvurdan suvni sirqib chiqishi	Agregat chiqarib, ochiladi. Nasos va quvurlar kollonasi ko'zdan kechiriladi va yeyilgan detallari almashtiriladi.
Nasosni ortiqcha quvvat iste'mol qilishi	Nasos aggregatini noto'g'ri yig'ilishi oqibatida o'qiy tirqishini nosozligi, ya'ni ishechi g'ildirakni qo'zg'almas detallarga tegib qolishi Tirgak g'ilofini yoki zichlash joylarini tegib qolishi oqibatida rotorni qiyin aylanishi	Agregatni chiqarish va nasosni ochib, rotorni sozlash
	Nasos va elektr dvigatel o'rnataladigan tovontagi qismlarini yeylimishi	Agregatni chiqarib, tegib qolgan qismlarini sozlanadi
	Tovontagi qismlari almashtiriladi	

1	2	3
3.O'qiy nasoslar		
Elektr dvigatelning tayanchidagi moyni o'ta qizib ketishi	Moya suv qo'shilib qolishi	Burama sovutgich quvurchalar va radiaturlarning butunligi tekshiriladi
	Moyni sovutilish darajasi yetarli emasligi (chiqadigan moyni harorati 40°C yuqori)	Podshipniklar va tayanch qismlarini sovutuvchi texnik suv ta'minoti tizimini tekshirish
Tayanch qismlari yoki boshqarish tizimi moylovchi yog' quvuridagi bosimni pasayib ketishi	Tishli moy haydash nasos detallarini eyilishi	Nasosni ochish va qobiq bilan ishchi detali orqasidagi yon tirqishni 0,05 ...0,08 mm gacha qisqartirish
	Moy quvurlarini butun emasligi	Moy quvurlarini ta'mirlab, zichlash
Ishchi g'ildirak bo'linmasi kavitsion yemirilishi	Ishchi g'ildirakni zaruriy so'rish balandligida o'rnatilmaganligi yoki pastki bef-dagi suv sathini me'yoriy miqdordan pasayib ketishi	Kuraklarni burib nasosni ish tartibini o'zgartish yani suv haydashini kamaytirish. Nasos bo'linmasi va ichki qismidagi yemirilgan joylarni qayta tiklash
Nasosni qobig'ida shovqun, qarsillashi eshitilishi, yuqori darajada tebranishi	Kavitsiya hodisasi	Ishchi g'ildirakning hamma kuraklarini burchagi bir xilda o'rnatilishini tekshirish va sozlash yoki nasosni ish tartibini o'zgartirish
	So'rish yoki bosimli quvurlarni qisilish yoki to'silishi	Quvurlarni tozalash
	Xas-cho'p to'suvchi panjaraning ifloslanishi yoki suv qabul qilish bo'linmasida loyqa cho'kishi	So'rish qismini loyqa va xas-cho'plardan tozalash
Elektr dvigatel salt va yuklamada aylanganda uning krestovinasi tebranishi (tebranish va aylanish chastotasi mos tushadi)	Stator va rotor orasidagi tirqish bir xilda emas	Tirkishni sozlash

1	2	3
Aylanish chastotasi va tebranish chastotasi teng bo'lgan holda tebranish amplitudasi yuklamaga proporsional ortadi	Elektr dvigatel va nasos valalarining o'qlari mos tushmasligi (markazlashma-ganligi)	O'qlarni markazlashtirish
	Mahkamlangan qismlarini bo'shab ketishi sababli ta-yanch detallari siljishi natijasida vallarni markazlashtirish	Tanyach detallari mahkamlanib, o'qlarni qaytadan markazlashtirish

Lavozimlar. Ma'muriy - boshqaruv xizmati lavozimlari irrigasiya tizimlari havza boshqarmalari lavozimlari tarkibiga kiritiladi. Bevosita boshqaruv xizmati lavozimlari nasos stansiyaning suv uzatishi va bosimi, gidrotexnik inshootlarining tarkibi va murakkabligi, uskunalarining avtomatlashganlik va ishonchlilik darajasiga bog'liq ravishda belgilanadi. Kichik va o'rta avtomatlashgan nasos stansiya uchun ikkita uyida turib boshqaruvchi navbatchi belgilanadi.

Nasos stansiya binosidan boshqariladigan hollarda past kuchlanishli elektr dvigatellar o'rnatilgan yer ustki binolarida 4 ta, yuqori kuchlanishli elektr dvigatellar qo'llanganda, 9 ta bevosita boshqaruv xizmati lavozimi belgilanadi. Bo'linmali binoli nasos stansiyalari uchun xuddi shunga o'xshash holda bevosita boshqaruv xizmati lavozimlari 6 va 10 kishidan iborat bo'ladi.

Katta nasos stansiyalarda va murakkab ish sharoitiga ega bo'lgan hollarda lavozimlar soni joydagи haqiqiy ish hajmlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ta'mirlash xizmati lavozimlari kapital va joriy ta'mirlashlarga ajratma mablag'lari asosida belgilanadi.

Texnika xavfsizligi qoidalari:

- bevosita boshqaruv xizmati xodimlari nasos stansiyasining texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishgan bo'lishi zarur;
- barcha yuk ko'tarish mexanizmlari va moslamalari namunaviy yuklamaga sinovdan o'tkazilgan va tekshirilgan bo'lishi kerak (ya'ni me'yoriy yuklamadan 25 % ortiq yuklamaga); kran ilgagiga osilgan yuk tagidagi turish man etiladi.
- ish o'rnlari to'la yoritilgan va elektr mashinalari va instrumentlar himoyalovchi erlagich simlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur;

- namlik yuqori joylarda 12 V dan yuqori kuchlanishli qo‘lda foydalaniладigan elektr lampalarini ishlatish tavsija etilmaydi;
- oraliq tomlardagi yuk chiqarish tuynuklariga to‘sqichlar o‘rnatish zarur;
- boshqaruv xizmati xodimlari barcha oraliq tomlarning rejasи va ularni yuk ko‘tarish chegarasi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak;
- uskuna va mexanizmlarni tozalash va joriy ta’mirlash ularni elektr tarmog‘idan uзilib, to‘la harakatdan to‘xtagandan so‘ng ruxsat etiladi;
- agregatlarning aylanadigan detallari atrofiga himoyalovchi to‘rli to‘sqichlar o‘rnatish zarur.

Uskunalar va inshootlarning chidamliligini oshirish va foydalishdagi xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha har yili quyidagi tadbirlarni rejalashtirish zarur:

- keraksiz tashlama suvlar miqdorini kamaytirish;
- nasoslarning bosimi ortib ketishi hisobiga sarflanadigan elektr energiya miqdorini kamaytirish;
- uskunalarning yeyilgan detallarini nazorat qilish va o‘z vaqtida almashtirish. Nasos detallarini yeyilishi hisobiga uning bosimi pasayib, suv haydashi kamayishini oldini olish;
- kanallardagi va inshootlarning deformatsion choklaridagi sizilish hisobiga suvning yo‘qolishini qisqartirish;
- bosim isrofini kamaytirish;
- uskunalar va inshootlarning holatini doimiy nazorat qilish;
- boshqaruv xodimlarining o‘qishini tashkil etish va foydalish sifatini nazorat qilish.

Barcha o‘tkaziladigan tadbirlar texnik-iqtisodiy hisoblar bilan asoslanishi zarur.

14.4. Texnik-iqtisodiy hisoblar asosida echiladigan masalalar

Nasos stansiyalarni loyihalashda uning suv uzatishi va bosimi bo‘yicha ish tartibini to‘la ta’minlanlovchi, lekin bahosi har xil, texnik jihatdan teng ko‘rsatkichli turli variantlar belgilanishi mumkin. Loyihalanadigan inshootlarning maqbullik va daromat keltirish darajasi texnik-iqtisodiy hisoblar bilan asoslanadi. Bunday hisoblar asosida mashinali suv uzatish gidrobug‘i va uning ayrim inshootlarini eng qulay variantlari tanlab olinadi. Suv xo‘jaligi qurilishi amaliyotida biror

variantdagi texnik yechim, ikkinchisiga nisbatan samarali ekanligini aniqlashda iqtisodiy samaradorligini taqqoslash usuli qo'llanadi.

Sug'orish tizimi nasos stansiyalarini loyihalashda iqtisodiy samaradorlikni taqqoslash usulidan foydalaniib, quyidagi masalalarni echish mumkin:

1) suv manbasini tanlash;

2) suv uzatish usulini aniqlash, ya'ni o'zi oqib kelish va mashinali suv uzatish variantlarini solishtirib, mashinali suv uzatish samaradorligi asoslanadi;

3) suv olish inshootining joyi va tuzilishini tanlash. Geologik qidiruv o'tkazilib inshootning har xil joylashtirish variantlari solishtiriladi;

4) pog'onali suv uzatish variantlarini solishtirish asosida bitta yoki bir nechta ketma -ket suv uzatuvchi nasos stansiyalar qurish zarurligi taqqoslab ko'rildi.

Ushbu masalalar kapital mablag' hajmi, qurilishning murakkabligi va foydalanish qulayligiga bog'liq bo'lganligi uchun loyihalashning boshlang'ich, ya'ni loyiha topshirig'ini tuzish davrida yechiladi.

5) gidrotexnik inshootlarini mujassamlash yechimlarini asoslash, masalan nasos stansiya binosini bilan suv qabul qilish yoki suv chiqarish inshootlarini alohida joylashtirish yoki birikkan variantlarini taqqoslash;

6) nasos stansiya binosining iqtisodiy jihatdan qulay joyini tanlash. Ushbu masalani yechishda suv chiqarish yo'nalishida binoni manbadan har xil masofalarga joylashtirib, suv keltirish kanali va bino osti handagidagi tuproq hajmi va bosimli quvurlarni uzunligi bo'yicha turli variantlar taqqoslanadi;

7) nasos agregatlari soni va turini tanlash masalasini yechishda suv iste'moli grafigini zikh qoplanishi asosida suv uzatishning eng arzon varianti tanlab olinadi;

8) bosimli quvurlar soni, materiali va iqtisodiy maqbul diametrini tanlash. Quvurlardagi bosim 40 m dan yuqori va ularning uzunligi 300 m dan ortiq bo'lgan hollarda, quvurlar bir nechta bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagi uchun alohida material va diametr tanlanadi;

9) yangi asbob-uskunalar, materiallar va qurilmalarni qo'llash zarurligi asoslanadi;

10) asosiy va yordamchi inshootlarning o'Ichamlari va tuzilishini texnik - iqtisodiy jihatdan solishtirish;

11) nasos stansiya qurilishini navbatlab amalga oshirishni asoslash. Agar qurilish muddati 10 yildan ortiq bo'lsa, kapital mablag'ni

o'zlashtirish navbatlab amalga oshiriladi. Bu holda qo'shimcha sarflanadigan kapital mablag', qurilish tugaguncha olinadigan mahsulot bahosi bilan tenglashtirib ko'rildi [35].

Suv ta'minoti va chiqindi suvlarni chiqarish tizimi nasos stansiyalarini loyihalashda yuqoridagilardan tashqari nasos stansiya binosini rejadagi yumaloq va to'rtburchak shakli, qurilish ishlarini bajarish usuli, avtomatizatsiya qo'llash darajasi, stansiyani ish tartibini tanlash, rostlovchi havza hajmi, dvigatellarni sovutish tizimi, nasoslarni o'reutish balandligi, cho'kindilarni qo'zg'atish usuli va texnik suv ta'minoti, chiqindilarga ishlov borish usuli kabi masalalar bo'yicha turli variantlarni texnik-iqtisodiy hisoblar bilan taqqoslash asosida eng maqbul variantlar tanlab olinadi. Maqbul variantni tanlash kapital mablag', yillik foydalanish sarflari va keltirilgan xarajatlar asosida loyiha topshirig'ini tuzish davrida amalga oshiriladi.

Nasos stansiyaga sarflanadigan kapital mablag' ya'ni qurilish bahosi K smeta hujjatlari asosida aniqlanadi. Qurilishning smeta bahosi nasos stansiyani loyiha bo'yicha qurilishi va asosiy fondlarni ishga solish uchun sarflangan mablag' va qurilish tashkilotining rejali yig'im xarajatlaridan tashkil topadi. Nasos stansyaning qurilish - yig'ish ishlari bo'yicha smeta bahosi bo'yicha qurilish ishlari narxi, gidromexanik va energetik uskunalar, hamda mexanik jihozlar va metal konstruksiyalar sotib olish, olib kelish, saqlash, yig'ish va sozlash xarajatlarini yig'indisiga teng bo'ladi.

Suv uzatish uchun sarflanadigan elektr energiya bahosi, xizmatchi xodimlarning maoshlari, joriy ta'mirlash bahosi, amortizatsiya ajratmasi, mehnat muhofazasi va moylash materiallari xarajatlarini yig'indisini yillik foydalanish sarflari (C) deyiladi.

Elektr energiyaning yillik bahosini aniqlash uchun har bir suv uzatish davrlaridagi nasos agregatlarining haqiqiy bosimi H_i , suv uzatishi Q_i va FIK $\eta_{n,i}$ nasoslarning xarakteristikasidan qabul qilinadi. Har bir t_i davrlar uchun nasos stansyaning quvvatlari quyidagi formula bilan aniqlanadi (kVt):

$$N_i = \frac{9.81 \cdot \sum Q_i H_i}{\eta_{n,i} \eta_{F,I}} ; \quad (14.1)$$

bu yerda, $\eta_{F,I}$ – turli suv uzatish davrlaridagi elektr dvigatellarning FIK lari; $\sum Q_i$ – har bir t_i davrdagi ishlayotgan nasos agregatlarining suv uzatilishlari yig'indisi, m^3/s .

Yil davomida sarflangan elektr energiya miqdori ($\text{kVt}\cdot\text{soat}$) quyidagicha topiladi:

$$\Sigma E = (N_1 t_1 + N_2 t_2 + \dots + N_n t_n) 24; \quad (14.2)$$

bu yerda, $N_1, N_2 \dots N_n$ – nasos stansiyaning turli suv uzatish davrlaridagi quvvatlari, kVt ; $t_1, t_2 \dots t_n$ – nasos stansiyaning suv uzatish davrlari, kun:

Yillik sarflangan elektr energiya bahosi (so'm):

$$C_{en} = (\Sigma E + 0,02 \Sigma E) S; \quad (14.3)$$

bu yerda, S – $1 \text{ kVt}\cdot\text{soat}$ elektr energiya narxi, so'm ; $0,02 \cdot E$ – stansiyaning o‘z ehtiyojlari uchun sarflaydigan elektr energiya miqdori, $\text{kVt}\cdot\text{soat}$.

Xizmatchi xodimlarning maoshlari nasos stansiyada xizmat qiluvchi barcha ishchi-xodimlarning asosiy va qo‘sishma yillik ish haqlarini o‘z ichiga oladi. Ishchi –xodimlar soni bo‘yicha ma’lumotlar 14.3-mavzuda keltirilgan tavsiyalar asosida qabul qilinadi.

Joriy ta’mirlash bahosi kapital mablag‘ga nisbatan inshootlar uchun 2,2 % va uskunalar uchun 3,8 % ajratma shaklida belgilanadi.

Amortizatsiya ajratmasi ishlab chiqarish xarajatlarini to‘la yoki qisman (kapital ta’mirlash) qoplash uchun kapital mablag‘ga nisbatan ajratiladigan pul miqdori hisoblanadi. Amortizatsiya ajratmasi belgilangan me’yorlar asosida inshootlar uchun 3,5 %, uskunalar uchun 12% qabul qilinadi.

Texnika xavfsizligi va moylash materiallari bahosi o‘z ehtiyojlari uchun sarflaydigan elektr energiya bahosi, xizmatchi xodimlar maoshlari va joriy ta’mirlash xarajatlari yig‘indisidan 8 % miqdorda belgilanadi.

Hisobdan tashqari xarajatlar foydalaniш xarajatlari yig‘indisiga nisbatan 3% qabul qilinadi. Aniqlangan kapital mablag‘ K va yillik foydalaniш xarajatlari E natijalari asosida variantlarni iqtisodiy solishtiriladi. Agar $K_1 > K_2$ va $C_1 > C_2$ bo‘lsa, o‘z-o‘zidan ma’lumki 2-variant 1-ga nisbatan samaralidir. Amaliyotda $K_1 > K_2$ va $C_1 < C_2$ yoki $K_1 < K_2$ va $C_1 > C_2$ bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda variantlarni iqtisodiy taqqoslash qo‘sishma sarflanadigan kapital mablag‘ni foydalaniш xarajatlarini iqtisod qilish hisobiga qoplash usulida amalga oshiriladi. Bir variantga nisbatan ikkinchisiga ortiqcha sarflangan

kapital mablag‘ni foydalanish xarajatlarini kamayishi hisobiga qoplay olish muddati T_0 me’yoriy qoplanish muddati deyiladi. Odatda $T_0 = 7 \dots 10$ yil qabul qilinadi.

Haqiqiy qoplanish muddati quyidagicha ifoda bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{K_1 - K_2}{C_2 - C_1}. \quad (14.4)$$

Agar $T > T_0$ bo‘lsa, ikkinchi variant samarali hisoblanadi. Agar $T < T_0$ bo‘lsa, birinchi variant ya’ni kapital mablag‘ ko‘p sarflangan variant samarali deb qabul qilinadi.

Yuqoridagi (14.4) formula ikkita variantni solishtirish imkoniyatini beradi. Bir nechta variantlarni taqqoslashda ularni iqtisodiy jihatdan baholash keltirilgan xarajatlarni ($K_{k,x}$) solishtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Me’yoriy samaradorlik koeffitsiyenti asosida bir xil o‘lchamga keltirilgan yillik foydalanish xarajatlari va kapital mablag‘lar yig‘indisi keltirilgan xarajatlar $K_{k,x}$ deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{k,x} = K + C \cdot T_o \quad yoki \quad K_{k,x} = C + K \cdot E_N; \quad (14.5)$$

bu yerda, E_N – me’yoriy iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti ($E_N = 0,08 \dots 0,125$).

Eng oz keltirilgan xarajatlarga to‘g‘ri keluvchi variant maqbul hisoblanib, loyiha uchun qabul qilinadi. Keltirilgan xarajatlar asosida bosimli quvurlarni diametrini va nasos stansiya binosini joyini tanlash bo‘yicha kompyuter dasturlari bilan aniq masalalarni yechish usullari [23] adabiyotda keltirilgan.

14.5. Solishtirma texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

Meliorativ nasos stansiyalarni loyihalash va ulardan foydalanish amaliyotida boshqa o‘xshash nasos stansiyalar bilan taqqoslab ko‘rish maqsadida quyidagi texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi:

1) bir kVt belgilangan quvvatning qurilish bahosi, sum/kVt:

$$K_N = \frac{K}{N_b}, \quad (14.6)$$

bu yerda, K – nasos stansiya qurilishi uchun sarflangan kapital mablag'lar yig'indisi, so'm; N_b – nasos stansiyaning belgilangan quvvati, kVt.

Nasos stansiyaning belgilangan quvvati o'rnatiladigan agregatlar soni $Z_{o\cdot r}$, elektr dvigatelning pasportidagi nominal quvvati N_{dv} va stansiyaning o'z ehtiyojlari uchun sarflanadigan 20 kVt quvvati e'tiborga olib quyidagicha topiladi:

$$N_b = Z_{o\cdot r} \cdot N_{dv} + 20 ; \quad (14.7)$$

2) bir metr kub suvni chiqarish bahosi, so'm/m³:

$$C_w = \frac{C}{\Sigma W} ; \quad (14.8)$$

bu yerda, C – yillik foydalanish xarajatlari, so'm; ΣW – yil davomidagi suv chiqarish miqdori, m³.

Yillik suv uzatish miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi, m³:

$$\Sigma W = (Q_1 t_1 + Q_2 t_2 + \dots Q_n t_n) \cdot 86400 ; \quad (14.9)$$

bu yerda, Q_1, Q_2, \dots, Q_n – turli davrlardagi nasos stansiyaning suv uzatishlari, m³/s;

3) bir tonna metr uzatilgan suvning bahosi, so'm/t·m :

$$C_{wH} = \frac{C}{\Sigma W \cdot H} ; \quad (14.10)$$

bu yerda, $\Sigma W \cdot H$ yil davomida turli davrlardagi suv uzatish miqdorlarini nasoslarni bosimiga ko'paytmalari yig'indisi, t.m.

4) bir ga erni sug'orish bahosi, sum/ga:

$$C_\omega = \frac{C}{\omega} ; \quad (14.11)$$

bu yerda, ω – sug'oriladigan maydon, ga

5) nasos stansiyaning quvvatidan foydalanish koeffisenti α va vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti β quyidagicha topiladi:

$$\alpha = \frac{N_{o,r}}{N_b}; \quad \text{va} \quad \beta = \frac{T_x}{T_y}; \quad (14.12)$$

bu yerda, $N_{o,r}$ – nasos stansiyaning o‘rtacha quvvati, kVt ; T_x – naos stansiyaning yil davomidagi ishlash muddati, soat; T_y – bir yildagi soatlar soni (8760 soat).

O‘rtacha quvvat $N_{o,r}$, yillik elektr energiya sarfi ΣE ni stansiyaning yillik haqiqiy ishlash soati T_x ga nisbatida aniqlanadi:

$$N_{o,r} = \frac{\Sigma E}{T_x}; \quad (14.13)$$

6) nasos stansiyaning foydalanish koeffitsiyenti quyidagicha anilanadi:

$$\eta_{ns} = \alpha \cdot \beta; \quad (14.14)$$

Nasos stansiyaning quvvat koeffitsiyenti $\alpha \geq 0,5$ bo‘lgan hollarda loyihalash tadbirlari samarali hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Nasos stansiyadan foydalanish rejasি qanday hujatlarni o‘z ichiga oladi?
2. Navbatchi mashinist qanday ishlarni bajaradi?
3. Nasoslardagi nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullarini tushuntirib bering.
4. Joriy va kapital ta’mirlashda qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. Nasos stansiyalardan foydalanishda bajariladigan ishlarni tushuntirib bering.
6. Nasos stansiyada qanday texnika xavfsizligi qoidalariiga amal qilish talab etiladi?
7. Texnik iqtisodiy hisoblar asosida qanday masalaalar echiladi?
8. Yillik foydalanish sarflari tarkibiga nimalar kiradi?
9. Keltirilgan xarajatlar qanday aniqlanadi?
10. Nasos stansiyasining yillik uzatadigan suv hajmi va sarflangan elektr energiya bahosi qanday aniqlanadi?
11. Solishtirma texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tushuntirib bering.

ADABIYOTLAR

1. Азизов С. Каршинский магистральный канал. -Гидротехника и мелиорация, 1970, № 7.с.21-26.
2. Бабенко Ю.М., Коваленко Ю.В. Насосы. Учеб.пособие. Ростов н/Д. (Ростов н/Д Гос. Акад.с-х. машиностр.): 2001.-104 с.
3. Вишневский К.П. Переходные процессы в напорных системах водоподачи.-М.: Агропромиздат, 1986.-136 с.
4. Водозaborные сооружения для водоснабжения из поверхностных источников /Образовский А.С., Ереснов Н.В., Ереснов В.Н. и др.-М.:Стройиздат, 1976.-398 с.
5. Гловатский О.Я., Очилов Р.А. Совершенствование эксплуатации крупных мелиоративных насосных станций. В.3-х ч.-М.: Обзорная информация, ЦБНТИ, 1990.-ч II.-90 с.
6. Горгиджанян С.А.. Дягилев А.И. Погружные насосы для водоснабжения и водопонижения.— Л.: «Машиностроение», 1988.-112 с.
7. Данг Саун Хоа. Совершенствование режимов эксплуатации крупных насосных станций: Автореф.дис... докт.техн.наук.-Ташкент: САНИИРИ, 1996.-28 с.
8. Дульнев В.Б. Борьба с сором и засасыванием воздуха в циркуляционные насосы.- Электрические станции, 1995, №7.с.20-23.
9. Карасаев Б.В. Насосы и насосные станции. Учеб.пособие для вузов.-М.: Высшая школа, 1989.-228 с.
10. Карелин В.Я. Изнашивание лопастных насосов. —М.: Машиностроение.1983.-168 с.
- 11.Карелин В.Я. Кавитационные явления в центробежных и осевых насосах. -М.: Машиностроение. 1975.-336с.
12. Карелин В.Я. Новодерёжкин Р.А. Насосные станции гидротехнических систем.-М.: Энергия, 1980.-298 с.
- 13.Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. Том.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001.-432 б.
14. Козырев С.П. Гидроабразивный износ металлов при кавитации. —М.: Машиностроение. 1981.-240 с.
15. Кондахаров Б.К. Совершенствование управления ремонтными работами на крупных каскадах насосных станций. // Перевод водохозяйственных эксплуатационных организаций на рыночные отношения: Матер.Респ.науч. конф. -Т.:2002.-с.56.

16. Кривченко Г.И. Гидравлические машины. Турины и насосы. Учеб. для студ. гидротехн. специальностей. -М.: Энергия.-2001.-320 с. (Открытая рус.электронная библиотека. ГПНТБ, Россия).
17. Латипов К.Ш. Гидравлика, гидромашиналар ва гидроюритичлар. -Тошкент.: Ўқитувчи, 1992.-336 б.
18. Лисов К.И. Григорьев К.Т. Насослар ва насос станциялари. (Русчадан таржима), -М.: Колос.1977. -Тошкент.: Ўқитувчи, 1980.-230 б.
19. Ломакин А.А., Центробежные и осевые насосы. -М.-Л.: Машиностроение, 1976.-304 с.
20. Мамажонов М. Повышение эффективности эксплуатации центробежных и осевых насосов насосных станций оросительных систем. Автореферат дис...докт.техн.наук. -Ташкент.: ТИМИ, 2006.- 30 с.
21. Мамажонов М., Ботиров У., Шакиров Б. Водозаборное сооружение. А.с.№ 1781380,- заявка № 48221448/15.Б.И. №46,1992 .
22. Мамажонов М., Ботиров У.,Турсунов Х. Изменение водоподачи насосов. // Сельское хозяйство Узбекистана. 2005, №2.с.28-29.
23. Мамажонов М., ва бошқ. Насослар ва насос станцияларидан амалий машғулотлар. Ўкув қўлланма. Тошкент: ТИМИ.: 2010, - 212 б.
24. Мамажонов М., Упрощенный способ определения подачи насосных агрегатов // Мелиорация и водное хозяйство. - 1990,-№5.-с.34-36.
25. Насосы. Каталог-справочник. ВИГМ. -М.-Л., 1960.-552 с.
26. Насосы осевые типа «О», «ОП» и центробежные типа «В». Каталог-справочник. ЦИНТИХИМНЕФТЕМАШ.-М.: 1970.-51 с.
27. Насосы и насосные станции /В.Ф.Чебаевский, К.П.Вишневский, Н.Н.Накладов и др. Под ред. В.Ф.Чебаевского (учебник для студентов высш.учеб.заведений). -М.: Агропромиздат, 1989. - 416 с.
28. Насосы погружные скважинные для воды. Альбом – каталог А-364-76.Белгород, 1976.
29. Нейман З.Б., Пекне В.З. Моз.Л.С. Крупные вертикальные электродвигатели переменного тока. -М.: Энергия, 1974- 376 с.
30. Некрасов В.М. Баль Б.А. Исследование сифонных водовыпусков насосных станций.-Гидравлика и гидротехника, 1975. № 23, с.23-35.
31. Павлов В.Я. О преподавании курса «Мелиоративных насосных станций». Моск. Гос.Универ. природообустройства. Научные

труды. «Вопросы повышения качества образования....». Сб.матер.3 межвузов.науч.-техн.конф. –М.: 2001.-210 с.

32. Палышкин Н.А. Гидравлика и сельскохозяйственное водоснабжение. –М.: Агропромиздат, 1990.- 351 с.

33. Перепелкина В.В. Сифонные водосбросы и сифонные водовыпуски насосных станций.-Сборник науч. трудов САНИИРИ, 1975.вып.147.- с.37-42.

34. Поспелов Б.Б., Пресняков В.Г. Натурные исследования гидравлического удара при пуске насоса 368-В-12.-Труды института МИСИ, 1991.№ 91 с. 126-132.

35. Проектирование насосных станций и испытание насосных установок: Учеб.пособие /Рычагов В.В., Чебаевский В.Ф., Вишневский К.П. и др. Под ред. В.Ф. Чебаевского. –М.: Колос, 1982.- 320 с.

36. Рахимбоев Ф.М., Холикулов С.И. Сув хўжалигига оид русча-ўзбекча-французча лугат . –Тошкент, «Ўқитувчи», 1998 .

37. Рычагов В.В., Флоринский М.М. Насосы и насосные станции» 4-е изд. –М.: Колос 1975. - 416 с.

38. Справочник по гидравлическим расчетам /Киселев П. Г., Альтшуль А. Д., Данильченко Н.В. и др. – М.: Энергия, 1972.-312 с.

39. Трубаев П.А. и др. Гидравлические машины и системы технического водоснабжения. Учеб.пособие. Белгород.инж-экон. инст.2002 .-131 с.

40. Угунчус. А.А. Гидравлика и гидравлические машины. Изд. Харьковск. Гос. Университета, Харьков: 1980. - 396 с.

41. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1999–2000-йилларда ирригация ва мелиорация ишларини амалга ошириш тўғрисида.1999.20 май.

42. Хансуваров К.И., Цейтман В.Г. Техника измерения давления, расхода, количества и уровня жидкости, газа и пара.-М.: Изд. Стандартов, 1990.- 287 с.

43. Хохлов В.А. Эргосберегающие режимы работы насосных агрегатов с длинными трубопроводами. Автореф. дис...докт.техн. наук. –Ташкент.: Ин-т энергетики АН РУз. 2009. - 29 с.

44. Черкасский В.М. Насосы , компрессоры, вентиляторы. –М.: Энергоатомиздат, 1984.- 416 с.

45. Чиняев И.А. Лопастные насосы. Справочное пособие --Л.: Машиностроение. 1973.-184 с.

46. Яроменко О.В. Испытание насосов. Справочное пособие. – М.: Машиностроение. 1976.-225 с.
47. Anderson H.H. Centrifugal pumps. The trade and technical press Ltd. England, 2001.-314 с.
48. Wiess K. Experimentelle Untersuchungen fur Teillastsstromung bei Kreiselpumpen. Diss. Darmstadt, 1995.- 142 s.
49. Schroeder K. Werkstoffabtrag bei turbulenten Spaltstromungen in Pumpen. Diss. Darmstadt, 1996.- 138 s.
50. Karelin V.J., Novoderezhkin R.A., Coj V., Mamajonov M. Cavitation Erosion in centrifugal Pumps. Conference Hydro-Turbo, 2002.Brno.
51. Osterman K. Pumpentechnik in der Wasserversorgung. 2 überarb und erw. Aufl. Köln.Miller.1991.-112 s.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
Kirish	5
I BO‘LIM. NASOSLAR	10
1-bob. Nasoslar va nasos qurilmalari haqida asosiy tushunchalar	10
1.1. Nasoslar va nasos stansiylarining tasniflanishi va qo‘llanishi sohalari	10
1.2. Nasos qurilmasining asosiy ish ko‘rsatkichlari	15
1.2.1. Nasos va nasos qurilmasining suyuqlik uzatishi va bosimi	15
1.2.2. Nasos va nasos qurilmasining quvvati va FIK	22
2-bob. Kurakli nasoslarning turlari, tuzilishi va ishlash tarzi	25
2.1. Kurakli nasoslarning tasniflanishi va belgilanishi	25
2.2. Markazdan qochma nasoslar	26
2.2.1. Konsol turdag'i markazdan qochma nasoslar	27
2.2.2. Ikki tomonlama suyuqlik kira'digan D turdag'i markazdan qochma nasoslar	29
2.2.3. Ko‘p pog‘onali markazdan qochma nasoslar	31
2.2.4. Vertikal markazdan qochma nasoslar	34
2.2.5. Maxsus markazdan qochma nasoslar	36
2.2.6. Markazdan qochma quduq nasoslari	36
2.3. O‘qiy nasoslar	40
2.4. Diagonal nasoslar	43
2.5. Kurakli nasoslar asosiy detallarining xususiyatlari	43
3-bob. Kurakli nasoslarning nazariysi	55
3.1. Kurakli nasoslarning ishchi g‘ildiragidagi oqimining kinematikasi	55
3.2. Kurakli nasoslarning asosiy tenglamasi	61
3.3. Nasoslarning ichki energiya yo‘qotishlari	65
3.4. Nasoslarning o‘xshashlik qonuniyatları va ularni andozalash	66
3.5. Nasoslarning tezkorlik koeffitsiyenti	70
3.6. Nasoslardagi kavitsatsiya hodisasi va ularni joiz so‘rish balandligi	71
4-bob. Kurakli nasoslarning xarakteristikalari va ularning turli sharoitlardagi ish tartiblari	81
4.1. Nasoslarning nazariy xarakteristikasi	81
4.2. Nasoslarning xarakteristikalari turlari va ishchi nuqtani aniqlash	83
4.3. Nasoslarni ish ko‘rsatkichlari rostlash	88
4.4. Nasoslarni parallel ishlashi	94
4.5. Nasoslarning ketma-ket ishlashi	97
4.6. Nasoslarni murakkab tarmoqqa ishlashi	98
4.7. Jamlangan grafiklar	99
4.8. Nasoslarni xarakteristikasini tajribada aniqlash	101
5-bob. Kurakli nasoslarni ishlatishdagi ba’zi holatlar	105
5.1. Nasoslarni ishga solish va to‘xtatishdagi holatlar	105
5.2. Nasoslarning beqaror ishlashi	108
5.3. Nasoslarning ish ko‘rsatkichlarini pasayish sabablari	110
5.4. Nasoslarning kavitsatsiya va gidroabraziv yeyilishi	115
6-bob. Hajmiy nasoslar	123

6.1.Porshenli nasoslarning tuzilishi, turlari va ishlash tarzi.....	123
6.2.Porshenli nasoslarning asosiy ish ko‘rsatkichlari.....	127
6.3.Rotorli nasoslar	131
6.4.Qanotli va diafragmali nasoslar.....	136
6.5.Suv-halqali vakuum-nasoslar	137
7-bob. Inersion va ishqalanish dinamik nasoslari	141
7.1.Uyurmali, labirintli va shnekli nasoslar	141
7.2.Oqimchali nasoslar	143
7.3.Havoli suv uzatkichlar (erliftlar)	145
7.4.Tebranma nasoslar.....	148
7.5.Tasmali va chilvirli suv uzatkichlar	149
7.6.Gidravlik taran.....	151
II BO‘LIM. Nasos stansiyalari	154
8-bob. Nasos stansiyalarining turlari va ularning inshootlari.....	154
8.1.Nasos stansiyalari va ularning inshootlari haqida umumiyl tushunchalar.....	154
8.2.Sug‘orish nasos stansiyalari.....	158
8.3.Quritish nasos stansiyalari	164
8.4.Suv ta’moti va chiqindi suvlarni chiqarish nasos stansiyalari.....	165
8.5.Ko‘chma nasos stansiyalar	172
9-bob. Nasos stansiyalarining gidromexanik, energetik va yordamchi uskuna va jihozlari	174
9.1.Gidromexanik va energetik uskunalar haqida umumiyl tushunchalar.....	174
9.2.Sug‘orish tizimi nasos stansiyalaridagi nasos agregatlarining hisobiy bosimi va suv uzatishi.....	175
9.3.Asosiy nasoslarni tanlash	179
9.4.Nasoslarni harakatlantiruvchi dvigatellar	183
9.5.Dvigateldan nasosga mexanik energiya uzatmalari.....	187
9.6.Yopiq sug‘orish tormog‘i nasos stansiyalarining asosiy gidromexanik uskunaları	190
9.7.Quritish nasos stansiyalarining asosiy gidromexanik uskunaları.....	192
9.8.Qishloq xo‘jaligi suv ta’moti nasos stansiyalarining asosiy gidromexanik uskunaları	193
9.9.Nasos stansiyalarning texnik va xo‘jalik ta’moti tizimi uskuna va jihozlari.....	198
9.10.Mexanik uskuna va jixozlar	206
9.11.Nazorat - o‘lchov asboblari va avtomatika vositalari.....	213
10-bob. Nasos stansiya binolari.....	222
10.1.Binolarning turlari va ularga qo‘yiladigan talablar	222
10.2.Binolarning tuzilishi va ularning turini tanlash.....	230
10.3.Nasos stansiya binosining asosiy o‘lchamlarini aniqlash.....	241
10.4.Maxsus turdagli nasos stansiyalar	248
11-bob. Nasos stansiyalarning suv olish va qabul qilish inshootlari	255
11.1.Suv olish inshootlarining turlari va ularga qo‘yiladigan talablar.....	255
11.2.Daryolardagi va suv omborlaridagi suv olish inshootlari.....	257
11.3.Suv keltirish inshootlari.....	266

11.4.Kanallardagi suv olish inshootlari	267
11.5.Baliq himoyalash qurilmalari	275
12-bob. Nasos stansiyalarning so‘ruvchevi va bosimli quvurlari	278
12.1.So‘rish va suv keltirish quvurlari	278
12.2.Bosimli kommunikatsiyalar	280
12.3.Quvurlardagi uskuna va jihozlar	284
12.4.Bosimli quvurlar	291
12.5.Bosimli quvurlarni sinash	300
12.6.Bosimli quvurlardagi gidravlik zarb va unga qarshi choralar.....	300
13- bob. Suv chiqarish inshootlari	306
13.1.Suv chiqarish inshootlarining ahamiyati va turlari	306
13.2.Mexanik qulfaqli suv chiqarish inshootlari.....	309
13.3.Sifonli suv chiqarish inshootlari.....	312
13.4.Shovva-devorli suv chiqarish inshootlari.....	320
14-bob. Nasos stansiyalardan foydalanish va ularning texnik iqtisodiy hisoblari.....	322
14.1.Nasos stansiyalaridan texnik foydalanish qoidalarining asosiy shartlari ..	322
14.2.Joriy va kapital ta’mirlash	323
14.3.Nasos stansiyalardan foydalanishni tashkil etilishi.....	324
14.4.Texnik-iqtisodiy hisoblar asosida yechiladigan masalalar.....	331
14.5.Solishtirma texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar.....	335
Foydalilanigan adabiyotlar.....	338

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие	3
Введение.....	5
РАЗДЕЛ ПЕРВЫЙ. НАСОСЫ.....	10
Глава 1.Основные понятия о насосах	
и насосных установках.....	10
1.1.Классификация насосов и насосных станций и области их применения.....	10
1.2.Основные параметры насосных установок.....	15
1.2.1.Подача и напор насоса и насосной установки.....	15
Мощность и КПД насоса и насосной установки.....	22
2. Виды, устройство и принцип действия	
'ных насосов.....	25
2.1.Классификация и маркировка лопастных насосов.....	25
2.2.Центробежные насосы.....	26
2.2.1.Центробежные насосы консольного типа.....	27
2.2.2.Центробежные насосы с двухсторонним входом жидкости типа Д.....	29
2.2.3.Центробежные многоступенчатые насосы.....	31
2.2.4.Центробежные вертикальные насосы.....	34
2.2.5.Центробежные насосы специального назначения.....	36
2.2.6.Скважинные насосы.....	36
2.3.Оевые насосы.....	40
2.4.Диагональные насосы.....	43
2.5.Особенности рабочих деталей лопастных насосов.....	43
Глава 3. Теория лопастных насосов.....	55
3.1.Кинематика потока в рабочем колесе лопастных насосов.....	55
3.2.Основное уравнение лопастных насосов	61
3.3. Внутренние потери энергии в насосах.....	65
3.4.Законы подобия и моделирования насосов	66
3.5.Коэффициент быстроходности насосов.....	70
3.6.Явление кавитации и допустимая высота всасывания насосов.....	71
Глава 4. Характеристики лопастных насосов и режимы	
работы их в различных условиях.....	81
4.1.Теоретические характеристики насосов.....	81
4.2.Виды характеристик насосов и определение рабочей точки.....	83
4.3.Регулирование рабочих параметров насосов.....	88

4.4.Параллельная работа насосов.....	94
4.5.Последовательная работа насосов.....	97
4.6.Работа насосов в сложную сеть.....	98
4.7.Сводные графики.....	99
4.8.Испытание насосов с целью построения рабочих характеристик.....	101
Глава 5. Некоторые эксплуатационные особенности лопастных насосов.....	105
5.1.Процес пуска и остановка насосов.....	105
5.2.Неустойчивая работа насосов.....	108
5.3.Причины снижения рабочих параметров насосов.....	110
5.4.Кавитационное и гидроабразивное изнашивание насосов.....	115
Глава 6. Объемные насосы.....	123
6.1.Виды, устройство и принцип действия поршневых насосов..	123
6.2.Основные рабочие параметры поршневых насосов.....	127
6.3.Роторные насосы.....	131
6.4.Крыльчатые и диафрагмовые насосы.....	136
6.5.Водокольцевые вакуум - насосы.....	137
Глава 7. Динамические инерционные насосы и насосы трения.....	141
7.1.Вихревые, лабиринтные и шнековые насосы.....	141
7.2.Струйные насосы.....	143
7.3. Воздушные водоподъемники (эрлифты)	145
7.4.Вибрационные насосы.....	148
7.5.Ленточные и шнуровые водоподъемники.....	149
7.6.Гидравлический таран.....	151
РАЗДЕЛ ВТОРОЙ. НАСОСНЫЕ СТАНЦИИ.....	154
Глава 8. Типы и состав сооружений насосных станций.....	154
8.1.Основные понятия о насосных станциях и их соружениях.....	154
8.2.Оросительные насосные станции.....	158
8.3.Осушительные насосные станции.	164
8.4.Насосные станции систем водоснабжения и канализаций.....	165
8.5.Передвижные насосные станции.....	172
Глава 9. Гидромеханические, энергетические и вспомогательные оборудования насосных станций.....	174
9.1.Понятие о гидромеханических и энергетических оборудованиях.....	174

9.2.Расчетные напор и подача насосных агрегатов	
насосных станций оросительных систем.....	175
9.3.Выбор основных насосов.....	179
9.4.Двигатели для привода насосов.	183
9.5.Передача механической энергии от двигателя к насосу	187
9.6.Основные гидромеханические оборудование насосных	
станций, подающих воду в закрытые оросительные сети.....	190
9.7.Основные гидромеханические оборудование	
осушительных насосных станций.....	192
9.8.Основные гидромеханические оборудование	
насосных станций сельскохозяйственного водоснабжения.....	193
9.9.Оборудования систем технического	
и хозяйственного обеспечения насосных станций.	198
9.10.Механические оборудование	206
9.11.Контрольно-измерительные приборы и	
средства автоматики.....	213
Глава 10. Здания насосных станций.....	222
10.1.Типы зданий насосных станций и требования к ним.....	222
10.2.Конструкции зданий и выбор их типа	230
10.3.Определение основных размеров зданий	
насосных станций.....	241
10.4.Особые типы насосных станций.....	248
Глава 11. Водозаборные и водоприемные сооружения	
насосных станций.....	255
11.1.Типы водозаборных сооружений и требования	
предъявляемые к ним	255
11.2.Водозаборные сооружения на реках и водохранилищах.....	257
11.3.Водоподводящие сооружения.	266
11.4.Водозаборные сооружения на каналах.....	267
11.5.Рыбозащитные устройства.....	275
Глава 12. Всасывающие и напорные трубопроводы	
насосных станций.....	278
12.1.Всасывающие и подводящие трубопроводы.	278
12.2.Напорные коммуникации.....	280
12.3.Трубопроводная арматура.....	284
12.4.Напорные трубопроводы.....	291
12.5.Испытание напорных трубопроводов.....	300
12.6.Гидравлический удар в напорных трубопроводах.....	300
Глава 13. Водовыпускные сооружения.....	306

13.1.Типы и назначения водовыпускных сооружений.....	306
13.2.Водовыпускные сооружения с механическими затворами...	309
13.3.Водовыпуски сифонного типа.....	312
13.4.Водовыпуски с переливными стенками.....	320
Глава 14. Эксплуатация насосных станций и их технико-экономические расчеты.....	322
14.1.Основные положения правил технической эксплуатации насосных станций.....	322
14.2.Текущий и капитальный ремонт оборудования	323
14.3.Организация эксплуатации насосных станций.....	324
14.4.Вопросы рассматриваемые в технико- экономических расчетах.....	331
14.5.Удельные технико-экономические показатели.....	335
Использованная литература.....	338

CONTENTS

Foreword.....	3
Introduction.....	5
Partition First. PUMP.....	10
Chapter 1. Main notion about pumps and pumping installation.....	10
1.1.Categorization pumps and pumping station and area of their using.....	10
1.2.Base parameters pumping installation.....	15
1.2.1.Presenting and pressure of the pump and pumping installation.....	15
1.2.2.Power and KPD pumps and pumping installation.....	22
Chapter 2. Types, device and principle action blade pump.....	25
2.1.Categorization and marking blade pumps.....	25
2.2.Centrifugal pumps.....	26
2.2.1.Centrifugal pumps of the console type.....	27
2.2.2.Centrifugal pumps with double-sided entering the liquids of the type.....	29
2.2.3.Centrifugal multistage pumps.....	31
2.2.4.Centrifugal vertical pumps.....	34
2.2.5.Centrifugal pumps of the special purpose.....	36
2.2.6.Downhole pumps.....	36
2.3.Axial pumps.....	40
2.4.Diagonal pumps.....	43
2.5.Particularity worker details blade pumps.....	43
Chapter 3. Theory blade pumps.....	55
3.1.Kinematics molasses in worker travell about blade pumps.....	55
3.3.Internal destruction of energy in pumps.....	61
3.2.Main equation blade pumps.....	65
3.4.Laws of the resemblance and modeling pumps.....	66
3.5.Factor specific speed pumps.....	70
3.6.The Phenomena cavitation in and possible height suction pumps.....	71
Chapter 4. behaviour, blade pump and state of working them in different condition.....	81
4.1.Theoretical behaviour pumps.....	81
4.2.Types of the features pump and determination worker points.....	83
4.3.Regulation worker parameter pumps.....	88
4.4.Parallel work pumps.....	94
4.5.Consequent work pumps.....	97
4.6.Work pump in complex network.....	98
4.7.Consolidated graphs.....	99
4.8.Testing pumps for the reason building of the operating line.....	101
Chapter 5. Some working particularity blade pump.....	105
5.1.Process of the starting and stop pumps.....	105
5.2.Unstable work pumps.....	108
5.3.Reasons of the reduction worker parameter pumps.....	110
5.4.Receipt and hydroabrasive wear pumps.....	115
Chapter 6. Three-dementional pumps.....	123

6.1.Types, device and principle of the action piston pumps.....	123
6.2.Main worker parameters piston pumps.....	127
6.3.Rotormye pumps.....	131
6.4.Impeller and diaphragm pumps.....	136
6.5.Water recirculating vacuum-pumps.....	137
Chapter 7. Dynamic inertialnasosi and pump of friction.....	141
7.1.Vortical, labyrinth and screw, pumps.....	141
7.2.Jet pumps.....	143
7.3.Airspace water lifts (airlift).....	145
7.4.Vibratory pumps.....	148
7.5.Band and string water lifts.....	149
7.6.Hydraulic ram.....	151
Partition two. PUMPING STATION.....	154
Chapter 8. Types and composition of the buildings pumping station.....	154
8.1.Main notions about pumping station and their buildings.....	154
8.2.The Irrigation pumping stations.....	158
8.3.Drainage pumping stations.....	164
8.4.Pumping stations of the systems of the water-supply and sewerages.....	165
8.5.Mobile pumping stations.....	172
Chapter 9. Hydromechanical, energy and accessory pumping station.....	174
9.1.The Notion about hydromechanical and energy equipment.....	174
9.2.Setting pressure and feeding pump units of the pumps stations water supply syste.....	175
9.3.Selection of the main pumps.....	179
9.4.Engines to the drive pumpsre.....	183
9.5.Transmission mechanical energy from engine to the pumps.....	187
9.6.Main hydromechanical equipment pump stations, drive water to the classing sewage- form.....	190
9.7.Main hydromechanical equipments realization pump stations.....	192
9.8.Main hydromechanical equipments pump stations agrocultural water-supply...	193
9.9.Equipments systems technical and economical pump stations.....	198
9.10.Mechanical equipments.....	206
9.11.Control-measuring instrument and means automatic.....	213
Chapter 10. Building pump stations.....	222
10.1.Kinds of the pump building stations.....	222
10.2.Design of the building and selection.....	230
10.3.Define main size of the building stations.....	241
10.4.Special kinds pump stations.....	248
Chapter 11 Pumping stations of the system water-supply and sewerages.....	255
11.1.Kinds water- supplying and demand to the bearer.....	255
11.2.Water-supplying building on the river and trunk.....	257
11.3.Water- supplying buildings.....	266
11.4.Water- supplying buildings on the channels.....	267
11.5.Fish protective mechanism.....	275
Chapter 12. Suck and pressure pipe-lines on the pump stations.....	278

12.1.Suck and under water pipe – lines.....	278
12.2.Pressure communication.....	280
12.3.Pipe-line fittings.....	284
12.4.Pressure pipelines.....	291
12.5.Test pressure pipe-lines.....	300
12.6.Hydraulic strike to the pressure pipe-line.....	300
Chapter 13. Waterlift building.....	306
13.1.Kinds and fixing water – lifting building.....	306
13.2.Water-lifts buildings with mecanical breech block.....	309
13.3.Water-lifts of kinds of sifon.....	312
13.4.Water-lifts overflowwall.....	320
Chapter 14.Explotation of pump stations and tecnic economic calculation.....	322
14.1.Main position rules technical explotation of pumps stations.....	322
14.2.Current and capital repair equipment.....	323
14.3.Organisation to explatate pumps stations.....	324
14.4.Questions examine in tecnic economic calculation.....	331
14.5.Gravity technic and economic significant.....	335
Literature.....	338

MAMAJONOV MAXMUDJON

NASOSLAR VA NASOS STANSIYALARI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2012

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M. Xolmuhamedov
Musahhih:	F.Ismoilova
Musavvir:	H.G‘ulomov
Kompyuter sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

Nasr.lits. AIN^{№149}, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi2012.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 22,75. Nashriyot bosma tabog‘i 22,0.
Tiraji 500. Buyurtma № 148.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-yu.**